

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

SADIBEKOVA B.D., XASANOVA SH.S., SULTANOVA A.B.

XITOIY XALQ RESPUBLIKASI IQTISODIYOTI

fanidan

DARSLIK

Toshkent - 2025

Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti B.D.Sadibekova, Sh,S.Xasanova,
A.B.Sultanova. Darslik, TDSHU,,-T., 2025.

UDK: 338 (510) (075)

ББК 65,9 (5Кит)

S18

Jahon iqtisodiyotining ikkinchi iqtisodiyoti va o‘z maqomiga ko‘ra rivojlanayotgan mamlakat hisoblangan Xitoy Xalq Respublikasi hozirgi davrda dunyoning eng yirik va eksport salohiyati yoqori bo‘lgan mamlakatiga aylandi. O‘zining iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiy salohiyati jihatidan kuchli hisoblangan dunyoning yetakchi mamlakatlari, xususan, AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari qatorida Xitoy ham iqtisodiy, ijtimoiy hamda ilmiy-texnologik taraqqiyot yo‘nalishlarida yuqori raqobatbardoshlik darajasiga erishdi. Buning asosiy sababi shundaki, bugungi kunda Xitoy xalqaro maydonda amalga oshirayotgan qat’iy va izchil iqtisodiy siyosati, xalqaro iqtisodiy aloqalardagi faol ishtiroki, barqaror iqtisodiy o‘sishi hamda ijtimoiy rivojlanishi orqali zamonaviy va o‘zini o‘zi ta‘minlay oladigan salohiyatga ega davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aynan, shu nuqtai nazardan, Xitoy o‘zining iqtisodiy rivojlanish modeli, undagi amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar jarayohlari, mamlakatni industriallashtirish va modernizatsiyalash konsepsiyalarini chuqur o‘rganib chiqish mazkur davrning dolzarb masalalariga aylanmoqda.

“Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti” fanidan tayyorlangan ushbu darslik XXRning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, uning davlat bo‘lib shakllanish va rivojlanish shart – sharoitlari, unga ta‘sir etgan omillari, mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlari hamda yaqin istiqboldagi ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotining muhim jihatlarini qamrab olgan.

Yoqoridagi fikrlarni e‘tiborga olgan holda, Xitoy iqtisodiyoti fani kesimida mamlakat iqtisodiyotining asosiy rivojlanish yo‘nalishlari va xususiyatlari mazkur fandan tayyorlangan darslik Jahon iqtisodiyoti va XIM, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti yo‘nalishida tahsil olayotgan 2-3-4-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan

Ma‘sul - Gulomova G.P.– O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi
muharrir: iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar: - Kamilova M.X. TDSHU iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
- Zakirova S.A. –JIDU “Xalqari iqtisodiyot”, kafedra dotsenti,
fanlari nomzodi

Mazkur darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining
2025-yil 23-dekabrda 334-UM-son buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etilgan.

©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,2025

ISBN 978-9910-8553-7-5

MUNDARIJA		
KIRISH		5
1-BOB	XITOIY XALQ RESPUBLIKASIGA UMUMIY TASNIF VA UNING MA‘MURIY-HUDUDIY TUZILISHI	
1.1.	Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti fanining maqsad va vazifalari	7
1.2.	Xitoy Xalq Respublikasiga umumiy tasnif va uning davlat chegaralari	11
1.3.	Xitoy Xalq Respublikasining zamonaviy ma‘muriy-hududiy birliklari	15
2-BOB	XITOIY IQTISODIY RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI	
2.1	Feodal «yopiq» Xitoy Afyun urushi davri, yarimfeodal, yarimkoloniyal va XXRsi tashkil etilishigacha bo‘lgan davr (1840-1949yy.)	22
2.2.	Ma‘muriy-buyruqbozlik va markazlashgan rejali iqtisodiyotni amalga oshirilishi(1949-1978yy.)	33
2.3.	Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy model: Xitoyning sotsialistik modernizatsiya bosqichlari (1979-2025 yy.)	40
3-BOB	XITOIYNING IQTISODIY HUDUDLARI	
3.1.	XXR sining iqtisodiy rayonlarga bo‘linishi, ularning tarkibi va joylashuvi	49
3.2.	Sharqiy, G‘arbiy va Markaziy iqtisodiy hududlarning iqtisodiy salohiyati hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari	59
4-BOB	XITOIYNING IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	
4.1.	Tabiiy-resurs salohiyati	71
4.2.	Mehnat resurslari va ularning joylashuvi	76
4.3	Mamlakatning ilmiy-texnik resurslari	80
5-BOB.	XITOIYNING DEMOGRAFIK RIVOJLANISH RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	
5.1.	Davlatning demografik siyosati, aholisini etnik tarkibi va tabiiy ko‘payishi	86
5.2.	Aholining bandlik strukturasi	93
5.3.	Aholi bandligi darajasini oshirish strategiyasi	101
6-BOB	XITOIYDA URBANIZATSIYA JARAYONI XUSUSIYATLARI VA AHOLI TARKIBIDAGI O‘ZGARISHLAR	
6.1.	Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish bosqichlari	106
6.2.	Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish xususiyatlari	117
6.3.	Urbanizatsiya jarayonining muammolari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	122
7-BOB	XXR AGRAR IQTISODIYOTI	
7.1.	XXRsi qishloq xo‘jaligi: tarkibiy tuzilishi, agrar siyosati va agrar islohotlari	136
7.2.	Xitoyda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishdagi yutuq va kamchiliklari	145
7.3.	Xitoy agrar sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlar va qishloq xo‘jaligidagi zamonaviy rivojlanish xususiyatlari	149

8-BOB	XXRSIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI	
8.1.	Sanoatning tarkibiy tuzilishi va rivojlanish bosqichlari	159
8.2.	Asosiy sanoat tarmoqlarini rivojlanish xususiyatlari	165
8.3.	Xitoy sanoatidagi ustuvor tarmoqlarning rivojlanishi	170
8.4.	Xitoy sanoatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	180
9-BOB	XIToyNING UCHINCHI SOHA IQTISODIYOTI (XIZMATLAR SOHASI)	
9.1.	Xizmatlar sohasi tarkibi, rivojlanish xususiyalari. Transport-logistika majmuasi	189
10-BOB	XXR PUL-KREDIT TIZIMI	
10.1.	Pul takliflari, valyuta tizimi va inflyatsiya	199
10.2.	Xitoy bank tizimi	202
10.3.	Xitoy fond bozori	204
11-BOB	XIToy DAVLAT MOLIYA TIZIMI	
11.1.	Konsolidatsiyalangan, markaziy va mahalliy byudjetlar	208
11.2.	Soliq tizimi	211
11.3.	Davlat harajatlari	214
12-BOB	XXR IJTIMOY SOHASINING RIVOJLANISHII YO‘NALISHLARI	
12.1.	Xitoy ta’lim tizimi	216
12.2.	Xitoy sog’liqni saqlash tizimi	218
12.3.	Xitoy ijtimoiy sug’urta tizimi	222
13-BOB:	XIToy IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING TASHQI OMILLARI	
13.1.	Xitoy migratsiya jarayonlarida	225
13.2.	Xitoyning xalqaro kapital harakati: chet el investitsiyalari va Xitoydan xorijga investitsiyalar	229
13.3.	Xitoy tovar va xizmatlarining global aylanishi: tashqi savdo siyosati, tarmoq va geografik tuzilma	231
14-BOB:	XIToyNING DUNYO MAMLAKATLARI BILAN IQTISODIY ALOQALARI VA MANFAATLARI	
14.1.	Xitoyning rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari: AQSh, ES, Yaponiya	238
14.2.	Xitoyning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy manfaatlari va O‘zbekistonning iqtisodiy hamkorligini rivojlanishi	251
Xulosa		259
Glossariy		263
Testlar		265
Adabiyotlar		269

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklar davomida Xitoy jahon iqtisodiyoti o‘shining muhim qismini ta‘minlab kelmoqda. Shular qatorida mamlakat jahondagi yuz berayotgan transmilliylashuv, globallashuv va G‘arb mamlakatlarning postindustrial rivojlanish jarayonlariga ham o‘zining sezilarli darajadagi hissasini qo‘shmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga javoban, unda proteksionizm kuchaydi, rivojlangan mamlakatlarda “reindustrializatsiya” va “reshoring” dasturlari ishga tushirildi, qo‘shimcha qiymat yaratish zanjirlarining mintaqaviylashuvi boshlandi. Ko‘pgina iqtisodchilar ta‘kidlaganidek, bugungi kunda jahon yoki milliy iqtisodiyotning biror muammosini “Xitoy omili” ta‘sirini hisobga olmasdan, echish yoki uni tadqiq etishning umuman iloji yo‘q.

Ma‘lumki, hozirgi davrda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) rasmiy tashkilotlar va mamlakatlar tasnifiga ko‘ra, hech bir rivojlangan iqtisodiyotlar qatoriga kirmaydi. Ammo, uning sanoat suvereniteti darajasi, milliy innovatsion tizimini rivojlantirishi, hukumatning deyarli cheksiz naqd pulsiz kredit emissiyasini amalga oshirish qobiliyati bo‘yicha Xitoy allaqachon barcha rivojlanayotgan davlatlardan sezilarli darajada farq qilmoqda. Bu holat Xitoy iqtisodiyotining zamonaviy “chegara”sidagi holatini belgilab bermoqda. Ko‘plab sohalarda Xitoy quvib yetuvchi imitatsion rivojlanish chegarasidan chiqib ketgan bo‘lsa-da, hali ham unda ilg‘or innovatsion rivojlanishga o‘ta olmayotgan tarmoqlar anchagina. Shunga qaramay, u raqamlashtirish, robotlashtirish, sun‘iy intellekt (keyingi o‘rinlarda – SI) va yuqori tezlikdagi mobil internetni joriy etishda yetakchi mamlakatlar qatoriga kirgan. Ammo, uning bandlik va ish o‘rinlari taklifi tuzilmasi, ta‘lim darajasi hamda zamonaviy xitoy jamiyatining ehtiyojlari hali ham bilimga asoslangan postindustrial jamiyat sari rivojlanish yo‘lda jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi tufayli global iqtisodiyot yanada inklyuziv bo‘lmoqda, unga yetib olish uchun G‘arb mamlakatlari eng kam rivojlangan mamlakatlarga yordam hajmini oshirishga majbur. Biroq, aslida XXRsi an‘anaviy “Markaz — Periferiya” modeli doirasidan tashqariga chiqadigan prinsipial yangi rivojlanish g‘oyasini taklif etgani yo‘q. Undan tashqari, Xitoy global iqtisodiyotda

o‘zining postindustrial o‘rnini qanday ko‘rayotgani bo‘yicha aniq tushuncha hozircha mavjud emas: G‘arb davlatlari bilan birgalikda uning yadrosi sifatida yoki muqobil, izolyatsiyalashgan kichik tizim markazi sifatida XXR gavdalanmoqda. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, Xitoy iqtisodiyotini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun ancha boy va talabchan milliy bozorlar zarur, biroq XXRni BRICS doirasida yoki global Janub mamlakatlari bilan bozorlarni birlashtirish uning ilg‘or, zamonaviy mahsulotga bo‘lgan innovatsion talab muammosini hal qilmaydi.

XXI asr boshida XXRning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘ziga xos boshqaruv modeliga asoslangan bo‘lib, unda turli iqtisodiy mexanizmlarning bir mamlakat doirasida parallel ravishda amal qilishi kuzatiladi. Ushbu holat ayrim hududlarda turli rivojlanish yo‘nalishlari mavjudligi sababli siyosiy xarakterdagi muammolarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Mazkur vaziyatni barqarorlashtirish va hududlar o‘rtasidagi tizimli tafovutlarni kamaytirish maqsadida davlat tomonidan uzoq muddatli strategik dasturlar ishlab chiqilib, ularning ijrosi ketma-ket bosqichlar asosida ta‘minlanmoqda.

Shuni alohida qayd etish joizki, so‘nggi qariyb yarim asr (1979-2005 yillar)mobaynida amalga oshirilgan keng ko‘lamli iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida Xitoyda tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlari hamda jahon xo‘jalik tizimi bilan integratsiyalashuv jarayoni izchil shakllandi. Davlat o‘zining ko‘p yillik taraqqiyot yo‘lida tarixan mavjud bo‘lgan iqtisodiy qoloqlik va tashqi qaramlik holatidan chiqib, bugungi kunda sanoat, qishloq xo‘jaligi va innovatsiyalar uyg‘un rivojlangan yirik iqtisodiy markazga aylandi. Hozirgi davrda Xitoy ko‘mir qazib olish, metallurgiya mahsulotlari, qurilish materiallari, kimyo sanoati mahsulotlari, elektr energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, transport vositalari, maishiy texnika va yuqori texnologiyali elektron komponentlar ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha global miqyosda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Xitoy hukumati hamda Xitoy Kommunistik partiyasi tomonidan ishlab chiqilgan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga muvofiq, mamlakat iqtisodiyoti 2020 yilga qadar bosqichma-bosqich yangilanish va modernizatsiya jarayonining

dastlabki bosqichini bosib o‘tdi va 2030-2050-yillar oralig‘ida to‘liq yangilash (modernizatsiyalash) ga erishish maqsad qilingan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60411800 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) hamda Jahon iqtisodiyoti va XIM yo‘nalishidagi bakalavr bosqichining barcha talabalari uchun mo‘ljallangan.

1-BOB. XITOIY XALQ RESPUBLIKASI IQTISODIYOTI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI, UNING UMUMIY TASNIFI HAMDA MA‘MURIV-HUDUDIY TUZILISHI

Darsning maqsadi: O‘rganilayongan mintaqa mamlakati (Xitoy Xalq Respublikasi) iqtisodiyotining umumiy rivojlanish ko‘rsatkichlari, uning geografik joylashuvi, tabiati, er osti foydali qazilmalari, ijtimoiy ahvoli, aholisi, iqtisodiy salohiyati va ekologik holati to‘g‘risidagi zaruriy ma‘lumotlarni o‘zlashtirishdan iborat.

Tayanch iboralar: globalizatsiya, integratsiya, mintaqa, makroiqtisodiyot, milliy hisoblar tizimi, differensiyatsiya, rivojlanayotgan mamlakatlar, yangi industrial mamlakatlar, yalpi ichki mahsulot.

1.1. Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti fanining maqsad va vazifalari

Bugungi kunda jadal taraqqiyot yo‘lidan borayotgan Xitoy Xalq Respublikasi o‘zining siyosiy boshqaruv tizimida sotsialistik tamoyillar saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, iqtisodiy faoliyatda bozor mexanizmlarini keng joriy etish yo‘lida izchil va faol choralarni amalga oshirmoqda.

XXI asrning dastlabki yillariga kelib XXRsi nafaqat Osiyo mintaqasidagi yirik davlatlardan biri sifatida shakllandi, balki rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishga erishdi. Hozirgi bosqichda Xitoy iqtisodiy, ijtimoiy hamda ilmiy-texnologik taraqqiyot yo‘nalishlarida AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Rossiya kabi global yetakchi kuchlar bilan teng raqobat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bunga mamlakatning xalqaro maydondagi faol siyosiy pozitsiyasi, tashqi aloqalardagi faolligi, barqaror iqtisodiy o‘sishi hamda jamiyat hayotining turli sohalarida shakllangan zamonaviy ichki salohiyati asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Natijada, Xitoyning global hamjamiyatdagi mavqei va ta'sir doirasi izchil ravishda kengayib bormoqda.

“Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti” fanining maqsadi talabalarga bozor iqtisodiyoti sharoitida Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy rivojlanish modelini tizimli ravishda o'rgatishdan iboratdir. Fan doirasida Xitoyda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda qo'llanilgan boshqaruv mexanizmlari, institutsional yondashuvlar hamda hududiy rivojlanish tajribasi iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan yoritiladi. Ushbu fan orqali talabalarda tanlangan ta'lim yo'nalishiga mos holda nazariy bilimlar, tahliliy ko'nikmalar va amaliy malakalarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

Fanning vazifalari talabalarga Xitoy Xalq Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilish, mamlakat iqtisodiyotida kechayotgan makroiqtisodiy jarayonlarning mazmuni va yo'nalishlarini chuqur anglatishdan iboratdir. Shuningdek, fan doirasida iqtisodiyot tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar, ularning shakllanish omillari, yuzaga kelish sabablari, natijalari hamda o'ziga xos jihatlari tizimli ravishda o'rganiladi.

“Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti” faniga oid mazkur o'quv qo'llanmada mamlakat davlat tizimining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etgan asosiy shart-sharoitlar hamda omillar keng yoritilgan. Unda Xitoy iqtisodiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning mazmuni va yo'nalishlari, milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalari, shuningdek, yaqin istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, davlatning iqtisodiy siyosatini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim masalalar ham mazkur qo'llanmaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

XX asr Xitoy uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy taraqqiyot yo'lida nihoyatda murakkab va sinovlarga boy davr bo'lib xizmat qildi. Uzoq davom etgan harbiy to'qnashuvlar mamlakat iqtisodiy salohiyatining pasayishiga olib kelgan asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilishidan avval amal qilgan feodal-byurokratik boshqaruv tizimi sharoitida iqtisodiy rivojlanish barqarorlikka erisha olmadi. Ichki qarama-qarshiliklar,

fuqarolar o'rtasidagi qurolli mojarolar hamda Yaponiya bosqiniga qarshi olib borilgan kurashlar milliy xo'jalik tizimining izdan chiqishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

1949 yil 1-oktyabrda Xitoy Xalq Respublikasi tuzilganligi rasman e'lon qilingan bo'lsa-da, ushbu davrda mamlakat iqtisodiyoti og'ir va rivojlanmagan holatda edi. Bunga, avvalo, mehnat resurslarining katta qismi harbiy harakatlarga jalb etilgani, jamiyat hayotida barqarorlik yetishmasligi, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimlarining tez-tez o'zgarib turishi kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, iqtisodiy faoliyatni tiklash va barqaror rivojlanishni ta'minlash jiddiy murakkabliklar bilan kechgan.

XX asr boshlarida Xitoy hududiy va siyosiy jihatdan yagona davlat sifatida shakllanmagan bo'lib, ushbu holat uzoq vaqt davomida saqlanib qoldi. Keyingi davrlarda mamlakat rivojlanishida o'ziga xos boshqaruv modeli shakllandi, unda turli iqtisodiy tizimlarning bir makon doirasida parallel amal qilishi kuzatilmoqda. Ayrim hududlarda sotsialistik boshqaruv tamoyillari, boshqa hududlarda esa bozor mexanizmlarining ustuvorligi siyosiy muvozanatga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tafovutlardan kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida markaziy hukumat tomonidan kompleks dasturlar ishlab chiqilib, ular izchil va bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirilmoqda.

So'nggi o'n yilliklar davomida amalga oshirilgan keng qamrovli iqtisodiy o'zgarishlar natijasida Xitoyda tashqi iqtisodiy aloqalar tizimi hamda jahon xo'jaligi bilan ochiq hamkorlik mexanizmlari bosqichma-bosqich shakllandi. Mamlakat o'z taraqqiyot yo'lida tarixan mavjud bo'lgan yarim feodal va yarim mustamlaka holatidan chiqib, bugungi kunda sanoati rivojlangan va global miqyosda yetakchi o'rinlarni egallagan davlatga aylandi. Hozirgi davrda Xitoy ko'mir sanoati, metallurgiya, qurilish materiallari ishlab chiqarish, kimyo mahsulotlari, elektr energiyasi, shuningdek, transport vositalari va keng turdagi maishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahon miqyosida yetakchi pozitsiyalarni saqlab kelmoqda.

Xitoy hukumati hamda Xitoy Kommunistik partiyasi tomonidan ishlab chiqilgan strategik rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq, mamlakat iqtisodiyotini qisqa va uzoq muddatli bosqichlar asosida yangilash rejalashtirilgan bo‘lib, unda 2021 yilga qadar qisman modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirish, 2049 yilga kelib esa iqtisodiy tizimni to‘liq modernizatsiyalash maqsad qilib qo‘yilgan.

Xitoy sanoatida erishilgan muhim yutuqlardan biri kimyo sanoatining jadal rivojlanishi hisoblanadi. Mazkur sohadagi taraqqiyot natijasida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida kimyoviy texnologiyalardan foydalanish kengaymoqda. Bu jarayon ekinlar hosildorligining oshishiga xizmat qilmoqda: hozirgi kunda guruch yetishtirishda o‘rtacha hosildorlik gektariga 60–63 sentnerni, makkajo‘xori bo‘yicha 50–52 sentnerni, bug‘doyda esa 37–41 sentnerni tashkil etmoqda. Mazkur ko‘rsatkichlar Xitoyning rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatda don ekinlari umumiy yetishtirish hajmi yiliga qariyb 500 million tonnaga yetib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2. Mamlakat sanoatining rivojlanishi aholi farovonligining oshishi va turmush sharoitlarining yaxshilanishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Ichki iste‘mol bozori keng turdagi maishiy mahsulotlar bilan yetarli darajada ta‘minlanmoqda, shuningdek, hududlarni to‘liq elektr energiyasi bilan qamrab olish jarayoni izchil davom etmoqda. Sanoat tomonidan iste‘mol tovarlarining barqaror va talabga mos hajmda ishlab chiqarilishi, ishchi kuchi daromadlarining hamda qishloq aholisi daromadlarining oshishi bilan uyg‘unlashib, mamlakatda narxlar barqarorligini saqlash va inflyatsion bosimning kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qildi.

3. Xitoy sanoatining muhim yutuqlaridan biri milliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jahon bozorlariga muvaffaqiyatli kirib borishi bilan izohlanadi. Hozirgi kunda Xitoyda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hamda qishloq xo‘jaligi tovarlari nafaqat rivojlanayotgan davlatlarda, balki Yaponiya, AQSh, Kanada va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozorlarida ham keng realizatsiya qilinmoqda. Tashqi savdo tarkibida sanoat

mahsulotlari eksportning asosiy qismini tashkil etib, importda ham yuqori ulushga ega bo‘lib qolmoqda. Eksport faoliyatidan olinayotgan valyuta tushumlari hisobidan eng zamonaviy texnika va ilg‘or texnologiyalar xarid qilinib, mamlakat xo‘jalik tizimining texnologik yangilanishi ta‘minlanmoqda. Shu bilan birga, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirishda xorijiy sarmoya va innovatsion tajribadan samarali foydalanish amaliyoti keng yo‘lga qo‘yilgan. 1979–2024 yillar oralig‘ida jalb etilgan tashqi moliyaviy resurslarning asosiy qismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etib, ular asosan ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan.

4. Strategik rivojlanish doirasida ishlab chiqarish asoslarini modernizatsiya qilish hamda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda 1995 yil yakunida o‘tkazilgan sanoat korxonalarining uchinchi umumiy inventarizatsiyasi natijalari shuni ko‘rsatdiki, hisobga olingan 3200 turdagi asosiy texnik vositalarning qariyb yarmi xorijdan keltirilgan uskunalarga to‘g‘ri kelgan. Bundan tashqari, Xitoy sanoat korxonalarida foydalanilayotgan texnik jihozlar xizmat muddati bo‘yicha ma‘lum toifalarga ajratilgan bo‘lib, ularning taqsimoti quyidagicha ifodalanadi:

Xitoy hukumati hamda Xitoy Kommunistik partiyasi tomonidan qabul qilingan uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, mamlakat iqtisodiyotini 2020 yilga qadar bosqichma-bosqich yangilash, 2050 yilga kelib esa to‘liq modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Mazkur jarayonlar, ularning mazmuni va amalga oshirish mexanizmlari “Xitoy iqtisodiyoti” fani doirasida batafsil tahlil qilinishi nazarda tutiladi.

- Bundan tashqari, Osiyo qit‘asida joylashgan Xitoy bilan geografik jihatdan yaqin bo‘lgan Janubiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalarining hozirgi davrdagi iqtisodiy rivojlanish holatini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda mazkur hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarga e‘tibor qaratish, ularning mavjud iqtisodiy imkoniyatlarini hamda rivojlanish jarayonida yuzaga kelayotgan turli iqtisodiy hodisalarni o‘rganish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, Shimoli-Sharqiy Osiyo mintaqasining iqtisodiy xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish

alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

- har bir mintaqaning o‘ziga xos iqtisodiy va institutsional xususiyatlarini tahlil qilish hamda ular o‘rtasidagi asosiy farqlovchi jihatlarni aniqlay olish.

- Shimoliy Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganib chiqish:

- ushbu mintaqadagi eng katta mamlakat – Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, undagi qo‘yilgan xatolar “katta sakrash” va “madaniy inqilob” konsepsiyalari, “ochiq eshiklar siyosati”, iqtisodiy islohotlar jarayonlarini o‘rganish:

- mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini rivojlanish xususiyatlarini tahlil etish:

- XXR ning XXI asrda rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish:

- XXRning tashqi iqtisodiy faoliyatini chuqur o‘rganish lozim.

Mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan muhim farqlanishlar orqali namoyon bo‘ladi. Xalqaro iqtisodiy tahlil amaliyotida esa davlatlarni tasniflashda yalpi milliy daromad yoki aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlariga asoslangan tipologiyalardan keng foydalaniladi.

1.2. Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) ga umumiy tasnif, uning davlat chegaralari

Xitoy (xit. «Chjungo» — 中国, ma’nosi «O‘rta davlat») Sharqiy Osiyoda joylashgan. Davlatning to‘liq rasmiy nomi — Xitoy Xalq Respublikasi (xit. Chjuxua Jenmin Gunxego 中华人民共和国), qisqartirilgan holda — XXR. Xitoy Xalq Respublikasi deb yuritiladi va u 1949 yil 1 oktyabrda tashkil topgan.

Xalqaro miqyosda qabul qilingan inglizcha nomi — *China* (ma’nosi «chinni»). Biroq ko‘pgina tillarda ushbu atamaning asosi (chin, sin, tsin) chinni buyumlaridan emas, balki Xitoy tarixidagi ilk imperiya — Ts’in sulolasi nomidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Rus tilidagi «Kitay» nomi esa Shimoliy Xitoy (Manchjuriya) hududida yashagan ko‘chmanchi qabilalar nomidan kelib chiqqan.

Xitoy Xalq Respublikasining boshqaruv shakli — sotsialistik respublika. Xitoy poytaxti — Pekin (xit. *Beytszin* — 北京, soʻzma-soʻz “Shimoliy poytaxt”; ingl. *Beijing*).

Xitoy — unitar davlat hisoblanib, biroq uning tarkibida iqtisod va mahalliy oʻzini oʻzi boshqarishda sezilarli vakolatlarga ega boʻlgan turli xil avtonom tuzilmalar mavjud. Masalan, 1997 va 1999 yillarda tashkil etilgan Xitoyning maxsus maʼmuriy hududlari — Gonkong (Syangan) va Makao (Aomynʼ) oʻz valyutasi, soliq va bojxona qonunchiligiga ega. Shu sababli, XXRning rasmiy statistikasiga Gonkong va Makao koʻrsatkichlari kiritilmaydi, ulardagi barcha iqtisodiy aloqalar boshqa xorijiy davlatlar bilan boʻlgani kabi tashqi iqtisodiy munosabatlar sifatida hisobga olinadi.

XXR aholisi 2022- yil oxirida 1419,8 million kishini tashkil etdi (Tayvan bilan — 1443,2 million kishi), bu dunyo aholisining 17,9%iga teng (1970-yillar oxirida — 22,7%, 2020 yilda — 18,6%). Materikdagi Xitoy aholisi (Tayvan, Gonkong va Makao bundan istisno) 2021 yilda eng yuqori koʻrsatkichga yetib, aholi soni -1412,6 million kishini tashkil etdi. Ammo, 2022 yilda oxirgi 40 yil ichida ilk bor pasayib, 1411,8 million kishini tashkil etdi. Xitoy tashkil topganidan beri, aholi soni boʻyicha dunyoda birinchi oʻrinda turgan, ammo uning oʻsish surʼatlari tez pasaydi va 2022 yilda aholi soni boʻyicha manfiy koʻrsatkich qayd etildi. 2023 yilda esa birinchi marotaba aholi soni boʻyicha dunyoda Hindiston Xitoyini ortda qoldirdi.

Rasmiy til — xitoy tili (xit. «Xanyuy» — 汉语, maʼnosi «xanlarning tili»). U shuningdek «putunxua» (xit. 普通话 — «umumiy nutq») yoki mandarin tili deb ham ataladi. Rasmiy til Pekin va Shimoliy Xitoyning boshqa dialektlariga asoslangan boʻlib, mamlakatning boshqa mintaqalaridagi yuzlab dialektlardan keskin farq qiladi. Hozirgi paytda Xitoy aholisining koʻpchiligi putunxuada soʻzlasha oladi. Holbuki, 1990-yillar oxirida hududlarda xitoy tilini asosan intellektual qatlam va yoshlarigina yaxshi bilar edi.

XXRsi Osiyo qit'asining sharq va Tinch okeanining g'arb qismida joylashgan. Xaritada mamlakatning ko'rinishi xo'rozni eslatib yuboradi va uning bosh qismi g'arbgacha dum qismi esa sharqni ko'rsatib turadi.

Eng g'arbiy nuqtasidan sharqigacha va shimoliy nuqtasidan janubiy nuqtasigacha bo'lgan masofa 5000 km dan oshadi. Xitoy hududining maydoni 9,608 mln km²ni tashkil etadi (Tayvan bilan birga — 9,644 mln km²). Bu ko'rsatkich bo'yicha Xitoy dunyoda Rossiya va Kanadadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Bundan tashqari, Xitoyning dengiz hududi 4,73 mln km²ni egallaydi, shimoldan janubga 5580 km, g'arbdan sharqqa esa 1702 km masofani o'z ichiga oladi.

Mamlakat janubi Haikoudan shimoli-sharqda joylashgan Harbingacha bo'lgan masofa samaliyotda 6 soatda, Changchundan Urumchigacha bo'lgan masofa esa 7 soatlik parvozda bosib o'tiladi.

Quyida XXRning jahon xaritasidagi ko'rinishi tasvirlangan.

1.2.1.-rasm

Xitoyning Jahon xaritasida joylashuvi



Manba: <https://www.google.com/maps/place/China>

2010–2020 yillar davomida xitoyliklar (xanlar) soni 60,38 mln kishiga yoki 4,93%ga ko'payib, 1286,31 mln kishiga yetdi va mamlakat aholisining 91,11 %ini tashkil etdi. Xitoyda rasmiy tan olingan qolgan 55 ta "milliy ozchilik" vakillari soni esa, 11,68 mln kishiga yoki 10,26 %ga ortib, 125,47 mln kishini tashkil etdi, bu esa umumiy aholining 8,89 %iga tengdir. Xanlardan keyingi davrda Xitoyning eng yirik o'nta millati ham mavjud. Shuningdek, Xitoyning kam sonli xalqlari orasida ruslar va ukrainlar ham qayd etilgan.

Xitoy janubi-sharqiy va sharqiy yo‘nalishlarda Tinch okeanining shimoli-g‘arbiy qirg‘oqlari bilan tutash bo‘lib, uning hududi Janubiy Xitoy dengizi, Sharqiy Xitoy dengizi hamda Sariq dengiz suvlari bilan chegaralangan. XXRning muhim dengiz bo‘g‘ozlari: Tayvan bo‘g‘ozi — Tayvan orolini materikdan ajratib turadi; Bohay bo‘g‘ozi — Shandun va Lyaonin yarimorollari orasida joylashgan bo‘lib, Bohay qo‘ltig‘i va Sariq dengizni tutashtiradi; Tsyunchjou bo‘g‘ozi — Xaynan orolini materikdan ajratadi.

Quyida XXRning qo‘shni mamlakatlar bilan chegaralari va uning uzunligi bo‘yicha ma‘lumot berib o‘tamiz.

1.2.1.-jadval

Qo‘shni davlatlar bilan quruqlik chegarasi uzunligi quyidagicha:

n/n	mamlakat	Chegara uzunligi
1.	Rossiya sharqiy qism g‘arbiy qism	4250 km 4195 km, 55 km);
2.	KXDR	1334 km;
3.	Mo‘g‘uliston	4677 km
4.	Qozog‘iston	1780 km
5.	Qirg‘iziston	1084 km
6.	Tojikiston	457 km
7.	Afg‘oniston	92 km
8.	Pokiston	599 km
9.	Hindiston chegaralar hech qachon rasman belgilab qo‘yilmagan, 4 qismdan iborat bo‘lib, umumiy uzunligi taxminan	2000 km
10.	Nepal	1414 km
11.	Butan — rasman belgilangan chegaralar yo‘q, tarixan taxminan	550 km
12.	Myanma	2210 km;
13.	Laos	505 km
14.	V‘etnam	1347 km

:Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, , Кнорус-Москва -2024, asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi

Xitoyning umumiy qirg‘oq chizig‘i - 32 000 kmdan ortiq bo‘lib, shundan: 14 000 km — ko‘plab orollarning qirg‘oq chizig‘i (7600 dan ortiq orollar, eng yiriklari — Tayvan va Xaynan); 18 000 km — materik qirg‘oq chizig‘i (KXDR bilan

chegaradagi Yaluy daryosi og‘zidan V‘etnam bilan chegaradagi Beylun daryosi og‘zigacha).

Xitoyning dengiz bo‘yidagi qo‘shnilari: V‘etnam, Filippin, Malayziya, Brunej, Yaponiya, KXDR va Koreya Respublikasi. Ko‘plab bahsli orollar mavjudligi sababli, dengiz chegaralari aniq belgilab qo‘yilmagan. Xitoy quruqlikda 14 ta davlat bilan chegaradosh:

- shimoli-sharqda — Rossiya va KXDR;
- shimolda — Mo‘g‘uliston;
- shimoli-g‘arbda — Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston;
- g‘arbda - Tojikiston, Afg‘oniston va Pokiston (Kashmirda nazorat chizig‘i bo‘yicha);
- janubi-g‘arbda — Hindiston, Nepal va Butan;
- janubda — Myanma, Laos va V‘etnam.

Chegaralarning 16-nuqtasida uch davlat chegaralari tutashadi (1-ilovada keltirilgan). Xitoyning umumiy quruqlik chegarasi uzunligi taxminan 22 300 km.ni tashkil etadi, bu ko‘rsatkich bo‘yicha KXDR dunyoda birinchi o‘rinda turadi.

1.3. Xitoy Xalq Respublikasining zamonaviy ma‘muriy-hududiy birliklari

Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasining 30–31-moddalariga muvofiq (e‘lon qilingan — 1982-yil 4-dekabr, amaldagi tahrir — 2018-yil 11-martdan) mamlakatda uch pog‘onali ma‘muriy-hududiy tuzilma belgilangan:

1. Provinsiya darajasi;
2. Okrug va uyezdlar;
3. Volostlar (qishloq darajasi).

Biroq, XXR hukumati rasmiy saytida to‘rt pog‘onali ma‘muriy-hududiy tuzilma keltiriladi, bunda okruglar uyezdlardan ajratilib, alohida, yanada yuqori daraja sifatida ko‘rsatiladi. Mamlakatda uch pog‘onali ma‘muriy hududiy bo‘linish qabul qilingan bolib, ular quyidagilardan iboratdir: provinsiya, uezd, volost.

Xitoy Xalq Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilmasi 23 ta provinsiya, 5 ta avtonom hudud, markaziy hokimiyatga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvchi 4 ta shahar hamda 2 ta maxsus ma'muriy rayonni o'z ichiga oladi. Provinsiyalar va avtonom hududlar tarkibida avtonom okruglar, uezdlar, avtonom uezdlar hamda shaharlar mavjud bo'lib, uezd darajasidagi birliklar o'z navbatida volostlar, milliy volostlar va posyolkalarni boshqaradi. Markazga bo'ysinuvchi yirik shaharlar esa tumanlar va uezdlarga ajratilgan. Avtonom okruglar ham ma'muriy jihatdan uezdlar, avtonom uezdlar va shaharlarga bo'linadi.

Avtonom hududlar, avtonom okruglar va avtonom uezdlar Xitoyda "milliy avtonomiya" tizimining asosiy shakllarini tashkil etadi. Mamlakatda jami beshta avtonom hudud mavjud bo'lib, Konstitutsiyaga muvofiq ushbu hududlarda davlat tili bilan bir qatorda mahalliy milliy tillar ham rasmiy maqomga ega hisoblanadi. chjuañ tili — Guanxsi-Chjuañ avtonom hududida, mo'g'ul tili — Ichki Mo'g'uliston AHda, uyg'ur tili — Shinjon-Uyg'ur AHda, tibet tili — Tibet AHda.

1.3.1.- rasm

Xitoyning ma'muriy – hududiy taqsimlanish xaritasi



Manba The CID Groupe 2015

Keyingi ma'muriy-hududiy taqsimlanishda XXRsining 23ta provinsiyalarini markazlari, aholisi soni, ularning maydonlari hajmi bo'yicha quyidagi jadval 1.3.1.orqali batafsil ko'rib o'tamiz

Jadval 1.3.1.

Xitoyning ma'muriy-hududiy bo'linishi (provinsiyalar)

No	Provinsiyalar va hududlar	Pinin	(xit.)	Ma'muriy. markaz	Pinin	aholisi (2020) k.	maydoni, km ²	Aholi zichligi, k./km ²
Provinsiyalar								
1	Anxoy	Anhui	安徽	Xefey	Hefei	61 027 510	140 455	423,63
2	Fuiqzyan	Fujian	福建	Fuchjou	Fuzhou	36 894 216	122 919	300,15
3	Gansu	Gansu	甘肃	Lanchjou	Lanzhou	25 575 254	459 233	55,69
4	Guandun	Guangdong	广东	Guanchjou	Guangzhou	126 012 510	178 341	584,86
5	Guychjou	Guizhou	贵州	Guyyan	Guiyang	38 562 468	174 976	198,58
6	Xaynan	Hainan	海南	Xaykou	Haikou	10 081 518	34 438	251,80
7	Xebey	Hebei	河北	Shiuzyachjua n	Shijiazhuang	74 854 202	187 240	383,75
8	Xeylunqzyan	Heilongjiang	黑龙江	Xarbin	Harbin	31 812 224	431 767	88,73
9	Xenan	Henan	河南	Chjenchjou	Zhengzhou	99 365 567	166 310	565,35
10	Xubey	Hubei	湖北	Uxan	Wuhan	59 537 740	185 673	308,27
11	Xunan	Hunan	湖南	Chansha	Changsha	66 683 519	211 231	310,96
12	Qzyansu	Jiangsu	江苏	Nankin	Nanjing	80 659 903	98 285	800,32
13	Qzyansi	Jiangxi	江西	Nanchan	Nanchang	47 567 475	171 041	260,57
14	Girin	Jilin	吉林	Chanchun	Changchun	24 462 297	191 038	143,75
15	Lyaonin	Liaoning	辽宁	Shenyan	Shenyang	46 746 323	147 451	296,68
16	Qinxay	Qinghai	青海	Sinin	Xining	6 026 722	720 459	7,81
17	Shansi	Shanxi	山西;	Tayyuan	Taiyuan	37 327 378	204 846	182,22
18	Shandun	Shandong	山东	Qzinan	Jinan	100 593 065	156 219	613,20
19	Shensi	Shaanxi	陕西;	Sian	Xi'an	35 712 111	149 708	238,55
20	Syichuan	Sichuan	四川	Chendu	Chengdu	80 418 200	491 146	163,74
21	Yunnan	Yunnan	云南	Kunmin	Kunming	48 666 239	388 610	118,28
22	Chjeuzyan	Zhejiang	浙江	Xanchjou	Hangzhou	54 426 891	106 078	513,08
23	Tayvan				Taybey	22 123 992	36 302	

manba: The CID Groupe 2021

Maydoni va aholisi jihatidan Xitoyning ko‘plab ma‘muriy-hududiy birliklari yirik davlatlar bilan tenglashadi Masalan, bir qator avtonom rayonlarning maydoni 1 million km² dan ortiq: - Sinzyan-Uyg‘ur avtonom rayoni — 1,66 mln km²

- Tibet — 1,23 mln km²;
- Ichki Mo‘g‘uliston — 1,18 mln km².

Eng yirik ma‘muriy-hududiy birliklarning aholisi esa 100 milliondan ortiq:

- Guandun — 126,2 mln kishi,
- Shandun — 101,7 mln kishi,
- Xenan — 99,4 mln kishi.

Xitoyda 685 ta turli maqomdagi shaharlar mavjud:

- 4ta markaz bo‘ysunuvidagi shahar (MBSH) provinsiya maqomiga ega - Pekin, Tyantszin, Chunsin va Shanxay;

- 293ta okrug darajasidagi shahar, jumladan, 15ta eng muhim shaharlar yanada yuqori - “yarim-provinsial” darajaga (xit. 副省级市) ega: Guanchjou, Shenchjen, Uxan, Xarbin, Shenyang, Chendu, Nankin, Sian, Chanchun, Tszinan, Xanxjou, Dalyan, Tszindao, Syamen, Ninbo;

- 388 ta uyezd darajasidagi shahar.

2020-yil holatiga ko‘ra, 4ta MBSH va 293 okrug darajasidagi shaharlar aholisi quyidagicha taqsimlangan:

Jadval 1.3.2.

XXRsidagi shaharlarning taqsimlanishi va soni

n/n	Yirik shaharlar va oqrug darajasidagi shaharlar	Shaharlar soni
1.	Markazga bo'ysunuvchi shaharlar	4ta: Pekin
2.	Super megapolislar, aholisi 10 mln.k.dan ortiq (超大城市)	7ta
3.	2-4 mln. aholisi mavjud shaharlar soni	46ta
4.	1-2 mln. aholisi mavjud shaharlar soni	96ta
5.	500 ming k. – 1 mln aholisi mavjud shaharlar soni	86ta
6.	200 ming k.– 500 ming aholisi mavjud shaharlar soni	39ta
7,	200 ming k.dan kam aholisi mavjud shaharlar soni	8ta

Manba: The CID Groupe 2015.

Keyingi taqsimlanish XXRning markazga bo'ysunuvchi 4 ta shaharlariga, 2 ta alohida ma'muriy rayonlariga va 5 ta avtanom rayonlariga tegishli bo'lib, ularni biz quyidagi jadval 1.3.2.- orqali ko'rishimiz mumkin.

Dunyoning boshqa rivojlanayotgan mamlakatlaridan farqli o'laroq, Xitoyda "shahar" har qanday darajada, avvalo ma'muriy-hududiy bo'linmaning yirik elementi bo'lib, u urbanizatsiyalashgan hudud sinonimi emas. U o'z tarkibida qishloqlar va qishloq xo'jaligi yerlarini ham qamrab oladi. Masalan, Chunsin shahrining maydoni 82,4 ming km² bo'lib, bu boshqa mamlakatlarning ko'pgina viloyatlaridan 2–3 baravar kattadir.

Jadval 1.3.2.

Xitoyning markazga bo'ysunuvchi shaharlari

№	Nomlari	Markazi	Maydoni Ming.km	Aholisi Mln.k.
1	sh. Pekin	Pekin	16,8	16,44
2	sh. Tyanszin	Tyanszin	11,3	12,48
	sh. Shanxay	Shanxay	6,2	29,78
	sh. Chunsin	Chunsin	82	33,06
XXRning alohida ma'muriy rayonlari				
1.	Syangan alohida ma'muriy r.ni (AMR)	Syangan	1,095	7,02
2.	Aomen (AMR)	Aomen	23,5	0,503
Xitoyning avtonom rayonlari				
1.	Ichki Mongoliya avtonom rayon	Xux-Xoto	1183	23,07
2.	Guansi-Chjuanavt.r/ni	Nainin	236,3	45,9
3.	Tibet avt.r.ni	Lxasa	1220	2,44
4.	Ninsyau Xuey avt. R.ni	Inchuan	66,4	5,2
5.	Sinzsyau-Uygur avt.r.ni	Urumchi	1600	17,6

manba: The CID Groupe 2021.

An'anaviy tarzda, jumladan statistik yilliklarda, ob-havo prognozlarida va boshqa manbalarda Xitoyning ma'muriy-hududiy birliklari (MHB) qat'iy belgilangan ketma-ketlikda, geografik prinsip asosida shakllantirilgan guruhlar bo'yicha keltiriladi. 6 ta iqtisodiy rayon ajratib ko'rsatiladi:

- Shimol (Pekin, Tyantszin, Xebey, Shansi, Ichki Mo'g'uliston);
- Shimoliy-Sharq (Lyaonin, Girin, Xeylunshyan);
- Sharq (Shanxay, Tsyansu, Chjetszyan, Anxoy, Futszyan, Tsyansi, Shandun);
- Markaziy-Janubiy Xitoy (Xenan, Xubey, Xunan, Guandun, Guanxi, Xaynan);

- Janubi-G'arb (Chunsin, Sychuan, Guychjou, Yunnan, Tibet);
- Shimoli-G'arb (Shensi, Gansu, Tsinxay, Ninsya, Sinzyan).

Shuni ta'kidlash joizki, xitoy manbalari bilan ishlashda har doim muayyan rayon nomi ostida aynan qaysi hudud nazarda tutilayotganini aniqlab olish lozim. Masalan, islohotlar jarayonida iqtisodiy rayonlashtirishning boshqa bir usuli keng tarqaldi, bunda to'rt makroregion ajratilgan: Sharq, Markaz, G'arb va Shimoliy-Sharq. Masalan, Sharqiy makroregion an'anaviy Shimol, Sharq va Markaziy-Janubiy Xitoy rayonlarining ayrim MHBlarini o'z ichiga oladi.

Mavzuli tadqiqotlarda boshqa tizimlardan ham foydalanilishi mumkin. Masalan, Sharqiy sanoat makroregioni tarkibiga an'anaviy Shimoliy-Sharq rayoniga kiruvchi Lyaonin provinsiyasi ham qo'shiladi.

Xitoy o'z hududlarini hammasiga baravar munosabatda bo'layotgani yo'q, lekin, shunday bo'lsa ham, mintaqalar, xususan, g'arbiy va shimoliy zonalarga joylashgan hududlar mamlakat iqtisodiyotiga o'z ichki investitsiyalarini va kapital jamg'armasi orqali yordam berishga intilmoqda.

Hozirgi davrda, Xitoyning asosiy xo'jalik faoliyati uning mintaqalarida amalga oshirilmoqda. Ularga iqtisodiy muammolarni o'zlari hal etish, mintaqalararo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni o'rnatish huquqlari berilgandir. Har bir mintaqaga o'z tabiiy resurslariga ega bo'lib, ular joylashuvi bo'yicha, o'z xususiyatlariga ham egadirlar. Shu bilan birga, ularning milliy va tarixiy belgilari; o'z xo'jalik tarkiblari; iqtisodiy rivojlanish darajalari va xalqaro mehnat taqsimotida o'z ixtisosligi va o'rni mavjuddir.

Shunday qilib, yoqorida ta'kidlaganimizdek, har bir mintaqaga jahon xo'jalik tizimida muayyan o'ringa ega bo'lib, bir vaqtning o'zida boshqa mintaqalar bilan bir butun iqtisodiy birlikni tashkil etadi. Shuning uchun mamlakat haqidagi bilimlar uning mintaqalari to'g'risidagi chuqur va xar taraflama bilimlaridan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida mintaqalar to'g'risidagi ilmiy bilimlar va mintaqaviy iqtisodiyotni o'zlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada ayniqsa, iqtisodiyot o'zgarishlarini ilmiy tomondan ta'minlashda, iqtisodiy bo'shliqni tashkil etishda, mintaqalararo aloqalarni rasionallashtirishda, mintaqaviy bozorlarni

shakllantirishda mintaqaviy iqtisodiyotning roli muhimdir. Mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibi ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosat va strategiyasini ratsionol holda ishlab chiqish uchun yordam beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Xitoy Xalq Respublikasi geografik jihatdan qaysi qit'ada joylashgan?
2. Xitoyning quruqlikdagi qo'shni davlatlari qaysilar hisoblanadi?
3. Xitoy davlatining tarixiy-iqtisodiy taraqqiyoti nechta asosiy bosqichni qamrab oladi?
4. "Katta sakrash" siyosatining asosiy maqsadi va mazmuni nimadan iborat bo'lgan?
5. "Madaniy inqilob" jarayoni mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga qanday oqibatlar keltirib chiqargan?
6. 1978 yilda Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining XI chaqiriq uchinchi plenumi oldiga qanday asosiy vazifalar qo'yilgan?
7. Xitoyning markazga bo'sunuvchi shaharlari maqomi nima uchun berilgan?
8. XXR Avtonom rayonlari haqida nimalarni bilasiz?

Mustaqil ish vazifalari

1. XXR bilan chegaradosh bo'lgan davlatlar va chegara uzunliklari haqida ma'lumot to'plab Prezy va SI dan foqdalangan holda taqdimot tayyorlash.

2. "Gomindan" hukumatiga umumiy tasnif bering va. XKPning 1949-yilgacha mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan siyosatiga tasnif bering.

Adabiyotlar:

1. Globalashuv sharoitida Xitoy iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlari. Monografiya, B. Sadibekova – T., 2020, - 291 b.

2. Xitoy iqtisodiyoti, B. Sadibekova, O'quv qo'llanma, T., 2018, -298 b.

3. Экономика современного Китая. У.Ли., Жун Вэньли, Межконтинентальное издательство Китая, 2015, С.293

4. Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024. С.307.

5. Экономика стран Юго-Восточной Азии: учебник / под ред. В.М. Мазырина. — М.: АНОИИЦ«Наука», 2020. — 424 с.: илл. — (Высшее образование).

2-BOB: XITOIY IQTISODIY RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

Darsning maqsadi: Xitoyning iqtisodiy rivojlanishining asosiy bosqichlari: uning opium urushigacha, ya'ni uning davlat bo'lib shakllanishidan, to hozirgi zamonaviy rivojlanish bosqichlarigacha bo'lgan davrlarni chuqur o'rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: Konfutsiy ta'limoti, an'anaviy feodal tizim, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining sotsiyalistik tizim, sotsialistik bozor iqtisodiyoti, kuchli markazlashgan davlat, soliq to'lovchilar, mustaqil dehqon xo'jaliklari, Tang sulolasi Sun sulolasi

2.1. Xitoyning feodal «yopiq», yarimfeodal, yarimkolonial va Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tashkil etilishigacha bo'lgan davri (1840-1949 yy.)

Xitoyda kamida 2–3 ming yil davomida feodal iqtisodiy tizim mavjud bo'lgan. Iqlim sharoitlari, Konfutsiy ta'limoti, jamoaviylikka moyillik, davlat xizmatchilari uchun imtihon tizimi va boshqa omillar tufayli bu tizim Yevropadagidan samaraliroq bo'lgan. XVI asrgacha Xitoy dunyoning iqtisodiy yetakchisi bo'lib, jahon YIM (yalpi ichki mahsulot)ning uchdan bir qismini ishlab chiqargan. Aholi jon boshiga daromad, umr ko'rish davomiyligi, mehnat unumdorligi va texnologiyalar darajasi bo'yicha ham boshqa mamlakatlardan kam bo'lmagan. Biroq bunday samaradorlikning salbiy tomoni an'anaviy turmush tarzini o'zgartirish uchun kuchli rag'batlarning yetishmasligida edi. Natijada qisqa davr ichida, XIX asrga kelib, G'arb mamlakatlari Xitoyni ortda qoldirdi va bugungi kungacha Xitoy oldida ilg'or davlatlar bilan farqni qisqartirish vazifasi turibdi.

Odatda sinologlar Xitoy iqtisodiy tarixida to'rtta yirik davrni ajratadilar:

- 1840-yillargacha davom etgan an'anaviy feodal tizim;
- Giyohvandlik urushlaridan boshlab XXR tuzilishigacha davom etgan yarim feodal, yarim mustamlaka davri;

-1949–1978-yillarda ma'muriy-buyruqbozlik tizimining shakllanishi;

-1978-yildan hozirgi kungacha davom etayotgan xitoycha xususiyatlarga ega sotsialistik bozor iqtisodiyoti davri.

Xitoy rivojlangan feodalizm bosqichiga VII–VIII asrlarda, Tang imperiyasi davrida kirgan, ya'ni Yevropaga qaraganda ancha erta. 754-yildagi aholi ro'yxatiga ko'ra, mamlakatda 9,6 million xo'jalik va 52,9 million soliq to'lovchi mavjud bo'lgan. Kuchli markazlashgan davlat yerga egalik qilgan, turli soliqlar, bojlar va yig'implarni dehqonlardan, tuz va choy savdogarlaridan, tog'-kon ustalaridan (kumush, mis, temir, qalay qazib oluvchilardan) yig'ib olgan. Transport, ichki va tashqi savdo rivojlangan, shaharlar tez o'sib, aholisi yuz minglab kishilarga yetgan, Pekin esa uch million aholiga ega bo'lgan.

Shu davrlarda Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyoning bir qancha mamlakatlarida davlatning zaiflashuvi va yirik feodallarning kuchayishi jarayoni tezlashdi. Natijada Osiyo mamlakatlari Yevropa mustamlakachiligiga qarshi turishda ojiz bo'lib qoldi. Dastlab barcha yer davlatga qarashli bo'lgan va uni yuqori tabaqali feodallarga xizmatlari evaziga vaqtincha «mansabiy» yoki «unvonli» tarzda taqdim etilgan. Ammo feodallar mahalliy amaldorlarni pora bilan qo'lga olib, ko'plab dehqon yerlari ustidan noqonuniy egalik qila boshladilar. Yeridan ayrilgan dehqonlar o'z yerlarini endi feodallarga qarashli qilib ishlashga majbur bo'ldilar. Asosiy soliq to'lovchilar mustaqil dehqon xo'jaliklari bo'lgani uchun ularning sonining keskin kamayishi (taxminan 5 baravar) davlatning soliq bazasini qisqartirdi.

VIII asr oxiriga kelib, hukmdorlar feodallarga shaxsiy qo'shin saqlashga ruxsat berishga majbur bo'ldilar. 780-yilda qabul qilingan qonun bilan feodallar yeriga ham soliq joriy qilinib, davlat ularning yerga bo'lgan huquqini rasman tan oldi. Davlat daromadlarining kamayishini qoplash uchun tuz, choy va aroqqa davlat monopoliya tizimi joriy qilindi. Ayniqsa, tuz savdosidan tushgan daromad davlat byudjetining yarmigacha bo'lgan qismini tashkil qilgan. Dehqonlarning bir qismi ozgina yerlarini saqlab qolgan bo'lsada, ular feodallarning xo'jalik asboblari, ishchi hayvonlari va urug'laridan foydalanishga majbur bo'lib, hosilining yarmigacha bo'lgan qismini ular foydasiga berar edilar. Natijada mulkiy tafovut kuchaydi,

shaharlar tez rivojlandi, hunarmandchilik va savdo krediti, qarz va veksellar tizimi paydo bo'ldi. Bu esa yer taqsimoti tizimining yemirilishiga va natural xo'jalikning tanazzuliga olib keldi.

907-yilda Tang sulolasi qulashi davrida ham Xitoyda iqtisodiy markazlashuv va siyosiy birlik Yevropaga qaraganda kuchliroq edi. Buning sababi – sug'orish inshootlari, to'g'onlar, kanallar kabi yirik jamoaviy ishlarning mavjudligi edi. Sun sulolasi davrida va undan keyin ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar feodal mulkdorlar soni va ta'sirini ortishida davom etdi. XI-asr oxiriga kelib, soliqlar faqat pomeshchiklarning 30%dan undirilar edi. Dehqonlar esa, ikki toifaga bo'lindi. "Xo'jalik hovlilari" o'z yeriga va ishlab chiqarish qurollariga ega bo'lib, davlatga ipak yoki pul shaklida ishlab chiqargan mahsulotining 3–5%i miqdorida soliq to'lashlari, shuningdek, davlat foydasiga mehnat majburiyatini bajarishlari kerak edi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishda yetakchi rol davlatga tegishli bo'lib, u konlar, ustaxonalar, eritish korxonalarini ochib, bu yerda o'nlab va yuzlab yollanma ishchilarni ishlatgan. Ishchilar maoshni qisman pul, qisman mahsulot ko'rinishida olardilar. Mamlakarda shu davrda asosan, temir va kumush qazib olish rivojlandi. Temir qurol-yarog', qishloq xo'jaligi asboblari ishlab chiqarishda, temir tangalar zarb etishda ishlatildi. Kumush tashqi savdo hisob-kitoblarida va zargarlik buyumlari tayyorlashda qo'llanildi. Shuningdek, ipak matolar, keramika, vino ishlab chiqarish, kema qurilishi uchun ustaxonalar paydo bo'ldi. Boshqa sohalar asosan hunarmandchilik shaklida rivojlandi.

1700-yilga kelib, Xitoyda voyaga yetgan aholining 10%dan kamrog'i yollanma ishchilar bo'lib, Angliya va Gollandiyada bu ko'rsatkich qarayib 50% edi. Yanszi daryosi deltasi hududida aksariyat ijarachilar yerni umrbod ishlatish huquqiga ega edilar va ularning sof daromadi oddiy ishchilarnikidan ancha yuqori bo'lgan. Yirik yer egalari yollanma mehnatdan foydalana boshladilar, natura shaklidagi renta pul rentasi bilan almashtirildi.

XVI asr oxiridan boshlab ilk kapitalistik kurtaklar ham paydo bo'ldi: xususiy ipakchilik, paxta to'qimachiligi, chinni, temirsozlik manufakturalari tashkil topdi.

1628–1645-yillarda dehqonlarning qo‘zg‘olonlari Min sulolasining ag‘darilishiga olib keldi. Ammo bu qo‘zg‘olonlar manjur xonlari bilan ittifoq tuzgan xitoy feodallari yordamida bostirildi. Natijada manjur qo‘shinlari Xitoyni bosib olib, Qing sulolasini hokimiyatga olib keldi. Yirik yer egalari o‘z mulklarini saqlab qolishdi, hatto ularning bir qismi Qing davlat apparatida mansab oldi. Qing sulolasining dastlabki 75 yili davomida, Min davridan qolgan qo‘zg‘olonlar xotirasidan saboq olib, dehqonlar soliq va majburiyatlardan vaqtincha ozod qilindi. Natijada iqtisodiyot rivojlandi, aholining soni ortdi. Ammo tez orada elita yana dehqonlarni ekspluatatsiya qilishni tikladi. Shu bois, manjur istilosi Xitoyda feodal tartiblarning mustahkamlanishiga olib keldi. Yerlar davlat va xususiy mulkka bo‘lindi. Davlat mulkiga o‘rmonlar, tog‘lar, yaylovlar, imperator uyi va manjur aristokratiyasining yer-mulklari, “sakkiz bayroq” qo‘shinlari qo‘mondonlarining yer-mulklari, harbiy posyolka yerlari, ibodatxonalar, monastir va maktab yerlari kiritildi.

Xitoydagi ishlov beriladigan yerlarning katta qismi xususiy mulk bo‘lib, feodallar, amaldorlar, savdogarlar, sudxo‘rlar va dehqonlarga qarashli edi. Biroq dehqonlarning ulushi tobora qisqarib bordi. Shu sababli, manjur istilosi Xitoyda yerning davlat monopoliyasini yaratmadi, markazlashgan kuchli davlatning iqtisodiy asoslari yo‘q edi. Shunga qaramay, Qing sulolasining dastlabki ikki asrida davlat iqtisodiyotni faol tartibga solishda qatnashdi: kambag‘allarga yangi yerlarni o‘zlashtirish uchun yordam berdi, irrigatsiya, yo‘l qurilishi, ocharchilik davrida aholiga don yetkazib berishni moliyalashtirdi. Don narxlari, jumladan mavsumiy o‘zgarishlar ham davlat tomonidan tartibga solinar edi. Savdogarlarga favqulodda vaziyatlarda soliqlardan vaqtincha ozod bo‘lish sharti bilan tovarlarni ocharchilik hududlariga olib borish ko‘rsatmalari berilar edi.

Davlat yerlarida dehqonlar dastlab bosh va yer solig‘i to‘lashgan, 1716-yildan boshlab esa ular yagona pul solig‘iga (kumush yoki misda) aylantirildi va majburiy mehnat ham saqlanib qoldi. Dehqon xo‘jaliklari hunarmandchilik bilan ham shug‘ullangan. mato, uy-ro‘zg‘or buyumlariga bo‘lgan ehtiyojini asosan mustaqil qondirardi. Shaharlarda hunarmandlar merosiy yo‘l bilan avloddan-avlodga o‘tib kelgan kasblar asosida ustaxonalar ochib, sexlarga birlashar edilar.

Ko‘p yillar davomida inglizlar Xitoydan ipak, choy va boshqa mahsulotlarni katta miqdorda sotib olar, lekin Xitoyga juda kam mahsulot olib kirardilar. Shu sababli, ular tovarlarni asosan kumush bilan to‘lashga majbur bo‘lardilar. Angliya Bengalni bosib olgach, bu yerning opium yetishtiruvchi hududlari ustidan hukmronlik qildi va Ost-Indiya kompaniyasiga opium savdosida monopoliya huquqi berdi. Shu orqali kompaniya Xitoyga opium olib kira boshladi. Bu nafaqat Xitoydan kumush oqib chiqishiga sabab bo‘ldi, balki Qing hukumatining moliyaviy ahvolini ham keskin yomonlashtirdi.

1800–1838 yillar oralig‘ida Xitoyga olib kirilayotgan opium hajmi 20 baravar oshdi — 2 mingdan 40 ming yashikka. Opium chekishi, insonni asta-sekin xotira, aql va jismoniy kuchdan mahrum qilib, keng ko‘lamda tarqaldi. Faqatgina yuqori amaldorlarning kichik bir guruhi, jumladan Lin Tszezuy, opium savdosini va chekishini butunlay taqiqlash tarafdori edi. 1839 yil bahorida Lin Tszezuy Guandun viloyatiga maxsus vakil etib tayinlandi. Natijada ingliz savdogarlari 20 mingdan ortiq yashik kontrabanda opiumni Xitoy hukumatiga topshirishga majbur bo‘ldilar.

Angliya bilan Xitoy o‘rtasidagi urush va uning sabablariga kelsak, Angliya Guandundagi voqealarni Xitoyga qarshi urush boshlash uchun bahona sifatida ishlatdi. 1839 yil noyabr oyida ingliz harbiy kemalari xitoy jangovar kemalariga hujum qildi. 1842 yil iyulida esa Xitoy hukumati kapitalistik Angliyaga qarshi tura olmay taslim bo‘ldi. Xitoy feodal hukmdorlari butun mamlakat miqyosida yagona mudofaa tashkil eta olmadilar: har bir shaharda kichik garnizonlar alohida kurash olib bordilar. Xitoy feodal elitasining bir qator xatolari mavjud bo‘lib, boshqa mamlakatlardagi texnologik va tashkiliy rivojlanish darajasidan bexabar bo‘lgan Xitoy hukmdorlari o‘z davlatini “olam markazi” deb hisoblab, atrofdagi xalqlarni “vahshiy” lar sifatida kamsitdilar va chet elga mensimay qaradilar.

Bundan tashqari, ijtimoiy ierarxiyada eng yuqori o‘rinlarni amaldorlar egallagan bo‘lsa, savdo va tadbirkorlik deyarli sharmandali mashg‘ulot hisoblangan. Yevropada esa savdogar va tadbirkorlar hurmat qilinardi, hatto davlat apparati bilan qo‘shilib ketgan edi. Bu natijalar “qishloq xo‘jaligi fundamentalizmi” nazariyasini inkor qiladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, sanoatlashtirishga tayyorlik faqat qishloq

xo‘jaligining samaradorligidan kelib chiqadi, dehqon mehnatini va kapitalni bo‘shatib, oziq-ovqat narxlarini past ushlab turadi.

Ilm-fan va ixtirolarning keskin o‘sishi muhim omil bo‘lsa-da, rivojlanishning yagona sababi emas. Buning uchun turtki kerak edi — masalan, mavjud xo‘jalik modelining to‘xtab qolishi yoki yerlarning yetishmasligi. Angliyada yangi texnologiyalar paydo bo‘lishiga asosiy sabab juda yuqori ish haqi va nihoyatda arzon yoqilg‘i (ko‘mir)ning uyg‘unlashuvi bo‘ldi.

Xitoy va Angliya o‘rtasidagi resurslar farqi Xitoyning janubida o‘sha davrda ko‘mirning nisbiy bahosi (ish haqi va oziq-ovqat narxlari bilan solishtirganda) Londondagidan 20 marta yuqoriligida yaqqol ko‘rinar edi. Yanszi deltasi esa, ko‘mir konlaridan uzoqda joylashgani uchun uni iqtisodiy jihatdan oqilona tashish imkoni bo‘lmagan. Ko‘mir ko‘p joyda mavjud edi, ammo bug‘ mashinalari hamma yerda emas, aynan Angliyada paydo bo‘lgan.

1815 yilga kelib, Angliya qazib olgan ko‘mir energiya jihatidan butun mamlakatning barcha ekin va yaylov maydonlarini o‘tin sifatida kesishga teng edi. Energiya iste‘moli 15 baravar oshdi. Mazkur davrda katta geografik kashfiyotlar va kapital to‘planishi yuz berdi. Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng transatlantik savdo boshlandi. Amerikadan Yevropaga yer talab qiladigan mahsulotlar oqimi keldi. Shimoliy Amerikadan kelgan paxta Angliyada ulkan yer maydonlarini tejash imkonini berdi.

Yevropa davlatlari ilm-fan bilan birga ortiqcha kuch tuzilmalarini — katta armiya va flotni ham moliyalashtira oldilar. Sanoat inqilobining yutuqlarining aksariyati qurol ishlab chiqarishni takomillashtirishga sarflandi. Yo‘llanma ishchilarning katta qismi armiyaga jalb etildi. Savdo kompaniyalari shtatlarining yarmidan ko‘pini askarlar tashkil qilar, ular yangi hududlarni bosib olishda asosiy kuch bo‘lib xizmat qilardilar. atijada, G‘arb davlatlari bilan tuzilgan “Nankin shartnomasi” Xitoyning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligiga jiddiy putur yetkazib, mamlakatning yarim mustamlaka va yarim feodal holatga tushishiga olib keldi. 1840 yilda boshlangan afyun urushi esa Xitoy tarixida muhim burilish davri sifatida namoyon bo‘ldi. Aynan shu davrlarda, ya’ni XVII–XVIII asrlarda Yevropaning

yetakchi davlatlari savdo manfaatlarini kengaytirish maqsadida yangi hududlarni egallash va tashqi bozorlarga kirib borishga intila boshlagan edilar. 1842-yil 29-avgustda ingliz harbiy kemasida “Tinchlik, do‘stlik, savdo va tovon to‘lash to‘g‘risida”gi **Nankin shartnomasi** imzolandi. Unga ko‘ra, Xitoy ingliz savdosi uchun besh portni — Syamyn, Fuchjou, Ninbo, Shanxay va Guanchjou shaharlarini ochdi hamda **Syangan oroli (Gonkong)** Buyuk Britaniya qirolichasiga topshirildi. Ingliz tovarlariga boj stavkasi 5 foizdan oshmasligi belgilandi. Xitoy hukumati o‘sha davrda Angliyaga katta miqdorda tovon to‘lashi kerak edi — 21 million yuan, shundan: 6 millioni — yo‘q qilingan opium uchun tovon; 3 millioni — ingliz firmalarining zararini qoplash; 12 millioni — urush xarajatlarini qoplash uchun ajratilgan edi. 1843-yilda Angliya Xitoyni qo‘shimcha shartnoma imzolashga majbur qildi. Shartnoma “eng qulaylik prinsipi”ni ham o‘rnatdi: ya‘ni Xitoy bir davlatga bergan imtiyoz boshqa davlatlarga, xususan Angliyaga ham avtomatik tarzda tatbiq etilishi kerak edi.

1844-yilda AQSh hukumati ham tahdid yo‘li bilan shunday bitim tuzdi. O‘sha yili Fransiya bilan ham o‘xshash shartnoma imzolandi. Keyinchalik Belgiya, Shvetsiya va Norvegiya ham Xitoy bilan shunday tengsiz shartnomalar tuzdilar. 1842–1845-yillar oralig‘ida Angliya Xitoyga olib kirgan junli va paxtali matolar hajmi qariyb 3,5 barobar oshdi. Natijada mahalliy ishlab chiqarish qisqardi, portlar atrofidagi hunarmandlar qashshoqlashdi. 1840–1850-yillar oralig‘ida Xitoyga olib kirilgan opium miqdori 2,5 barobar ko‘paydi. Opium savdosining ortishi va katta tovon to‘lovlari sabab mamlakatdan ko‘p miqdorda kumush chiqib ketdi, natijada kumush narxi keskin oshdi.

1858-yilning iyun oyida Angliya va Fransiya bilan **Tyanszin shartnomalari** imzolandi. Unga ko‘ra, Xitoy hukumati Pekinda ingliz va fransuz elchilarini qabul qilishga rozi bo‘ldi. Bu davlatlar fuqarolari Xitoy bo‘ylab erkin harakatlanish, ularning kemalari esa, Yanszi daryosi bo‘ylab suzish huquqini oldilar. Savdo uchun yana bir qancha portlar ochildi, bojxona va tranzit bojlari kamaytirildi hamda opium savdosiga ruxsat berildi. Xitoy yana katta miqdorda tovon to‘lashi majburiyatini oldi. 1860-yil oktyabr oyida Angliya va Fransiya bilan **Pekin shartnomalari**

imzolandi. Ularga binoan yangi port — Tyanszin — xorijiy savdo uchun ochildi. Xitoy Syangan (Gonkong) yaqinidagi Tszyulun (Koulun) yarim orolini Angliyaga berdi, bu hudud Gonkong mustamlakasining bir qismiga aylandi.

Chet el kapitalistlariga xitoy ishchilarini o‘z koloniyalariga yoki Amerikaga og‘ir sharoitdagi shartnomalar asosida olib chiqish huquqi berildi. Xitoy feodal zodagonlarining bir qismi chet elliklarga ishonmadi, ularning kirib kelishi feodal tartiblarni buzishini ko‘rib, izolyatsiya siyosatini tiklashni istadi. Boshqa bir qismi esa chet el davlatlarini xalq qo‘zg‘olonlarini bostirishda ittifoqchi deb bildi. Ularning siyosati “o‘z kuchini mustahkamlash siyosati” deb atalgan bo‘lib, 1862–1877-yillar Xitoyda harbiy sanoatning shakllanish davriga aylandi.

1864–1894-yillar oralig‘ida Xitoy bilan kapitalistik davlatlar o‘rtasidagi savdo hajmi uch barobarga yaqin oshdi. Chet elliklar Xitoyda kemasozlik va dengiz tashish kompaniyalarini, xorijiy banklarni tashkil etdilar. 1865-yilda Gonkong-Shanxay banki ochildi — u ingliz kapitalining iqtisodiy ekspansiyasi vositasiga aylandi.

Xitoy iqtisodiyotining yarim feodal mohiyati shundaki, dehqonlar hali ham eski ekspluatatsiya shakllariga duch kelgan, yer ibtidoiy usullar bilan ishlangan. Yarim mustamlaka holat esa - asosiy tarmoqlar bevosita yoki bilvosita chet el imperialistlarining nazorati ostida edi. Ko‘pchilik zodagonlar o‘z yerlarini kichik bo‘laklarga bo‘lib ijaraga berar bu esa— eng keng tarqalgan yer egalik shakli edi. Feodal davrga xos rentaning turlari — mehnat, natural va pul rentesi keng tarqalgan edi. Dehqonlar ko‘pincha yer va mehnat qurollarini ijaraga olib, hosilning 50–70 %ini pomeschchikga berar edilar.

Chet el kapitalining Xitoyga kirib kelishi tovar-pul munosabatlarining kengayishi va feodal jamiyat ichida kapitalistik munosabatlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Ularning asl maqsadi - Xitoyni o‘z sanoatlari uchun agrar xomashyo bazasiga aylantirish, ya‘ni mustamlaka sifatida ekspluatatsiya qilish edi. 1880-yillardan boshlab Xitoyda xitoylik tadbirkorlar tomonidan mashina texnikasidan foydalanadigan dastlabki korxonalar paydo bo‘la boshladi. Ular orasida to‘qimachilik fabrikalari, konlar va metallga ishlov beruvchi zavodlar bor edi. Shu

tariqa, Xitoyda vujudga kelayotgan kapitalizm davlat hokimiyati va feodal yer egaligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

1880-yillardan boshlab Xitoyda temir yo‘l qurilishi keng tus oldi. Sohilbo‘yi hududlarda yangi sanoat markazlari vujudga keldi. Eng yirik sanoat markazlari - Shanxay va shimolda joylashgan Tyanszin shaharlari bo‘ldi. Inglizlar tomonidan bosib olingan Syangan (Gonkong) esa muhim iqtisodiy markazga aylandi.

Yaponiya–Xitoy urushi va yangi mustamlakachilik bosqichi - 1894-yil 25-iyulda Yaponiya rasman urush e‘lon qilmasdan Xitoyga qarshi harbiy harakatlarni boshladi. Xitoy mag‘lubiyatga uchradi va 1895-yil 17-aprel kuni Simonosaki shahrida Simonosaki tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra: Xitoy Koreya ustidan suverenlik huquqidan voz kechdi; Yaponiyaga Lyaodun yarim oroli, Tayvan oroli va Penxulye orollari topshirildi; Xitoy katta tovon to‘lashi majburiyatini oldi; Yaponiya uchun to‘rtta yangi port ochildi.. Shartnomaning 6-moddasiga binoan, imperialistik davlatlar Xitoyda o‘z sanoat korxonalarini barpo etish huquqiga ega bo‘ldilar. Shu sababli 1895–1902-yillar G‘arb kapitalining Xitoyga faol kirib kelish davri deb hisoblanadi. Shu yillarda Xitoyda 600 dan ortiq xorijiy firma faoliyat yuritgan, u yerda 10 mingga yaqin chet ellik yashagan.

Xitoyning bo‘linishi va “ochiq eshiklar” siyosati - Bu davrda Rossiyaning Uzoq Sharqdagi siyosati ham faollashdi. 1896-yil iyun oyida Rossiya–Xitoy ittifoqi va Sharqiy Xitoy temir yo‘li qurilishi to‘g‘risidagi shartnomani imzoladi.

1898-yil mart oyida Germaniya Xitoyni 99 yilga Czyauchjou (Tsingdao) portini “ijaraga” berishga majbur qildi. Shuningdek, Germaniya Shandun viloyatida temir yo‘l qurish va foydali qazilmalarni qazib olish huquqini oldi. Shu davrda Rossiya ham Xitoy bilan Lüishun (Port-Artur) va Dalyan (Dalniy) portlarini 25 yilga “ijaraga” olish bo‘yicha kelishuv tuzdi. 1898-yilning aprel oyida Fransiya Guan Chjouvan (Kantszyan) harbiy portini 99 yilga “ijaraga” oldi. Shu yilning may oyida Angliya Veyxayvey portini egallab, bu ishni “ijara to‘g‘risidagi shartnoma” bilan qonunlashtirdi. Bundan tashqari, Angliya Tszyulun (Koulun) yarim oroli va unga yaqin orollarda joylashgan “Yangi hududlarni” 99 yil muddatga Gonkong mustamlakasiga qo‘shdi.

Imperialist davlatlar Xitoyni “ta’sir doiralariga” bo‘lib oldilar. Unga ko‘ra: Yanszi havzasidagi 10 ta viloyat Angliya ta’sirida; Yunnan, Guandun va Guanxi - Fransiya va qisman Angliya ta’sirida; Shandun - Germaniya; Futszyan - Yaponiyaning ta’sirida; Buyuk Xitoy devorining shimolidagi yerlar esa Rossiya ta’sir zonasiga kirdi.

1899-yilda AQSh “ochiq eshiklar” doktrinasi (Xey doktrinasi) va “teng imkoniyatlar siyosati” ni e’lon qildi. AQSh monopoliyalari o‘z iqtisodiy ustunligiga tayanib, shu yo‘l bilan butun Xitoy ustidan nazorat o‘rnatishni maqsad qilgan edi. 1895–1899-yillar orasida atigi besh yil ichida Xitoyga umumiy qiymati 370 million lyan (o‘sha davrdagi kurs bo‘yicha 500 milliondan ortiq oltin rubl) miqdorida yetti majburiy qarz yuklatildi.

1909-yilda Angliya, Fransiya va Germaniya banklarining moliyaviy konsorsiumi tuzildi. 1910-yilda unga AQSh ham qo‘shildi va u Xitoyda o‘z faoliyatini kuchaytirdi. Xorijiy kapital va bank sarmoyalari tez sur‘atlar bilan o‘sdi: 1902-yilda xorijiy investitsiyalar (qarzlardan bilan birga) 800 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 1911-yilda bu miqdor 1,5 milliard dollardan oshdi.

1912-yilda Xitoydagi ko‘mir qazib olishning 52,4%i to‘liq yoki qisman xorijiy monopoliyalar nazoratidagi shaxtalarda amalga oshirildi, mexanizatsiyalashgan ko‘mir qazib olishning 91,9%i ham chet elliklar qo‘lida edi. Chet el matolari importi Xitoy matolari eksportidan 10 barobar ko‘p bo‘lib, bu milliy to‘qimachilik sanoatini izdan chiqardi. 1872–1901-yillar orasida 161ta, 1902–1911-yillarda esa, - 335ta yangi to‘qimachilik fabrikalari, tegirmonlar, oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirildi

Xitoyda yuzaga kelgan antiyapon harakati va Rossiya, Angliya, AQShning noroziligi tufayli Yaponiya ayrim talablarni “istak” deb e’lon qilishga majbur bo‘ldi. Ammo 1915-yil 9-mayda prezident Yuan Shikay ularning 4 guruhini qabul qilganini e’lon qildi. I- jahon urushi yillarida Xitoy iqtisodiyotida “oltin davr” (1915–1919) deb atalgan qisqa ko‘tarilish davrida mahalliy kapitalizm tez rivojlanib, yangi fabrikalar, tegirmonlar, to‘qimachilik korxonalarini ochildi. Ishlab chiqarishning

ko‘payishi bilan milliy burjuaziya kuchayib, ishchilar soni ikki barobarga oshdi (2 million atrofida).

XX asr boshlarida, xususan 1919 yilda Xitoyda burjua-demokratik xarakterdagi inqilobiy jarayonlar yuz berdi. Ushbu siyosiy o‘zgarishlar natijasida Sin sulolasi hokimiyatdan chetlatilib, ikki ming yildan ortiq davom etgan imperatorlik boshqaruv tizimiga barham berildi va yangi tipdagi fuqaroviy hukumat shakllandi. Shu davrda yuzaga kelgan antiimperialistik harakatlar mamlakat siyosiy hayotida yangi ijtimoiy-siyosiy kuchlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Shu yilda bo‘lib o‘tgan antiimperialistik harakatlar Xitoy siyosiy maydoniga yangi kuchlarni olib kirdi. 1921 yilda Shanxay shahrida kommunistik guruhlarining Umumxitoy miqyosidagi birinchi syezdi bo‘lib o‘tdi. Mazkur yig‘ilishda Mao Szedun ishtirok etib, Xitoy Kommunistik partiyasining tashkil etilganligi rasman e‘lon qilindi. Ushbu siyosiy tashkilot keyingi davrda Xitoy xalqining mustaqilligi va ozodligi uchun olib borilgan kurashni ketma-ket to‘rt asosiy bosqich doirasida amalga oshirdi.

1. Shimoliy yurish - (1921-1927 yy.)
2. Agrar revolyutsion urushi (1927-1937 yy.)
3. Yaponiya bosqinchilariga qarshi urush (1937-1945 yy.)
4. Ozodlik kurashi (1945-1949 yy.)

1918-yilda Sun Yatsen “Davlat qurilishi dasturi”ni e‘lon qildi. U uch asosiy yo‘nalishni ilgari surdi: infratuzilma, xususan temir yo‘llar va portlarni rivojlantirish; og‘ir, kon, yengil va oziq-ovqat sanoatini kengaytirish; qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, agrotexnikani yaxshilash va sug‘orish tizimini rivojlantirish.

1931-yilda Milliy iqtisodiy kengash tashkil qilinib, Sun Yatsen g‘oyalariga asoslangan o‘n bandlik dastur qabul qilindi. 1933-yilda aholining 90 %i qishloq xo‘jaligida ishlardi, bu sohaning YaIMdagi ulushi 65 %ni tashkil etar edi (sanoat — 10,5 %). Eng yirik tarmoqlar oziq-ovqat— 34,2% va to‘qimachilik — 36% edi. Ammo, og‘ir sanoat zaif edi: 1936-yilda Xitoy atigi 923 ming tonna po‘lat, 61,9 million tonna ko‘mir va 6 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqardi.

1930-yilda xorijiy investitsiyalar umumiy sarmoyaning 73%ni tashkil etdi. 1936-yilda ular sanoatdagi barcha investitsiyalarning 41%ni tashkil qilib, temir, elektr, to‘qimachilik, transport va moliya sohalarini to‘liq nazorat qildi. 1937-yilda Yaponiyaning Xitoyga bostirib kirishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti og‘ir inqirozga uchradi: qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 20 %ga, sanoat esa 50 %ga (og‘ir sanoat — 70%, yengil — 30%) kamaydi. 1946–1949-yillardagi fuqarolar urushi ham iqtisodiyotni butunlay vayron qildi. Nihoyat, kommunistlar g‘alaba qozonib, yangi davlat - Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) ni tuzish uchun harakatlar boshlandi.

2.2. Xitoyda ma‘muriy-buyruqbozlik va markazlashgan rejali iqtisodiyotni amalga oshirishi («Katta sakrash», «Madaniy inqilob» konsepsiyalari) (1949-1978- yy.)

Xitoy ming yillar davomida dunyodagi eng yirik mamlakatlardan biri bo‘lib kelgan, aholisi soni, ishlab chiqarish va iste‘mol hajmi jihatidan yetakchi o‘rin tutgan. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga oid statistik ma‘lumotlarning muntazam yig‘ilishi faqat 1950-yillardan boshlab yo‘lga qo‘yildi va ular ham ko‘pincha qarama-qarshi tafsilotlarga ega. Shu sababli, iqtisodiy rivojlanishning davrlashtirilishi, hatto XXR (Xitoy Xalq Respublikasi) tuzilgandan keyin ham, odatda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarga emas, balki iqtisodiy o‘zgarishlarga sharoit yaratgan muhim voqealarga asoslanadi. Bundan tashqari, iqtisodiy siyosatning o‘zgarishi bilan uning statistik jihatdan sezilarli natijalari o‘rtasida bir necha yillik, ba’zida esa o‘n yillik vaqt kechikishi kuzatiladi.

XX asr Xitoy tarixida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan murakkab va sinovlarga boy davr sifatida namoyon bo‘ldi. Uzoq davom etgan harbiy mojarolar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining sekinlashuviga olib kelgan asosiy omillardan biri bo‘ldi. Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilishidan avval amal qilgan feodal-byurokratik boshqaruv sharoitida iqtisodiy barqarorlikka erishilmadi. Ichki qarama-qarshiliklar, fuqarolar urushi hamda Yaponiya bosqiniga qarshi olib borilgan kurashlar milliy xo‘jalik tizimiga jiddiy zarar yetkazdi.

1949 yilda Gomindan hokimiyatining tugatilishi natijasida yangi demokratik yo‘nalishdagi inqilobiy jarayonlar o‘z nihoyasiga yetdi. Shu yilning 1-oktyabr kuni Pekindagi Tyananmen maydonida bo‘lib o‘tgan ommaviy yig‘ilishda Mao Szedun tomonidan Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilganligi rasman e‘lon qilindi. Yangi davlat tuzilmasida markazlashgan boshqaruv tizimi joriy etilib, urushlar oqibatida izdan chiqqan xalq xo‘jaligini tiklash ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Aynan shu davrdan e‘tiboran mamlakatda siyosiy tizimni barqarorlashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ijtimoiy va madaniy sohalaridagi muammolarni hal etish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Avvalgi davrda sanoat korxonalarini asosan mahalliy tadbirkorlar va Gomindan hukumati nazoratida bo‘lgan bo‘lsa, yangi hukumat aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash maqsadida byurokratik tuzilmalarga tegishli bo‘lgan yirik kapitalistik korxonalarini davlat tasarrufiga o‘tkazdi. Natijada sanoat, transport va aloqa sohalaridagi asosiy kapitalning katta qismi milliy lashtirilib, davlat mulkiga aylantirildi.

1949 yilga kelib Xitoyda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmi keskin qisqargan edi. Don yetishtirish hajmi 113,8 million tonnani, paxta ishlab chiqarish esa 444 ming tonnani tashkil etib, bu ko‘rsatkichlar 1936 yil darajasiga nisbatan mos ravishda qariyb uchdan bir va deyarli yarmiga yaqin kamayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatdagi qoramollar soni sezilarli darajada qisqarib, chorvachilik hamda umumiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jiddiy pasayishga uchradi. Mehnat unumdorligining tushib ketishi natijasida g‘alla ekinlarining hosildorligi gektariga o‘rtacha 10 sentnerdan biroz ortiqni, paxta hosildorligi esa juda past darajada qayd etildi. Shunga qaramay, mazkur davrda qishloq xo‘jaligi Xitoy iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, yalpi milliy mahsulot tarkibida uning ulushi juda yuqori bo‘lib qolayotgan edi.

1949 yil yakuniga kelib mamlakatda faoliyat yuritgan minglab yirik korxonalar davlat tasarrufiga o‘tkazilib, ular yalpi ishlab chiqarish hajmining asosiy qismini ta‘minlay boshladi. Natijada elektr energiyasi ishlab chiqarishining yarmidan ortig‘i, ko‘mir qazib olishning katta qismi, shuningdek, cho‘yan, po‘lat, sement va paxta

ishlab chiqarishning mutlaq ustun ulushi davlat sektoriga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, temir yo'l infratuzilmasi va boshqa transport tarmoqlarining asosiy qismi, bank tizimi hamda tashqi savdo operatsiyalarining muhim yo'nalishlari markaziy davlat nazorati ostiga olindi. Keyingi davrda, xususan 1950–1952 yillarda mamlakat siyosatining asosiy yo'nalishi urushlardan zarar ko'rgan xalq xo'jaligini tiklashga qaratildi. 1953–1956 yillar oralig'ida esa qishloq xo'jaligi sohasida sotsialistik yo'nalishdagi tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, hunarmandchilikka asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlari hamda kapitalistik tamoyillar asosida faoliyat yuritgan korxonalar qayta tashkil etilib, ishlab chiqarish vositalariga umumxalq mulki sifatida munosabatni shakllantirish jarayoni izchil ravishda jamiyat ongiga singdirila boshlandi. XXRning Davlat ma'muriy xaritsi va davlat ramzlari (davlat bayrog'i va gerbi)

XX asrning dastlabki davrlarida Xitoy siyosiy jihatdan yagona markazlashgan davlat sifatida shakllanmagan bo'lib, ushbu holat uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan. Keyingi bosqichlarda esa mamlakat o'ziga xos rivojlanish modelini tanlab, unda turli boshqaruv va iqtisodiy mexanizmlarning bir davlat doirasida uyg'unlashuvi asosiy tamoyil sifatida qaror topdi. Keyinchalik esa, XXR tarixida mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha besh yillik rejalar tuzildi va hozirgi kunda Xitoyda 14-besh yillik rejasi qabul qilinib, uni amalga oshirish ishlari tugallanmoqda. Quyida biz mamlakatdagi besh yilliklar davrlarini ajratib, ko'rsatib o'tamiz

XXR tashkil etilganidan boshlab 75 yil ichida Xitoy qator iqtisodiy tajribalarni boshidan o'tkazib, sekin-asta o'ziga xos taraqqiyot yo'lini kashf etdi. Xitoyning iqtisodiy rivojlanishdagi yutuqlari benihoya ulkan bo'lib, iqtisodiy agregatlar yig'indisining to'xtovsiz ortishi, aholi jon boshiga daromadlarning o'sishi, ta'lim va tibbiyot sohaslarining uzluksiz takomillashib borishi, aholi intellektual qatlamining sezilarli ortishi, urbanizatsiya va aholi turmush darajasining o'sishida namoyon bo'ladi.

XXRning 1-14-besh yilliklar davri

t/r	Besh yilliklar	yillar
1.	1-besh yillik	1956-1960 yy
2.	2- besh yillik	1961-1965 yy.:
3.	3- besh yillik	1966-1970 yy
4.	4- besh yillik	1971-1975 yy
5.	5-besh yillik-	1976-1980 yy
6.	6- besh yillik	1981-1985 yy.:
7.	7- besh yillik	1986-1990 yy.:
8.	8- besh yillik	1991-1995 yy.:
9.	9- besh yillik	1996-2000 yy
10.	10- besh yillik	2001-2005 yy
11.	11- besh yillik	2006-2010 yy.;
12.	12-besh yillik	2011-2015 yy.;
13.	13- besh yillik	2016-2020 yy.;
14	14-besh yillik	2021-2025yy.

Manba: Энциклопедия Китая, М., 1980 г. 547 с.) asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topishi bilan mamlakatda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizim — sotsialistik tuzum shakllana boshladi. Bu davrda Xitoy iqtisodiyotining maqsadi — xalq xo‘jaligini tiklash, ishlab chiqarish vositalarini davlat mulkiga o‘tkazish, va iqtisodiyotni markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga o‘tkazish edi.

1. Birinchi bosqich (1949–1952-yillar): Tiklanish davri - Uzoq davom etgan urushlar, yapon bosqini va fuqarolar urushi natijasida mamlakat iqtisodiyoti vayron bo‘lgan edi. 1949-yilda milliy daromad urushdan oldingi (1937-yilgi) darajaning atigi 60%ini tashkil qilgan. Shuning uchun dastlabki yillarda asosiy vazifa — ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash, transport, aloqa, qishloq xo‘jaligini qayta tiklash edi. Davlat: **bank** va yirik sanoat korxonalarini milliylashtirdi; **yer** islohoti o‘tkazilib, feodal yer egaligi tugatildi; **dehqonlarga** yer taqsimlab berildi. 1952-yilga kelib ishlab chiqarish hajmi 1937-yil darajasidan 10%ga yuqori bo‘ldi, milliy daromad esa, 77%ga oshdi.

2. Ikkinchi bosqich (1953–1957-yillar): Birinchi besh yillik reja - 1953-yilda Xitoyda birinchi besh yillik reja qabul qilindi. U asosan sobiq Sovet Ittifoqi tajribasi asosida tuzilgan bo‘lib, og‘ir sanoatni rivojlantirishni bosh maqsad qilib qo‘ydi. Asosiy yo‘nalishlar:

- Og‘ir sanoat (po‘lat, ko‘mir, energetika, mashinasozlik);
- Transport va aloqa infratuzilmasini qurish;
- Qishloq xo‘jaligida kollektivlashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Sobiq sovet Ittifoqi yordamida 156ta yirik sanoat obyekti qurildi.

Natijada 1957-yilga kelib sanoat ishlab chiqarishi 1949-yilga nisbatan 4,5 baravar, milliy daromad esa 96%ga o‘ydi.

3. Uchinchi bosqich (1958–1965-yillar): “Buyuk sakrash” siyosati - 1958-yilda Mao Szedun tashabbusi bilan “Buyuk sakrash” (Da Yuejin) siyosati e‘lon qilindi. Maqsad — qisqa muddatda sotsializmning moddiy-texnik bazasini yaratish va G‘arb mamlakatlarini ishlab chiqarishda quvib yetish edi. Bu siyosatning asosiy jihatlari:

- Ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalarida kooperatsiya va kommunalar tizimi joriy qilindi;

- Qishloq xo‘jaligida xalq kommunalari tashkil etildi;

- Har bir hududda o‘z “mini-zavod”, “mini-marten”lar qurish rag‘batlantirildi.

Ammo bu siyosat iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamadi. Resurslar samarasiz taqsimlandi, rejalashtirish real imkoniyatlardan uzildi. 1960–1962-yillarda hosilsizlik, noto‘g‘ri siyosat va qattiq qurg‘oqchilik tufayli ocharchilik yuz berdi, millionlab odamlar halok bo‘ldi.

1963–1965-yillarda iqtisodiy siyosat biroz yumshatildi, “tuzatish davri” boshlandi: xalq kommunalari qisqartirildi, kichik xo‘jaliklarga ruxsat berildi, sanoat markazlashtirildi.

4. To‘rtinchi bosqich (1966–1976-yillar): “Madaniy inqilob” davri - 1966-yilda Mao Szedun “Madaniy inqilob” ni e‘lon qildi. Asosiy maqsad — “kapitalistik unsurlarni tugatish” deb e‘lon qilindi, ammo aslida bu siyosiy raqiblarni yo‘qotish jarayoniga aylandi. Natijada: oliy o‘quv yurtlari yopildi, ilm-fan va ta‘lim tizimi izdan chiqdi; korxonalar faoliyati siyosiy nazoratga o‘tdi; ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari keskin pasaydi.

1976-yilda Mao Szedunning vafoti bilan bu siyosat tugatildi. Xitoy iqtisodiyoti chuqur inqirozga uchragan edi: og‘ir sanoat 40 foizga qisqargan, qishloq xo‘jaligi esa 1960-yillardagi darajadan deyarli oshmagan. 1950-yillarning

ikkinchi yarmidan 1970-yillarning ikkinchi yarmigacha davom etgan “Katta sakrash” va “Madaniy inqilob” siyosiy kampaniyalari jamiyatda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi. Ushbu davrda aholining turmush darajasi pasayib, ocharchilik, kambag‘allik, iqtisodiy qoloqlik hamda savodsizlik holatlari kuchaydi, mamlakat miqyosida esa iqtisodiy beqarorlik yuzaga keldi. Mazkur salbiy oqibatlarni bartaraf etish va jamiyatni barqaror rivojlanish yo‘liga qaytarish jarayoni Xitoy xalqi uchun katta ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlar bilan kechdi.

Xitoy Xalq Respublikasi taraqqiyot strategiyasida mamlakatni sanoatlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi va ushbu yo‘nalishda maxsus dastur qabul qilindi. Mazkur, Xitoy sharoitiga moslashtirilgan sanoatlashtirish modeli bir vaqtning o‘zida sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini, kichik hamda yirik ishlab chiqarish subyektlarini, shuningdek, an‘anaviy va zamonaviy ishlab chiqarish shakllarini parallel rivojlantirishni nazarda tutgan edi. Dasturga muvofiq, 1958–1962 yillar davomida sanoat ishlab chiqarish hajmini bir necha barobarga oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni sezilarli darajada ko‘paytirish, po‘lat ishlab chiqarishni keskin kengaytirish, rangli metallurgiya va elektr energetikasi sohalarini jadal rivojlantirish maqsad qilib qo‘yildi. Ushbu rejalar amalga oshirilishi orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatini qisqa muddatda keskin oshirish ko‘zda tutilgan edi.¹

Mamlakatda “o‘z kuchiga tayanish” g‘oyasi asosida ishlab chiqilgan siyosat doirasida hududlarda ko‘plab kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va ishlab chiqarish hajmlarini keskin oshirish rejalashtirilgan edi. Biroq ushbu yondashuv natijasida iqtisodiy muvozanat buzilib, ishlab chiqarish intizomi hamda texnik me‘yorlarga rioya etilishida jiddiy kamchiliklar yuzaga keldi. Sanoat tarmoqlari ichida qora metallurgiya alohida ustuvorlikka ega bo‘lib qoldi. “Katta sakrash” davrida ilgari surilgan o‘zini o‘zi ta‘minlash va mahalliy tashabbuslarni rag‘batlantirish tamoyillari dastlabki islohot g‘oyalarining izdan chiqishiga sabab bo‘ldi. Natijada sanoatni boshqarish tizimida qarorlar qabul qilish jarayoni asosan quyi bo‘g‘inlardan yuqori darajalarga yo‘naltirildi. 1958 yilga kelib, mavjud

¹ Энциклопедия Китая, М., 1980 г. с.42)

minglab korxonalaridan atigi kichik qismi markaziy boshqaruvga bo'ysunib qoldi, markazlashgan tartibda asosiy mahsulotlarni taqsimlash sohasi esa keskin qisqartirildi.

“Katta sakrash” siyosatining salbiy oqibatlari 1960 yildanoq yaqqol namoyon bo'la boshladi. Mayda ishlab chiqarish shakllarining haddan tashqari kengayishi zamonaviy sanoat tizimining izdan chiqishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, noto'g'ri tashkil etilgan ishlab chiqarish jarayonlari xom ashyo resurslarining katta qismi yo'qotilishiga, energiya hamda mehnat resurslaridan samarasiz foydalanilishiga olib keldi. Korxonalarda texnik nazorat mexanizmlarining bekor qilinishi, zarur materiallarning yetishmasligi va sifatsiz xom ashyolardan foydalanish ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatining keskin pasayishiga sabab bo'ldi. Natijada, ikkinchi besh yillik rejaning dastlabki uch yilida ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, keyingi ikki yil davomida aksincha keskin qisqarish kuzatildi. Xalq xo'jaligida boshqaruvning izdan chiqishi va iqtisodiy tartibsizliklar xavfi kuchaygani sababli, ushbu siyosiy-iqtisodiy kursdan voz kechishga majbur bo'lindi.

1966 yilda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida navbatdagi jiddiy xatolardan biri sodir bo'lib, “Madaniy inqilob” siyosiy kampaniyasining boshlanishi Xitoyni yana katta yo'qotishlarga olib keldi. Ushbu jarayon partiya va davlat institutlarining bir necha yil davomida shakllangan faoliyatini izdan chiqardi hamda ilmiy va texnik ziyolilarga nisbatan bosim va ta'qiblarning kuchayishi bilan kechdi. Natijada xo'jalik hayotida tartibsizliklar yuzaga kelib, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi jiddiy to'siqlarga duch keldi.

Vaziyatni nazorat ostida ushlab turish maqsadida markaziy hokimiyat hududiy boshqaruv organlarining vakolatlarini qisman kengaytirib, ko'plab kichik korxonalarni ularning tasarrufiga o'tkazishga ruxsat berdi. Biroq 1967–1968 yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgan dastlabki yillar bilan solishtirganda keskin qisqarib, ayniqsa metallurgiya, ko'mir qazib olish va to'qimachilik sohalari katta zarar ko'rdi. Umuman olganda, “Madaniy inqilob” mamlakat iqtisodiyotiga juda katta miqdorda moliyaviy zarar yetkazdi. 1976 yilda

esa Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasi keng jamoatchilik ko‘magida kontrevolyutsion kuchlarga qarshi qat’iy choralar ko‘rib, mamlakat taraqqiyotida yangi bosqichning boshlanishiga zamin yaratdi.

1978 yil bahorida bo‘lib o‘tgan plenumdan so‘ng Den Syaopin rahbarligida boshlangan iqtisodiy islohotlar hamda “ochiq siyosat” konsepsiyasining joriy etilishi Xitoy iqtisodiy taraqqiyotida keskin burilish yasadi. Avvalgi davrlarda yo‘l qo‘yilgan xatolar chuqur tahlil qilinib, to‘plangan tajriba va bilimlarga tayangan holda amalga oshirilgan islohotlar mamlakatga keyingi o‘n yilliklar davomida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash imkonini berdi.

Xitoy o‘ziga mos rivojlanish strategiyasini shakllantirish jarayonida G‘arb davlatlari, sobiq Sovet Ittifoqi, Yaponiya, Tayvan va Janubiy Koreya tajribalaridan selektiv tarzda foydalandi. Shu bilan birga, aholining haddan tashqari ko‘pligi, ta‘lim va ilmiy-texnik salohiyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi, yer, chuchuk suv va energetika resurslarining cheklanganligi hamda ekologik muammolar iqtisodiy rivojlanish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Syangan (Gonkong) va Aomen (Makao) hududlarining alohida ma‘muriy maqom asosida Xitoy tarkibiga qaytarilishi esa mamlakat boshqaruv tizimida muhim institutsional o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, davlatni markazlashgan totalitar modeldan yanada ochiq va moslashuvchan boshqaruv tizimi sari yo‘naltirishga zamin yaratdi.

1978 yil oxirida Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining XI chaqiriq uchinchi plenumi yakunlaridan so‘ng mamlakatda ochiqlik va islohotlar siyosati izchil amalga oshirila boshlandi. Natijada Xitoy o‘z sharoitlariga moslashtirilgan, sotsialistik tamoyillarga asoslangan modernizatsiya modelini bosqichma-bosqich tanlab oldi.

5. Yakuniy baho - 1949–1978-yillar oralig‘idagi ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining ijobiy va salbiy jihatlari mavjud edi.

Ijobiy tomonlari:

- Xorijiy kapital to‘liq chiqarib yuborildi, milliy suverenitet tiklandi;
- Sanoatning asosiy tarmoqlari yaratildi;

- Savodsizlik deyarli tugatildi, sog‘liqni saqlash tizimi yaxshilandi.

Salbiy tomonlari:

- Reja iqtisodiyotida tashabbus va bozor mexanizmlari yo‘q edi;
- Qishloq xo‘jaligida kommunalar samarasiz bo‘ldi;
- Sanoat ishlab chiqarishi ko‘p hollarda reja uchun, emas, samaradorlik uchun bajarildi;
- Byurokratiya va markazlashuv haddan oshdi.

1978-yilga kelib Xitoy iqtisodiyoti chuqur turg‘unlik holatida edi. Shu sababli Den Syaopin boshchiligida “Islohotlar va ochiqlik siyosati” boshlangan bo‘lib, bu Xitoyni markazlashtirilgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyoti yo‘liga o‘tish sari olib keldi.

2.3. Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modelini transformatsiyasi va zamonaviy sotsialistik modernizatsiyani amalga oshirish bosqichlari

XXRning zamonaviy, islohotlardan keyingi Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy rivojlanish davri 1978-yil 18–22-dekabr kunlari bo‘lib o‘tgan Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining 11-chaqiriq 3-Plenumi bilan boshlandi. Keyinchalik bu yo‘nalish XXRsining Konstitutsiyasida mustahkamlanib, “xitoycha xususiyatlarga ega sotsializmni barpo etish nazariyasi” asosida sotsialistik modernizatsiya davri boshlanganligi e‘lon qilindi.

1-bosqich — bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri, JHTga a‘zo bo‘lishga tayyorgarlik, 1978-2001 yy.

2-bosqich – “jahon fabrika” sining yuqori nuqtasi va ergashuvchi imitatsiyaviy rivojlanish, 2002-2012 yy.

3-bosqich — postindustrial jamiyatga o‘tish davri.

Avvalo, Xitoy Kommunistik partiyasi mafkuraviy qarama-qarshilikni hal qildi. Ilgari markazlashgan reja iqtisodiyoti sotsializmning ajralmas belgisi, bozor iqtisodiyoti esa kapitalizmning sinonimi sifatida qaralgan bo‘lsa, islohotlar

konsepsiyasi shundan iborat ediki — bozor iqtisodiyoti mexanizmlaridan foydalangan holda sotsialistik jamiyatni qurish mumkin.

Bozor institutlari va mexanizmlarini tanlash hamda joriy etish jarayoni hozirgacha ehtiyotkorlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Dastlab barcha yangiliklar alohida tajriba korxonalarida yoki hududlarda sinovdan o'tkaziladi, shundan so'ng ularning keng ko'lamda tatbiq etilishi yoki tuzatish kiritilishi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Bunday siyosat Xitoyda "daryodan o'tishda tubidagi toshlarni paypaslab o'tish" tamoyili deb ataladi. Xitoy iqtisodiyotining o'ziga xos jihati — unda davlat va ma'muriy apparatning yetakchi o'rni saqlanib qolganidir, biroq endilikda ularning oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo'yilgan.

Modernizatsiya — bu jamiyat hayotining barcha sohalarini: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalarni qamrab oluvchi murakkab jarayondir. Shu bois islohotlarning har bir bosqichidagi maqsadlar aholining jon boshiga to'g'ri keladigan dollar miqdori bilan emas, balki murakkab integrallashgan tushunchalar orqali ifodalanadi. Ular orasida "venbao" (issiqlik va to'qlik), "syaokan" (mo'tadil farovonlik) va "fuyuy" (badavlatlik) tushunchalari mavjud bo'lib, ular jamiyat va ishlab chiqaruvchi kuchlarda sifat jihatdan o'zgarishlarni anglatadi.

"Modernizatsiya" atamasining o'zi — "syandayxua" (so'zma-so'z tarjimada "zamonaviylikka o'tish") — Xitoy tilida ilk bor 1919-yilda bo'lib o'tgan 4 - may harakati davridan boshlab keng qo'llanila boshlandi. Biroq ilg'or fikrlovchi xitoy ziyolilari, mamlakat taqdiri haqida qayg'urgan holda, allaqachon 1840-yillardagi G'arb bilan to'qnashuv, ya'ni Afg'on urushlari davridan boshlab, Xitoyning orqada qolganini anglagan edilar. Bu orqada qolish faqat texnik emas, balki mafkuraviy sohada ham bo'lgan. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun yangicha, "zamonaviy" jamiyatni shakllantirish zarur edi.

Xitoy olimlarining fikricha, Xitoydagi modernizatsiya jarayoni 1840-yillardan boshlab G'arb davlatlarining ta'siri ostida boshlangan, 1911-yilgi burjua inqilobidan keyin tezlashgan, Xitoy Xalq Respublikasi tuzilgach, tubdan o'zgargan, Den

Syaopin islohotlari bilan yangi bosqichga kirgan hamda Szi Szipin boshchiligidagi yangi rahbariyat davrida yangi mazmun kasb etgan.

Xitoy xususiyatlariga ega sotsialistik modernizatsiya davrining asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

-xususiy mulk shaklining rivojlanishi;

-korxonalarni tizimga bo'ysunuvchi bo'g'inlardan faol, natijaga qiziqqan iqtisodiy sub'yektlarga aylantirish;

-tashqi dunyoga ochiqlik siyosati va xorijiy kapitaldan faol foydalanish;

-qishloq xo'jaligi, engil va og'ir sanoatning muvozanatli rivojlanishi;

-aholining farovonligi va iste'mol darajasining o'sishi.

Xitoy olimlari Xitoyning G'arb dunyosi bilan aloqalaridagi ikki muhim voqeani alohida ta'kidlaydilar. Ular mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modelining transformatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan va islohotlar bosqichlarini ajratishdagi "bo'linuvchi chiziqlar" sifatida qaraladi.

To'rtlik modernizatsiyasi" dasturi - 1978-yil fevral oyida "Qishloq xo'jaligi, sanoat, mudofaa, fan va texnika sohalarini modernizatsiya qilish" dasturi qabul qilindi. Bu dastur "Xitoy Xalq Respublikasining 1976–1985-yillarga mo'ljallangan xalq xo'jaligini rivojlantirishning o'n yillik rejasining asosiy yo'nalishlari" deb nomlangan bo'lib, 2000-yilgacha mo'ljallangan edi. Unga ko'ra, 2000-yilga borib Xitoyning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 4 baravar o'sishi, dunyoda 5-o'ringa chiqishi, aholi daromadlari esa ikki baravar ortishi rejalashtirilgan edi. (Amalda esa 2000-yilga kelib YaIM 6,5 baravar o'sdi.)

Ammo bu dastur mamlakatning real iqtisodiy imkoniyatlari va ehtiyojlaridan uzilgan holda ishlab chiqilgan edi. Ko'plab korxonalar kamyob resurslarni isrof qilib, sifatsiz va bozorda talab bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Natijada Xitoy katta o'zgarishlar arafasida turardi.

Rahbariyat tomonidan shuni anglab yetildiki, markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy model — unda dehqonlar, ishchilar va korxonalar mehnat natijasiga nisbatan manfaatdor bo'lmagan bir tizim — hayotga

layoqatsiz edi. Bundan tashqari, mamlakatning tashqi dunyodan izolyatsiya qilinishi texnik va iqtisodiy orqada qolishni yanada mustahkamlab qo'yayotgan edi.

Xitoyning JSTga (Jahon savdo tashkiloti) kirishi (2001-yil dekabr) - Bu voqea Xitoyga o'zining taqqoslama ustunliklarini to'liq amalga oshirish, rivojlangan davlatlarning keng bozorlariga, ularning texnologiyalari va kapitaliga kirish imkonini berdi. Natijada mamlakat milliy innovatsion tizimni rivojlantirishda va aholining farovonligini oshirishda sakrashli o'sishni ta'minladi, dunyoda eng yirik zaxira aktivlarini to'pladi hamda xitoy transmilliy kompaniyalarining (TNK) global ekspansiyasini boshladi.

G'arb davlatlarining qarshi reaksiyasi (2010-yillardan boshlab) - Xitoyning "dunyo fabrikasi" sifatidagi o'sishi ma'lum bir chegaraga yetgach, rivojlangan mamlakatlar bu holatga faol qarshilik ko'rsata boshladilar. Natijada Xitoy modernizatsiya jarayonini davom ettirish uchun global miqyosdagi muqobil tashabbuslarni ilgari surishga majbur bo'ldi.

Shu asosda, zamonaviy Xitoy islohotlar davrini uch asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1-bosqich (1978–2001-yillar): Bozor iqtisodiyotiga o'tish va JSTga kirishga tayyorgarlik

- 1978–1983-yillar — Qishloq va agrar soha islohotlari, islohot strategiyasining ishlab chiqilishi;
- 1984–1991-yillar — Davlat korxonalarini isloh qilish, shahar iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining joriy etilishi;
- 1992–2001-yillar — Bozor institutlarining keng joriy etilishi, "venbao" (issiq va to'qlik) darajasiga erishish.

G'arbning Xitoy "iqtisodiy mo'jiza" sidagi ro'li ham ko'pincha asossiz ravishda past baholanadi. Ular Xitoyga texnologiyalarni berdi, yuqori malakali kadrlar tayyorladi va o'z bozorini taqdim etdi. Xitoy esa, xorijiy rivojlanish tajribasini moslashtirishda fenomenal qobiliyatini namoyish etdi. Avvaliga, deyarli nol darajadan, XXRda boshqaruv-ma'muriy tizim modeli barpo qilindi. 1978-yildan boshlab esa, bosqichma-bosqich rivojlanish va moliyalashtirishning, hududiy

rejalashtirish va mehnat taqsimotini XX asr boshlarida Xitoy siyosiy jihatdan yagona markazlashgan davlat sifatida shakllanmagan bo'lib, ushbu holat uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan. Keyingi davrlarda mamlakat o'ziga xos rivojlanish modelini tanlab, unda turli boshqaruv va iqtisodiy mexanizmlarning bir davlat doirasida birgalikda amal qilishi asosiy tamoyil sifatida qaror topdi. So'nggi yillarda ayrim hududlarda sotsialistik boshqaruv prinsiplari bilan bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining parallel mavjudligi muayyan siyosiy ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish va barqarorlikni ta'minlash maqsadida Xitoy Markaziy hukumati tizimli va izchil choralarni amalga oshirmoqda. Jumladan, 2000 yilda ilk bor mamlakatning oliy darajadagi siyosiy yig'ilishlaridan birida Xitoyni federativ davlat shakliga o'tkazish masalasi muhokama qilingan.

2-bosqich (2002–2012-yillar): “Jahon fabrikasi” davri va imitatsion rivojlanish modeli

- 2002–2008-yillar - Xitoy jahon xo'jaligiga integratsiyadan katta foyda ko'radi, g'arbiy TNKlardan ichki bozorni himoya qilishga muvaffaq bo'ladi;
- 2009–2012-yillar - Xitoy va G'arb manfaatlari o'rtasidagi raqobat va qarama-qarshilik bosqichi boshlanadi.

Keng ko'lamli tizimli islohotlar hamda jadallashgan sanoatlashtirish jarayonlari natijasida 2010-yillarning oxirlariga kelib Xitoy iqtisodiy jihatdan mustahkam sanoat bazasini shakllantirdi. Mamlakat jahon miqyosida barcha asosiy sanoat tarmoqlarini qamrab olgan kam sonli davlatlardan biriga aylandi, zamonaviy milliy innovatsion tizimni yaratdi, ijtimoiy muammolar sifatida qaralgan qashshoqlik va ochlik masalalarini bartaraf etdi hamda aholining turmush darajasi va farovonligini sezilarli darajada yaxshiladi. 2010-yildan boshlab Xitoy sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqdi, 2014-yildan esa xarid qobiliyati pariteti (PPS) bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmida birinchi, nominal YaIM bo'yicha esa dunyoda ikkinchi o'rinni egalladi.

Xitoy iqtisodchilari jahonning eng ilg'or iqtisodiy rivojlanish tajribalarini o'rganib, ularni mamlakatning milliy sharoitlariga moslashtirishga muvaffaq

bo‘ldilar. Islohotlarning ilk bosqichlaridayoq qat’iy tuzilgan reja mavjud emas edi — faqat umumiy maqsad belgilandi: buyruqbozlikka asoslangan ma’muriy iqtisodiyot va izolyatsiyadan bozor iqtisodiyotiga hamda ochiqlik siyosatiga o‘tish.

3-bosqich (2013-yildan hozirgacha): Postindustrial jamiyat va ilg‘or innovatsion rivojlanish bosqichi:

- 2013–2020-yillar — Ichki iste’molni rag‘batlantirish, “syaokan” (mo‘tadil farovonlik) darajasiga erishish.

- 2021-yildan boshlab — Postindustriallashtirishning faol bosqichi, yangi global iqtisodiy tartib uchun kurash.

Hozirgi davrda YaIM o‘shishi iste’molchilar soni va ularning farovonligi yoki xarid qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Past ish haqi (qo‘shimcha qiymatning o‘zi) faqatgina YaIM o‘shishini cheklaydi. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlar shuni isbotladiki, mamlakatlar darajasida ham, ularning alohida hududlari darajasida ham eng raqobatbardosh mahsulot eng yuqori ish haqi to‘lanadigan joylarda ishlab chiqariladi. Masalan, 2000–2019-yillarda Xitoyda ish haqi 10 baravar oshgan bo‘lsa, eksport 20 baravar o‘sgan. Xorijiy investitsiyalar esa, avvalo, mahalliy iste’molchilar farovonligini oshirishni ko‘zda tutgan. 2009-yil 1-yanvar ko‘rsatkichlariga ko‘ra, Xitoy RMBsining AQSh dollarig nisbati 6.8271:1 bo‘lib, Xitoyning YaIM aholi jon boshiga taqsimlanganda 3000 AQSh dollardan to‘g‘ri kelgan². Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning XII-besh yillik rejasiga binoan, (2011-2015) iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi.

Xitoy yalpi ichki mahsulotning umumiy miqdoriy ko‘rsatkichlari bo‘yicha AQSHni quvib o‘tib, jahonning birinchi iqtisodiyotiga aylandi. Ammo, miqdoriy o‘shish resurslar yetishmasligi, ekologiyaning yomonlashuvi va qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Xitoy hukumati iqtisodiy islohotlar yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, iqtisodiy rivojlanishning yangi strategiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Hozirda Xitoyda iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini 4-4,5% darajasida saqlab qolish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

²China’s Economy Wu Li, Sui Fumin & Zheng Lei. Translated by David Gu..China Intercontinental Press. January 2010.-P.28.

Xitoy hukumati banklarning qarz berish qobiliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'z monetar siyosatni olib bordi va shu orqali uy xo'jaliklari iste'molini o'sishini ta'minladi. Ushbu qilingan ishlar Xitoy mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin kamayish xavfini anchayin bartaraf etdi. Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari, shu jumladan AQSh, yilni salbiy iqtisodiy o'sish bilan yakunlagan bir davrda, Xitoyning YaIMi 2008 – 2009-yillarda mos ravishda, 9.6% va 9.2% ga o'sdi³. 2010-yilga kelib esa, u iqtisodiy inqirozdan oldingi davrdagi o'zining eksport salohiyatini tikladi va uning YaIM hajmi 10.4% ga o'sdi⁴.

O'z o'rnida shuni ta'kidlash joizki, 2014-2015 yillarda Xitoyning nominal YaIMi mos holda 10,2 va 11,3 trln.\$ (aholi jon boshiga mos holda 7,501\$ va 8,242\$), YaIMi harid qobiliyati pariteti (GDP PPP) 17,6 trln \$ (aholi jon boshiga 12,837 \$) tashkil etdi⁵. Xitoyning sotsialistik modernizatsiya tajribasi evolyutsion yo'l bilan, tajriba asosida, siyosiy qarorlar va iqtisodiy mexanizmlarning uyg'unligiga tayanib shakllangan. Bu model o'zida davlat rahbarligining kuchli rolini, milliy manfaatlar ustuvorligini va bosqichma-bosqich islohotlar siyosatini mujassam etadi.

Agar, biz XXR sining Yalpi ichki mahsuloti hajmini mamlakat 1-besh yilliklar davridan tahlil qiladigan bo'lsak, ya'ni 1952-yildan to 2025-yilga qadar mamlakatning YaIM hajmi 67.9 mlrd. yuandan 134.9084 trln. yuanga oshganligini ko'rishimiz mumkin. YaIMning aholi jon boshiga taqsimoti esa, 1952-yilda 118 yuandan 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 95,5 ming yuanga o'sgan. Xitoy YaIM hajmi va uning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi o'tgan 75 yil ichida ulkan yutuqlarga erishganligini guvohi bo'ldik⁶.

2.3.1.-rasm

Xitoy yalpi ichki mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari⁷


³China Outlook 2015 kpmg.com/cn kpmg.com/globalchina,P 23

⁴O'sha joyda, P 25

⁵www ereport.ru

⁶China's Economy Wu Li, Sui Fumin & Zheng Lei. Translated by David Gu..China Intercontinental Press.January 2010.-P.106.

⁷Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma.-T.: Moliya, 2011. - b; World Economic Situation and Prospects 2014. NewYork, 2014.R. 155.*



Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024

Hozitgi davrga kelib (2015-2016уу.). Xitoyning YaIM o'rtacha yillik o'sish sur'ati, mos holda 7,4 va 6,9% larni, 2019-2021уу.da 4,1%ni va 2022-2024-yillarda o'rtacha 4,2%ni tashkil etdi⁸

Xitoyning 2023-2024-yillardagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2.3.2.-jadval

	2024	2023
Nominal YaIM, trln.doll	18743.80	18270.36
YaIMning yillik o'sish sur'ati %da	4.80	5.20
YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri kelishim ming doll.	13, 121.68	12484.16

Shunday qilib, Xitoy iqtisodiy modeli davlat kapitalizmi shakli sifatida namoyon bo'ldi, ya'ni iqtisodiy rivojlanish bozor usullari va xususiy mulk shakllaridan foydalanilgan holda, lekin davlatning makroiqtisodiy strategiyasi doirasida amalga oshiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1.Qanday asosiy tarixiy voqealar natijasida imperator hokimiyati o'z iqtisodiy tayanchini yo'qotgan edi?

2.Xitoy va XXR tarixida dehqonlarning ekspluatatsiya shakllari qanday o'zgarib borgan?

3.Nima sababdan Xitoy XXR tashkil topishidan oldingi davrda yarim mustamlaka va yarim feodal mamlakat sifatida atalgan?

⁸China Outlook 2015 kpmg.com/cn kpmg.com/globalchina,P 26

4.Nega asrlar davomida dunyo yetakchisi bo‘lgan feodal Xitoy G‘arb davlatlaridan orqada qoldi?

5.XXR tashkil etilishidan oldingi davrda Xitoy iqtisodiy rivojlanishiga qaysi omillar to‘sqinlik qilgan?

6. Xitoy islohotlar davrini qaysi uch asosiy bosqichlarga ajratish mumkin?

7. Xitoy islohotlar davrini 3-bosqichi qanday nom olgan va u hozir qaysi yo‘nalishda rivojlanmoqda?

8.Xitoy iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy bosqichini asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar

1.XXRsida iqtisodiyot sohalairda amalga oshiriladigan modernisatsiya jarayonlari haqida Prezi dasturida taqdimot tayyorlang.

2.XXRsida uning rivojlanish bosqichlari bo‘yicha iqtisodiy o‘sish omillarini o‘zgarib borishini tahlil qiling va kerakli xulosalarni essay shaklida yozing

Adabiyotlar:

1.Xitoy iqtisodiyoti, B. Sadibekova, O‘quv qo‘llanma, T., 2018, -298 b.

2.Globallashuv sharoitida Xitoy iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlari. Monografiya, B. Sadibekova – T., 2020, - 291 b.

3.Экономика современного Китая. У.Ли., Жун Вэньли, Межконтинентальное издательство Китая, 2015, С.293

4. Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024. С.307.

5. Экономика стран Юго-Восточной Азии: учебник / под ред. В.М. Мазырина. — М.: АНОИИЦ«Наука», 2020. — 424 с.: илл. — (Высшее образование).

6. Новые горизонты экономики КНР в 14-й пятилетке (2021—2025 гг.) / Рос. акад. наук, Институт Китая и совр. Азии; сост. П.Б. Каменнов, А.Д. Александрова; отв. ред. А.В. Островский. — М. : ИКСА РАН, 2022. — 320 с.

3-BOB: XXRNING IQTISODIY HUDUDLARI

Darsning maqsadi: XXRsining iqtisodiy hududlari haqida to'liqroq ma'lumotlarga ega bo'lish va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rini tahlil etishdan iborat

Tayanch iboralar: iqtisodiy rayon, iqtisodiy salohiyat, iqtisodiy rivojlanish, milliy boyliklar, xorijiy sarmoya, transport kommunikatsiyasi, STG, ixtisoslashtirish.

3.1. XXR sining iqtisodiy rayonlarga bo'linishi, ularning tarkibi va joylashuvi

Mintaqaviy iqtisodiyotni mamlakat iqtisodiyotining muayyan qismi sifatida o'rganadigan bo'lsak, XXRsi hukumati mintaqalarining iqtisodiy rivojlanishini ularni tengligi asosida 1952-yilda davom ettirib, mamlakatning dengiz bo'yi va ichki mintaqalarini rivojlantirishida katta ro'l o'ynadi. "1947 yilda mamlakatning 20 ta yirik shaharlarida Xitoyning Gomindant hukumati davrida fabrikalar va ishchi kuchi ulushining asosiy qismi to'rtta dengiz bo'yi shaharlariga Shanxay (上海Shànghǎi), Tyandjin (天津Tiānjīn, Chindao (青島 qingdao) va Guandjou (广州 Guǎngzhōu) to'g'ri kelgan. Bu esa Xitoyning umummilliy ishlab chiqarish kuchi hajmining 70% ni tashkil etgan. Shuning uchun XXRsi tashkil etilgunga qadar mamlakatning ko'p mintaqalari o'zida qoloq an'anaviy agrar jamiyatni mujassam etgan, bu mintaqalarda esa, zamonaviy sanoatning ulushi milliy iqtisodiyotda 10%dan kam bolgan.

1958 yilda Xitoyning markaziy hukumati 6 ta ma'muriy rayonlar ishtirokida 7 ta iqtisodiy hamkorlikdagi hududlarini tashkil etdi, shu bilan birga mintaqalarning potensial imkoniyatlarini harakatga keltirish, turli hududlardagi mavjud tabiiy resurslardan unumli foydalanish, hududlarning o'z sanoat tizimini yaratish, bu orqali esa Xitoyning barqaror rivojlanishiga erishish maqsad qilib olindi. Mazkur 7ta iqtisodiy hamkorlik hududlariga quyidagilar kirdi:

-Shimoliy sharqiy mintaqa Xeylongdjian (黑龙江Hēilóngjiāng), Djilin (吉林 Jílín), Liaonin (辽宁Liáoníng) provinsiyalari;

Xitoy hududi mintaqaviy jihatdan bir necha yirik zonalarga ajratiladi. Jumladan, Shimoliy mintaqa tarkibiga Pekin va Tyantszin shaharlari, Xebey hamda Shansi provinsiyalari, shuningdek, Ichki Mongoliya avtonom hududi kiradi. Shimoli-gʻarbiy mintaqa esa Shensi, Gansu va Chinxay provinsiyalarini, shuningdek, Ninsya-Xuy va Shinjon-Uygʻur avtonom rayonlarini oʻz ichiga oladi. Sharqiy mintaqa Shandun, Dzyansu, Anxuy, Chjetszyan, Dzyansi va Futszyan provinsiyalari hamda Shanxay shahrini qamrab oladi.

-Markaziy mintaqa Xenan (河南Hénán), Xubey (湖北 Húběi) va Xunan (湖南Húnán) provinsiyalari, Janubiy mintaqa Guandong (广东Guǎngdōng) provinsiyasi va Guansi-juan (广西壮族自治区Guǎngxī Zhuàngzú Zìzhìqū) avtonom rayoni va Janubiy-gʻarbiy mintaqa Sichuan (四川Sìchuān), Guyjou (贵州guìzhōu) va Yunnan (云南Yúnnán) provinsiyalari va Tibet avtonom rayoni (西藏自治区Xīzàng Zìzhìqū).dan iborat⁹.

1961-yilda markaziy hukumat Markaziy va Janubiy iqtisodiy hududlarni Janubiy-markaziy iqtisodiy hududga birlashtirdi, natijada Xitoydagi iqtisodiy hamkorlik hududlarining soni 6 tani tashkil etdi. Har bir iqtisodiy hamkorlik hududi uchun bosh boshqarma va rejalashtirish hayʼati tashkil qilindi, ular esa barcha turdagi iqtisodiy harakatlarga javobgar etib belgilandi. Bu olti iqtisodiy hamkorlik hududlari maʼlum darajada Xitoyning maʼmuriy boʻlinishiga muvofiq tarzda boʻldi.

Mamlakat rahbariyatining ishlab–chiqarish kuchlarini taqsimlashda unga bir tomonlama yondashishi, uning rivojlanish holatiga oʻz taʼsirini oʻtqazdi. Butun sanoat quvvatining yarmidan koʻpi 5 ta shaharlarda: Shanxay, Tyanszin, Guanchjou, Chanchun va Sinchjouda jamlangan boʻlib, ular tarkibida; birinchidan, Xitoyning markazga boʻysungan 4 ta yirik shaharlari; ikkinchidan, aynan mana shu shaharlarga chet el investitsiyalari eng koʻp hajmda kiritildi. Chunki, mazkur hududlar Xitoyning “Ochiqlik” siyosati asosida chet el sarmoyalarini jalb qilish uchun qulay

⁹北京 Gao Ping. A Probe of Three Transformations of Regional Development Strategy of China // Journal of Zhongnan University of Economics and Law. – 2006. - № 1. 16 Běijīng.

imkoniyatlar bo‘lib chiqdi va aksincha, mamlakatning chet joylarida joylashgan, ayniqsa, uning g‘arbiy, shimoliy hududlari bunday holatlardan istasno bo‘ldi va oxir oqibatda o‘z iqtisodiy rivojlanishida ham oqsab keldi.

Xitoyning g‘arbiy hududlari tarkibiga Shinjon–Uyg‘ur, Tibet va Ninsya–Xuey avtonom rayonlari, shuningdek, Sinxay, Gansu, Shensi, Sichuan, Guychjou hamda Yunnan provinsiyalari kiradi. Bundan tashqari, markaziy hokimiyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvchi Chunsin shahri ham ushbu mintaqa tarkibida joylashgan. Mazkur hududlarning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi taxminan 18 foizni tashkil etadi. 1980 yilga kelib, hattoki birmuncha pasaydi, ya‘ni 14,0% ga tushib ketdi. 1990-yillar oxiriga kelib, u yana o‘sa boshlaydi va hozirda uning salmog‘i 17,2%ni tashkil etmoqda. Ushbu rayonlar tabiiy resurslarga boy bo‘lib, ularda asosan, tashqi aloqalarni kengaytirish imkoniyatlari orqali va davlat yordami orqali, mahalliy xom ashyoga tayangan holda, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish ko‘zda tutildi. Undan tashqari, “Buyuk ipak yo‘lini” tiklash natijasida, transport infratuzilmasini yo‘lga qo‘yishga ham katta e‘tibor berildi.

XKP sining XIY-s‘ezdi qarorlarida ta‘kidlanganidek, ayniqsa, Xitoyning kam sonli millat vakillari istiqomat qiladigan rayonlarida iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish, favqulotda katta ahamiyat kasb etdi. Chunki, mamlakatda xitoyning tub millat vakili xanlardan tashqari, 55 ta turli millat vakillari, ya‘ni 100 mln.dan ortiq aholi ham yashaydi. Shulardan kelib chiqib, mazkur rayonlarga hozirgi davrda markaziy davlat strukturalari orqali har tomonlama kompleks yordam ko‘rsatilmoqda.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan 3ta zonani “ixtisoslashtirish” tamoyillari hozirgi davrda, yetarli darajada ilmiy asoslangan va amaliy tarzda ratsional deb tan olindi. Ular orasida amalda eng ko‘p real yordamni Xitoyning Sharqiy zonasi oldi. U boshqa zonalarga nisbatan, tor yerda, ya‘ni dengiz oldiga joylashgan bo‘lishiga va mamlakat territoriyasining atigi 13,5%ni egallashiga qaramay, unda 500 mln.kishidan ko‘proq (41%) aholi yashaydi. Sharqiy Xitoyning mamlakat YaIM dagi salmog‘i esa, 48% dan ortiqroqdir.

Ushbu mintaqa XXR si tashkil etilgan kundan keyingi hamma davrda “eng ko‘p qulay sharoit” tartibida bo‘lib keldi. Uning sabablari:

- birinchidan, uning qulay geografik joylashganligi bo‘lsa,
- ikkinchidan, revolyutsiyadan oldingi davrda ham unda muayyan sanoat salohiyatining mavjudligi;
- uchinchidan, nisbatan rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi;
- undagi qulay tabiiy-iqlim sharoitlarining mavjudligi;
- katta miqdorda kishilik resurslarining mavjudligi;
- qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga sharoitning yaxshiligidan iborat.

Undan tashqari, mazkur mintaqada XXRsi poytaxti – Pekin, Shanxay, Tyanszin va Guanchjou shaharlarining joylashganligi katta ahamiyat kasb etadi. Sharqiy Xitoy mamlakatning bosh “industrial sex” i ro‘lini o‘ynab, u nisbatan kamroq foydali qazilmalarga ega ekanligiga qaramasdan, uning dengiz oldi provinsiyalarida asosiy sanoat tarmoqlarini muhim markazlari faoliyat ko‘rsatadi. Ularda sanoat tarmoqlarining metallurgiya, neft qazib olish va neft kimyosi tarmoqlari katta o‘rinni egallaydi. Masalan, Shanxay, Shenyan, Dalyan, Sindao va boshqa shaharlarda katta quvvatlarga ega bo‘lgan og‘ir sanoat korxonalari, transport mashinosozligi va uskunasozlik korxonalari joylashgan. U yerdagi kemasozlik sohasi mamlakatni dunyoda 3-o‘ringa olib chiqdi.

Shular bilan birga, ushbu rayonlar o‘zining xilma-xil va rang-barang tekstil sanoati mahsulotlari va murakkab maishiy texnikalarni ishlab chiqarish bilan dunyoga tanilmoqda. Ularda ishlab chiqarilayotgan yuqori texnologik tarmoqlari o‘zlarining: elektronika, aerokosmik texnika, turli markalardagi komp’yuterlarni ishlab chiqarish, aloqa va axborot vositalarining eng takomillashgan turlarini ishlab chiqarishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharqiy zonada Shanxayning alohida o‘z o‘rni bo‘lib, u Yanszi daryosi quyi oqimida joylashgan. Unda 24 mln. kishidan ortiq aholi istiqomat qilib, u nafaqat ko‘p qirrali sanoat salohiyatiga ega, balki asosiy daryo porti vazifasini, transportlar shaxobchasini, savdo va bank markazi vazifalarini ham bajarmoqda. Unda Xitoy fond birjalaridan biri Shenchjen fond birjasi faoliyat ko‘rsatadi. Undan tashqari,

shaharning chegarasida tez sur'atlarda Pudun xalqaro sanoat-savdo hamda moliya majmuasi qad ko'tardi.

Hozirda Xitoy jamiyati mintaqalararo disproporsiyani yaqqol anglamoqda va uning oqibati yaxshi tugamasligini ham tushunib yetdi. Shuning uchun mamlakatning mintaqaviy siyosatini strategik yo'nalishi sifatida ushbu Sharqiy Iqtisodiy rayoni davlatning iqtisodiy qurilishida "lokomotiv" vazifasi ajratilib, u Markaziy va G'arbiy Iqtisodiy rayonlarni rivojlantirishda haqiqiy plasdarmga aylanishi lozim bo'ldi. Mana shu Markaziy va G'arbiy hududlarni rivojlantirish sari qadamlar qilishda mamlakatda ma'muriy-tashkiliy tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular iqtisodiy dastaklardan ko'proq foydalanishni ko'zda tutadi. Ya'ni, ushbu hududlarga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda va ularga kredilar ajratishda keng imtiyozli sharoitlar yaratib berishdan iborat. Markaziy zona provinsiyalarida, ya'ni Szyansi, Xunan, Guychjou, Yunnanlarda, nafaqat Xitoyda, balki dunyoda yirik hisoblangan volfram, surma, qalayning konlari joylashgan bo'lib, ular hozirda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va uning eksport salohiyatini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, bozor mexanizmi ishlab chiqarish jamg'armasini qo'llab-quvvatlaydi. Oxirgi 45 yil ichida xorijiy investisiyalarning asosiy kapitalga quyilmasi asosan, mamlakatning Sharqiy dengiz oldi rayonlariga va uning yangi sanoat rayonlariga to'g'ri keldi. Ulardagi yuqori xo'jalik faoliyati ularga jamg'arish uchun yaxshi imkoniyatlarni yaratib berdi. Ushbu hududlarda iqtisodiy islohotlar jarayoni jadal sur'atlarda olib borildi. Uning sabablari esa, mazkur hududda joylashgan institusional va texnologik innovatsiyalarning mavjudligi hisoblanadi. Janubi-Sharqiy hududlarda jamoa va xususiy mulk turlaridan imkon qadar samarali foydalanilgan, ularga ahamiyatli tarzda xorijiy sarmoyalar oqimi jalb etilgan, ularda erkin iqtisodiy zonalarning mavjudligi, bozorga yo'naltirilgan makroiqtisodiy boshqarishning va boshqa quyidagi omillarni mavjudligi bilan ajralib turadi:

Xitoyning asosiy davlat siyosati uzoq muddatli va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan strategiyaga asoslanadi.

Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining muhim jihatlaridan biri mintaqalar o'rtasidagi farqlarning keskin qarama-qarshilikka aylanib ketishiga yo'l qo'ymasdan, ularni maqbul nomutanosiblik doirasida ushlab turishdir.

Markaziy hukumatning boshqaruvdagi asosiy vazifasi iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish, mintaqalararo integratsiyani kuchaytirish, rivojlanishda ortda qolayotgan hududlarda yuqori o'sish sur'atlarini rag'batlantirish hamda mintaqaviy notekislikni bosqichma-bosqich kamaytirishdan iboratdir.

Xitoy xalq xo'jaligi hududlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va iqtisodiy hamkorlik mexanizmlari orqali yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtai nazardan, mintaqalar orasidagi mavjud tafovutlarni iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan darajada boshqarish mamlakatni samarali boshqarishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda, mintaqaviy nomutanosiblik milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishda muayyan rag'batlantiruvchi omil vazifasini ham bajaradi, chunki:

birinchidan, sharqiy dengizbo'yi hududlarida kuzatilayotgan yuqori iqtisodiy o'sish ichki mintaqalarga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmining kengayishiga va kapitalning sezilarli darajada jamg'arilishiga xizmat qiladi;

ikkinchidan, Markaziy va G'arbiy hududlardagi katta mehnat resurslari sharqiy mintaqalarning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi;

uchinchidan, sharqiy mintaqalarning rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalari umumiy iqtisodiy o'sish va islohotlar jarayonining jadallashuviga turtki bo'ladi;

to'rtinchidan, sharqiy zonalarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar mamlakatning boshqa mintaqalari uchun islohotlarni sinovdan o'tkazish va samarali tajribalarni keng joriy etish imkonini beruvchi muhim tajriba maydoni vazifasini bajaradi hamda hududiy iqtisodiy ustuvorliklarni to'liq ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi.

Xitoyning mintaqaviy hukumat organlari hozirda o'z e'tiborlarini ko'proq mahalliy resurslarni taqsimlashga va joylarga xorijiy kapitalni jalb qilishga qaratmoqdalar. Markaziy va mahalliy hukumatlarning iqtisodiy vazifalarini amalga oshirilishi uchun bozor talabidan kelib chiqib, ularning har qaysisini iqtisodiyotga

aralashuv darajasi va usullarini aniq asoslash lozim bo'ldi. Mintaqalar darajasidagi iqtisodiy rivojlanish uning maqsadga yo'naltirilgan siyosati va boshqarilishiga bog'liqdir. Xitoyning umumiy maqsadga yo'naltirilgan siyosati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Sharqiy mintaqadagi makroiqtisodiy vaziyatni yanada yaxshilaydigan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish;

- aholining qashshoq qismiga yordam berishga urg'u qo'ygan holda, mamlakatning Markaziy va G'arbiy hududlarini rivojlanishini tezlashtirish;

- qashshoqlikka qarshi kurash mintaqaviy dasturining samarasini oshirish.

Mamlakatdagi soliq, moliya, sanoat ishlab chiqarish siyosatini amalga oshirishda asosiy masalalar qatoriga davlat byudjetining daromadlar qismidagi transfert to'lovlari tizimini tashkil etishni, ulardagi infratuzilmalarni takomillashtirishni, sarmoyalar dinamikasini va ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilashni qo'yish mumkin. Mintaqaviy va tarmoq boshqaruv organilari vazifalariga tarmoqlararo aloqalarni bir-birini to'ldirgan va birlashgan holda, koordinatsiya va kooperatsiya yo'li bilan muammolarni hal etish kiradi. Ularning barchasi esa, mamlakatdagi iqtisodiy qonuniyatlarni rivojlantirish asosida va bozorni kengaytirish hamda takomillashtirish asosida, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni ko'zlaydi.

Xitoy mintaqaviy iqtisodiy siyosati markaz va mintaqalar orasidagi byudjet munosabatlariga asoslangan bo'lib, u birinchi navbatda mintaqaviy iqtisodiyotning va aholi bandligini o'sishiga yordam berishi, mamlakatning rivojlangan va muammoli mintaqalari orasidagi nomutanosiblikni engishga hamda oxir oqibatda aholining yetarlicha yaxshi yashash sifatini oshishiga olib kelishi lozim.


Xitoy tashkil topgan davrda mamlakatning shimoliy–g'arbiy territoriyasiga, ya'ni, mamlakat territoriyasini 1/3 qismiga yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning atigi 2% gina to'g'ri kelar edi. I-besh yillikdan boshlab, sharqdagi eski sanoat rayonlarini faol ishlatish kursi qabul qilindi. Shular bilan birgalikda, mamlakatning chet va qoloq joylarda yangi industrial markazlar barno etila boshladi.

Mazkur besh yillikda sanoatni asosiy fondlariga kiritilargan investitsiyalarni 55,9%i endi ichki rayonlarga to‘g‘ri keldi. U yerda 68% yangi yirik ob‘yektlar qurilib ishga tushirildi. Sekin – asta dengizdan uzoq joylashgan shaharlar ham sanoat markazlariga aylana bordi. XXRsining (1970-yillardagi) qtisodiy rayonlari 6 ta rayonlarga bo‘linganva ular o‘z ichiga quyidagi rayonlarni qamrab olgan:¹⁰I-Shimoliy-sharqiy; II-Shimoliy; III-Sharqiy; IY-Markaziy-janubiy; Y-Shimoliy-g‘arbiy; YI-Janubiy-g‘arbiy. Ta‘kidlash lozimki, agar 1956-1966 yillarda Xitoyda (“katta sakrash”) va 1966-1976 yillardagi (madaniy inqilob”) dasturlarni bajarish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlardagi xatoliklari yuz bermaganida edi, sanoat ishlab chiqarishini boshqa tarmoqlarini geografik tekis joylashtirish jarayoni yanayam, samarali bo‘lgan bo‘lar edi. O‘sha davrda mamlakatning har bir rayonida, har bir provinsiyasida, uezdida “o‘z- o‘zini ta‘minlovchi” va “o‘z kuchiga tayanish” shiorlari natijasida, to‘liq iqtisodiy majmua yaratish konsepsiyasi ustunlik qilar edi.

Agar, Xitoy davlatini Pekin, Shanxay, Tyanszin va Chanchun kabi shaharlariga (megapolislarga) o‘xshash va boshqa yirik shaharlariga nazar soladigan bo‘lsak, unda g‘arb davlatlari singari rivojlangan infratuzilma; osmon o‘par imoratlar, banklar, mehmonxonalar, avtomagistrallar ko‘z oldimizda nomoyon bo‘ladi. Ular bilan yonma-yon juda yaxshi holda saqlanib qolgan qadimiy tarixiy obidalar bir-biriga mos tushib turganini ko‘rish mumkin.

3.1.1.-rasm

Xitoyning 7ta iqtisodiy mintaqalari (zonalari) xaritasi¹¹



¹⁰ China’s Economy Wu Li, Sui Fumin & Zheng Lei. Translated by David Gu.. China Intercontinental Press. January 2010.-P.12..

¹¹ manba: The CID Groupe 2015

Xitoyning bu hududlari sharqiy hududlarga nisbatan ancha orqada qolgan bo‘lib, har ikkala qutb, umuman bir-biriga sira o‘xshamaydi. Aynan, shuning uchun ham, Xitoy hukumat o‘z oldiga mintaqaviy siyosatni optimal tarzda mamlakat hududlarini bir-biri oldida kamsitmaslik shiori ostida, amalga oshirishni vazifa qilib qo‘ydi va uni asosiy tamoyillarini, yo‘nalishlarini belgilab oldi.

Albatta, XXRsida bunday holat uzoqqa cho‘zilmadi Konstitutsiya va boshqa normativ aktlar orqali ularning, ya’ni “markaz va mahalliy” hukumatning siyosiy, ma’muriy, iqtisodiy huquq va majburiyatlari aniq ko‘rsatildi. Ishlab chiqarish mablag‘larining mutlaq katta qismi, hattoki davlat sanoat sektorida ham markaziy emas, balki mahalliy ma’muriy tizim – provinsiya, shahar, uezdga qarashli mulk hisoblandi. 1980-yillar oxiriga kelib, umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmining 80% igacha mahalliy hukumat organlari tomonidan nazorat qilina boshlandi.

XXRsi mintaqaviy siyosatining xususiyatlaridan biri – bu shahar bo‘g‘iniga (zvenosiga) ko‘proq huquq berish bo‘lib, u “shaharlar ro‘lini rivojlantirish” shiori ostida yangi xo‘jalik tizimini shakllantirishga kirishishni bildiradi. Uning asosiy maqsadi shahar va qishloq o‘rtasidagi uzviy aloqani tiklash, qishloqlarga texnikaviy yordam ko‘rsatish, ularni malakali kadrlar bilan ta‘minlash va boshqa yordamlar ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, xususan, ulardan eng asosiysi – har bir ichki mikrorayonda va rayonlararo munosabatlarda bevosita bozor munosabatlarini rivojlantirishga yordam berish bo‘ldi.


Yoqorida ta’kidlanganidek, mamlakatdagi mavjud ma’muriy hududiy tuzilishiga ko‘ra, Xitoy 23ta provinsiya, 5ta avtonom rayonlar va 4ta markazga bo‘ysunuvchi shaharlarga bo‘lingan bo‘lib, ushbu provinsiyalar, avtonom rayonlar va shaharlar o‘z yurisdiksiyasi ostida 30ta avtonom okrugini, 640ta shaharlar va 1716ta uezlarni, 30 mingdan ortiqroq volost va milliy volostlarni va 17 mingta poselkalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, mamlakatdagi alohida ma’muriy rayonlar maqomi berilgan Syangan (Gonkong) va Makao (Aomen)lar ham ular qatoriga kiradi. Undan so‘ng, turli yillarda Xitoyda provinsiyalarni, shaharlarni va boshqa

ma'muriy birliklarni yirikroq birlashmalarga aylantirish ustida bir necha marotaba urinishlar bo'ldi.¹²

Vanihoyat, eng yirik iqtisodiy rayonlashtirishdagi siljish 1986 yilda yuz berdi. Mazkur, yilda XXRsi hukumati qarori bilan mamlakatda 3ta yirik meridional zonalar tashkil etildi: ular - Sharqiy, Markaziy va G'arbiy (iqtisodiy) zonalarini o'z ichiga oldi.

3.1.2.- rasm.

Xitoyning 3ta yirik iqtisodiy zonalarini xaritasi^{13*}



*Izoh: Western Zone-G'arbiy zona, Central Zone –markaziy zona, Eastern Zone –Sharqiy zona

Mazkur 3ta iqtisodiy zonalar (Sharqiy, Markaziy va G'arbiy) o'z navbatida, quyidagi hududlarga bo'linadi (Jadval 3.1.1ga qaralsin):

Jadval 3.1.1.

Xitoy iqtisodiy rayonlari (zonalarini) tarkibi¹⁴

Iqtisodiy mintaqalar	Provinsiyalar	Provinsiyalar soni
Sharqiy	Lyaonin, Xebey, Pekin, Tyanzsin, Shandong, Tzyansu, Shanghai, Tjetzyanm Futzyan, Guandun, Xaynan, Guansi	12
Markaziy	Tzilin, Xeyluntzyan, Xenan, Xubey, Xunan, Shansi, Ichki Mongoliya, Anxoy, Tszyansi	9
G'arbiy	Shensi, Gansu, Tsinxay, Sichuan, Yunnan, Guychjou, Ninsya-Xuey AR, SUAR, Tibet AR, Chunsin	10

Mamlakatning **Sharqiy zonasiga** – Lyaonin, Xebey, Shandun, Szyansu, Chjesyan, Fusyan, Guandun, Xaynan provinsiyalari va Guansi – Chjuxay avtonom

¹² Г.А.Ганшин. Региональная политика и размещение производительных сил, Китай на пути модернизации и реформ, М.,1999, С.227.

¹³ manba: The CID Groupe 2015

¹⁴ Manba: China Statistical Yearbook 1997, National Bureau of Statistics.

rayonlari hamda Xitoyning 3 ta markazga bo'ysunuvchi shaharlari: Pekin, Tyaszin va Shanxaylar kiradi.

Xitoyning markaziy zonasiga - Xeylunshyan, Szilin, Shansi, Xenan, Xubey, Xunan, Anxoy, Tszyansi provinsiyalari va Ichki Mongoliya avtonom rayoni kiradi.

Shuningdek, mamlakatdagi mana shunday iqtisodiy rayonlashtirish natijasida, *g'arbiy zonaga* – Sinszyan-Uyg'ur Avtonom rayoni, Tibet Avtonom rayoni, Sinxay, Gansu, Shensi, Sichuan, Chuychjou, Yunnan, Ninsya-Xuey Avtonom rayoni va Chunsin shahri kiritildi.

Shunday qilib, Xitoy hukumatini mamlakatdagi mintaqaviy ustuvorlik holatlarini ko'p yillar mobaynida pasaymayotganligi, bir muncha tashvishga solib qo'ydi va mazkur holat normal emasligi tan olinib, bu yo'nalishda jiddiy o'zgartirishlarni amalga oshirish lozimligi belgilandi.

3.2. Sharqiy, G'arbiy va Markaziy iqtisodiy hududlarning iqtisodiy salohiyati hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari

Sharqiy dengiz bo'yi zonasi - iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan bo'lib, unda sanoat markazlari va tugunlarining ko'pchiligida ko'plab qishloq xo'jaligi rayonlari, transport magistrallari, deyarli barcha dengiz portlari joylashgan. Eng yirik shaharlar ham ushbu zonadan joy olgan. Bu iqtisodiy rayonlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ushbu rayon mamlakatning dengiz oldi qismlarida joylashgan bo'lib, barcha portlar shu rayondan o'rin olgan.

2. Mamlakatning poytaxti va markazga bo'ysinuvchi 4 ta shahardan 3 tasi, ya'ni Pekin, Shanxay va Tyanzsin shaharlari shu rayonda joylashgan bo'lib, ular mamlakatning industriya, savdo, bank, turizm va moliya markazlariga aylangan.

3. Iqtisodiy zonaning janubiy qismida iqtisodiy va siyosiy imtiyozlarga ega bo'lgan Syangan va Aomen maxsus iqtisodiy rayonlari hamda Xaynan provinsiyasi (erkin iqtisodiy zona) joylashgandir. Tayvan provinsiyasi bugungi kunda XXR hukumatiga siyosiy jihatdan bo'ysunmasada, Xitoy iqtisodiyotiga juda katta sarmoyalar kiritish orqali mamlakatning yaxlit iqtisodiy negizini ta'minlaydi.

4. Bu iqtisodiy rayon mamlakat umumiy maydonining 14% va umumiy aholining 13% ini tashkil etsada, umumiy sanoat ishlab chiqarishning 70% dan ko‘prog‘ini beradi¹⁵.

5. Bu iqtisodiy rayonda mamlakatning aksariyat «ochiq iqtisodiy zonalari joylashgandir».

Yo‘qorida ko‘rsatib o‘tilgan 3 ta zonani “ixtisoslashtirish” tamoyillari hozirgi kunda, yetarli darajada ilmiy asoslangan va amaliy tarzda rasional deb tan olindi. Ular orasida amalda eng ko‘p real yordamni Xitoyning Sharqiy zonasi oldi. U boshqa zonalarga nisbatan tor yerda, ya’ni dengiz oldiga joylashgan bo‘lishiga va mamlakat territoriyasining atigi 13,5% ni egallashiga qaramay, unda 500 mln. kishidan ko‘proq (41%) aholi yashaydi. Sharqiy Xitoyning mamlakat YaIM dagi salmog‘i esa, 60% dan ortiqroqdir.

Ushbu mintaqa XXRsi tashkil etilgan kundan keyingi hamma davrda “eng qulay sharoit” (PHБ) tartibida bo‘lib keldi. Uning sabablari:

- birinchidan, uning qulay geografik joylashganligi bo‘lsa,
- ikkinchidan, revolyusiyadan oldingi davrda ham unda muayyan sanoat salohiyatining mavjudligi;
- uchinchidan, nisbatan rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi;
- undagi qulay tabiiy-iqlim sharoitlarining mavjudligi;
- katta miqdorda kishilik resurslarining mavjudligi;
- u yerda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga sharoitning yaxshiligidan iboratdir.

Ulardan tashqari, mazkur mintaqada XXRsi poytaxti – Pekin shahrinin, Shanxay, Tyanszin va Guanchjou shahardarining joylashganligi katta ahamiyat kasb etadi. Hozirda Sharqiy Xitoy mamlakatning bosh “industrial sexi” rolini o‘ynamoqda. Uning nisbatan kamroq foydali qazilmalariga ega ekanligiga qaramasdan, uning dengiz oldi provinsiyalarida asosiy sanoat tarmoqlarining muhim markazlari faoliyat ko‘rsatmoqdadir. Ulardan, sanoat tarmoqlarining metallurgiya,

¹⁵ Xitoy Bosh statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, Pekin, 2020 y.

neft qazib olish va neft kimyosi katta o‘rin egallaydi. Masalan, Shanxay, Shenyang, Dalian, Sindao va boshqa o‘aharlarda katta quvvatlarga ega bo‘lgan og‘ir sanoat korxonalari, transport mashinosozligi va stanoksozlik korxonalari joylashgandir. Undagi kemasozlik Mamlakatni dunyoda 3-o‘ringa olib chiqdi.

Shular bilan birga, ushbu rayonlar o‘zining xilma-xil va rang-barang tekstil sanoati mahsulotlari va murakkab maishiy texnikasini ishlab chiqarish bilan dunyoga tanilmoqdadir. Kundan-kunga unda ishlab chiqarilayotgan yuqori texnologiyalar tarmoqlari o‘zlarining: elektronika, aerokosmik texnika, turli markalardagi kompyuterlarni ishlab chiqarish, aloqa va axborot vositalarining eng takomillashgan turlarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sharqiy Xitoy iqtisodiyotida Shanxayning alohida o‘z o‘rni bo‘lib, u Yanszi daryosi quyi oqimida joylashgandir. Unda 24 mln. kishidan ortiq aholi istiqomat qilib, u nafaqat ko‘p qirrali sanoat salohiyatiga ega, balki u asosiy daryo porti vazifasini, transportlar shaxobchasini, savdo va bank markazi vazifalarini ham bajarmoqda. U yerda Xitoy fond birjalaridan biri Shenchjen faoliyat ko‘rsatadi. Undan tashqari, shaharning chegarasida tez sur‘atlarda Pudun xalqaro sanoat-savdo hamda moliya majmuasi qad ko‘tardi.

Hozirgi kunda mazkur rayonning ahamiyati ortib bormoqda. Xitoy jamiyati mintaqalararo disproporsiyani yaqqol anglamoqdalar va uning oqibati yaxshi tugamasligini ham tushunib yetdilar. Shuning uchun mamlakatning mintaqaviy siyosatining strategik yo‘nalishi sifatida ushbu Sharqiy Xitoyni davlatning iqtisodiy qurilishida “lokomotiv” vazifasini ajratib, u Markaziy va G‘arbiy Xitoyni rivojlantirishda haqiqiy plasdarmga aylandi.

Sharqiy zonasi - iqtisodiy zonalar orasida eng rivojlangani va “Ochiq eshiklar” siyosatini amalga oshirishda faol qatnashgan zona ham, – bu aynan, mamlakatning Sharqiy zonasi hisoblanadi. Chunki, 1978-yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar va “ochiq eshiklar” siyosati natijasida, mazkur hududga chet el sarmoyalari faol jalb etila boshlandi va hozirgi kunda mazkur zonada dunyoning mavjud 500tadan ortiq Trans milliy korporatsiyalarining 400 tadan ortiqrog‘i o‘zining filiallari va

vakolatxonalarini hamda qo'shma korxonalarini ochib, nafaqat o'zlarining davlatlariga, balki Xitoy iqtisodiyotiga sezilarli darajada ulkan hissa qo'shmoqda.

Lyaonin provinsiyasi mamlakat sanoatining rivojlanishi bo'yicha oldingi o'rinlarni egallaydi. Sanoat ishlab chiqarish tarkibida mashinasozlik va metallurgiyaning salmog'i boshqa tarmoqlar salmog'idan ancha yuqoridir. Bu rayon ko'mir qazib olishda yetakchilik qiladi. Eng ko'p miqdordagi ko'mir Lyaonin provinsiyasidagi Fushun va Fusin konlaridan qazib olinadi. Undan tashqari, bugungi kunda ko'mir qazib olish Besi, Beynyao, Lyaoyuanda konlarida ham yo'lga qo'yilgan.

Xitoy Xalq Respublikasining poytaxti Pekin shahrining ham ushbu iqtisodiy hududda joylashganligi muhim ahamiyatga egadir. U Buyuk Xitoy tekisligida dengizdan 170 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, u turli davrlarda turli nomlar bilan atalgan. Hozirda mamlakatning poytaxti bo'lgan Pekin shahri (Bei Jing - Shimoliy poytaxt) sharqiy Osiyoning industriya, bank-moliya va turizm markazlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xitoyning eng katta shaharlaridan yana biri – bu Shangxay shahridir. Shanxay dengizdan 50 km. uzoqlikda Yanszi daryosiga quyiluvchi Xuanxe daryosi bo'yida joylashgan bo'lib, u dunyodagi eng katta portlardan biri va mamlakatning ko'p minglab sanoat korxonalarini hamda moliya muassasalari to'plangan markazdir. 2002 yillardan to hozirgi kunlargacha u yerda XXR ning eng zamonaviy metallurgiya kombinatlari va qudratli atom elektrostansiyalari (AES) qurilib ishga tushirilgan. Ular natijada yon-atrofga joylashgan provinsiyalar energiya bilan to'liq ta'minlanmoqda.

Markaziy va g'arbiy iqtisodiy mintaqalar mamlakat umumiy maydonining 3/4 qismini, umumiy aholining 2/3 qismini hamda 20 dan ortiq kichik millatlarni birlashtiruvchi, umumiy chegaralari 20 ming km. dan ortiq hududni egallagan mintaqalardir. Endi ularni har birini alohida qarab chiqamiz:

Markaziy iqtisodiy hudud - mamlakatning ichki hududi hisoblanib, xalq xo'jaligi asosan, milliy iqtisodiy resurslarga, ya'ni tog'-kon resurslariga, sersuv daryolarga (mamlakatning eng yirik Yanszi va Xuanxe daryolarining asosiy

basseyni ushbu hududni qamrab oladi) boy bo‘lib, bu iqtisodiy rayon sanoat ishlab chiqarishida milliy kapital ustunlik qiladi. Markaziy iqtisodiy rayon tabiiy boyliklardan ko‘mir, neft, temir va rangli metall ruda konlariga ham boydir

Xitoy hukumati 1984 yilda tashqi dunyo uchun dengiz bo‘yidagi 14ta shaharlarni ochiq deb e‘lon qildi, binobarin, ular bevosita tashqi iqtisodiy aloqalar olib borish huquqiga ega bo‘ldilar.

G‘arbiy iqtisodiy hududning maydoni taxminan 5,4 mln kv.km. iborat bo‘lib, unda 285 mln. aholi istiqomat qiladi, ya‘ni Xitoy davlati maydonining 57% ni va umumiy Xitoy aholisini 23%ni tashkil etadi. Shu bilan birga, ta‘kidlash lozimki, mamlakatdagi izlab topilgan tabiiy boyliklarning yarmisi shu rayonlarga to‘g‘ri keladi. Bu g‘arbiy hududda yer mo‘l bo‘lib, ammo, lekin, ularning ko‘pgina qismi juda ham kuchsizdir, hamda uning yana bir muammosi – bu suv yetishmovchiligi hisoblanadi. Aynan shuning uchun bu yerlarda hosildorlik juda pastdir. Undan tashqari, uning ekologik muhiti ancha nozik bo‘lib, undagi yerning eroziyasi umumiy maydonning 80%ni, ya‘ni 3,6 mln kv. km.da kuzatiladi.

G‘arbiy rayonlar yer osti foydali qazilmalariga boy bo‘lishi bilan birga, o‘zida suv manbalarining, moliyaviy mablag‘larning, texnika va fundamental infratizimlarning cheklanganligi, uni o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi. Agarda bu hududlar norasional tarzda o‘zlashtirilsa, u holatda bunday o‘zlashtirish ekologiyaga jiddiy ta‘sir qilishi mumkin. Ushbu rayon mamlakat umumiy hududining juda katta qismini, ya‘ni 56% ni egallagan bo‘lsada, uning YaIM dagi ulushi sezilarli darajada kamdir. Agar bu ko‘rsatkich 1990 yillarda 16,4% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2000 yillar o‘rtalariga kelib, hatto 14% gacha pasayib ketdi, bugungi kunda bu ko‘rsatkich ancha o‘sib, 17,2 % ni tashkil etmoqda. Mazkur iqtisodiy hudud tabiiy resurslar, ayniqsa, neft konlariga boy bo‘lib, bugungi kunda u mamlakatning deyarli energetik bazasiga aylangan.

G‘arbiy iqtisodiy rayon asosan, dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, undagi Sinszyan Uygur Avtonom rayoni (AR) mamlakat yengil sanoatini paxta xom ashyosi bilan, Ichki Mongoliya AR rayoni esa, mamlakatni go‘sh va sut mahsulotlari bilan ta‘minlaydi.

Xitoy Xalq Respublikasining tabiiy boyliklari o'z ichiga 45 turdan ortiq turli minerallarni olib, ularning umumiy qiymati 87 trln. doll.ni tashkil qiladi. O'zining tabiiy resurslar bo'icha mavjud salohiyati bilan Xitoy hozirgi kunda dunyoda 3-o'rinda turadi. Tabiiy boyliklarining 91%i mamlakatning markaziy va g'arbiy qismida joylashgandir. Uning dengiz oldi va ilgari o'zlashtirilgan hududlarida tabiiy boyliklari hozirgi kunda tugab bormoqda.

Mutaxassislarning fikricha, sharqiy iqtisodiy rayonda energetika va xom ashyoni qayta ishlovchi sanoatning ulushi 10% dan 30% ni tashkil etadi, aksincha, markaziy va g'arbiy rayonlarda bu ko'rsatkich 50% dan oshadi. Masalan, alyuminiy, qo'rg'oshin, sink, vannadiy, magniy, nikel va boshqa noyob metallar, minerallarning ulushi markaziy hamda g'arbiy rayonlarda 33% dan 98% ni tashkil etadi. Ko'mir xavzasi Tyanshan tog'idan to Guychjou provinsiyasiga qadar cho'zilgan. Mazkur mahsulot yana Ichki Mongoliya avtonom rayonida ham mavjuddir. U yerlarda mamlakat ko'mir zahiralarining 60% dan ortig'i joylashgan. Olib borilgan hisob-kitoblarga ko'ra, Sinszyan Uyg'ur avtonom rayonida ko'mirning zahirasi 600 mlrd. tonnadan ortiq bo'lib, mamlakat umumiy ko'mir zahirasining 37% ni tashkil qiladi va bu yo'nalishda mamlakatda 1- o'rinda turadi.

Xitoy hukumatini mamlakatdagi mintaqaviy ustuvorlik holatlari, ya'ni, Xitoyning sharqiy provinsiyalariga berilgan ustuvorlik va ularni ko'p yillar mobaynida pasaymayotganligi, bir muncha tashvishga solib qo'ydi hamda mazkur holat normal emasligi tan olinib, bu yo'nalishda jiddiy o'zgartirishlarni amalga oshirish lozimligi talab qilindi. Mamlakatda tez-tez turli anjuman va kengashlarda, Xitoydagi mintaqalar orasidagi tengsizlik va ularni moliyaviy ta'minlashda adolatli taqsimlanishdan foydalanish to'g'risidagi norozilik masalalari haqida so'z yuritilib, ular orasidagi eng kuchli noroziliklar, mamlakatning nisbatan qoloq va kam ta'minlangan ichki hududlarida yashovchi aholi tomonidan bildirilib borildi.

Yoqorida ta'kidlangan xususiyatlar Xitoy hukumatini mintaqaviy siyosatini shakllanishida va ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirishda ulkan rol o'ynadi. Mamlakat territoriyasinihg 3ta zonaga bo'linishi, bizga ularning ko'p ko'rsatkichlar bo'yicha rivojlanish darajasini bilishga, ular tomonidan YaIM ga

qo'shgan hissalarini aniqlashga, ularga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish miqdorini aniqlashga va aholi daromadlarini o'sishini bir-biri bilan qiyoslashga yordam beradi. Quyida biz YaIMning o'sish sur'atlari va uning mintaqaviy tarkibini tahlil qilamiz.

3.2.1.- jadval.

Xitoy YaIM o'sish sur'atlari				
yillar	Sharq	Markaz	G'arb	jami mamlakat bo'yiyaa
1999	9,74	7,83	7,25	8,79
2000	10,37	8,78	8,47	9,62
2001	9,87	8,99	8,74	9,45
2002	9,6	9,1	8,8	9,52
2004	9,8	9,9	9,1	9,56
2006	9,9	9,5	8,6	9,6
2010	10,6	8,5	7,9	9,0
2018	8,7	5,4	5,1	5,7
2020	6,7	5,4	5,1	5,7

Manba: Годовой статистический отчет КНР за 2021 год ва Да Тяочжен Чжунго, Цзинцизи, цзегоу Тяочжен дэ лю да венъти, Пекин 2011, с 191.asosida mualliflar tomonidan ishlandi.

Amalda mana shu zonalardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning 1985-2024 yillar mobaynida sezilarli darajada o'zgarmaganligi, ularga davlat tomonidan rivojlanishi uchun yetarli darajada mablag'larning ajratilmaganligini ko'rsatdi. Jadval 3.2.1.dan ko'rinib turganidek, mamlakatning ichki hududlarida iqtisodiy islohotlarni juda ham sekin qadamlar bilan amalga oshirilganligini guvohi bo'lamiz.

G'arbiy hududlarni keng miqyosli o'zlashtirilishi natijasida, iqtisodiy qurilish markazini sharqiy rayonlardan g'arbiy rayonlarga o'tkazish ko'zda tutildi. Agar, bu rayonlarni YaIMdagi salmog'ini tahlil qilamiz:

Jadval 3.2.2.

Xitoydagi 3 ta iqtisodiy zonalarning YaIMdagi salmog'i, % da.

	1985	1990	1995	2000	2005	2008	2010	2015	2020	2024
Mamlakat bo'yicha jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Sharqiy	70,7	69,1	67,7	66,2	65,3	65,1	64,8	64,4	64,1	63,8
Markaziy	15,5	16,4	17,2	18,4	18,2	18,3	18,5	18,8	18,9	19,0
G'arbiy	14,5	14,5	15,1	15,4	16,5	16,6	16,7	16,8	17,0	17,2

Manba: Да Туаочжен, Чжунго Цзинцизи Цзегоу Туаочжон де луи да венги, Пекин 2007, С.191 ва Чжунго щиган цзинцизибас.09.02.2015 asosida muallifdфк tomondan tuzildi

Jadval 3.2.2.dan ko‘rinib turganidek, mamlakatning ichki hududlarida iqtisodiy islohotlarni juda ham sekin qadamlar bilan amalga oshirilganligini guvohi bo‘lamiz.

O‘z navbatida, shuni ham ta‘kidlash joizki, davlat tomonidan mintaqalarga taqsimlangan real kapitai quyilmalarini dinamikasiga e‘tibor qaratsak, ularda ham ustivorlik Sharqiy zonaga berilganini kuzatish mumkin. G‘arbiy iqtisodiy rayonning tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-Ushbu rayon mamlakat umumiy hududining juda katta qismini, ya‘ni 56% ni egallagan bo‘lsada, uning YaIM dagi ulushi sezilarli darajada kamdir. Agar bu ko‘rsatkich 1990 yillarda 16,4% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2000- yillar o‘rtalariga kelib, hatto 14% gacha pasayib ketdi, hozirda bu ko‘rsatkich ancha o‘sib, 17,2 % ni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, bu iqtisodiy hudud tabiiy resurslar, ayniqsa, neft konlariga boy bo‘lib, bugungi kunda u mamlakatning deyarli energetik bazasiga aylangandir. G‘arbiy iqtisodiy rayon asosan, dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, undagi Sinszyan Uygur Avtonom rayoni mamlakat yengil sanoatini paxta xom ashyosi bilan, Ichki Mongoliya avtonom rayoni esa, malakatni go’sht va sut mahsulotlari bilan ta‘minlaydi.

Xitoy Xalq Respublikasining tabiiy boyliklari o‘z ichiga 45 turdan ortiq turli minerallarni olib, ularning umumiy qiymati 87 trln. doll.ni tashkil qiladi. O‘zining tabiiy resurslar bo‘icha mavjud salohiyati bilan Xitoy hozirgi kunda dunyoda 3-o‘rinda turadi. Tabiiy boyliklarining 91%i mamlakatning markaziy va g‘arbiy qismida joylashgandir. Uning dengiz oldi va ilgari o‘zlashtirilgan hududlarida tabiiy boyliklari hozirgi kunda tugab bormoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, sharqiy iqtisodiy rayonda energetika va xom ashyoni qayta ishlovchi sanoatning ulushi 10% dan 30% ni tashkil etadi, aksincha, markaziy va g‘arbiy rayonlarda bu ko‘rsatkich 50% dan oshadi. Masalan, alyuminiy, qo‘rg‘oshin, sink, vannadiy, magniy, nikel va boshqa noyob metallar, minerallarning ulushi markaziy hamda g‘arbiy rayonlarda 33% dan 98% ni tashkil etadi. Ko‘mir xavzasi Tyanshan tog‘idan to Guychjou provinsiyasiga qadar cho‘zilgan. Mazkur mahsulot yana Ichki Mongoliya avtonom rayonida ham mavjuddir. U yerlarda mamlakat ko‘mir zahiralarning 60%dan ortig‘i joylashgan. Olib borilgan hisob-

kitoblarga ko‘ra, Sinszyan Uyg‘ur avtonom rayonida ko‘mirning zahirasi 600 mlrd. tonnadan ortiq bo‘lib, mamlakat umumiy ko‘mir zahirasining 37% ni tashkil qiladi va bu yonalishda mamlakatda 1- o‘rinda turadi.

Markaziy va G‘arbiy rayonlarning iqtisodiy rivojlanishda ortda qolish sabablari quyidagilardan iborat:

-Tabiiy resurslarga boy bo‘lgan bu hududlar uzoq vaqt mobaynida o‘zining iqtisodiy rivojlanishida nisbatan ortda qolgan edi. 1979 yildan to 2008 yilgacha ichki ishlab chiqarishning o‘rtacha yillik o‘sishi sharqiy rayonda 11,3% ni tashkil etgan bo‘lsa, markaziy va g‘arbiy rayonlarda bu ko‘rsatkich atigi 8,7% dan iborat bo‘ldi. Sanoat tarkibiy tuzilishidan kelib chiqib, uning yalpi sanoatdagi ulushi 1985 yildan to 2007 yilgacha sharqiy iqtisodiy rayonda 46,3% dan 66,47% gacha osgan bo‘lsa, markaziy va g‘arbiy rayonlarda bu ko‘rsatkich 12,75% dan 11,33% gacha pasaydi¹⁶;

-Sarmoya quyishda ham bu hududlar bir-biridan keskin farqlanadi. 1992 yilda asosiy fondlarga sarmoya kiritishda 62,1% sharqiy hududga to‘g‘ri keldi. Agar, xorijiy sarmoyalarning 82% (2007y.) sharqiy hududlarga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 18%i markaziy va g‘arbiy rayonlarga to‘g‘ri kelgan. Bundan tashqari, Xitoydagi kambag‘al uezdlarning 90%i, mamlakatdagi kambag‘al aholining 80%i markaziy va g‘arbiy rayonlarga to‘g‘ri keladi;

-Xitoy hukumatining hududlararo iqtisodiy farqlanishlarni kamaytirish maqsadida Xitoyda quyidagi ishlar olib borilmoqda: 1949 yildan to 1978 yilgacha asosiy sanoat qurilishlari markaziy va g‘arbiy rayonlarda olib borildi. Masalan, 3-besh yillik rejalariga (1966-1970) ko‘ra, barcha sarmoyalarning 66,8% i ushbu hududlarga quyildi. Natijada, 1978 yilga kelib, Xitoy aholisining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlaridagi farqi 190 yuangacha kamaydi. Biroq, hukumat markaziy va g‘arbiy rayonlarga barcha imtiyozlarni bergan bo‘lsada, ularda qazib olinayotgan va ishlab chiqarilayotgan xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni pasaytirilgan narxlarda sharqiy hududga yo‘naltirdi. Oqibatda, markaziy va g‘arbiy rayonlar faqatgina xom ashyo bazasi bo‘lib qoldi. Ba’zi bir hollarda narxlar jahon bozoridagi

¹⁶Xitoy Bosh statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, Pekin, 2016 y

narxlardan ham pasaytirilgan holda, sharqiy hududlarga direktiva asosida sotildi. Va aksincha, tayyor mahsulotlarni markaziy va g'arbiy hududlar o'z navbatida bozor narxlarida sotib olishga majbur bo'ldilar.

Markaziy hudud – G'arbiyga nisbatan, rivojlangan hisoblanib, unda asosan, yer osti resurslari joylashgan bo'lib, ulardan qo'mir qazib olish konlari, sement ishlab chiqarish, metallurgiya zavodlari va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar va qayta ishlab chiqarish sanoati tarmoqlari mavjuddir. Shular bilan bir qatorda, unda qishloq xo'jaligi ham rivojlangandir. Sababi, qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar, aynan ushbu xududning Anxoy provinsiyasidan boshlangan bo'lib, uning natijasida, iqtisodiy islohotlar jarayoni mamlakatning boshqa hududlariga keng tarqalgandir.

Markaziy va G'arbiy hududlarni rivojlantirish sari qadamlar qilishda ma'muriy-tashkiliy tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular iqtisodiy dastaklardan ko'proq foydalanishni ko'zda tutadi. Markaziy zona provinsiyalarida, ya'ni Szyansi, Xunan, Guychjou, Yunnanlarda nafaqat Xitoyda, balki dunyoda yirik hisoblangan volfram, surma, qalaylarning konlari joylashgan bo'lib, ular hozirda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va uning eksport salohiyatini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, bozor mexanizmi ishlab chiqarish jamg'armasini qo'llab-quvvatlaydi. Oxirgi 45 yil ichida xorijiy investisiyalarning asosiy kapitalga quyilmasi asosan, mamlakatning Sharqiy dengiz oldi rayonlariga va uning yangi sanoat rayonlariga to'g'ri keldi. Ulardagi yuqori jo'jalik faoliyati ularga jamg'arish uchun yaxshi imkoniyatlarni yaratib berdi. Ushbu hududlarda iqtisodiy islohotlar jarayoni jadal sur'atlarda olib borildi. Uning sabablari esa, mazkur hududda joylashgan institusional va texnologik innovatsiyalarning mavjudligi hisoblanadi. Janubi-Sharqiy hududlarda jamoa va xususiy mulk turlaridan imkon qadar samarali foydalanilgan, ularga ahamiyatli tarzda xorijiy sarmoyalar oqimi jalb etilgan, ulardagi erkin iqtisodiy zonalarning mavjudligi, ulardagi bozorga yo'naltirilgan makroiqtisodiy boshqarishning va boshqa omillarni mavjudligi bilan ajralib turadi:

- Xitoyning asosiy davlat siyosati – mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasi;

- Xitoy iqtisodiyotining yutuqlari uning mintaqaviy farqlanishini ular qarama-qarshilikka o‘tib ketmasdan yetarlicha disproporsional chegarasi doirasida ushlab turishidir;

- Markaziy hukumatning boshqarish vazifasi - iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va ularni birlashtirishdan, qoloq mintaqalarning yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashdan, izchillik bilan mintaqalar notekis rivojlanishini yengishdan iborat.

Xitoy xalq xo‘jaligi mintaqalarning o‘zaro bog‘liqlari va o‘zaro harakatlari asosida va ular orqali tizim sifatida amalga oshiriladi. Mana shu mavjud farqlarni yetarli darajada disproporsional chegaradan chiqmasdan va iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qilmasdan hal etish mamlakatni boshqarishning muhim vazifalari hisoblanadi. Aynan, mintaqaviy nomutanosiblik milliy iqtisodiyotning samarasini oshirishga turtki bo‘ladi, chunki:

- birinchidan, Sharqiy dengiz oldi xududlaridagi .yuqori o‘shish sur‘atlari unda ichki rayonlarga investisiya hajmini kiritishni kengaytirgan holda kapitalning ahamiyatli tarzda jamg‘arilishiga olib keladi;

- ikkinchidan, Markaziy va G‘arbiy xududdagi ishchi kuchi resursining cheksizligi uning Sharqiy qismini barqaror rivojlanishi uchun foydalanishi mumkin;

- uchinchidan, Sharqiy qismdagi samarali tashqi aloqalar umumiy iqtisodiy rivojlanishni va iqtisodiy islohlarni qo‘llab-quvvatlaydi;

- to‘rtinchidan, Sharqiy zonalardagi erqin iqtisodiy xududlar mamlakatning boshqa xududlari uchun va ularda iqtisodiy islohotlarni ijobiy tarzda amalga oshirish uchun tajriba maydoni bo‘lib xizmat qiladi hamda mintaqalar iqtisodiyoti ustuvorliklarini to‘liq ochib berish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

- **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Nechanchi yilda XXRsi 3ta yirik iqtisodiy zonalarga bo‘lindi?

2. Sharqiy iqtisodiy rayon o‘z ichiga nechta provinsiyani oladi.

3. Sharqiy iqtisodiy rayonning boshqa iqtisodiy hududlardan ustun tomonlari nimalarda ko‘rinadi?

4. Markaziy va g‘arbiy rayonlarning iqtisodiy salohiyatlari qanday?

5. Iqtisodiy hududlarning iqtisodiy rivojlanishlaridagi farqi nimalarda o‘z aksini topgan?

6. Xitoyning mintaqaviy siyosatini mohiyati va yo‘nalishlari nimalardan iborat?

7. Xitoyning Sharqiy Iqtisodiy zonasiga qaysi hududlar kiradi?

8. Markaziy va G‘arbiy Iqtisodiy zonalarning Iqtisodiy salohiyati orasidagi farqlar nimalardan iborat?

9. Markaziy va G‘arbiy hududlarni rivojlantirish borasidagi ishlab chiqilgan ma‘muriy-tashkiliy tadbirlar nimalardan iborat?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. XXR ni mintaqaviy siyosatining xususiyatlarini tahlillar yordamida aniqlang?

2. Xitoyning iqtisodiy jihatidan zonalarga bo‘linish qanday amalga oshirilganligi va ularni mamlakar iqtisodiyotidagi zamonaviy holati bo‘yicha essey yozing.

Adabiyotlar:

1. Xitoy iqtisodiyoti, В. Sadibekova, O‘quv qo‘llanma, T., 2018, -298 b.

2. Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024. С.307.

3. Новые горизонты экономики КНР в 14-й пятилетке (2021—2025 гг.) / Рос. акад. наук, Инт Китая и совр. Азии; сост. П.Б. Каменнов, А.Д. Александрова; отв. ред. А.В. Островский. — М.: ИКСА РАН, 2022. — 320 с.

4. Yuldashev A.S., Xitoy mintaqalarining iqtisodiy rivojlanishi. – T., 2019. 130 b.

5. Экономика стран Юго-Восточной Азии: учебник / под ред. В.М. Мазырина. — М.: АНОИИЦ«Наука», 2020. — 424 с.: илл. — (Высшее образование).

Internet resurslar

1. Xitoy davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti <http://www.stats.gov.cn>

2. Henan provinsiyasi statistika qo‘mitas rasmiy sayti <http://www.ha.stats.gov.cn>

3.http://en.chinagate.cn/features/Western_Development/201001/04/content_19175519.

4.http://lw.xinhuanet.com/htm/content_5039.htm

5.[//finance.sina.com.cn/china/hgjj/20090820/16236644037.shtml](http://finance.sina.com.cn/china/hgjj/20090820/16236644037.shtml)

4-BOB: XIToyNING IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI

Darsning maqsadi: uni har bir bosqichlariga qarab o'zgarib borishini mohiyatini tushunib yetish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tabiiy-resurs salohiyati, ishchi kuchi, mehnat resurslari, Imiy-texnik resurslari, iqtisodiy rivojlanish omillari, SI, Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari

4.1. Xitoyning tabiiy-resurs salohiyati

XXR Osiyo qit'asining sharq va Tinch okeanining g'arb qismida joylashgan. Xaritada mamlakatning ko'rinishi xo'rozni eslatib yuboradi va uning bosh qismi g'arbgacha dum qismi esa sharqni ko'rsatib turadi. XXRsi hududi kattaligi bo'yicha Rossiya va Kanadadan so'ng uchinchi eng yirik mamlakatlardan biri hisoblanib, umumiy maydoni 9.6 mln. kv.km ni tashkil qiladi. Eng g'arbiy nuqtasidan sharqigacha va shimoliy nuqtasidan janubiy nuqtasigacha bo'lgan masofa 5000 km dan oshadi. Mamlakat janubi Haikoudan shimoli-sharqda joylashgan Xarbingacha bo'lgan masofa samoleyotda 6 soatda, Changchundan Urumchigacha bo'lgan masofa esa 7 soatlik parvozda bosib o'tiladi.

Yoqorida ta'kidlaganimizdek, XXRsining chegarasini uzunligi 22800 km bo'lib, shimolda Mongoliya, sharqda KXDR bilan chegaradosh. Shuningdek, XXR Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Nepal, Butan, Myanma, Laos va V'etnam davlatlari bilan quruqlikda chegaradosh. Janubiy Koreya, Filippin, Bruney, Yaponiya, Malayziya va Indoneziya kabilarni dengizlar XXR dan ajratib turadi.

Xitoyning hududiy daryolari 4,730,000 kv. kmni tashkil qiladi va qirg'oqlarining uzunligi 18,000km. XXR hududining sharqiy hamda g'arbiy qismlari Bohai dengizi, Sariq dengiz, Sharqiy va G'arbiy Xitoy dengizlari bilan o'ralgan. Bohai Xitoyning ichki dengizi hisoblansa, Sariq dengiz, Sharqiy va G'arbiy Xitoy dengizlari Tinch okeanining kichik dengizlari hisoblanadi.

XXR hududini 2/3 qismi tog'liklardan tashkil topgan bo'lib qolgan 1/3 qismigina tekisliklarga to'g'ri keladi. Qinghai-Tibet tepaligi Xitoydagi eng yuqori tepaliklardan biri bo'lib dengiz sathidan 4000m balandlikda va u "Dunyo tomi" deb

ataladi. Shuningdek Ichki Mongoliya, Loess, Yun-gui kabi tepaliklar dengiz sathidan 1000-2000m balandlikda joylashgan. Mamlakatning g'arb qismidan qirg'oqlargacha bo'lgan huduida joylashgan Higgan, Tiahang, Wushang, Xuefeng tog'lari yer sathidan 200 metr balandlikda joylashgan.

Sharqda va janubiy sharqda Xitoy dengiz orqali Koreya, Yaponiya, Filippin, Bruney, Malayziya va Indoneziya davlatlari bilan ham chegaradoshdir. Undan tashqari, Xitoyning 4 ta dengiz suvlari o'rab turadi, ya'ni: Boxay, Sariq, Sharqiy Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlari. Uning umumiy dengiz hududlari maydoni 4,73mln.kv.km. ni tashkil etadi. Xitoyga tegishli bo'lgan dengiz akvatoriyasida 5400 ta orollar mavjud. Ulardan eng yirigi-Tayvan (36 mingkv.km) va Xaynan (34 mingkv. km.) provinsiya-orollari hisoblanadi¹⁷. Tayvan orolining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan Dyaoyuydao va Chiveyyuy orollari Xitoyning eng sharqiy orollari hisoblanadi. Janubiy Xitoy dengizida joylashgan bir guruh orollar Xitoyning eng janubiy chegarasi Dunshasyundao, Sishasyundao, Chjunshasyudao va Nanshasyundao orollari hisoblanadi.

Xitoy geografik jihatdan rang-barang bo'lib, bu yerda ulug'vor tog'lar, keng past-tekisliklar, qir-adirlar mavjuddir. Agarda, Xitoy hududiga yuqoridan qaralsa, u g'arbdan sharqqa tushib boruvchi to'rt pog'onali zinapoyani eslatadi. Bu zinapoyaning eng baland pog'onasi dengiz sathidan o'rtacha 4 ming m. balandlikdan o'rin olgan Sinxay-Tibet tog' tizmalari joylashgan bo'lib, u «Dunyo tomi» deb ham ataladi. Bu tog'tizmasida Kunlun, Gandiso'shan va Himolay tog' cho'qqilari joylashgandir. Bundan tashqari, u yerda ko'pgina muzliklar hamda balandligi 8848 metrdan iborat Himolayning eng baland cho'qqisi- Jamalungma chuqqisi joylashgandir. Zinapoyaning ikkinchi pog'onasida Ichki Mongoliyaning tog' tizmalari joylashgan bo'lib, unda o'rmonlar, Yunnan-Guychjou tog' tizmasi va Tarim chuqurligi, undan tashqari dengiz sathidan o'rtacha 1-2 ming m. balandlikda joylashgan Djungar va So'chuan pastliklari o'rin olgan. Zinapoyaning uchinchi

¹⁷China's Economy Wu Li, Sui Fumin & Zheng Lei. Translated by David Gu..China Intercontinental Press.January 2010.-P.17-23.

pog'onasi dengiz sathidan 500-1000 m. balandlikda joylashgan Katta Xingan tog'idan boshlanib, Tayxanshan, Ushan va Syufenshan tog'lari bilan davom yotadi. To'rtinchi zinapoya esa, dengiz sathidan 200 metr chuqurlikda joylashgan kontinental shelfdir.

Xitoy hududida 1500 ta daryolar mavjud bo'lib, ularning umumiy maydoni 1000 kv.km.ni tashkil etadi. Bu daryolardan Xitoy o'zining gidroenergetik resurslarining 680 mln.k.Vt.ini ishlab chiqadi va bu ko'rsatkich bo'yicha u dunyoda birinchi o'rinda turadi. Xitoyning yirik daryolariga Yanszi, Xuanxe, Xeylunshyan, Chjuszyan, Lyaoxe, Xayxe, Xuayxe va boshqalar kiradi¹⁸.

Yanszi Xitoyning eng yirik daryolaridan biri bo'lib, u o'zining uzunligi bo'yicha Janubiy Amerikadagi Amozonka va Afrikadagi Nil daryolaridan keyin, dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Uning uzunligi 6300 km. dan iboratdir.

Xitoy turli xil yer osti qazilmalariga ham boy bo'lib, amaldagi Mendelejev jadvalidagi deyarli barcha elementlar mavjud bo'lib, ulardan 20 tasi esa, kamyob va bebaxo hisoblanadi. Foydali yer osti qazilmalarining umumiy zaxiralari bo'yicha Xitoy dunyoda 3- o'rinda turadi. Jumladan, mamlakatdagi toshko'mir zaxirasi hozirgi kunda 1 trln.2,49 mlrd tonna deb baholanmoqda va uning eng boy ko'mir konlari Shansi provinsiyasida xamda Ichki Mongoliya avtonom rayonida joylashgandir. Asosiy neft konlari esa, mamlakatning shimoliy-g'arbiy, shimoliy-sharqiy va shimoliy hududlarida hamda sharqiy dengiz oldi kontinental shelflarida joylashgandir. Bundan tashqari, qora metall zaxiralaridan: marganes, temir, vannadiy, titan, konlari ham mavjuddir. Xitoydagi temir rudasining zaxirasi ekspertlarning fikricha, taxminan 46,35 mlrd. tonnani tashkil etadi. Bu temir konlari mamlakatning shimolida, shimoliy-sharqida va janubiy g'arbida joylashgan bo'lib, Xitoyning asosiy temir ruda konlari Anshan-Bensi, Xebey, So'chuanlar hisoblanadi. Shunigdek, Xitoyda bir qator rangli metallar: volfram, qalay, surma, sink, molibden,

¹⁸China's Economy Wu Li, Sui Fumin & Zheng Lei. Translated by David Gu..China Intercontinental Press. January 2010.-P.8.

qurgoshin, simob zaxiralari bo'lib, ular bo'yicha mamlakat dunyoda birinchi o'rinlarni egallaydi.

Xitoy o'zining mavjud yer resurslarining tarkibiy tuzulishi va uning joylashuvi bo'yicha uchta asosiy xususiyatga egadir:

Birinchi, unda turli xildagi yerlar mavjud bo'lib, ular: ekin ekiladigan maydonlar, o'rmonlar, cho'l hududlari va qirg'oqlarga bo'linadi;

Ikkinchi, tog'li rayonlar, tog' tizmalari va pasttekisliklardir;

Uchinchi, mamlakatning g'arbida va shimolida joylashgan qirlar, undagi shimoliy-sharqiy va janubiy g'arbiy qismidagi o'rmonlar kiradi.

Hozirgi davrda Xitoyda ekin ekiladigan yerlarning umumiy maydoni 108 mln.ga. (gektar)ga teng bo'lib, uning asosiy qismiga dehqonchilik rayonlari xisoblangan mamlakatning shimoliy-sharqiy va shimolida joylashgan tekisliklar hamda Yanszi daryosi bo'ylari kiradi. Mamlakatning shimoliy-sharqiy qismida bug'doy, jo'xori, qand lavlagi, dukkakli ekinlar ekiladi. Shimoliy Xitoy tekisligida esa, paxta, don ekinlari va hosildorligi yuqori bo'lgan jo'xori ekiladi.

Xitoy o'rmonlari 128,63 mln. dan iborat bo'lib, uning eng yirik massivlari kichik va katta Xingan tog' rayonida, Chanbayshan tog'larida joylashgandir. U yerdagi asosiy daraxtlarning turlari kedr, qayin, chinor va boshqalar hisoblanadi.

2008-yilgacha, Xitoyda 121,716,000 gektar haydaladigan yerlar mavjud edi. Shimoliy Sharqiy Xitoy tekisliklari, Shimoliy tekisliklari, O'rta va Quyi Yangzi tekisliklari, Zhujiang deltasi va Sichuan botiqligi tuproq tarkibi eng boy bo'lgan unumdor yerlar hisoblanadi. Shimoliy Sharqiy tekislik Xitoydagi eng katta tekislik hisoblanadi, uning maydoni - 350,000 kv/km atrofida. Uning tuproq tarkibi eng unumdor hisoblangan qora tuproqdan tarkib topgan va bug'doy, sholi, makkajo'xori, soya dukkalari, sorghrum, kanop va lavlagi kabi mahsulotlar ko'p miqdorda yetishtiriladi. Shimoliy Xitoy tekisligida asosan jigarrang tuldagi qalin tuproq qatlami mavjud va unda bug'doy, makkajoxori, don dun, paxta va boshqalar yetishtiriladi.

Yangszi daryosining o'rta va yuqori bo'ginlarida joylashgan tekisliklar daryo va ko'llar zanjiridan tashkil togan va Xitoyning eng ko'p sholi va tiniq suv

baliqlarini yetishtiradi, shu sabab bu joylar “Baliq va Guruch o’lkasi” nomi bilan mashhur bo’lgan. Bu joylarda nafaqat baliq va guruch, ko’p miqdorda choy va ipak ham yetishtiriladi. Sichuan botiqligi asosan to‘q qizil rangli tuproqdan tashkil topgan, iqlimi iliq va nam; yilning to’rt faslida ekin-tekin yetishtirish mumkin va asosan sholi, surepitsa (urug‘idan moy olinadigan o’simlik), shakarqamish, yetishtiriladi. Ushbu xususiyatlari uchun Xitoy- “mo’l-kolchilik o’lkasi” deb nom olgan. Zhujiang Deltasida turli sholi va va surepitsa yetishtiriladi, yiliga ikki uch marotaba hosil olinadi.

Xitoyning o’rmonli hududlari maydoni 174,910,000 gektarni, o’tloqzorlari esa 400,000,000 gektarni egallagan. Tabiiy o’tloqzorlarni butun mamlakat bo’ylab uchratishimiz mumkin, ularda turli provinsiyalar joylashgan.

Tibet avtonom rayoni eng katta o’tloqzorlarga ega, butun rayon bo’ylab taxminan 70,846,800 gektar, butun mamlakatdagi o’tloqzorlarning 21,40 %ni tashkil etadi¹⁹.

Keyingi o’rinlardada Ichki Mongoliya avtonom rayoni, Shinjian uyg’ur avtonom rayoni va Chinghai provinsiyasi, buyerlarda butun o’tloqzorlarning 64,65 % joylashgan. Boshqa provinsiya va regionlarda 1 million gektar yoki undan ko’p o’tloqzorlar zanjiri joylashgan. Ularga (kamayish tartibida) Sichuan provinsiyasi, Shinjian uyg’ur avtonom rayoni, Chinghai provinsiyasi va Gansu provinsiyasi kiradi. Ichki Mongoliya, Gansu, Shinjiang va Chinghai provinsiyalari tabiiy o’tloq resurslariga boy bo’lganligi sababli, bu yerlarda chorvachilik mahsulotlari sanoati rivojlangan.

Xitoy butun haydaladigan yerlari, o’rmon va o’tloqzorlari kattaligi bo’yicha dunyoda yetakchi o’rinlarga talabgor bo’lsada, bu hududlar aholi jon boshiga hisoblanga juda kichik ko’rsatkichlarni beradi. Xitoyda bir kishi uchun to’g’ri keladigan haydaladigan yer hajmi butun dunyodagining bir kishiga to’g’ri keladigan

¹⁹China’s Economy Wu Li, Sui Fumin & Zheng Lei. Translated by David Gu..China Intercontinental Press. January 2010.-P.24.

ulushining $\frac{1}{4}$ qismiga tengdir; o'rmon hududlari esa bir kishiga dunyo o'rmonzorlari dunyo aholisiga bo'linganning $\frac{1}{4}$ qismiga tengdir²⁰.

Daryolar va ko'llar Xitoyning asosiy chuchuk suv zaxiralaridir. Xitoy chuchuk suv zaxiralarining umumiy miqdori 2,7127 trillion kub metr, aholi jon boshiga 2000 kub metrni tashkil etadi. Haydaladigan yerlar, o'rmon va suv resurslarining aholi jon boshiga ushbu past ko'rsatkichlari hisobiga dubyo reytingida 121 chi o'rinni egallamoqda, Aholi jon boshiga suv resurslaribo'yicha Xitoy dunyodagi eng quyi 13 ta mamlakatning biri bo'lib qolmoqda²¹.

Shuningdek, suv resurslari ham juda notekis taqsimlangan, mamlakat janubida ko'proq, Shimolda esa taqchillikni kuzatish mumkin. Janubda suv toshqinlari, shimolda esa muntazam qurg'oqshilikni kuzatishimiz mumkin. Xitoy gidroelektrstansiyalari zaxira resurslari 676 million kilovatni tashkil etadi, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkich. Yangszi daryosi eng ko'p suv resurslariga ega, keyingi o'rinda Brahmaputra daryosi turadi. Biroq uning taqsimoti ham notekisdir, yani asosiy suv zaxiralar q'irgoqboyi hududlardan uzoq bo'lgan janubi garbiy hududlarda joylashgan.

Xitoydagi mineral resurslar zaxirasi dunyo resurs zaxirasining 12% ni tashkil etadi va dunyodagi 3-o'rinni egallovchi mineral resurslar zaxirasiga ega mamlakat hisoblanadi (AQSh va Rossiyadan keyin). Biroq ulkan populyatsiyasiga ko'ra, Xitoy aholi jon boshiga mineral resurslari ko'rsatkichi butun dunyodagi o'rtacha ko'rsatkichning atigi 58% ni tashkil etadi, har bir aholi jon boshiga o'rtacha 45 mineral resurs tog'ri keladi, bu dunyo aholi jon boshiga tog'ri keladigan miqdorning yarmidan ham kamroqdir²².

4.2. XXRsining mehnat resurslari va ularni joylashtirilishi

Xitoy Xalq Respublikasi dunyodagi eng katta mehnat resurslariga ega bo'lgan davlatlardan biridir. Aholi sonining nihoyatda katta bo'lishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida markaziy omil sifatida namoyon bo'ladi. Mehnatga layoqatli

²⁰O'sha joyda.-P.26.

²¹China's Economy Wu Li, Sui Fumin & Zheng Lei. Translated by David Gu..China Intercontinental Press. January 2010. -P.29

²² O'sha joyda, --P.31

aholining salmoqli qismi yosh va mehnat faol guruhlardan iborat bo‘lib, bu sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish kabi yirik tarmoqlarni barqaror ishchi kuchi bilan ta‘minlaydi. Iqtisodiy islohotlar davrida Xitoyda malakali mutaxassislar ulushi sezilarli ravishda oshgani, kasbiy ta‘lim va oliy ta‘lim tizimining kengaygani mehnat bozorining sifat jihatdan yaxshilanishiga xizmat qildi.

Mehnat resurslarining hududiy joylashuvi mamlakatning iqtisodiy geografiyasiga monand tarzda notekis shakllangan. Sharqiy qirg‘oq hududlari — Pekin, Shanxay, Guandun, Chjetszyan kabi provinsiyalar — aholi zich joylashgan, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, ularda mehnat resurslariga talab juda katta hisoblanadi. Markaziy Xitoy hududlarida aholining tabiiy o‘sishi davom etayotgan bo‘lsa-da, iqtisodiy rivojlanish sur‘ati qirg‘oq mintaqalariga nisbatan, o‘rtacha darajadadir. G‘arbiy Xitoy — Sinxuan, Tyanshan, Tibet va Shinjon kabi keng hududlarni o‘z ichiga oladi — aholisi siyrak, iqtisodiy faol tarmoqlar kamroq rivojlangan, mehnat resurslari yetishmaydigan mintaqa sifatida tavsiflanadi.

Ushbu hududiy tafovutlar Xitoyda ichki mehnat migratsiyasining shakllanishiga omil bo‘ldi. Qishloq hududlari va g‘arbiy regionlardan millionlab ishchilar sharqiy sanoat markazlariga doimiy ravishda ko‘chib boradi. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy o‘rishini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, hududlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni ham kuchaytirgan. Hukumat mehnat resurslarini muvozanatli joylashtirish, qoloq mintaqalarni modernizatsiya qilish va ish o‘rinlarini ko‘paytirishga qaratilgan dasturlarni joriy etib bormoqda.

Bunda birinchi darajali ahamiyat kasb etuvchi omillar – bu mamlakatdagi mavjud tabiiy resurslardan oqilona foyladalana bilish, undagi turli hududlardagi erkin zonalar xususiyatlaridan davlatning faoliyati uchun to‘liqroq ravishda aniq maqsadlarga yo‘naltira olishdan iborat.

Ushbu maqsadlar yaqin va uzoq muddatlarda aniq siyosiy, xo‘jalik qarorlarida, rejalarda va dasturlarda o‘z aksini topishi lozim. Mana shu yuqorida ta‘kidlangan xususiyatlar Xitoy hukumatni mintaqaviy siyosatini shakllanishida va ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirishda ulkan ro‘lni o‘ynadi.

Agar, Xitoy davlati aholisining soni bugungi kunda 1 mlrd.408 mln. kishidan iborat bo'lsa, ulardan deyarli 750 mln. kishi (2024y.) mehnatga layoqatlilarni tashkil etadi. Mna shu mehnatga layoqatlilarning asosiy qismi mamlakatdagi sanoati rivojlangan hududlarga to'g'ri keladi²³. Iqtisodiy islohotlar boshlanishi bilan 1978-1980 yillarda bozor munosabatlarini sekin-asta joriy etishga yo'naltirilgan xo'jalik qurilishi uslublari va tamoyillarini ko'rib chiqish bilan birgalikda mintaqaviy siyosatda ham yangi qarashlar vujudga keldi. Ikkinchi tomonidan, iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad, o'sib borayotgan provinsiyalararo mustaqillik bir-biriga qarama-qarshilikni, mahalliychilikni keltirib chiqardi.

Mamlakat mintaqalarida ahamiyatli tarzda ko'proq daromadlarni keltiruvchi tarmoqlarga asosiy investisiyalar hajmining quyilishini ko'zda tutish bilan birga, ijtimoiy soha korxonalarini rivojlantirish loyihalarini ham esda tutish muhimdir. Xususan, transport, kommunikatsiya, energetika, suv va elektr bilan ta'minlash va boshqalar. Keng ma'noda ular qatoriga yana ta'lim, sog'liqni saqlash, qonunni va umumiy tartibni ta'minlash ham kiradi.

Ushbu yuqorida ta'kidlangan xizmatlar tashqaridan import qilinmaydi va ular davlat yoki jamiyat korxonalarini tomonidan moliyalashtiriladi. Mazkur infratuzilma tarmoqlarining cheklanganligi qoloq mintaqalarga xos bo'lgan belgilardir. Bunga ko'pgina nisbatan rivojlangan mintaqalardagi infratuzilmalarning yetarli emasligin ularning umumiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar hisoblanadi. Infratuzilmalarni rivojlantiruvchi loyihalarga investisiyalarni jalb etishni kengaytirish juda ham yaxshi natijalarni bermoqdadir.

Xitoy iqtisodiy modelining samaradorligi borasida turli fikrlar mavjud. Mehnat omili bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish o'sishi ko'proq intensiv omillar hisobiga yuz bermoqda - mehnat unumdorligi o'sish sur'atlari YaIM o'sish sur'atidan 1,5–2 baravar yuqori.

Kapital omili bo'yicha esa qarama-qarshi holat kuzatiladi. Kapitalning samaradorligi pasaygan: 1980-yilda 1 yuan investitsiya 5 yuanlik YaIM

²³ manba: Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024. с.57

yaratgan bo'lsa, 2000-yilda - 3 yuan, 2010–2019-yillarda esa - 1,9 yuan YaIM yaratgan.

2021-yilga kelib esa, bu ko'rsatkich 2,1 yuanga oshgan. Shuningdek, kapital sig'imi oshgan: 1980-yilda 1 yuan YaIM yaratish uchun 0,2 yuan investitsiya talab etilgan bo'lsa, 2010–2019-yillarda bu ko'rsatkich 0,53 yuanga yetgan.

Shunday qilib, kapital omilidan foydalanish ko'proq ekstensiv xarakterga ega, ammo tarmoqlararo farqlar tufayli bu ko'rsatkichlarni to'g'ridan-to'g'ri solishtirish ma'nosiz.

Iqtisodiyotni ixtisoslashtirish Mintaqalarning nisbatan ustunliklarini mavjudligi uning iqtisodiyoyehtini yuqori darajada ixtisoslashtirishga olib kelishi mumkin. Unda 3 ta holatni ta'kidlash mumkindir:

- birinchidan, ushbu ustunliklar strategik siyosat yo'nalishlarini kontekstida ko'rish mumkin;

- ikkinchidan, mintaqaviy tarmoqlar ixtisosligi asosida nisbatan ustunliklarni hisobga olish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

- mintaqaviy o'sishni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi bo'lib mahsulotlar, ishchi kuchi va investisiyalarning harakati xizmat qiladi.

Tizimiy optimallashtirish – bu birlashtirilgan jarayon bo'lib, unda asosiy xarakterlanuvchi kuchlar davlat va bozor hisoblanadi. Iqtisodiyotning davlat va bozor tomonidan tartibga solinishi bir-birini to'ldirishi va bir-biriga mos bo'lishi lozimdir. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi bozor mexanizmini faoliyat ko'rsatishiga yordam berishi lozim. Lokal darajada u resurslar bilan ta'minlashni boshqarishdan iborat bo'lishi kerak. Xitoyning mintaqaviy hukumat organlari hozirda o'z e'tiborlarini ko'proq mahalliy resurslarni taqsimlashga va joylarga xorijiy kapitalni jalb qilishga qaratmoqdalar. Markaziy va mahalliy hukumatlarning iqtisodiy vazifalarini amalga oshirilishi uchun bozor talabidan kelib chiqib, ularning har qaysisining iqtisodiyotga aralashuv darajasi va usullarini aniq asoslab olish lozimdir. Mintaqalar darajasidagi iqtisodiy rivojlanish uning maqsadga yo'naltirilgan siyosati

va boshqarilishiga bog‘liqdir. Xitoyning umumiy maqsadga yo‘naltirilgan siyosati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Sharqiy mintaqadagi makroiqtisodiy vaziyatni yanada yaxshilaydigan yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish;

- aholining qashshoq qismiga yordam berishga urg‘u qo‘ygan holda, mamlakatning Markaziy va G‘arbiy xududlarini rivojlanishini tezlashtirish;

- qashshoqlikka qarshi kurash mintaqaviy dasturining samarasini oshirish.

Mamlakatdagi soliq, moliya, sanoat ishlab chiqarish siyosatini amalga oshirishda asosiy masalalar qatoriga davlat byudjetining daromadlar qismidagi transfert to‘lovlari tizimini tashkil etishni, ulardagi infratuzilmalarni takomillashtirishni, sarmoyalar dinamikasini va ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilashni qo‘yish mumkindir. Mintaqaviy va tarmoq boshqaruv organilari vazifalariga tarmoqlararo aloqalarni bir-birini to‘ldirgan va birlashgan holda, koordinatsiya va kooperatsiya yo‘li bilan muammolarni hal etish kiradi. Ularning barchasi esa, mamlakatdagi iqtisodiy qonuniyatlarni rivojlantirish asosida va bozorni kengaytirish hamda takomillashtirish asosida, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni ko‘zlaydi.

4.3 . Xitoyning ilmiy-texnik resurslari

Xitoy Xalq Respublikasi so‘nggi o‘n yilliklarda ilmiy-texnik rivojlanish bo‘yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Mamlakatning strategik modernizatsiyasi doirasida ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish hajmi jadal oshib bormoqda. Bugungi kunda Xitoy ilmiy izlanishlar uchun sarflanadigan mablag‘lar bo‘yicha dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi, bu esa ilmiy-texnik salohiyatning misli ko‘rilmagan darajada kengayishiga imkon yaratmoqda.

Texnologik va tizimiy innovatsiyalar. Mintaqaviy iqtisodiyot innovatsiyaning 2 shakli bilan bog‘liq bo‘lib, ular: taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, ya’ni, texnologik va tizimiy bo‘lgan shakllarga bog‘liqdir.

Texnologik innovatsiyalar ishlab chiqarish tarkibiga doimiy ravishda asosan, yangi va yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish natijasida o'zgartirishlar kiritadi. Innovatsiyalar:

- birinchidan, mintaqaning ustuvor resur salohiyatini real iqtisodiy salohiyatga aylantiradi.
- ikkinchidan, ushbu progressiv texnologiyalar yetishmayotgan mintaqaviy resurslarni birlashishga va ularni o'rni qoplashga xizmat qiladi;
- uchinchidan, texnologik innovatsiyalar ishlab chiqarishni xududiy joylashtirishga ta'sir etuvchi muhim omildir;
- to'rtinchidan, mintaqada urbanizatsiya jarayoni tezlashadi;
- beshinchidan, mintaqaning nisbatan ustunligidan foydalanishning modeli shakllanadi.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi - bu innovatsiyaviy tizimlar hisoblanadi. Xitoyda ular iqtisodiy tizimni transformatsiyalashni tezroq tugatishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda mulk islohotlari asosiy bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatdagi korxonalar bozor iqtisodiyotining asosini tashkil etib, islohotlar uning faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy sharoitlarni belgilab beradi va shu bilan birga, ularning mustaqil iqtisodiy manfaatlarini hamda mulk huquqini tan oladi. Mana shuning uchun albatta kerakli huquqiy va institusional ta'minotni shakllantirish lozimdir..

Ilmiy-texnik resurslarning asosiy tarkibi yuqori malakali kadrlar, zamonaviy laboratoriya va ilmiy markazlar, yetakchi universitetlar hamda texnoparklardan iborat. Xitoy har yili millionlab muhandislar, IT mutaxassisleri, fiziklar, biotexnologlar va boshqa ilmiy soha vakillarini tayyorlab, global miqyosdagi ilmiy raqobatda o'z mavqeini mustahkamlamoqda. Pekin va Shenchjen shaharlari yaqinidagi "Zhongguancun" texnoparki, Shenchjenning innovatsion hududi, Xanchjou va Chendu ilmiy markazlari texnologik taraqqiyotning lokomotiviga aylangan.

Mamlakat sun'iy intellekt, robototexnika, kvant hisoblash, kosmik texnologiyalar va biotibbiyot yo'nalishlarida muhim natijalarga erishdi. Huawei,

Tencent, Alibaba, BYD kabi yirik kompaniyalar Xitoyning raqamli iqtisodiyotini kuchli texnologik poydevorga aylantirgan. Innovatsion infratuzilma davlat siyosati bilan uyg'un holda rivojlanib, ilmiy izlanishlar natijalarining real iqtisodiyotga tatbiq etilishini jadallashtirmoqda.

Ilmiy-texnik resurslarning rivojlanishi Xitoyning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini oshiribgina qolmay, ichki iqtisodiy modernizatsiyaning ham asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Soha bo'yicha ishlab chiqilgan uzoq muddatli strategiyalar — "Made in China 2025", "Innovatsion Xitoy" dasturlari — mamlakatni yuqori texnologiyalar markazi sifatida shakllanishiga zamin yaratmoqda. Mintaqaviy siyosatning muhim qismlari – bu undagi ishlab chiqarish kuchlarining optimal holda joylashtirilishi, uning iqtisodiy salohiyati, undagi zamonaviy fan va texnika markazlarining mavjudligi, mamlakat va mintaqaga kiruvchi alohida uning qismlari hamda jamiyatning umumdavlat miqyosida rivojlanishi uchun zarur sharoit hisoblangan undagi infratuzilmalarning mavjudligidan iborat.

Sent-Luis Federal Rezerv banki tomonidan tayyorlangan ma'ruzada ta'kidlanishicha Xitoy texnologiyalarni yordam sifatida olayotgan davlandan bugungi kunda innovatsiyalar bo'yicha yetakchi mamlakatga aylanmoqda. Mazkur bank tadqiqot tahlillariga ko'ra, Xitoy tomonidan intellektual mulkdan foydalanish uchun royalti 2015-2022- yillar mobaynida 8 marotabaga, ya'ni 9 mlrd.doll.ga o'sdi.

Undan tashqari, intellektual mulk bozorida tarkibiy siljishlar ro'y bermoqda. O'zgarishlar robot texnikasi bozorida, ayniqsa, sanoat robotlaridan foydalanishda kuzatilmoqda. 2024-yil yakuniga ko'ra, 4,6 mln. global robot "park" laridan deyarli yarmisi (43%) XXR siga to'g'ri keldi. Shular qatorida, robotlashtirish sur'ati bo'yicha (absolyut raqamlarda) ham Xitoy yetakchilik qilmoqda, masalan, jahonda yangi robotlarni o'rnatishda mamlakatning hissasi 54% ni tashkil etmoqda. Lekin, robotlashtirishning o'sishida Tayvan yiliga +33%ga o'sish bilan yetakchilik qilmoqda.

Xitoy yana kvantli hisoblashishni jadal sur'atlarda o'sayotgan bozorida liderlik qilmoqda. Mazkur sohadagi olingan patentlar miqdori bo'yicha mamlakat 2014-

2024-yillar davomida 5 marotabaga o'sdi va uning dunyodagi ulushi 60%ni tashkil etmoqda. ²⁴Undan keying o'rinlarni AQSh va Yaponiya egallamoqda.

Energiya samaradorlik va milliy xavfsizlik - YaIMning energiya sig'imi iqtisodiy samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Xitoyda bu ko'rsatkich jadal ravishda yaxshilanmoqda va uning dinamikasini quyidagi jadval - 4.2.1.orqali kuzatish mumkin:

Jadval – 4.3.1.

XXRsida 1990-2022-yillarda energiya samaradorligi va milliy xavfsizlik ko'rsatkichini yaxshilanishi*

yillar	ming eksadjoule/1 AQSh dollari
1990-yilda	0,529
2000-yilda	0,254
2010-yilda	0,209
2020-yilda	0,149
2022-yilda	0,145

*Izoh: Bu deyarli o'rtacha jahon ko'rsatkichiga (0,112) tenglashgan, ammo rivojlangan mamlakatlardagi (0,05–0,08 ming eksadjoule/doll.) darajadan hali uzoq.

Umuman, Xitoy Iqtisodiy rivojlanish omillari hozirgi davrda bir shakldan, 2-shaklga o'zgarib borayotganligini kuzatamiz, xususan, mehnat resurslarini innovatsiyalar kirib kelishi oqibatida inson kapitaliga aylanish bosqichiga o'tishida ko'rish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- 1.Xitoyning iqtisodiy rivojlanish omillariga nimalar kiradi?
- 2.XXRsining tabiiy-resurs salohiyati qanday?
- 3.Xitoyning mehnat resurslari salohiyati istiqbollari qanday?
- 4.Mamlakatning lmiy-texnik resurslari hozirda qanday o'zgarishlarga yuz tutmoqda?

²⁴ (<https://www.banki.ru/news/daytheme/?id=11019210>)

- 5.Xitoy iqtisodiy rivojlanish omillaridan biri – Sun‘iy intellektdan qanday foydalanilmoqda?
- 6.Xitoyda aralash mulk shakliga ega zamonaviy tashkilotlarning qanday turlari mavjud?
- 7.Nima uchun bugungi kunda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning mavjudligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini aniq ko‘rsatmaydi?
- 8.Nima uchun Xitoyda islohotlar jarayonida uning iqtisodiy rivojlanish omili hisoblangan inson kapitalini mintaqalar bo‘yicha rivojlanishida nomutanosibliklar mavjud?
- 9.2000–2024-yillar davomida Xitoyda qaysi iqtisodiy rivojlanish omili ustuvor bo‘ldi va nima uchun?
- 10.Nima uchun YaIM tarkibi bandlik tarkibiga qaraganda tezroq o‘zgaradi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Xitoy iqtisodiyoti samaradorligini statistik tahlillar yordamida baholang.
- 2.Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish omillarini o‘zgarib borishini tahlil qiling.
- 3.Xitoyda mehnat resurslarini mintaqalar kesimida tasniflab bering.

Adabiyotlar:

- 1.Globallashuv sharoitida Xitoy iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlari. Monografiya, B. Sadibekova – T., 2020, - 291 b.
- 2.Xitoy iqtisodiyoti, B. Sadibekova, O‘quv qo‘llanma, T., 2018,-298 b.
- 3.Экономика современного Китая. У.Ли., Жун Вэньли, Межконтинентальное издательство Китая, 2015, С.293
4. Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024. С.307.
5. Экономика стран Юго-Восточной Азии: учебник / под ред. В.М. Мазырина. — М.: АНОИИЦ«Наука», 2020. — 424 с.: илл. — (Высшее образование).

5-BOB: XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Darsning maqsadi: Xitoy Xalq Respublikasi demografik siyosati va aholisining tabiiy ko'payish masalalarini, uning tarkibi va etnik tuzilishi hamda mamlakatdagi bandlik strukturasi to'g'risida bilimga ega bolishga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar: demografiya, tug'ilish koeffisienti, o'lim koeffisienti, aholining tabiiy ko'payishi, demografik portlash, urbanizatsiya, aholi zichligi, kichik millatlar, tug'ilishni rejalashtirish, ishsizlik, bandlik.

5.1. Xitoy Xalq Respublikasining demografik siyosati, aholisini etnik tarkibi va uning tabiiy ko'payishdagi muammolari

Xitoy Xalq Respublikasi aholisining soni bo'yicha, 2024-yilning aprel oyigacha – 1-o'rinni egallab kelgan. Lekin, mazkur yilni shu davridan boshlab, u o'z o'rnini Hindistonga bo'shatib berdi va hosirgi kunda u dunyoda ikkinchi o'ringa o'tdi. 2025 yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, Xitoy Xalq Respublikasi aholisi 1,408 mlrd kishini (Syangan va Aomen alohida ma'muriy rayonlaridan hamda Tayvan provinsiyasidan tashqari) tashkil etdi. U hozirda dunyo aholisining 17,2% dan ortiqrog'i ni tashkil etmoqda²⁵.

Xitoy aholisining o'rtacha yashash zichligi 1 kv.km. ga 151 kishini tashkil etadi. Xitoy aholisi uning hududi bo'ylab bir tekisda joylashmagan bo'lib, Sharqiy Xitoyning dengiz oldi rayonlarida aholining zichligi 1 kv.km. ga 410 kishidan ortiq aholi to'g'ri kelsa, Markaziy Xitoyda aholining zichligi 1 kv.km. ga 200 kishidan ortiq to'g'ri kelsa, g'arbiy Xitoyning tog'li hududlarida bu ko'rsatkich 1 kv.km. ga 20 kishidan ham kam kishi to'g'ri keladi. Xitoy shahrlarida umumiy aholining 67,55% i - (956 553 854 kishi 2025 y.) istiqomat qiladi.

Xitoyda aholini ro'yxatdan o'tqazish 1953-yilda boshlanib, u har 10-15 yilda amalga oshirilgan, ya'ni: 1964, 1982, 1990, 2000, 2010- yillar va eng oxirgi aholini ro'xatga olish 2020-yilda amalga oshirildi. Aholining tabiiy o'sish koeffitsienti

²⁵ <https://www.worldometers.info/world-population/china-population/>

2024-yilda -0,60 % ni tashkil etadi. Tug‘ulish har bir 1000 kishiga 9,54 kishini, o‘lim esa, har bir 1000 kishiga 10,90 dan to‘g‘ri keladi.²⁶

XXRsi tashkil topgan yili, ya’ni 1949 yilda mamlakatning umumiy aholisi 541,67 kishini tashkil etgan bo‘lib, ijtimoiy barqarorlik, tibbiy sanitar axvolning yaxshilanishi va davlatning xarbiy sohada «inson resurslari»ning roliga katta ahamiyat berilganligi natijasida, aholining soni juda tez sur‘atlar bilan o‘sa boshladi. 1969 yilda, ja’ni oradan 20 yil o‘tgan vaqt mobaynida Xitoy aholisining soni 806,71 mln. kishiga yetdi.

1970 yillarga kelib, Xitoy hukumati aholining bunday tez sur‘atlarda o‘shishi mamlakatni iqtisodiy ravnaqqa olib kelmasligini va ijtimoiy sohada bir qator jiddiy muammolar vujudga kelishini tushunib etdi. Undan tashqari, aholini ish va turar joy bilan ta’minlashda, sog‘liqni saqlash, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida ham qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin edi. Mazkur davrga kelib, soha mutaxassislari, ja’ni demogroflar, agarda, Xitoy hukumati aholining o‘shish sur‘atlariga o‘zining bu soha bo‘yicha ishlab chiqqan chora-tadbirlari orqali ta’sir eta olmasa, bir necha o‘n yilliklardan so‘ng, nafaqat Xitoy Xalq Respublikasi, balki butun jahonda «demografik portlash» yuz berishi haqida gapira boshladilar. Shu bilan birga ular «Demografik portlash» - ja’ni aholini haddan tashqari ko‘p tug‘lishi natijasida mamlakat aholisini oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan ta’minlashda Xitoy hukumatining moliyaviy resurslari yetishmasligini ham ta’kidladilar.

Xitoy hukumati tug‘ilishni muvofiqlashtirish va rejalashtirish siyosatini amalga oshirishi natijasida aholining o‘shish sur‘atlari bir muncha pasaydi. Agar, 1969 yilda tug‘ilish ko‘rsatkichi 34,11 promilleni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yilga kelib, bu ko‘rsatkich-14,03 promillega pasaydi. Aholining tabiiy o‘shishi mos ravishda 26,08 promilledan 4,13 promillega pasaydi.

Hozirda ushbu ijtimoiy sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Xitoydagi uning tug‘ilish va o‘lim darajasi hamda hattoki tabiiy o‘shish darajasi ham pasaymoqda.

²⁶www.china-people.gov.cn.

Shundan kelib chiqqan holda, ta'kidlash lozimki, mazkur muammolarni hal etish borasida Xitoy hukumati hozirgi davrda tug'ilishni qo'llab-quvvatlash va uni ko'paytirish uchun subsidiyalar taklifini bermoqda. Bloomberg Newsning ma'lumotlariga ko'ra mazkur maqsadlar uchun oilalarga yiliga 3600 yuandan ajratish kutilmoqda.

2024 yil ma'lumotiga ko'ra, Xitoy aholisining yoshi va jinsi bo'yicha tarkibi quyidagicha taqsimlanadi:

0-14 yoshdagilar - aholining 17,95% tashkil etib (253 383 938 kishi), undan 133.938.199 kishi o'g'il bolalar, 119.445.739 kishi esa qizlardan tashkil topgan.

15-64 yoshdagilar - aholining 68,55% (967 759 506 kishi) ni tashkil etib, ulardan 498.439.115 kishi erkaklardan va 468.320.391 kishi ayollardan iboratdir.

65 va undan yuqori yoshdagilar - aholining 13,50% (190 635 280 kishi) ni tashkil etib, ulardan 100.562.635 kishi erkaklar, 90.072.645 kishi ayollardan iboratdir.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Xitoyda 56ta millat vakillari istiqomat qiladi. Aholining 92 % ni xanlar tashkil etib, qolgan millatlarni rasman "oz sonli millat" lar deb yuritiladi. Amalda kichik etno-tillar guruhleri yirik guruhlar bilan birlashtirilgan bo'lib, ularning real soni ancha ko'pdir. Etnografiyaga asosan, xitoyda 236 ta til mavjud bo'lib, ulardan 235 tasi tirik til hisoblanadi va 1 tasi Zhongen tili batamom yo'q bo'lib ketgandir. Shuni ta'kidlash lozimki, xitoy janubiy provinsiyalardagi ko'pchilik aholi rasmiy standartdan ancha farq qiluvchi xitoy dialektlarida gaplashadi.

Xitoy aholisi quyidagi millat vakillaridan tashkil topgan bolib, ular: xanlar, chjuanlar, xyeylar, manchjurlar, xuyzular, xanilar, lisular, lahular, nasilar, tsianglar, dinolar, dunlar, chjuanlar, gelaolar, lilar, myaolar, yaolar, mug'ullar, uyg'urlar, qozoqlar, baylar, tutsyalar, ilar, tibetliklar, manchjurlar, koreyslar va boshqalar hisoblanadi.

Ma'lumki, tug'ilishni rejalashtirish aholining xohish-irodasiga asosan amalga oshiriladi Tug'ilishni rejalashtirishning asosiy mezonlari quyidagilardir:

- Kech nikohlarni va kech bola ko'rishni qo'llab-quvvatlash; 1981-yilda Xitoy hukumati yoshlarning turmush qurish yoshini belgilash to'g'risida qonun qabul qildi, unga binoan erkaklar 22 yoshdan, ayollar esa 20 yoshdan kichik bo'lmasligi qat'iy ko'rsatilgandir;

- Oilada farzand ko'rish soni belgilanib, 1 oilaga 1 farzand deb belgilandi;

- Qishloq joylarda agar oilada nogiron farzand tug'ilgan bo'lsa, ularga 2-farzandni ko'rishga va oz sonli millat uchun ham 3 farzand ko'rishga ruxsat berildi.

Xitoy hukumati tug'ilishni rejalashtirish siyosatini birinchi navbatda, mamlakatning aholi zich joylashgan hududlari, shahar va qishloqlarida amalga oshira boshladilar. Ba'zi qishloqlarda, ishchi kuchi yetishmayotgan hududlardagi yosh oilalarda ikkinchi farzand tug'ilishini rag'batlantirishga qaror qilindi. (Lekin birinchi farzand bilan ikkinchi farzand o'rtasida ma'lum bir muddat o'tishi kerak deb belgilandi).

Ko'pgina Milliy Avtonom rayonlarda kichik millatlarning soni va irodasiga muvofiq, tabiiy sharoitlari va iqtisodining holati, madaniy an'analari, ularning urf-odatlaridan kelib chiqqan holda, har bir oilaga ikki, ba'zi bir joylarda esa, uchtdan farzand ko'rish mumkin deb topildi. Juda kam sonli kichik millatlarda tug'ilishni chegaralash siyosatini mutlaqo qo'llash mumkin emasligi kelishilib olindi.

Hozirgi davrda xitoyliklarning «Nikoh» tushunchasida chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Yoshlar o'z ixtiyorlari bilan hukumat tomonidan belgilangan yoshdan ham kechroq turmush qurishga, o'zlarining moddiy va ma'naviy ahvollarini yaxshilab olishga intilmoqdalar. Har bir oila o'zlarining farzandlarini sog'lom va barkamol bo'lib o'sishini ta'minlashga harakat qilmoqdalar.

Xitoy oilalari. Hozirgi kunda Xitoy jamiyatida 352 mln. oila mavjud bo'lib (2007 y.), har bir 100 oilaga o'rtacha 363 kishi to'g'ri kelmoqda. Oddiy Xitoy oilalari er-xotin va ularning bolalaridan tashkil topgan bo'lsa, ba'zi bir oilalarda katta avlod kishilari - buva va buvilar ham istiqomat qilishadi. Lekin, ko'pchilik xollarda yosh avlodlarning mustaqil hayot kechirishga intilishlari oqibatida oilalar tobora ixchamlashib bormoqda. Ilgarilari har bir oilada o'zining «bosh rahbari»

bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda har bir oila a‘zosi o‘zaro maslahatlashgan holda hayot kechirib, kelajak rejalarini qurmoqdalar.

Xitoy Xalq Respublikasi ko‘p millatli unitar davlatdir. 1990 yil Butun Xitoy aholisini ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra, Xan millati umumiy aholining 91,96 %ini, qolgan 55 ta millatlar esa, aholining 8,04%ini tashkil etdi. Xitoy jamiyatida xan millatidan tashqari barcha millatlarni «kam sonli millatlar» deb hisoblash rasman qabul qilingan.

5.1.1.-rasm

XXRsining etnik guruhlari xaritasi



National Geographic Xitoydagi etnik guruhlar xaritasi

Xan millatini nomi qadimiy birinchi Xitoy dinastiyasi hisoblanadi. Qolgan tub millatlar quyidagicha taqsimlangan²⁷:

- Chjuanlar - 1,26%, ≈ 17mln.k.;
- Xueylar - 0,79%, ≈ 10,5 mln.k.;
- Manchjurlar - 0,78%, ≈ 10,4 mln.k.;
- Uyg‘urlar - 0,75%, ≈ 10 mln.k.;
- Myaolar - 0,7%, ≈ 9,4 mln.k.

Xan millati mamlakatning deyarli barcha hududlarida, shu bilan birga, Xuanxe, Yanszi va Chjuszyan daryolarining havzalarida, mamlakatning janubiy sharqiy

²⁷ <https://jaredfisher.livejournal.com/57229.html>

<https://www.worldometers.info> › КИТАЙ-население

hududilarida keng tarqalgandir. «Kam sonli millatlar» Xitoy jamiyatida ozchilikni tashkil etsada, ular mamlakat hududining 64,3foizida istiqomat qiladilar. «Kam sonli millatlar» asosan, Xitoyning Shimoliy-Sharqiy, Shimoliy, Shimoliy-Gʻarbiy va Janubiy-Gʻarbiy qismlarida keng tarqalgandir. Yunnan provinsiyasida esa, hozirgi kunda, (janubiy gʻarbiy Xitoy) 20 dan ortiq millatlar yashaydilar.

Mamlakatning koʻpgina shahar va uездlarida odatda, millatlar soni kam boʻlib, asosan ularda bitta yoki ikkita millat vakillari yashashadi. Mamlakat aholisini sonida erkaklar salmogʻi ustun boʻlib, ular - 50,8% ni, ayollar esa 49,2% ni tashkil etadi. Aholining aksariyat qismini oʻrta yoshdagilar tashkil etib, (15-64 yosh) ular - 68,6% ni, bolalar (14 yoshgacha) 25,7 % ni, qariyalar esa (65 yoshdan yuqori) -13,5 % ni tashkil etadi²⁸.

Endi Xitoy Xalq Respublikasining demografik rivojlanishidagi muammolarga eʼtiborimizni qaratamiz, ular quyidagilardan iborat:

- Uzoq Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi XXRsining aholi punktlarini hududiy joylashuvida keskin tafovutlar koʻzga tashlanadi: deyarli 90% aholi mamlakat hududining 1/3 qismida joylashgandir. Shunday boʻlsada, aholining 37%i qishloqlarda, qolgan 63%i esa, shaharlarda yashaydi (2024y.), yaʼni yoqorida taʼkidlanganidek, mamlakatning katta qismida aholi zichligi juda past;

- mamlakatda oxirgi 45 yil mobaynida aholi sonining qisqarishi kutilgandan ham jadallashib borib, Xitoy iqtisodiyoti YaIM ni oʻsishini sekinlashuviga olib keldi;

- Xitoy aholisining oxirgi avlod vakillari zimmasiga nafaqat, oʻz farzandlari, balki qarib borayotgan ota-onalar toʻgʻrisida ham qaygʻrsh vazifasi yuki ortib bormoqda, yaʼni, masalan, 2022-yilda 100ta mehnatga layoqatli yoshidagi aholiga 20ta nafaqador toʻgʻri kelgan, bu koʻrsatkich 2100-yilga kelganda har 100ta mehnatga layoqatliga 120ta qariyalar toʻgʻri kelishi bashorat qilinmoqda;

²⁸Manba: <https://jaredfisher.livejournal.com/57229.html>

- mamlakatda “kumush yoshdagi” (64 yoshdan yoqori) aholi soni 2025 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 200 mln. kishidan ortiq, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 126 mln.k.ni tashkil etgan.Soha ekspertlarining bashoratiga ko‘ra, 2050-yillarga kelib, mazkur yoshdagi kishilar soni o‘zining eng yoqori nuqtasiga chiqishi mumkin, ya‘ni 500 mln.k.ni tashkil qilishi kutilmoqda. Bu esa, amalda har 2 xitoylikning 1tasi “qariya – ulug‘ yoshdagi” kishiga aylanadi demakdir;

- hozirgi davrda Xitoyda farzand ko‘rish yoshidagi (fertile) ayollar soni 1980-2000-yillarga nisbatan (100ta tug‘ilgan qiz bolaga 110 tadan 118 tagacha o‘g‘il bolalar to‘g‘ri kelgan) pasayib bormoqda, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, mazkur nisbat 20-24 yoshdagi har 100ta ayolga 115 ta erkak; 15-19 yoshdagi har 100ta qiz bolaga 118 ta o‘g‘il, 10-14 yoshdagi har 100ta qiz bolaga 119 ta o‘g‘il, to‘g‘ri kelishi kuzatilmoqda va bu disbalans keyinchalik, yana ham kuchayishi kutilmoqda²⁹;

- Xitoy ayollarini farzand ko‘rishga shoshilmasligi yuz bermoqda, 2024-yilda mamlakatdagi tug‘ilishni minimal darajasi buni isbotladi. Uning asosiy sabablari: tug‘iladigan bolaga ketadigan harajatlarning balandligi (bolaning ust-boshi, ovqatlanish harajatlari, maktabgacha ta‘lim, maktab, oliy ta‘lim) va bola tarbiyasiga vaqt yetishmasligi. Bu borada Pekin universiteti va Zhaopin agentligi hamkorligida “milliy onalar kuni” ga o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnima yakuniy natijalarini keltirildi. Xususan, oilada 3-farzand ko‘rishga atigi 3,1% onalar tayyorligi, 1-farzandni ko‘rishga esa, atigi 0,5% turmushdagi, lekin hali farzand ko‘rmagan ayollar tayyor ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Buning sabablari: o‘zi uchun vaqt qolmasligi shaxsiy erkinligini yoqotish xavfi (35,1%) va mutlaq ko‘chilik (48,6%) ayollarning farzand tug‘ilishi, uning tarbiyasini juda qimmatliligi deyilmoqda. Xitoyning Yuwa konsalting kompaniyasi hisoblariga ko‘ra, bolaga ketadigan harajatlar o‘rtacha 600 ming.yuan (\$95 ming) ni tashkil etishi, XXRsining yirik shaharlarida esa, bu harajatlar yanada yoqori bo‘lishi mumkinligi aytilmoqda.

Xitoy demografik statistikasining oxirgi ochiq ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatdagi shahar, provinsiyalar va rayonlardagi umumiy tug‘ilish miqdori

²⁹ <https://jaredfisher.livejournal.com/57229.html>

2025-yil boshida 379,492 tani tashkil etdi, bu esa, 2024-yil ko‘rsatkichiga nisbatan mos ravishda 13,03% ga pasaygan. Mazkur ma‘lumotlarni ekstropolyatsiya qilishda butun 2025-yilda mamlakatda 8,315 mln. bolalar tug‘ilishi bashorat qilindi. Ammo, ekspertlarning hisoblashicha, 2025 yil yakunida Xitoyda tug‘ilishlar soni 8-8,5mln.k.ni tashkil etadi. Xitoyning tug‘ilidj koeffinsienti yig‘indisi 2025 yilda bir ayolga 0,95–1ni, 2026-yilda esa, bu ko‘rsatkich 0,85–0,95.ga pasayishi kutilmoqda³⁰. Mazkur mavjud demografik muammolarni hal qilish uchun hukumat hozirda yoshlarni farzand ko‘rishni ko‘paytirishni qo‘llab-quvvatlovchi turli motivatsion chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda. Ularning fikricha, nafaqa bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirishga, yoshlarga esa, banklar orqali arzon kreditlarni ajratib borishga e‘tiborni kuchqtirish lozim.

5.2.Xitoyda aholini bandlik strukturasi

Iqtisodiy islohotlar davri mobaynida Xitoy Xalq Respublikasi aholisi 285,5 mln kishiga; mehnat resurslari 359 mln kishiga o‘tib, 2007-yilda mehnatga layoqatli aholi soni 901,2 mln. kishini tashkil etdi. Aholining ish bilan bandligi 298 mln. kishiga ko‘payib, 2007 yilda qo‘shimcha yana 130,6 mln. kishi ish bilan ta‘minlandi. Xitoy Xalq Respublikasi aholisining keskin o‘ssishi va shu bilan birga to‘liq bandlikga intilishi islohotlar davomida iqtisodiy o‘ssishning asosiy omili bo‘lib xizmat qildi. Islohotlar davrida ishga yaroqli aholining 95,8% i (1998yilda bu ko‘rsatkich - 82,9% ni tashkil etgan edi.) ish bilan ta‘minlandi.

Xitoyda tarixan ishchi kuchining agrar sektordan sanoatga, keyinchalik xizmatlar sohasiga oqimi kuzatilgan. Misol uchun, 2022-yilda xizmatlar sohasida band bo‘lganlar ulushi 47,1%ni tashkil etgan. Sanoat va qurilish tarmoqlaridagi bandlikning eng yuqori darajasi 2012-yilda (30,2%) qayd etilgan. Keyingi yillarda bu ulush kamayib, ishchi kuchi xizmatlar sektoriga o‘ta boshladi — bu postindustrial bosqichga o‘tish tezlashayotganini ko‘rsatadi³¹.

2012–2020-yillarda sanoatdagi bandlar soni kamaygan bo‘lsa-da, sanoat ishlab chiqarish hajmi yiliga 5–8% gacha o‘sgan. Bu esa reindustrializatsiya va

³⁰ <https://jaredfisher.livejournal.com/57229.html>

³¹ <https://youtu.be/ZJ8IOu8LAQY?si=Nyam8XaTTdvP2xgM>

robotlashtirish jarayonlarining kuchayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 2021–2022-yillarda qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi bandlik biroz ortgan, bu esa xizmatlar sohasida yuqori malakali va yuqori maoshli ish o‘rinlarini yaratishning murakkabligini ko‘rsatadi.

Mamlakatni keng sur‘atlarda industriallashtirish siyosati aholini ish bilan ta‘minlashda keng imkoniyatlar ochib berdi. Buning natijasida Xitoy jamiyati, boshqa mamlakatlarda bo‘lgani singari (Pokiston, Postsotsialistik mamlakatlar va boshqalar) chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlarga tushib qolmadi.

Aholini ish bilan ta‘minlash juda sodda texnologiyalar (sifati unchalik yuqori emas) asosida, asosan, ekstensiv yo‘nalishda amalga oshirildi. Natijada korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish joylari tezda to‘lib, mehnat resurslaridan foydalanish samarasi pasaya boshladi. Bo‘sh ish vaqtini kamaytirish maqsadida 1995-yildan boshlab, davlat korxonalarida xaftasiga «5 kunlik» ish rejimiga o‘tildi.

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Xitoy shaharlaridagi ishsizlik darajasi islohotlarning dastlabki 10 yilligida 2 karraga qisqardi (1978 y. - 5,3%; 1989 y. - 2,6 %). 1995 yillarda esa, ish joylarining sezilarli qisqarishi kuzatildi. Va oxir oqibatda, ishsizlikning o‘shish tendensiyasiga olib keldi. Buni 1997-98 yillardagi Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inqirozning XXR iqtisodiyotiga salbiy ta‘siri natijasida ko‘rishimiz mumkin. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatda 1998-yilda ishsizlik - 3,1 % ni tashkil etdi.*

2004-yildagi Xitoy ommaviy axborot vositalari tarqatgan ma‘lumotlariga ko‘ra, ushbu yilda shahar va shahar tipidagi poselkalarda 23,7 mln. kishini qayta ish bilan ta‘minlash muammosi yuzaga kelgan. Shulardan 6 mln. ishchilar ishsizlik ro‘yxatidan o‘tgan, 3 mln. xizmatchilarni esa, muassasalarda qisqartirishga majbur bo‘lganlar va natijada qishloqlarda 130 mln.dan ko‘proq ortiqcha ishchi kuchi to‘planib qolgan.

*Rasmiy ma‘lumotlarda ro‘yxatdan o‘tgan ishsizlik darajasigina aks ettiriladi, real Xitoy ijtimoiy hayotida esa, Xitoy iqtisodchilarining hisob-kitobiga binoan ishsizlik darajasi 8-9% dan kam emasdir. (Bu hisob kitoblarga asosan, shaharlar va shahar tipidagi qishloq poselkalar aholisiga nisbatan hisoblangan).

XXR hukumati mintaqadagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda, bandlik muammosini hal etishga intildi. Mamlakatda ijtimoiy ta'minotning yangi tizimi ishlab chiqilib, 1990 yillar oxirida «Ishsizlik bo'yicha sug'urtalash» va «Ijtimoiy sug'urta to'lovlarning vaqtinchalik holatlari» to'g'risida qonun qabul qilindi.

2007-yil ma'lumotiga ko'ra, ish bilan band bo'lganlarning umumiy soni 864,57 mln. kishini tashkil etib, u ishga layoqotlilar sonining 95,8 % tashkil etdi, ulardan qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni - 406,34 mln. kishini (47%), sanoatda band bo'lganlar soni - 216,14 mln. kishini (25%), xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni esa - 242,7 mln. kishini (28%) tashkil etdi.

1979-yilda Xitoyda "Ochiq eshiklar" siyosati e'lon qilinib, unda nafaqat, xorijiy kompaniyalar uchun, balki mamlakatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar uchun ham mehnat bilan shug'ullanishga muayyan sharoitlar yaratila boshlandi. 1979-1985 yillar ichida Xitoy hukumati 54 mln. dan ortiq (yiliga 7,2 mln.) kishini amalda ish bilan ta'minladi. 1985-yil ma'lumotiga ko'ra, shahar aholisining ish bilan ta'minlangan qismi 128.08 mln. kishini tashkil etib, buning natijasida "Madaniy inqilob" dan keyingi davrda ishsiz qolgan aholi ish bilan ta'minlanib, mamlakatdagi ishsizlik muammosi qisman hal etildi³².

Mana shu vaqt mobaynida, Xitoy hukumati mamlakat yoshlarini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarini o'tqazib, ularga ish o'rinlarini yaratish bo'yicha yangi siyosatini amalga oshira boshladi. 1985 yilning yakuniga kelib, kollektiv sektorda band bo'lganlar soni 33,24 mln. kishini tashkil etdi, bu 1978 yilga nisbatan, 17,78 mln. kishiga ko'pdir. Bundan tashqari ko'rilgan choralar bandlik strukturasi kiritilgan o'zgarishlardan iborat bo'ldi. Unda ayniqsa, mamlakat sanoat ishlab shiqarishidagi uning yengil sanoatidagi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalaridagi bandlikning rivojlanishi yuz berdi.

Shu bilan birga, xususiy va kollektiv mulkga asoslangan shahar korxonalarini tarmoqlaridagi bandlikning tarkibiga e'tibor qaratsak, unda mamlakatdagi

³² <http://www.china.org.ch>

individual mehnat bilan shug'ullanuvchilar soni 1985 yilga kelib, - 4,5 mln. kishini tashkil etganligini ko'rish mumkin, u 1978 yilga nisbatan (159 ming.k.) qarayib, barobarga oshdi³³.

Mamlakatning sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa sohalaridagi bandlik 1976 yildagi 70,4% dan 1985 yilga kelib, 66,2% ga kamaydi va sog'liqni saqlash, shahar communal xizmatlari hamda bank sektoridagi bandlik mos holda, 25,1% dan 28,7% ga ko'paydi. Davlat muassasa va tashkilotlarida ishlovchilar soni esa, buning teskarisini, ya'ni agar u 1949 yilda 19,1% bo'lgan bo'lsa, 1985 yilga kelib, 5,8% ga kamaydi³⁴.

Yoshlar o'rtasidagi bandlik muammosini hal etishda Xitoy hukumati yangi ishchi kuchini hisobga olish va taqsimlash ishlarini faollashtirdi hamda mazkur ishlar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarni tashkil etdi. Ushbu kompaniyalar soni agar, 1978 yilda 800 tadan iborat bo'lgan bo'lsa, 1985 yilga kelib, ularning soni 45000 taga etdi. Mamlakatdagi umumiy bandlik esa 1,2 mln. kishidan 8,8 mln.kishiga ko'paydi. Ulardan 6,14 mln. kishi hisobga olish va taqsimlash kompaniyalari tomonidan boshqariluvchi kollektiv korxonalarida faoliyat ko'rsatdilar, 1,6 mln. kishi tayyorlov kurslarida ta'lim olib, 1,1 mln/kishi esa, vaqtinchalik ish bilan band bo'ldilar.

Mazkur kompaniyalar, nafaqat, tashkiliy ishlarda, ishchi kuchini qayta tayyorlashda, ularni taqsimlashda va tartibga solishda, balki, iqtisodiyotning asosiy sektorlarini rivojlantirishga ham o'z hissalarini qo'shdilar.

Mamlakatda bandlikni oshirish bilan birga, Xitoy hukumati ishga qabul qilish tizimiga ham o'zgartirishlar kiritdi, jumladan. Ko'pgina hollarda ishga qabul qilish tanlovlar asosida amalga oshirilib kelindi. Undan tashqari, ishga qabul qilishning shartnoma tizimi ham keng qo'llanila boshlandi. Birgina, 1985 yilda 3,5 mln. kishi ishga shartnoma asosida qabul qilindilar.

³³ China Market report. Albert Pan, Zeefer Consulting, Cloud New Zealand Limited, 2012, 509 P

³⁴ Энциклопедия нового Китая, Пргресс, Москва, 1989,368с.


Iqtisodiy islohotlar davri mobaynida Xitoy Xalq Respublikasi aholisi 285,5 mln. kishiga; mehnat resurslari 359 mln. kishiga o'sib, 2007 yilda mehnatga layoqatli aholi soni 901,2 mln. kishini tashkil etdi. Aholining ish bilan bandligi 298 mln.kishiga ko'payib, 2010 yilda qo'shimcha yana 110,6 mln. kishi ish bilan ta'minlandi. Xitoy Xalq Respublikasi aholisining keskin o'sishi va shu bilan birga to'liq bandlikga intilishi islohotlar davomida iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib xizmat qildi. Islohotlar davrida ishga yaroqli aholining 95,8% i (1998 yilda bu ko'rsatkich - 82,9% ni tashkil etgan edi.) ish bilan ta'minlandi.³⁵

Aholini ish bilan ta'minlash juda sodda texnologiyalar (sifati unchalik yuqori emas) asosida, asosan, ekstensiv yo'nalishda amalga oshirildi. Natijada korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish joylari tezda to'lib, mehnat resurslaridan foydalanish samarasi pasaya boshladi. Bo'sh ish vaqtini kamaytirish maqsadida 1995 yildan boshlab, davlat korxonalarida xaftasiga «5 kunlik» ish rejimiga o'tildi.

XXR hukumati mintaqadagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda, bandlik muammosini hal etishga intilmoqda. Mamlakatda ijtimoiy ta'minotning yangi tizimi ishlab chiqilib, 1990 yillar oxirida «Ishsizlik bo'yicha sug'urtalash» va «Ijtimoiy sug'urta to'lovlarining vaqtinchalik holatlari» to'g'risida qonun qabul qilindi.

5.2.1-rasm

Xitoyning 2020 yilda sohalar bo'yicha ish bilan band bo'lganlar soni³⁶



2020 - yil ma'lumotiga ko'ra, ish bilan band bo'lganlarning umumiy soni 864,57 mln. kishini tashkil etib, u ishga layoqatlilar sonining 95,8 % tashkil etdi,

³⁵Энциклопедия нового Китая, Пргресс, Москва, 1989,368с.

³⁶ www.china-people.gov.cn.

ulardan qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni - 406,34 mln. kishini (47%), sanoatda band bo'lganlar soni - 216,14 mln. kishini (25%), xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni esa - 242,7 mln. kishini (28%) tashkil etdi³⁷.

Shunday qilib, Xitoy hukumaning aholi bandligini oshirish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlari asosida mamlakatdagi ishsizlik darajasi ancha pasayib bormoqda va undagi bandlik darajasi esa, mavjud muammolarga qaramay, oshib bormoqda.

Mamlakatda bandlik va xususan ish bilan ta'minlash sohasida paydo bo'lgan salbiy holatlar mehnat vazirligi qoshidagi mehnat ilmiy-tadqiqot instituti va XXRsining ijtimoiy ta'minoti mutaxassislar tomonidan tahlil qilindi va inqiroz holatidan samarali chiqish uchun bandlik sohasida aktiv siyosiy islohotlarni olib boorish kerak deb hisoblaydilar. Ushbu muammo bo'yicha ular quyidagi 4ta taklif bilan chiqdilar.

Birinchidan, mutaxassislarni fikricha ish bilan ta'minlash siyosatini aktiv olib boorish va bandlikni kengayishi davlatni iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi paytda bandlikni kengaytirish aholini yashash darajasini oshirish va ijtimoiy baeqarorlikning ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Shuning uchun bandlikni maksimal darajaga ko'tarish va ishsizlik darajsini, iqtisodiy o'sishni saqlagan holda kamaytirish va milliy iqtisodiyot strukturasi optimallashtirish kabi vazifalarini amalga oshirish lozim deb biladilar.

Yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal etish uchun yoki ularni yengillashtirish uchun ish bilan ta'minlashga sarmoyani ko'proq yo'naltirish kerak, shu boradagi siyosiy qarorlarni mukammlashtirish, ishchi kuchi bozorini rivojlantirish, ish bilan ta'minlashda xizmat sohasini yaxshilash, ish izlovchilarga yordam berish tizimini shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, bir qancha chora-tadbirlar kompleksni qabul qilib, bandlik sohasidagi salbiy tendensiyani oldini olish kerak.

Ikkinchidan, ko'proq o'rinni yaratish uchun o'rtacha iqtisodiy o'sishni ta'minlash zarur. Iqtisodiyotda strukturaviy o'zgartirishlar amalga oshirganda,

³⁷ <https://youtu.be/ZJ8IOu8LAQY?si=Nyam8XaTTdvP2xgM>

Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Aynan shu mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va bandlik o'rtasidagi uzviy bog'liklik amalda kuzatilgan. Bandlikning o'sish tempi iqtisodiy o'sish templaridan orqada qolsa ham, bir-biriga bog'liqlik o'zaro o'sish va pasayishda ko'rinadi. Yuqorida aytilganlardan xulosa qilib aytganda, iqtisodiy o'sish bevosita bandlikka ta'sir etib, uni tubdan o'zgartirish imkoniga ega emas, lekin kamida ya'ni ishchi o'rinlarini yaratish va bandlikdagi inqiroz va tushkunlikni oldini olish kabi funksiyalarni bajaradi.


Uchinchidan, iqtisodiy o'sishni ma'lum bir me'orda ushla turgan holda ish bilan ta'minlas ko'lamini kengaytirish uchun iqtisodiyotning strukturasi takomillashtirish kerak. Boshqa tarafdin yirik, texnologiya va capital talab qiluvchan korxonalarni rivojlantirish kerak, ikkinchi tarafdin koproq ishchi joylarining yaratib beruvchi va ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib boruvchi iqtisodiy korxonalarni rivojlantirish kerak, ikkinchi tarafdin ko'roq ishchi joylarini yaratib beruvchi va ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib boruvchi iqtisodiy korxonalarni rivojlantirish zarur.

To'rtinchidan, ishchi o'rin kutayotganlarda o'zlari ish topishlari uchun tashabbus va qiziqishni uyg'otish zaruriyati mavjud. Hozirda davlatda ishchi kuchi bozorida, ish qidirish mexanizmi tashkil topayotgan davrda bandlikni oshirish muhim stimuly sifatida, odamlarda mustaqil ravishda ish qidiruvchi faolligini oshirishni misol qilib keltirsak bo'ladi. Bu uchun ish bilan ta'minlash siyosatini va odamlarni mehnat bozoriga qo'shib, ularga faol ishtirok etishlari uchun bandlikni kengaytiruvchi sarmoyalarni ko'paytirish lozim. Xitoy shahar va qishloq aholisining taqsimlanishini quyidagi 5.2.2.-rasmdan ko'rib chiqamiz,

5.2.2-rasm³⁸

³⁸ www.china-people.gov.cn.asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Xitoy aholisining (shahar va qishloq) taqsimlanishi, % da



Mamlakatda bandlik va aholini ish bilan ta'minlash sohasida yuzaga kelgan salbiy holatlar Xitoy mehnat vazirligi qoshidagi mehnat ilmiy-tadqiqot instituti hamda mamlakatning ijtimoiy ta'minot muassasalari tomonidan chuqur tahlil etilib, mamlakatni inqirooz holatidan samarali chiqarish maqsadida, bandlik bo'yicha faol siyosiy islohotlarni amalga oshirish lozim deb topildi. Mamlakatdagi mavjud mazkur muammolarni quyidagi yo'llar orqali hal etish taklif etildi.

- Birinchidan, ish bilan ta'minlash siyosatini izchillik bilan olib borish va bandlikni turli yo'nalishlarda kengaytirish orqali aholi yashash farovonligini oshirish va mamlakat ijtimoiy barqarorligini ta'minlash. Buning uchun mamlakatda bandlikni maksimal darajada ko'tarish va ishsizlik darajasini qiaqartirish va milliy iqtisodiyot tarkibini optimallashtirish kabi vazifalarni amalga oshirish lozim. Shuningdek, mamlakatda bandlikni oshirish va aholini ish bilan ta'minlashda nafaqat ichki, balki, tashqi sarmoyalarni ko'proq jalb etish, mazkur yo'nalishdagi mavjud qonunchilikni mukammallashtirish, ishchi kuchi bozorini rivojlantirish lozim;

- Ikkinchidan, yangi ish o'rinlarini yaratish uchun, mamlakatda o'rtacha iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish, ayniqsa, hozirgi davrda, barqaror rivojlanayotgan mamlakatlar safi qisqarib borayotganligini e'tiborga olib foydalanish lozim;

- Uchinchidan, iqtisodiy o'sishni muayyan bir me'yorda ushlab turgan holda, aholini ish bilan ta'minlash ko'lamini kengaytirish uchun iqtisodiyotning tarkibini takomillashtirish lozim. Bir tomondan, yirik texnologiya va kapital talab

korxonalarni rivojlantirish, ikkinchi tomondan, yangi ish o'rinlarini ko'proq yaratib berishga qodir bo'lgan, kichik va o'rta biznesni ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida rivojlantirish zarurdir;

- To'rtinchidan, aholini ish bilan ta'minlashda, ayniqsa, kecha o'qishni bitirib kelgan, tashabbuskor, bilimdon yoshlarga alohida katta e'tibor qaratish lozim. Undan tashqari, mamlakatda ish qidirish dastaklarini aholiga qulay variantlarda tashkillashtirish, mehnat bozoridagi ish beruvchilar to'grisida axborot ma'lumotlar tizimini shakllantirish lozim.

Hozirgi davrda (2010 yildan so'ng) Xitoyda narxlar indeksi, ayniqsa, mamlakat Olimpiadaga tayyorlanish paytida juda ham ko'tarilib ketdi. Undan keyingi davrda narxlar indeksi oz bo'lsada pasaygan bo'lishiga qaramay, baribir, ular Xitoy aholisi uchun kerakli pasaymadi. Bugungi kunda Xitoyda iste'mol mahsulotlari narxlari bozordagi talab va taklifga qarab shakllanmoqda. Xususan, mamlakatdagi 90% qishloq xo'jaligi mahsulotlari, 95% chakana savdo tovarlari va 85% sanoat mahsulotlari erkin narxlarda sotilmoqda.³⁹

Xitoy o'z iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni intensiv davom ettirib, uning natijasida nafaqat, mamlakatning janubiy-sharqiy qismi, balki, boshqa hududlari ham rivojlanib bordi. Ularning samarasi esa, mintaqalarda xorijiy sarmoya ishtirokidagi yangi korxonalar tashkil etilib, ularda yangi ish o'rinlari barpo qilindi. Oxir oqibatda, mamlakat aholisining katta qismi ish bilan ta'minlandi va ularning turmush darajalari oshib bordi.

5.3. XXRsining aholi bandligi darajasini oshirish strategiyasi

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat jamiyat a'zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mavjud ishchi kuchlarining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos aholi tarkibiga ega bo'lgan respublikamizda ishchi kuchining ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi

³⁹XXR Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. ([http:// www.china.org.ch](http://www.china.org.ch)) asosida tayyorlandi.

iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu masalani hal etish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Birinchi, keng faoliyat turlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash, xalq iste'mol mollarini, mahalliy xom ashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarini faol rivojlantirishni rag'batlantirish.

Ikkinchi, xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo'yicha xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

Uchinchi, qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun respublikamizda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda.

To'rtinchi, ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish. Bunda ishdan bo'shayotgan va ixtisosi bo'lmagan shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o'zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o'rgatishga e'tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o'quv markazlari, biznes maktablarning keng tarmog'ini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Beshinchi, vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo'lmagan ishchi kuchlarini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo'lishga qaratiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, 2011 yilda xitoy milliy valyutasi yuanning revalvatsiyasi kuchaydi. 2011 yil dekabr oyi oxirida 1 AQSH dollarining 1 yuanga bo'lgan kursi 6,3009 yuanni tashkil etdi va 21 yul 2005 yilga nisbatan, amaldagi revalvatsiya (yuanning suzib yuruvchi kursiga o'tishi valyuta savatchasi asosida amalga oshirildi) 31,35% ni tashkil etdi.


Hozirgi davrga kelib, Xitoyning tug'ilish miqdori (soni) 15,23% ga kamayib, u bu ko'rsatkich bo'yicha rivojlangan mamlakatlar darajasiga etib olgan bo'lsada, aholining umumiy soni va uning mehnatga layoqatlilar soni hanuzgacha ko'payish tendensiyasiga egadir.

Aholining mehnatga layoqatli qismi 1995-yilda 731 mln.kishini 2000-yilda 758 mln. kishini va 2010-yilga kelib, 780 mln.kishini tashkil etdi. Soha mutaxassislarining fikricha, 2030-yilga kelib, mamlakatdagi mehnatga layoqatlilar soni o'sib borishi mumkin. 2016-2020-yillarda, mamlakatdagi tug'ilish dasturining salbiy oqibatlari ko'rina boshladi. Ya'ni, mehnatga layoqatli aholining soni bugun ko'paymoqda. Buning oqibatida, mamlakatdagi tug'ilishni pasayishi evaziga, aholining 65 yoshdan katta bo'lgan qatlamining ko'payib borishiga olib keladi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, 2030 yilga kelib, mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining (15-64 yosh) salmog'i kamayib borishi va sekin-asta qariyalar sonini ko'payishi natijasida, 2050 – yillarga kelib, ularning ulushi hozirgi 13,5% dan, 30% ga ko'tarilishi kutilib, ushbu davrda 3 kishidan iborat bo'lgan o'rta statistik xitoy oilasi, nafaqat, o'zini va farzandi ehtiyojini, balki, mamlakatdagi 4ta nafaqa yoshidagi qariyalarni ehtiyojlarini ta'minlashi lozim bolishi kutilmoqda.

Xitoyda 2024-yil oxiriga kelib, aholining umr ko'rish davri 79 yoshga yetdi, u 2020-yilga nisbatan, 1,1 yilga ko'pdir. Yaqin kelajakda (2-3 yilda) bu ko'rsatkichni 80 yoshga yetishi bashorat qilinmoqda, bu esa, mamlakatning sog'liqni saqlash sohasidagi muhim yutuqlari mavjudligidan dalolat beradi. Mazkur sohadagi yutuqlar, XXRsini 14-besh yillik (2021-2025yy.) rejasi chegarasida belgilangan maqsadlardan ham yoqori bo'ldi.

**Xitoy mehnatga layoqatli aholi soninig 2020-2030 yillarda o'sish
dinamikasi, (bashorati)⁴⁰**



Undan tashqari, mamlakatdagi 8ta provinsiya darajasidagi ma'muriy birliklarda umr ko'rish davomiyligi ko'rsatkichi 80 yoshdan ham oshib ketdi. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 2018-yildagi 77 yoshdan, 2019-yilda 77,3 yoshni tashkil etdi, 2023-yilga kelib, u 78,6 yoshga ko'taridi. Shular bilan birga mamlakatda aholi o'limi pasayib bormoqda, ayniqsa, ona va bola o'limi koeffitsienti pasaymoqda⁴¹.

Xitoy hukumati, mamlakatdagi mavjud demografik rivojlanishni, ya'ni tug'ilishni ko'paytirish borasidagi salbiy holatni oldini olish chora-tadbirlarini o'zining navbatdagi s'ezdlarida muhokamaga qoyib, endigi amalga oshiriladigan ishlar ma'lum ekanligi tan olindi.

Shunday qilib, Xitoydagi kabi O'zbekistonda ham aholi bandligi ancha ko'zga ko'rinarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Umumiy ijobiy natijalar bo'lib, mehnatdan foydalanishda tarkibiy o'zgarishlarni, mehnatga qiziqishni, ishbiarmonlikni hisoblash mumkin. Bularni uzoq muddatli yo'nalishi hamda aholining mehnat faolligini yanada o'sishi, uning bozor munosabatlariga moslashuvi

⁴⁰ХХР Давлат статистик Қўмитаси маълумотлари. (<http://www.china.org.ch>)

⁴¹ tm.china-embassy.gov.cn

va mehnat faoliyatining samarasi uchun qudratli omil deb hisoblash mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdayaptiki, bu sohada hali ham muammolar mavjud, xususan, ishchi kuchi, talab va taklifning son va sifat bo'yicha muvozanatlashganligi, bandlikni shakllanishida yoshlarning o'rni va boshqalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. XXR aholisining umumiy soni qancha? (1949 y.da va hozirgi davrda)
2. XXR da aholining zichligi qanday?
3. XXR aholisining urbanizatsiya darajasi qanday?
4. «Demografik portlash» nimani anglatadi, mohiyatini yoritib bering.
5. XXR aholisining tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari qay darajada?
6. «Promille» qanday ko'rsatkich?
7. XXR hukumatining «Tug'ilishni rejalashtirish» siyosatini tushuntirib bering.
8. XXR aholisining milliy tarkibi qanday?
9. XXR aholisining yosh bo'yicha tarkibi qanday?
10. XXR hukumati aholining bandlik muammosini qanday hal qilmoqda?.

Mustaqil ish vazifalari:

1. Xitoy va Hindistonning demografik rivojlanishidagi farqlarni solishtirma tahlil asosida amalga oshiring.
2. «Demografik portlash» ning mohiyatini ochib bering.

Adabiyotlar

1. China Market report. Albert Pan, Zeefer Consulting, Cloud New Zealand Limited, 2012, 509 P
2. Ван Е. (2015). Демографическая политика Китая в начале XXI века // Настоящее и будущее семьи в меняющемся мире / Под ред. Н. Римашевской. М.: Экон-Информ: 303–310.
3. Гулева М.А. (2016). Отмена политики «Одна семья - один ребенок» в Китае // Азия и Африка сегодня. 6: 36–40.

4.Киреев А.А. (2015). Изменения демографической политики Китая // Ученые записки Комсомольского-на-Амуре государственного технического университета. 2(2): 15–17.

5.Кислова Е.В., Д.В. Буяров (2016). Влияние политики на решение демографических проблем XXI века в Китае // VI международная научно-практическая конференция «Россия и Китай: история и перспективы сотрудничества» (РФ, Благовещенск, 16-18 мая 2016 г.). Благовещенск: Издательство БГПУ: 347–350.

6 Островский А.В. (2013). Экономика КНР в 2030 году: проблемы и перспективы (как относиться к прогнозу экономического развития КНР, сделанному центром изучения положения в стране университета Цинхуа) // Доклады ИДВ РАН 2012. М.: ФГБУН Институт Дальнего Востока Российской академии наук: 29-50

7.Campbell Ch. China’s Aging Population Is a Major Threat to Its Future // Time. – 2019. – 07.02. – Mode of access: <https://time.com/5523805/china-aging-populationworking-age/>

6-BOB: Xitoyda urbanizatsiya jarayoni xususiyatlari va aholi tarkibidagi o‘zgarishlar

Darsning maqsadi: XXRda urbanizatsiya jarayonini shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini hamda aholi tarkibidagi o‘zgarishlarni tahlil etishdan iborat.

Tayanch iboralar: urbanizatsiya, aglomeratsiya, modernizatsiya, aholining soni va tabiiy resurslar o‘rtasidagi muvozanat, shahar va qishloq, aholining tug‘ilish va o‘lim darajalari.

6.1. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish bosqichlari

Urbanizatsiya so‘zi qadimgi lotincha “Urbanus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “shaharlik” degan ma’noni bildiradi. Urbanizatsiya jarayoni deb mamlakatda shahar aholisini ko‘payib, qishloqlarda kamayishiga aytiladi.⁴² Shu bilan birga, bu ko‘rsatkich urbanizatsiya jarayonini to‘liq aks ettirmaydi. Avvalo, gap shaharlarning jamiyatni ijtimoiy va madaniy hayotidagi roli haqida ketadi. Shaharlarda ayni paytda sanoat komplekslari, madaniy va ijtimoiy markazlar, moliyaviy oqimlar shakllanmoqda. Bundan tashqari, urbanizatsiya jarayonida yirik shaharlar qo‘shni kichik qishloqlarni yoki shaharchalarni o‘zlashtirmoqda.

Shuni takidlash joizki, dunyo mamlakatlarida shaharlashish jarayonlari turli xil darajaga ega. Urbanizatsiya jarayoniga qarab, dunyodagi barcha davlatlar 3 ta guruhga bo‘linadi: past (32%dan kam), o‘rtacha (32%dan 73%gacha) va yuqori (73%dan yuqori).⁴³

So‘nggi o‘n yillikda Xitoyning rivojlanishi jadal sur’atlarda davom etmoqda. Yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarni namoyish etayotgan Xitoy, qisqa davr ichida qoloq agrar davlatdan, mintaqaning siyosiy, iqtisodiy markazi, hamda Sharqiy Osiyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biriga aylandi. Mamlakatni modernizatsiyalashning muhim tarkibiy qismlaridan biri – urbanizatsiya jarayonini tezlashishidir. Xitoyda shaharlar (ayniqsa, osirgi vaqtlarda “aqli shaharlarni”) sonining ko‘payishi, jahon

⁴²Зверев Н.В. Основы демографии: учебное пособие.- М.: «Высшаяшкола», 2009 yil. – 374 bet

⁴³Solinger D. The creation of a new underclass in China and its implications

iqtisodiy taraqqiyotiga va Xitoy jamiyatining ijtimoiy rivojlanishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xitoyda aholining soni va tabiiy resurslar o'rtasidagi muvozanat, mamlakat ichkarisida shahar va qishloq o'rtasidagi aholini teng taqsimlanmaganligi, nafaqat mamlakatning ichki xavfsizligi, balki global miqyosda barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, demografik va migratsiya siyosatiga ta'sir ko'rsatadigan turli davlatlar faoliyatini tahlil qilish, nafaqat demografik muammoni balki, mamlakat rivojlanish konsepsiyasini ham tushunish uchun zarur hisoblanadi.

Xitoy o'zining urbanizatsiya darajasiga ko'ra, yaqin yillargacha sust urbanizatsiyalashgan mamlakatlar qatoriga kirib kelgan. Biroq, shahar aholisining soni va tabiiy resurslar, shahar va qishloq o'rtasidagi muvozanat juda ham tez sur'atlarda o'zgarib bordi. Endilikda, shahar aholi punktlarining, yirik shaharlarning (450ta) va millioner shaharlarning (34ta) umumiy soni jihatidan, shuningdek, shahar aholisining mutloq miqdori bo'yicha, Xitoy dunyoda birinchi o'rinni egallamoqda. Xitoy o'zining qishloqlari soniga ko'ra ham, dunyoda yetakchi o'rindadir: mamlakatda taxminan 700 000 ta qishloqlar mavjud.

Oxirgi 45 yil davomida an'anaviy xitoy megapolislari (Guangzhou, Pekin va Shanxay) iqtisodiy o'sishning barqaror ijobiy dinamikasini ko'rsatmoqda. Ular mamlakatga dunyoning ko'plab odamlarini jalb qilish, ilg'or texnologiyalar va xorijiy investitsiyalarni kiritish markaziga aylanib boradigan shaharlarga aylanib bormoqda., Xitoy bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlat sifatida, o'z iqtisodiyotini jadal rivojlantirib, hozirda jahon iqtisodiyotida 2-mamlakatga aylandi va uning natijasida urbanizatsiya darajasi ham oshib bormoqda, Biroq, rivojlanishning hozirgi bosqichida, Xitoy iqtisodiyoti butun mamlakat bo'ylab resurslarni teng taqsimlashni talab qiladi.

Mamlakatda yangi paydo bo'layotgan shahar aglomeratsiyalari Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti tarkibidagi eng dinamik va iqtisodiy salohiyatlaridan biri bo'lib, XXRda kelajakdagi urbanizatsiya jarayonining asosiy yo'nalishini belgilaydi. XXRsidagi mavjud shahar va qishloq xo'jalik hududlari, unga yangi aholi punktlarini loyihalash va shakllangan shaharlarni kengaytirish imkoniyatlarini

yaratadi. Biroq, bu imkoniyatlar bevosita shaharlarda ekologik muhitning yomonlashuviga olib keladi, mahalliy va sanoat ehtiyojlari uchun suv yetishmaslik muammosini keltirib chiqarmoqda, yirik mintaqaviy markazlar kengayib, atrofdagi aholi punktlarini o'ziga jalb qilmoqda, bu esa ekologik vaziyatni sezilarli darajada yomonlashtiradi va yangi muammolar paydo bo'lishiga olib keladi. Xitoy hukumati uchun eng dolzarb masalalardan biri bu - shahar aglomeratsiyalarni shakllantirish va o'sishini tartibga solish hisoblanadi.⁴⁴ Xitoyda boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, shahardagi aholi punktlarining maxsus strukturasi va ierarxiyasi mavjud. Ushbu hodisa "shahardagi qishloq" deb ataladi, bu qishloq joylarini shahar atrofiga yaqin integratsiyalashishda ifodalanadi.

Shunday qilib, rasmiy ravishda, mamlakat bo'ylab, katta shahar joylari tashkil etilmoqda, biroq u yerda qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan, ko'p sonli aholi yashaydi. Urbanizatsiya jarayoni shaharlar soni va shahar aholisining miqdori hamda ulushining o'sishini, shaharlar bilan bog'liq murakkab tarmoqlar va tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini anglatadi. Demak, urbanizatsiya inson hayotida shaharlar ahamiyatining beqiyos oshishini, jamiyatdagi aholining mehnat qilish xususiyatlari, turmush tarzi va madaniyatini, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha shaharlashishni o'zida aks ettiruvchi tarixiy jarayondir.

Urbanizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, hozirgi zamonda urbanizatsiya umumjahon jarayoni sifatida ko'pchilik mamlakatlarga xos bo'lgan uchta umumiy jihatlar bilan tavsiflanadi.

- birinchidan, kam rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisi sonining yuqori sur'atlarda o'sishini bildiradi. 1900-yilda dunyoda mavjud jami aholining salkam 14%igina shaharlarda yashagan. Bu ko'rsatkich 1950-yilda 29%ni, 1990-yilda 45 % ni, 2012-yilda 51,7%ni, 2020-yilda 60%ni tashkil etgan.⁴⁵

- ikkinchidan, aholi va xo'jalikning, asosan, katta shaharlarda to'planganligi bilan bog'liq. Bunday holat, avvalambor, ishlab chiqarishning xususiyati, uni ilm-

⁴⁴中国正在形成23个城市群. «Китай в настоящее время создает 23 агломерации». 2012-03-28. http://epaper.jinghua.cn/html/2012-03/28/content_775002.htm

⁴⁵www.strana-oz.ru/2012/3/urbanizaciya-po-rossiysk

fan va ta'lim tizimi bilan bo'lgan aloqadorligi natijasida murakkablashuvi bilan bog'langan.

- uchinchidan, katta shaharlar insonlarning ma'naviy va madaniy talablarini to'laroq qondiradi, xilma-xil tovarlar va xizmatlar bilan yaxshiroq ta'minlaydi, mavjud axborot manbalariga yo'l ochib berishi orqali ifodalanadi.

Urbanizatsiya jarayonlarini yaxshiroq tushunish uchun ko'plab mamlakatlardagi uning turli xususiyatlarini ajratib ko'rsatish lozim, xususan: Shahar aholisining tez sur'atlarda o'sishi, qishloqdan aholi o'z-o'zidan ko'chishi; yirik aholi punktlarida iqtisodiy tarmoqlarning to'planib qolishi; portlar, sanoat markazlari bo'ylab kemalar yoki yo'ldosh shaharlarning paydo bo'lishi natijasida, shahar aglomeratsiyasining shakllanishi.

Urbanizatsiyaning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat bo'lib, ular:

- aholi punktlarining o'sishi va keng ko'lamli muammolarning paydo bo'lishi;

- hududiy tashkilotning muhim shaklini shakllantirish - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda katta rol o'ynaydigan va muammolarni hal etishga yordam beradigan aglomeratsiya;

- iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan va qo'llab-quvvatlovchi tizimni shakllantirishdir.

XXRsi 2017-yilda jami aholisining shahar va kichik shaharchalarda istiqomat qiluvchi mamlakatlar qatoriga (Singapur va Monako singari urbanizatsiya darajasi 90-100%ga etgan mamlakatlar qatoriga Argentina, Belgiya, Islandiya, Quvayt, Malta, Qatar, San-Marino, Urugvay, Venesuela) kirib keldi. O'z navbatida urbanizatsiya quyidagi yo'llar bilan ifodalanadi:

1. Shaharlar soni ortishi bilan;
2. Shaharlarni kengayishi bilan;
3. Aholi asosiy faoliyatining kuchayishi va farqlanishi bilan;
4. Yangi turar-joy binolarini rejalashtirishda;
5. Yangi hayot shakllari, urf-odatlar, madaniyatning paydo bo'lishida.

Aglomeratsiya esa, lotinchada bog'langan degan ma'noni bildiradi. Agglomeratsiya – aholi punktlari, asosan shaharlar, shuningdek, qishloqlarning intensiv xo'jalik, mehnat va madaniy-maishiy hamda rekreatsion aloqalar bilan bog'langan, yagona birlikni tashkil qilgan kompakt hududli guruh hisoblanib, u aholining guruh bo'lib joylashuvini eng rivojlangan shakllaridan biridir.

6.1.1-jadval

Dunyo mamlakatlarida urbanizatsiya darajasi ko'rsatkichlari		
Reyting	Mamlakat nomi	Urbanizatsiya darajasi
1	Gonkong	95,8%
2	Quvayt	95,7%
3	Manako	95,6%
4	Nauru	95,5%
5	Singapur	95,5%
6	Qatar	95%
7	Belgiya	95%
8	San-Morino	94%
9	Urugvay	94%
10	Malta	93%
14	Yaponiya	91.5%
35	AQSh	82.1%
37	Janubiy Koreya	81.5%
60	Rossiya Federatsiyasi	74.3%
101	Xitoy	65,1%
103	Qozog'iston	57.3%
123	Turkmaniston	51.2%
126	O'zbekiston	50.6%

Manba: <https://gtmarket.ru/ratings/urbanization-index/info>

Iqtisodchilar, sotsiologlar, tarixchilar, arxitektorlar, geograflar, demograflar, ekologlar "urbanizatsiya" atamasini turlicha tushunishadi. Bulgar olimi P.S. Velev o'zining "Kelajak shaharlari" kitobida "urbanizatsiya" ning bir necha tushunchalarini keltirib o'tgan, jumladan:

1. Urbanizatsiya inson rivojlanishining global tarixiy jarayoni;
2. Urbanizatsiya - tarixiy jarayonning keng hajmli shakli;
3. Urbanizatsiya - shahar va shahar aholisi o'sishi; shaharda faoliyat turlarining o'sishi; shahar turmush tarzining yaxshilanishi; turar-joylarning yangi shakllarini yaratish demakdir.⁴⁶

⁴⁶ Велев П.С. Города будущего / П.С. Велев, пер. с болг. С. Д. Ланской; под ред. А. Э. Гутнова. М., 1985. С.14

Aglomeratsiya Xitoyda muayyan hududiy va ma'muriy hududlarda joylashgan turli shakldagi va sinflardagi shaharlashgan aholi punktlarining soni sifatida tasnid etiladi. Bu tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zaro bog'liqligini anglatadi, Aglomeratsiyaning shakllanishi shuningdek, provinsiya va mamlakatning kommunikatsiya infratuzilmasiga osonlik bilan ulanishi mumkin bo'lgan yuqori darajada rivojlangan transport va axborot tarmoqlarini yaratishni ham talab qiladi. Aglomeratsiya markazini rivojlantirish uchun shaharlar, shahar tipidagi pasyolkalar o'rtasidagi tarixiy ravishda o'rnatilgan mahalliy munosabatlarni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

6.1.2.-jadval

Xitoyda 1949-2024-yillardagi shahar va qishloq aholisi sonining o'sish dinamikasi⁴⁷

Yillar	Shahar aholisi		Qishloq aholisi	
	Mln odam	%	Mln odam	%
1949	57,65	10,6	484,02	89,4
1952	71,63	12,5	503,19	87,5
1958	107,21	16,2	552,73	83,8
1961	127,07	19,3	531,52	80,7
1981	201,71	20,2	799,01	79,8
1986	441,03	41,4	624,26	58,6
1989	574,94	51,7	536,97	48,3
1996	634,57	52,1	583,42	47,9
2000	675,70	53,5	587,29	46,5
2005	714,59	54,8	589,40	45,2
2010	741,25	55,4	596,74	44,6
2014	774,75	56,8	589,24	43,2
2016	792,98	57,35	589,73	42,65
2017	806,65	58,2	579,34	41,8
2024	872,29	63,2	532,22	37,8

6.1.2.-jadvaldan ko'rinib turganidek, 1949-2024-yillar mobaynida mamlakatning urbanizatsiya darajasi 6 barobar ortdi va u 63%dan oshdi. Shu bilan birga, Xitoyning shaharlashish darajasi yoqori pog'onani egallab, keyinchalik, 1990-yillarda urbanizatsiya yangi bosqichlarga ko'tarildi. Nihoyat Xitoyda urbanizatsiya jarayoni dunyo darajasiga mos kelishini ko'rishimiz mumkin. Bunda shahar


⁴⁷Селищева.С., СелищевН.А.. Китайскаяэкономикав 21 веке: учебноепособие. - Спб.: «Питер», 2014 yil – 240 bet

aglomeratsiyasi,⁴⁸ ya'ni yirik shahrlar o'sishini millioner shaharlar aglomeratsiyasida ko'rishimiz mumkin. 1980-yilda ularni soni 20 ta, 1990-yilda 34 ta, 2000-yilda 46taga etdi⁴⁹.

XIX asrning oxirida Xitoyning Shanxay shahri Osiyoning 3ta millioner shaharlaridan biriga aylandi. Hattoki, 1949 – yilda ham, aholining 10%i shaharlarda istiqomat qilishar edi. Shuni takidlash joizki, aynan Iqtisodiy islohotlar boshlangandan keyin, 1970-yillar oxiridan Xitoyda urbanizatsiya darajasi shiddat bilan o'sa boshlagan.⁵⁰

Xitoydagi Yangzi va Xuanxe daryolari oralig'ida joylashgan, shuningdek, eng yirik shaharlar hisoblangan – Pekin, Shanxay va Tyanjinda aholi zich joylashgan, ularda hozirda mamlakat provinsiyalaridan kelayotgan barqaror va qat'iy migratsion oqim paydo bo'lgan. Bu migratsiya oqimlar, asosan, Shimoliy, Shimoliy-G'arbiy, Shimoliy-Sharqiy va qisman Janubiy-G'arbiy Xitoy viloyatlaridan kelmoqda.. Ko'rib turganingizdek, Xitoyda aholi ko'chishining asosiy yo'nalishlari sharqiy-g'arbiy va janubiy-shimolga to'g'ri keladi.

6.1.3.-rasm



Xitoydagi eng katta aholi ichkarisidagi ko'chishlar XX asrning 70-yillar oxiriga to'g'ri kelib, bu davrda 30 milliondan ortiq qishloq odamlari shahrlarga

⁴⁸Sts.com/Городская_агломерация

⁴⁹中华人民共和国城乡规划法. Закон КНР о городском и сельском планировании.[URL]:http://www.gov.cn/ziliao/flfg/2007-10/28/content_788494.htm

⁵⁰Китайские мигранты рассказывают о себе // Известия. 23.05.2017;

ko‘chishgan. Keyinroq esa, Markaziy hukumat ularni 20 million bilimdon yoshlar bilan birga, qishloqlarga va tog‘li hududlarga qaytarishgan. Iqtisodiy islohotlar va Xitoyning moddiy farovonligini oshirish natijasida, mamlakat aholisining ko‘chishi sezilarli darajada oshdi. Xitoyda shaharlarga ko‘chish doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik bo‘lib kelgan.⁵¹

Katta shaharlardagi dehqonlarning oqimi sezilarli darajada oshdi va bir qator qishloq joylarida dehqonlar barcha muhojirlar orasida eng ko‘p qatlamga aylandi va bu juda katta miqdorda qishloq aholisining shaharlarga ko‘chib kelishida qo‘shimcha muammolarni tug‘dirdi. Ularning juda katta qismini uy va ish bilan ta‘minlash muammosi kelib chiqdi.

Xitoyda zamonaviy ko‘chishning asosiy sabablari – bu iqtisodiy, ijtimoiy va oilaviydir. Iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

1. munosib ish o‘rnini izlab topish;
2. boshqa turdagi ish faoliyati uchun hozirgi ish faoliyatini o‘zgartirish;
3. yirik shaharlardagi bozorlarda o‘z mahsulotlarini sotish.

Ijtimoiy omillarga o‘qish, sog‘liqni saqlash, maktab o‘quvchilarning yoki talabalarning ta‘tilga chiqishlarini misol qilish mumkin. Oilaviy omillarga esa, qarindoshlar uyiga tashrif, to‘y sayohatlari, oddiy sayyohlik va katta shaharlarga kerakli xaridlar uchun qisqa muddatli sayohatlar kiradi.⁵²

Oxirgi 45 yil davomida Xitoyda shahar aholisining ulushi sezilarli darajada o‘zgardi. Mamlakatda urbanizasiya jarayoni tobora ko‘proq yangi hududlarni qamrab oldi, shuning uchun yangi shaharlar paydo bo‘ldi, eski shaharlarning aksariyatida aholi ko‘paydi. Asosan, ushbu ko‘rsatkichlarning o‘sishi shaharning miqdoriy va sifat omillarini o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Odatda, ko‘pincha aholi sonini hisoblashning uch bosqichli tarkibi hisobga olinadi:

- 1) shahar va aholi punktlari aholisining soni;
- 2) shahar va shaharchalarining birgalikdagi aholisi soni;

⁵¹Ria Novosti. Бедных китайцев скоро не останется

⁵²Богаевская А.Н. Китайская миграция на Дальний Восток России [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://www.law.edu.ru/script/cntsource.asp?cntID=100087587>.

3) shahar aholisining o‘zi.

XXRda shahar aholisining 1/3 qismi qishloq aholisi hisoblangan. Shuni ta’kidlash kerakki, XXRning umumiy shahar aholisining 40%i 34 ta millioner shaharlarda istiqomat qilishgan.⁵³

Xitoy hukumati 1979-yilda Den Syaoping rahbarligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi uchun “Ochiq eshiklar” siyosatini amalga oshirdi va uning natijasida qishloq aholisi shaharda ish bilan ta’minlanib, shahar aholisi soni tez o‘sa boshladi.

Xitoyda urbanizatsiya jarayoni uzoq vaqt davomida muammosiz va sezilarsiz davom etdi. Shunga qaramay, qadimgi shaharlar markazlari qadim zamonlardan shakllangan bo‘lsada, odamlar deyarli qishloqlarni afzal ko‘rishgan. 1949-yilga kelib, fuqarolar urushida kommunistlar g‘alaba qozonganidan so‘ng, mamlakatda umumiy aholidan 10%i shaharlarda yashagan, biroq, shahar aholisining soni boyicha shu davrda dunyoda 1- o‘rinda bo‘lib, uning urbanizatsiya darajasi nolga teng edi.⁵⁴

Xitoyda urbanizatsiya jarayonini rivojlantirishda bir necha bosqichlar mavjud:⁵⁵

1.1970-yil oxiridan 1983-yilgacha boshlang‘ich bosqich bo‘lib, unda qishloq xo‘jalik korxonalarini siyosiy darajada qo‘llab-quvvatlandi va mahalliy hokimiyat tomonidan moliyalashtirildi.

2.1983-1988 yillar - Urbanizatsiya jadal rivojlanib borgan, shu davrda XKPsi MQsining (1984) qarorlariga muvofiq, qishloq xo‘jalik korxonalarini tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan qarorlarni kuchaytirgan. Migratsiya siyosatidagi o‘zgarishlar mamlakatda migratsiya jarayonlarini tezlashtirdi. 1984-yildan boshlab, qishloq xo‘jalik korxonalar soni keskin darajada oshdi, 1988-yilgacha urbanizatsiya jarayonining tezlashishi kuzatilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy jihatdan rivojlangan


⁵³Журинская О. Регулирование международных потоков граждан Китая на территории Дальнего Востока России. // Актуальные проблемы государственного и муниципального управления в России: федеральный и региональный уровень. — 2010. — № 4. — С. 16—25.

⁵⁴ Минимальная и средняя зарплата в Китае <http://visasam.ru/emigration/asia/uroven-zhizni-v-kitae.html>

⁵⁵Фан Ганг//Урбанизация в Китае//Project Syndicate", США, 04.01.2011

va ko‘proq shakllangan hududlarga qishloq joylardan ishchi kuchlari jalb qilina boshlandi.

3..90-yillardan boshlab, urbanizatsiya rivojlana boshladi, uning sababi 1989-1990-yillardagi Den Syaopingning chiqishlari va iqtisodiy muammolarning qisman hal etilishi edi. Keyinchalik, Xitoyning janubida qishloq xo‘jalik korxonalarini rivojlantirishda yangi bosqich boshlandi, 1994-yilga kelib, mamlakatda 40 mingga yaqin qishloq xo‘jaligi zonasi paydo boldi va bu qishloq xo‘jaligi aholisini kichik shaharlar aholisi qatlamini kuchaytirdi, bu esa mamlakatda urbanizatsiya darajasini oshirdi. Ushbu bosqichda Xitoyning markaziy va g‘arbiy qismidagi shaharlar rivojlanishi, qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘shish sur‘atlari va qishloq xo‘jaligi ishlaridan boshqa ishlar bilan shug‘ullana boshlagan dehqonlarning soni qirg‘oq hududlaridan ustun kela boshladi. Uni quyidagi 6.1.1.-chizma orqali ifodalash mumkin:



Manba: Fan Ganf//Урбанизация в Китае//"Project Syndicate", США, 04.01.2011 asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

1978 yil oxirida islohotlar boshlanganidan keyin, shahar aholisining o‘shishi tezlashib bordi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi katta ish o‘rinlari yaratib, shahar aholisi o‘shishiga yordam berdi. 1990-yillarda shahar aholisining o‘shishi sekinlashdi. Bu davlat korxonalarini qayta qurishdan so‘ng bandlikni asta-sekin o‘shib borishini aks ettirdi. Ko‘pchilik aholi Xitoyning sharqiy qismida yashashaydi. Ularning ko‘pchiligi dehqonlardir. Ular o‘zlarining ajdodlari singari tog‘li yerlardan tortib, past va o‘rta tekisliklarda yashashadi. 1950 -yil oxiridan

1985-yil oxirigacha shaharga ko‘chish cheklangan bo‘lsada, mamlakat aholisining 33% i shaharlarda istiqomat qilishar edi.⁵⁶

1987-yilda Xitoyda Pekin markaziy hukumatning trakibida 29 ta ma‘muriy viloyatlar mavjud bo‘lgan. 21 ta viloyatga 5ta avtanom viloyatlar va 3ta yirik megapolis shaharlar: Shanxay, Pekin va Tyanjinlar kirgan. Viloyat darajasida 1979 yilgi o‘zgarish, shimoli-sharqiy mintaqadagi ma'muriy chegaralar, Ichki Mo‘g‘ulistonni muxtor hududi, Heilongjiang, Jilin va Liaoning provintsiyalari hisobiga original hajmiga qaytdi.⁵⁷

1949-yildan 1982-yilgacha Xitoyda urbanizatsiya jarayoni juda sust bo‘lgan. Buning asosiy sabablari: qishloq aholisining tez sur‘atda o‘shishi va ichki migratsiyaning kamligidir. 1953 va 1982 yilgi aholini ro‘yxatga olish ma'lumotlariga ko‘ra, shahar aholisining umumiy aholi ulushi 13,3 dan 20,6 foizga oshgan. Ammo, 1982 yildan 1986 yilgacha shahar aholisi 37 foiziga sezilarli darajada oshdi. Bu o‘zgarishga ma‘lum bir faktorlar sabab bo‘ldi. Ko‘p aholi qishloq joylardan shaharlarga ko‘chib kelgan va qishloq tizimidan shahar xo‘jalik tizimiga o‘tishgan⁵⁸.

Yana bir faktor shuki, 1984-yilda juda ko‘p hududlarni shahar kriteriyalariga moslab, shahar deb nomlash edi. 1984 yilda yangi shaharlar mezonlariga to‘g‘ri keladigan shaharlarning soni ikki baravar ko‘paydi va shahar aholisi ikki barobarga oshdi. XXI asrning boshlarida shaharlar va shaharlardagi aholining nisbati taxminan 50%ni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu shaharlashish jarayoni, birinchi navbatda, katta shaharlarning kengayishidan emas, balki kichik va o‘rta shaharlar sonining ko‘payishi bilan bog‘liq.⁵⁹

1987-yilda Xitoy shaharlarning o‘shishini boshqarishda 3 qismli strategiyadan foydalanilgan:

⁵⁶ <http://kommersant.uz/uz/kejs-uz/hitoj-tazhribasi-onlajn-ishlo-lar-muzhizasi>

⁵⁷ Китайские мигранты рассказывают о себе // Известия. 23.05.2012;

⁵⁸ Документы XVI Всекитайского съезда КПК (2002) (на рус. яз.). Пекин, Вайвэнь чубаньшэ, 2002.

56 с.

⁵⁹ Китайские мигранты рассказывают о себе // Известия. 23.05.2012;

1. Yirik shaharlarning kattaligini keskin cheklash (500 000 kishi yoki undan ko‘proq);
2. O‘rta hajmdagi shahrlarni rivojlantirish (200 000dan 500 000 kishigacha);
3. Kichik shaharlarning rivojlantirishni rag‘batlantirish (100 000dan 200 000 kishigacha).⁶⁰

Hukumat, keyinchalik shaharlar va kichik shaharlarga aylantirilishini umid qiladigan kichik shahar va shahar markazlarini rivojlantirdi. Kichik va o‘rta shaharlardagi urbanizatsiya etnik jihatdan turli sohalarda turli muammolarni yuzaga keltirdi, ayrim hollarda mehnatning etnik tabaqalanishiga va millatlararo mojarolar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

6.2. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish xususiyatlari

Xitoyda hozirda 5 mln.k.dan ziyod aholisi va hatto 10 mln.k/lik aholisi bilan super-yirik shaharlar tez sur'atda o‘sib bormoqda. Xususan, 2005-yilda XXR sining 17 shahar aglomeratsiyasi 6 milliondan ziyod aholiga ega bo‘ldi.

2025-yil boshiga kelib, Xitoyda 100 tadan ortiq millioner (1 mln.k.dan ortiq aholiga ega) shaharlar yuzaga keldi. Ular otasidagi yirik megapolislardan: Chunsin (30+mln.k.), Shanxay (24+mln.k.), Pekin (21+mln.k.), Shenchjen va Guanchjou (har birida–12–18+ mln.k.) hamda Chendu (14–20+mln.k.), Tyanzin (13+mln.k.) shaharlarini misol tariqasida atab o‘tish joizdir. Hozirgi davrda (2025 y.) Xitoyda aholi soni million kishidan ortiq shaharlar soni 221 taga etdi⁶¹.

Uy-joy va shaharsozlikni rivojlantirish vazirligining hisob-kitobiga ko‘ra, 2010 yildan 2025 yilga qadar hozirgi qishloq joylarda yashovchi 300 million kishi shaharlarga ko‘chib o‘tishi kuzatildi. Urbanizatsiyaning yuqori darajasi, Xitoyda suv ta‘minoti, chiqindilarni qayta ishlash, isitish va boshqa kommunal xizmatlar qurilishida yiliga kamida 1 trillion yuan investitsion imkoniyatlarni yaratadi⁶².

⁶⁰Бергер Я.М. "Социальная поддержка пожилых людей в Китае" //Проблемы Дальнего Востока 2012 №1-2

⁶¹ The report of the Migrant Workers in China (Zhongguo Nongmingong diaoyan baogao) [Электронныйресурс]. Beijing, 2006. 549 p. URL: <https://baike.baidu.com/item/中国农民工调研报告>(дата обращения: 22.02.2018). На кит. яз.

⁶²Муромцева З. А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. М., 2009. С. 26.

Hozirgi vaqtda, taxminan Xitoy aholisining 62%i urbanizatsiyalshgan hududlarda istiqomat qilishmoqda. Xitoyda urbanizatsiya darajasi rivojlangan mamlakatlar uchun juda o'rtacha bo'lib, bu yerda uni juda yuqori deb hisoblashmoqda - shaharlar jadal rivojlanmoqda, yangi aholi punktlari va ilgari rivojlanmagan yerlar bilan aglomeratsiyalar o'smoqda.⁶³

Odatda, aholi zichligini biz yirik shaharlarda va mamalakatning sharqiy qismida kuzatamiz. Shanxay, Pekin va Guanjou jami aholisi 60 milliondan ortiq bo'lgan eng yirik shaharlardir. Xususan, Xitoyning janubi-sharqiy qismida joylashgan aholi sonining o'sishi bo'yicha dunyodagi beshta aholi punktlaridan biri bo'lgan subprovinsiya - Shenzhenning ahamiyati katta. Shenzhen aglomeratsiyasi taxminan 12 million kishini birlashtirdi. Bu ko'rsatkich 25 yil oldin 2 millin ham chiqmas edi. Bu yerda dunyoning asosiy ishlab chiqarish bazasi o'rnini egallagan xitoy sanoatini korishimiz mumkin.

Xitoyning geografik jamiyati raisi, professor Lu Dadeoning so'zlariga ko'ra, Xitoyda urbanizatsiya darajasini 17.9%dan 39,1%ga ko'tarish uchun 22 yil sarf etildi. Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich 120yil, AQShda 80 yil, Yaponiyada esa 30-yildan oshdi.⁶⁴

Xitoyning hozirgi urbanizatsiya jarayoni nimani anglatadi? Birinchida, Xitoyning urbanizatsiya darajasi eng yuqori darajada qolmoqda. Xitoy kommunistik partiyasi 2018-2020 yillarga qadar shahar aholisi soni 60 foizga yetishini e'lon qildi. Biroq quyidagi nyuansni hisobga olish kerak: shahar va qishloqdagi yashash darajasi odatda, taqqoslanmaydi. Bugungi kunda ham qishloq aholisi o'z uylarini tark etib, megapolislarga joylashishga harakat qilishmoqda. Ish haqi, imtiyozlar va imkoniyatlar o'rtasidagi farq kattaligi tufayli, jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida iqtisodiy komponentlarning sog'lom rivojlanishini

⁶³中华人民共和国城乡规划法. Закон КНР о городском и сельском планировании.[URL]:http://www.gov.cn/ziliao/flfg/2007-10/28/content_788494.htm Дата доступа: 21.10.2014

⁶⁴中华人民共和国城乡规划法. Закон КНР о городском и сельском планировании.

to'xtatadi. Shu sababli, Xitoy hukumati shahar bilan teng ravishda odamlar ustidan nazoratni yoqotmagan holda qishloqlarni ham rivojlantirmoqda.⁶⁵

Albatta, shahar aglomeratsiyasi ishlab chiqarish zanjirlarini yaratish uchun juda samarali. Misol uchun, Pekin, Guangzhou, Shanxay atrofida zavodlar eng muhim eksport mahsulotlarini, avvalambor, yuqori texnologiyali mahsulot va murakkab uskunalardan o'tadigan ishlarni amalga oshirmoqda. Va bu ularning rivojlanishini davom ettirish uchun yetarli sababdir. Biroq, Uyg'ur avtonom viloyati, Tibet, Manjuriya va boshqa aholi punktlarini unutmaslik lozim, chunki aholining aksariyati an'anaviy ravishda qishloqlarni afzal ko'radi va shuning uchun Xitoyning urbanizatsiya darajasi umumiy ko'rsatkichlar bilan tenglashtiriladi. XXRning o'zi, uzoq vaqtdan buyon etnik, diniy va ijtimoiy madaniyatini saqlab kelayotgan, bir-biridan farqli hududlardan iborat. Shu sababli, aksariyat aholi shaharlarga ko'chishni ma'qul ko'rmaguncha, shahar aholisining ko'rsatkichlari sekin o'sib boradi.

Xitoyning yirik markazlarining o'sish. Avval Kanton nomi bilan atalgan Guangzhou, Xitoyning eng yirik shaharlaridan biri. Mamlakat atrofidagi shaharlari bilan birgalikda mamlakatdagi eng katta shahar aglomeratsiyasi shakllanadi. Bu Guangdong provinsiyasining poytaxti. Uning ko'p asrlik tarixi mobaynida Guangzhou dunyoning qolgan qismlari bilan chambarchas bog'liq edi. Ushbu shaharning portlaridan Yevropaga va dunyoning boshqa qismlariga mol-mulk yuborilgan. 70-yillarning islohotlaridan so'ng, Xitoy sanoati, savdo va moliya sohasining asosiy o'sish nuqtalaridan biriga aylangani ajablanarli emas.

Shanxay aholi jihatidan dunyodagi eng yirik shahar bo'lib, katta shahar aglomeratsiyasini shakllantiradi. Shanxay ko'plab zamonaviy Osiyo megalopoliyalari singari uzoq vaqtdan beri davom etadigan savdo an'alariga ega. XX asrda sanoat ishlab chiqarishining o'sishi kuzatildi. XXI-asrning boshida, bir qator islohotlar, jumladan, soliq islohotlaridan so'ng, shaharga kapital oqimi kuchayib ketdi.⁶⁶


⁶⁵Баженова Е. С. 1300000000. Население Китая: стратегия развития и демографическая политика. М., 2010. С. 174-175

⁶⁶<http://www.nstrade.ru/blog/item/urbanizaciya-i-rost-kitaya/>

Zamonaviy Xitoyning poytaxti Pekin, juda boy tarixga egadir. Shahar turli xil sulolalar davrida rivojlangan. Ammo tez sanoat o'sishi XX asrda sodir bo'ldi. Hozirgi vaqtda Pekin XXRning ma'muriy, ilmiy, madaniy va biznes markazidir va u yerda ko'plab ijtimoiy va ekologik muammolar mavjud. 2000-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi hukumati bir qator yangi shaharlarni qurish loyihasini ma'qulladi. Dasturning asosiy maqsadi shundaki, loyihalashtirish va qurilish tasdiqlangan shaharsozlik rejasiga muvofiq to'liq infratuzilmani shakllantirish bilan amalga oshirildi. Bu yerda turar joylari, sanoat ob'ektlari, ijara uchun binolar, kasalxonalar, maktablar, universitetlar, aeroportlar mavjud. Bularning barchasi zamonaviy yo'llar va turli aloqalar bilan bir-biriga bog'langan. U yerda shahar infrastrukturasini o'zining avj pallasiga yetadi.

Xitoyda aholining ko'chishi. Tarixiy jihatdan Xitoy har doim nisbatan tarqoq guruhlarga ega bo'lgan davlat edi. Ammo, 20-asrning ikkinchi yarmida mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar tufayli migratsiya jarayoni oshdi. 1950-yillarda odamlar sanoat rivojlangan shaharlarga ish qidirib kela boshlashdi. 20 yil o'tgach, Madaniy inqilob doirasida oliy ma'lumotli qishloq yoshlari qishloq joylariga qaytishdi. Ushbu jarayon "katta sakrash" deb ataladi. Bugungi kunda kuzatilishi mumkin bo'lgan migratsiya oqimi iqtisodiy islohatlardan keyin shakllandi. Quyida Xitoy aholisining zichligi yuqori bo'lgan provinsiyalar qizg'ish qizil rangga ega bo'lib, asosiy migratsiya oqimlari u yerga yo'naltiriladi.


2.1.2-rasm



Shaharlashgan aholi ulushini aniqlashda turli yondashuvlar mavjud. Bularning barchasi qaysi aholi punktini shahar deb nomlash va aholining qaysi segmentlarini shahar aholisi bilan bog'lashiga bog'liq. Quyidagi grafikda Xitoyning shahar aholisi nisbati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bu yerda yirik megapolislar va aglomeratsiyalar chegarasida yashaydigan qishloq aholisini ham o'z ichiga olgan.

2.1.3-rasm

Xitoyda shahar va qishloq aholisining ulushi, % da



Manba: The report of the Migrant Workers in China (Zhongguo Nongmingong diaoyan baogao) [Электронный ресурс]. Beijing, 2016. 549 p. URL: <https://baike.baidu.com/item/中国农民工调研报告> (data obrasheniya: 22.02.2018). Na kit. yz.

Zamonaviy Xitoyda uch turdagi aholi ko'chishini keltirishimiz mumkin: doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik. Doimiy migratsiya - aholining qishloqdan tshaharlarga tobora chiqib ketishi. Bu Xitoyda urbanizatsiya jarayonlarining asosiy ijtimoiy asosi hisoblanadi. Mavsumiy migratsiya turi tabiiy tsikllardan kelib chiqadi, ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish mavsumiy migratsiyani vujudga keltiradi. Qisqacha aytganda, qishloq xo'jaligida vaqtincha ishlamaydigan dehqonlar shaharda qisqa vaqt ichida ish qidirishadi. Vaqtinchalik migratsiya shaxsiy va boshqa sabablar bilan bog'liq, shu jumladan qonun bilan mustahkamlangan.

6.3. Urbanizatsiya jarayonining muammolari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari

Oxirgi 45 yil mobaynida Xitoydagi urbanizatsiya jarayoni faol bo'lganiga qaramay, uning darajasini yuqori deb bo'lmaydi. XXRsida shahar aholisini ro'yxatga (propiska) olish masalasi, statistika qomitalarining takomillashmaganligi, haqiqattan qishloq aholisida bandlik shahar aholisiga nisbatan, ancha yuqori

bo'lmog'da. Urbanizatsiyalashning asosiy omili - qishloq joylarda boshqa sohalarni rivojlantirish hisoblanib, uning asosiy xususiyati - qishloq aholisini qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatga ko'chirish, kichik shahar va qishloqlarda mehnatni kengaytirishga olib keldi.

Shu munosabat bilan, bugun hukumatning urbanizatsiya siyosati muhim o'rin tutib, sotsialistik bozor iqtisodiyotida doimiy ravishda davlat tomonidan boshqariladi, tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Natijada, davlat va hokimiyat organlarining dasturiy tuzilmalarini tartibga solish va nazorat qilishning asosiy vositasiga aylanadi. Shunday qilib, davlat urbanizatsiyani rivojlantirishda hal qiluvchi omilga aylanadi, shuningdek, davlatning ta'siri mamlakat rivojlanishini asosiy yo'nalishlari va yo'llarini o'z ichiga olgan siyosiy qarorlarni qabul qilishda ifodalanadi va ular iqtisodiy zonalarni tashkil qilish hamda kengaytirishga yordam beradigan hukumat qarorlari hisoblanadi.

Urbanizatsiya jarayonida tegishli davlat idoralarning qarorlari katta ahamiyatga ega. Ularga dehqonlarni ko'chirish normalari, shaharga kelgan qishloq fuqarolariga vaqtinchalik fuqarolik maqomi berish, qishloq maqomini aniqlash jarayonini tartibga solish va boshqalar kiradi.

Urbanizatsiya imtiyozli soliqqa tortishni, yer bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun soliq standartlarini, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan soliqlar va hokazolarni o'z ichiga oluvchi siyosatlar bilan amalga oshiriladi. Ularning barchasi mamlakatda iqtisodiy rivojlanishga, aholi harakatlari va urbanizatsiyani jadallashtirishga yordam beradi.⁶⁷ Xitoyda aholi tomonidan jamg'rillangan mablag'lar, qishloq korxonlarini rivojlantirish va shaharlashtirish jarayonlari uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qildi va unga ko'ra, qishloq xo'jalik korxonalariga kiritilgan investitsiyalar ulushi ikki barobarga oshdi.⁶⁸

Mamlakatdagi qurilishni moliyalashtirish faqat shahar va poselkalar mahalliy byudjetidan kelib tushmaydi. 1990-yillarda Xitoyda yer operatsiyalaridan tushgan

⁶⁷Салицкий А.И. Взаимодействие КНР с мировым хозяйством: учебное пособие. - М.: 2011 г.

⁶⁸The report of the Migrant Workers in China (Zhongguo Nongmingong diaoyan baogao) [Электронныйресурс]. Beijing, 2006. 549 p. URL: <https://baike.baidu.com/item/中国农民工调研报告>(дата обращения: 22.02.2018). На кит. яз. доступа: <http://rbcdaily.ru/lifestyle/562949979071965>.

mablag'lar mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai bo'ldi. Keyinchalik, ular shahar va poselkalar qurilishiga yo'naltirildi, natijada, mamlakatda urbanizatsiya jarayonlari jadallashdi va natijada, Xitoy spetsifikali urbanizatsiya shakllandi, unga ko'ra, iqtisodiyotni oldinga suradigan hududlar paydo bo'ldi (Jiangsu provinsiyasining (Sunan) janubiy qismi).

6.3.1-rasm

Xitoyning millioner shaharlari⁶⁹



Sunanni tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'ziga xos roli quyidagicha ifodalanadi:

- birinchidan, mahalliy hokimiyat organlari korxonalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini va ulardagi kadrlar siyosatini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Undan tashqari ular tashqi muhit bilan munosabatlarni muvofiqlashtirishda ham ishtirok etadi;

- ular mahalliy moliyaviy resurslardan foydalanishni muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi va kredit olish uchun harakat qiladi;

- yer ajratish, soliqlarni yig'ish bilan ham shug'ullanib, imtiyozli soliqqa tortish siyosatini tartibga soladilar.

Aynan, yuqorida keltirilgan harakatlar qishloq xo'jalik korxonalarini rivojlanishini ta'minlab beradi. Natijada, Sunan Xitoyning yirik qishloq xo'jalik korxonalarini joylashgan joyiga aylandi. Eng muhimi, bu mahalliy hokimiyatning ushbu jarayonda bevosita ishtiroki bilan bog'liq edi. Biroq, faqat ushbu hududning

⁶⁹中华人民共和国城乡规划法. Закон КНР о городском и сельском планировании

korxonalari manfaatlarini hisobga olganda, ushbu jarayonlarni salbiy oqibatlarini mavjudligi bilindi, u jamoalar o'rasidagi yer taqsimoti hamda qurilish muammosiga olib keldi. Undan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari vazifalari va korxonalarni huquqlari qonuniy jihatdan tartibga solinmagan bo'lsa, bir vaqtda korxonlarni ishlariga haddan tashqari aralashuv kelib chiqadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, urbanizatsiya xitoy qishloq joylarining iqtisodiy rivojlanishiga to'la mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin, ammo urbanizatsiya darajasining quyi qismdan doimiy ravishda o'sib borishi, uni namoyon bo'lish shakllarini o'zgartirgan. Urbanizatsiyalashayotgan joylarda aholi va korxonlar ko'payib, butun bir hududlarni shaharlashayotgan zonaga aylanishiga olib keladi.

Xitoyda mamlakatning keng ko'lamdagi shaharlarlashtirish rejalari haqida yangi tafsilotlar e'lon qilindi. Davlat rejalashtirish va rivojlanish komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, 1980-yillarda shahar aholisi Xitoy aholisi umumiy sonining 30%idan ko'prog'ini tashkil qilgan. Keyinchalik uning darajasi 2010-yilda 40%ga va 2024-yilda 62%ga chiqqan.⁷⁰

Hozir Xitoyda 660ta yirik shaharlar mavjud bo'lib, ular oxirgi 40 yil ichida 3 barobar ko'paygan. Shaharlarda joylashgan aholi punktlarining umumiy soni bu vaqt ichida 9 marta ko'payib, hozirgi kunda 20 mingdan oshdi.⁷¹

Xitoy aholisining umumiy soni (2024 y.) 1mlrd 414 mln kishini tashkil etib, ulardan 63% aholi shaharlarda yashaydi.⁷² Uning urbanizatsiya darajasi 65% ni tashkil etadi.(2024y.).⁷³

Agar, 1978 yilda Xitoy shaharlarida 170 mln.k. yashagan bo'lsa, hozirda bu yerda 456 mln. xitoylik istiqomat qiladi, kelajakda esa, qishloqdan shaharga yiliga kamida 10 mln. kishi ko'chib o'tishi bashorat qilinmoqda. Xitoy hukumati urbanizatsiyani qashshoqlikka qarshi kurashish va mamlakatning yanada gullab-yashnagan sharqiy qismi hamda uncha rivojlanmagan g'arbiy mintaqalari o'rtasidagi

⁷⁰1Справочник ЦРУ по странам мира [URL]: <http://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook>

⁷¹*CuiDing, XuZhao*. Assessment of urban spatial-growth patterns in China during rapid urbanization // Chinese Economy, vol. 44, no. 1. 2011. - Pp. 46–71.

⁷² <http://countrymeters.info/ru/China>

⁷³ <http://www.finmarket.ru/life/article/3592972>

farqni qisqartirish vositasi sifatida ko‘radi.⁷⁴ Migrant ishchilarni qishloq joylaridan katta shaharlarga oqib keltirishni cheklash uchun hukumat 10 mingta yangi shahar qurishga qaror qildi va ularning aksariyati ko‘chish sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylarda tashkil etiladi.

Shunga ko‘ra, mamlakatda millionlab yangi ish o‘rinlarini yaratish rejalashtirilgan. Biroq, bu rejalar atrof-muhit uchun jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida qo‘rquv mavjud. Rivojlanish komissiyasi atrof-muhit omili hisobga olinishini ta’kidlaydi: 4 yil ichida har bir shaharning kamida 35%i “yashil zona” dan iborat bo‘lishi lozim.⁷⁵ Shuningdek, komissiya shahar uylarini isitish uchun ko‘mirdan foydalanishni keskin kamaytirish, kanalizatsiya muammosini hal qilishni ham o‘z zimmasiga oldi.

Xitoy shaharlarida logistika va sayyohlik markazlari so‘nggi bir necha o‘n yillikda nafaqat, ishlab chiqarish va kapitalni, balki sayyohlik markazlarini ham anglatuvchi yirik aglomeratsiyalar shakllandi:

- Gongkong zamonaviy Xitoyning biznes markazi bo‘lib, u 1997-yilda Xitoy tarkibiga qaytib qo‘shildi va mamlakatning iqtisodiy hayotiga chuqurroq jalb qilindi. Ushbu shaharda, nafaqat Xitoy, balki butun dunyodagi eng nufuzli va kapitallashgan kompaniyalar o‘z vakolatxonalarini ochgan ko‘plab biznes markazlari tashkil etildi;

- Pekin o‘zining uzoq asrlik tarixi tufayli butun dunyodagi turistlarni o‘ziga jalb qiluvchi shahardir. Bugungi kunda Xitoy poytaxtining sayyohlik infratuzilmasi mavjud bo‘lib, unda turli turdagi biznesni rivojlantirish uchun, barcha sharoitlar mujassamdir. Pekin ko‘p qirrali shahar bo‘lib, u nafaqat sayyohlarni, balki butun dunyodagi ishbilarmonlarni ham o‘ziga jalb qiladi. Pekindagi shahar aglomeratsiya doirasida ko‘plab yirik transport markazlari tashkil topgan;

⁷⁴Song Yan, *Chengri Ding*. Urbanization in China: Critical Issues in an Era of Rapid Growth. Cambridge, 2007. С. 67-69

⁷⁵Тофанюк Е. Китайцы берут власть в России. Китайские мигранты становятся реальной политической силой на Российском Дальнем Востоке [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://rbcdaily.ru/lifestyle/562949979071965>.

-Shenchjen, Guangdong provintsiyasida joylashgan va u Guangchjou aglomeratsiyasining bir qismi, Xitoydagi eng yirik biznes va transport markazlaridan biri hisoblanadi.

Xitoy hukumati mamlakatni modernizatsiya qilishga kirishadi. 1970-yillar oxirida mamlakat aholisining 80%dan ko'prog'i kambag'al qishloq aholisidan tashkil topgan edi. Shu munosabat bilan, islohotlarning birinchi bosqichi (1978-1984-yillar) boshlanadi, unda don yetishtirish sezilarli darajada oshadi.

Ikkinchi bosqich (1984-1992) shaharlarda iqtisodiy islohotlarning boshlanishi haqidagi hukumat qarori bilan boshlanadi. Ma'lum muvaffaqiyatlarga qaramasdan, mamlakatning 1990 yillar boshida rivojlanish darajasi hali ancha past bo'lgan. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar ham partiya doiralarida, ham jamiyat ko'rinishdagi o'zgarishlarni keltirib chiqardi. (1989-yilda Tyananmen maydonidagi voqealarga olib keldi).

90-yillarning boshlariga kelib, bozor bahosiga o'tish uchun zamin tayyorlandi. Bu davrda Xitoy davlat sektori bozor iqtisodiyotiga o'tishni boshlaydi. Mazkur jarayon juda qiyin kichadi. XX asrning so'ngi 10 yilida Xitoy, nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishi bilan, balki ijtimoiy muammolarning sezilarli o'sishi bilan ham ajralib chiqdi. Masalan: boy va kambag'allar o'rtasidagi moliyaviy tabaqalanish, kam daromadlar muammosi, ishsizlik va boshqalar. Qirg'oq bo'yi hudular va Shanxay, Guanzhou kabi shaharlar atrofidagi korxonalarining rivojlanishi mamlakatda tabaqalanishni kuchaytirib yubordi. Shaharlarning o'sishi va u yerlarga boshqa joylardan ishchilarni jalb qilish fuqarolarda ijtimoiy imtiyozlarni olish muammolarini keltirib chiqardi.

Islohotlar jarayonida Xitoyda ortiqcha arzon ishchi kuchi yaratildi. Ba'zi ekspertlarning fikricha, bu yetishmovchilik to'qimachilik kabi sohalarni rivojlantirish uchun kerak bo'ldi. Arzon mehnatning mavjudligi, nafaqat ishlab chiqarish hajmini doimiy ravishda oshirishga, balki bu islohotlar mamlakatga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun yordam berdi. Shu sababli, Xitoyda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga qodir bo'lgan qo'shma korxonalar sonining jadal o'sishi kuzatildi.

2001 yilda Xitoyni Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'ldi va bu avtomobilsozlik kabi ba'zi sohalarning rivojlanishiga turtki berdi. Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash nuqtai nazaridan, 2020-yilga qadar shahar aholisining ulushini 56% ga oshirish vazifasi qo'yildi va u 2014 yil oxirida 54,8% ni tashkil etdi. Xitoy Milliy statistika byurosi ma'lumotiga ko'ra, 1982 - 2014 yillar mobaynida shahar aholisi soni 534 million kishiga ko'paydi⁷⁶.

Xitoyning to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar dunyoning ko'plab davlatlariga eksport qilinadi. Eng yirik to'qimachilik fabrikalari Shanxay va Gonkongning aglomeratsiyalarida, shuningdek, Harbinda to'plangan. Ushbu fabrikalarning mahsulotlari eng yuqori sifat standartlariga ega va ular dunyoning eng rivojlangan mamlakatlariga ham yetkazib beriladi. Hozirgi kunda jahonning ko'plab brend mahsulotlari Xitoyda ham ishlab chiqariladi. (500ta brenddan 400tasi).

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoyning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ta'lim tizimini va ilm-fanni rivojlantirish bilan bog'liq. Aks holda, kelajakda Xitoyda yuqori rivojlanishni kutish qiyin. Agar, XXR sida 1995-yilda fanga sarflanadigan mablag' darajasi YaIMning 0,6%ini tashkil qilgan bo'lsa, 2005-yilda 1,2 %ni, 2020-yilda esa -2,2%ni tashkil etdi⁷⁷.

Zamonaviy Xitoyda shaharlarning ko'payishi va shahar aholisining dunyo miqyosida keng tarqalishi bilan, u XX-asrning muhim xususiyatlari deb nomlandi. Biroq, o'tgan asrning oxirida bu jarayon yangi bosqichga o'tdi: yirik shaharlarning o'sishi sezilarli ravishda qisqardi, megapolislar soni esa, o'sib bordi. Megapolislarni ko'plab odamlar global iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rishadi. Bu ulkan shaharlar, nafaqat ishlab chiqarish, balki iqtisodiy, ilmiy va texnik imkoniyatlarini, ijtimoiy-madaniy sohalarni ham qamrab oladi. Ular butun dunyo bo'ylab tovarlar, aholi, bilimlar oqimini samarali boshqarishadi. Buguu jahon

⁷⁶ <http://countrymeters.info/ru/China>

⁷⁶ <http://www.finmarket.ru/life/article/3592972>

⁷⁷ <http://countrymeters.info/ru/China>

YaIMning 20%i faqat 10ta megapolis tomonidan yaratilmoqda. Global shaharlar xalqaro miqyosda raqobatlasha oladi.

XXRda shaharlarning taqsimlanishi

6.3.2 rasm



Manba: The report of the Migrant Workers in China (Zhongguo Nongmingong diaoyan baogao) [Электронный ресурс]. Beijing, 2006. 549 p. URL: <https://baike.baidu.com/item/中国农民工调研报告> (дата обращения: 22.02.2018). На кит. яз. доступа: <http://rbcdaily.ru/lifestyle/562949979071965>.

Shu bilan birga, megapolislarning aksariyati shahar aholisi orasida kuchli ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish bilan tavsiflanadi. Shaharlardagi aholini hayot sifati bir xil emas, aholining tabaqalanishi faqat oshib bormoqda. Hayot sifatiga oid masalalar shahar iqtisodiyotining kanalizatsiya va suv ta'minoti muammolari, ekologik vaziyat, sog'liqni saqlash va xavfsizlik kabi muammolarni o'z ichiga oladi. Masalan, Shanxay jiddiy suv ta'minoti muammosiga duch kelgan. Huangpu daryosi Shanxay uchun asosiy suv manbai hisoblanadi, lekin uning atrofida juda ko'p sanoat korxonlari mavjud, uning zamonaviy global iqtisodiy tizimga kirishi, nafaqat urbanizatsiya darajasida, balki butun dunyo shaharlari tizimining rivojlanishi bilan ham bog'liq.

Xitoyda jami 3 229 ta shahar tashkil etilib, ularning geografiyasi, miqyosi va aholisi soni tabiiy sharoitlarga, iqtisodiy rivojlanishga, milliy siyosatga va boshqa omillarga bog'liq. ularning asosiy qismi sharqiy sohillardagi aholisi eng ko'p metropolislarda joylashgan: Pekin, Shanxay, Guangzhou. Aholi zichligi jihatidan, sharqiy shaharlar birinchi o'rinda, markaziy mintaqalarning shaharlari – ikkinchi o'rinda bo'lib, g'arbiy hududlardagi yirik shaharlarida aholi zichligi juda pastdir.

Xitoy shaharlari turli toifalarga bo‘linadi va odatda xitoylik olimlar tasniflashning 2 usuliga murojaat qilishadi. Bunda shaharlar 3 guruhga bo‘linadi:

I-guruhga maxsus idoralar joylashgan viloyatlarning markaziy shaharlari;

II- guruhga ma'muriy provinsiya boshqaruv hududiga kiruvchi shaharlar;

III-guruhga esa, ikkinchi guruh shaharlari kabi provinsiya ma'muriyatiga bo'ysinuvchi uyezd shaharlari kiradi. Hozirda ushbu tasnif eng barqaror hisoblanadi.⁷⁸

Ikkinchi usul Xitoy shaharlarida savdo va sanoatning rivojlanish darajasiga qarab ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, ular bir necha darajalarga bo‘linadi.

Rivojlanishning 1-darajasi - yuqori darajada rivojlangan sanoat shaharlari hisoblanib, unda shaharlarni 2ta kichik guruhga bo‘lish mumkin: eski va yangi shaharlar. Eski shaharlarga an'anaviy tarzda savdo-sotiq va keyinchalik, sanoatga yo'naltirilgan Pekin, Shanxay, Guangzhou va Shenzhen kiradi. 2-guruh yangi shaharlarga quyidagi 15ta: Tianjin, Chongqing, Qingdao, Jinan, Dalian, Shenyang, Xian, Nanjing, Wuhan, Xanchjou, Ningbo, Chengdu, Xiamen, Fuzhou, Changshalar kiradi.

Rivojlanishning 2-darajasiga 36ta shaharlar kiradi: Harbin, Datsin, Usi, Suzhou, Kunmin, Hefey, Chjen Chjou, Foshan, NAnchan, Guyyan, Nannin, Shitsyajuan, Tayyuan, Venchjou, Yantay, Zhuhay, Chanjjou, Nantun, yanzhou, Syuyzhou, Dynguan, Veyhay, Huayan, Xux-Hoto, Zhentsyan, Veyfan, Guylin, Zhunshan, Linyi, raskol, Baotu, Tsyasin, Xueyzhou, Tsyuanzhou, Loyan.

Rivojlanishning 3-darajasiga turli provinsiyalarning 75ta shaharlarini kiritishimiz mumkin. Ular sanoatni rivojlantirish bilan shug'ullanadi: Haikou, Lanzhou, Xining, Yinchuan, Urumchi, Qiqihar, Anshan, Kunshan, Sanya, Langfang, Wuhu, Deyang, Ordos, Jinxua, Jiangguin, Yingkou, Tangshan, Baoding, Jiujiang, Jinzhou va boshqalar

Rivojlanishning 4-darajasiga 76 ta shaharlar kiradi: Lxasa, Chifen, Mudantsyan, zhantsyan, Tongliao, Tszinmen, Lishui, Loudi, Leshan, Ibin, Fuyan,

⁷⁸China Urban Development Report (2008). Beijing, 2009. 518 p.

Shaoguan, Taysang, Putyan, Xuanshang, Luzhou, Yantszyan, Yantzi, Tenchjou, Linfen, Zhazhou va boshqalar.

Rivojlanishning 5-darajasiga 200ga yaqin kichik shahrchalar kiradi: Kayfen, Tszi-gong, Hulun-Buir, Yuysi, Xetsze, Tontsziling, Suchzhou, Hengshui, Vuchzhou, Hanzhun, Ichun, Leyvu, Haymen, Bensi va boshqalar.

Xitoy shaharlarining taraqqiyot yo'nalishlariga kelganda, Xitoy Milliy statistika byurosining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Xitoy shahar aholisi 62,27% ni tashkil etgan. Bu degani, XXI asr o'rtasiga kelib, Xitoyda taxminan 800 million kishi shaharlarda yashaydi ⁷⁹

Shunday qilib, XXRai o'z rivojlanishning yangi davriga kirdi, uning asosiy xususiyati jamiyatning an'anaviy ijtimoiy tuzilishidagi o'zgarishlar: Iqtisodiy islohotlar va tashqi dunyo uchun ochiqlik siyosati shaharlarning jadal kengayishiga yordam berdi. Shahar tuzilmalarini o'rganishning ayrim yo'nalishlari, ularning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish uchun asos bo'la o'radi.

Ko'pgina mamlakatlar va mintaqalarda bo'lgani kabi, megapolislar shahar ijtimoiy rivojlanishda yetakchi rol o'ynaydi. Pekin, Shanxay, Guangzhou, Tianjin, Chunsin - beshta "milliy markazlar" - yagona xalqaro megalopolisni yaratishadi. Zamonaviy rivojlanish sharoitida ular mamlakat farovonligi uchun shart-sharoitlarni tashkil qilish, mintaqaviy rivojlanishda yetakchi mavqega ega bo'lish va bu boradagi xalqaro raqobatni kuchaytirish uchun davlatning irodasini aks ettiruvchi milliy strategiyalarni o'z ichiga oladi.

Barcha shaharlar rivojlanish jarayonlarini birlashtirgan klaster shaharlarining shakllanishi – XXR ning yana bir tendensiyasidir. Urbanizatsiya darajasini oshirish, avtomobil yo'llari, temir yo'llar va boshqa transport infratuzilmalari ob'ektlarining qurilishi tez sur'atlarda o'sishi, sanoat aloqalari va mintaqalar va shaharlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning sezilarli o'sishi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani mustahkamlamoqda va ushbu jarayonni jadallashtirishni davom

⁷⁹ZhongguoChengshixinfeinjimigdan.

ettirmoqda. Yangtze va Zhujiang daryosi deltalari shaharlari yirik sanoat shaharlarining an'anaviy guruhiga qo'shilishga intilmoqda.

Shahar aholisining ijtimoiy qatlamlarini farqlashni chuqurlashtirish. Ham davlat rejalashtirish siyosatida, ham bozor iqtisodiyoti siyosatida Xitoyning shaharlari rivojlanishining asosiy kutilgan ta'siri funktsional shahar hududlarini yaratish hisoblanadi. Aglomeratsiyaning afzalliklari hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va shahar yerlaridan samarali foydalanishdir. Shahar markaziy ma'muriy va biznes tumanlari shaharning eng yaxshi joylarini egallaydi, ularning joylashuviga shahar markazining qulayligi, sanoat parkini rejalashtirish, uy-joylarni qurish, yuqori texnologik rivojlanish zonalari, ta'lim muassasalari, dam olish maskanlari va boshqa joylar bog'liq bo'ladi. Xitoy shaharlarida istiqomat joylariga va uy-joylarning qulaylik va xarajatlariga qarab aholining ijtimoiy qatlamlarini farqlash tendentsiyasi mavjud.

Xitoy zamonaviy bozor iqtisodiyotini kapital, bilim, texnologiya, mehnat resurslari sifati kabi omillarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ularga tobora muhim ahamiyat bermoqda. Shunga ko'ra, iqtisodiyotda ta'lim olish, kapital yaratish, texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etilayotgan sa'y-harakatlardan dividendlar olish imkoniga ega bo'lgan guruhlar soni ortib bormoqda.

Shahar muammolarini hal qilish. Xitoy shaharlarining ko'pgina qiyinchiliklari universal va boshqa mamlakatlarga o'xshash: havo va atrof-muhit ifloslanishi, aholi kam daromadli joylarda aholi soni ko'payishi va muhojirlarni joylashtirish, yo'l to'siqlar, terrorizm xavfi va boshqalar. Ularning barchasi sabablarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini izlashni talab qiladi.

Xitoy shaharlarining transport muammolari quyidagi sabablarga asoslanadi: infrastruktura qurilishi jadal kengayadigan hududlarga mos kelmaydi; xususiy avtomobillar parki jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda, ularning soni yo'lning imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda va hokazolar. Bu qiyinchiliklarni har bir megapolis shaharlarda uchratish mumkin. Xitoy hukumati shaharda transportni rejalashtirish, metro va boshqa transportlar uchun yuqori samarali ish rejimini ishlab


chiqish, shuningdek, xususiy avtoulavlarni sotib olishga cheklovlar qo'yish va boshqa vaziyatlarni o'rganib chiqishga harakat qilmoqda.

Xitoy shaharlarining eng jiddiy muammosi - atrof-muhitni ifloslanishi hisoblanadi. Xususiy avtomobillarning ko'payishi, albatta, atrof-muhitni ifloslanishini tezlashtiradi. Biroq, bu asosiy manba emas. Inson muhitida asosiy zarar sanoat ishlab chiqarishi hisobiga yuzaga keladi. So'nggi yillarda zaharli tutun, Xitoyning megapolislari ustidan doimiy ravishda odamlarning sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hukumat atmosferaga zarar yetkazuvchi mahsulotlarini kamaytirish bo'yicha choralar ko'rishga harakat qilmoqda. Bugungi kunda keng ko'lamli energiya tejash tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Fuqarolarning shaharlarga ko'chishi - Xitoy uchun yana bir jiddiy muammoga aylandi va shahar aholisi mamlakat aholisining 50%dan ortig'ini tashkil etdi. Ularning 25,278 millioni muhojir bo'lib, 40%i shaharda 5 yildan ortiq muddatda ishlab kelganlar. 2014-yil 24 iyulda XXRsi Davlat kengashi "Uy xo'jaliklarini ro'yxatga olish tizimini isloh qilish to'g'risida" gi qarorni qabul qildi,⁸⁰ u uy xo'jaliklarini va qishloq xo'jaligi ro'yxatga olishdagi farqlarni yo'qotishda yagona tizim yaratish uchun huquqiy asos bo'ldi. Undan tashqari, ushbu hujjat muhojirlar va professional ishlab chiqaruvchilarning turli xil maqomlariga oid munozaralarga chek qo'ydi. Ushbu guruhlarining ikkalasi ham bir xil ijtimoiy va huquqiy maqomga ega bo'ldilar va bu muhojirlar muammosini hal qilishni birinchi qadami bo'ldi.

2025-yilda Xitoyni urbanizatsiya darajasi 65%,dan oshib ketdi, garchi mamlakatdagi iqtisodiy o'sish sur'atini sekinlasib, Xitoy demografik o'zgarishlar va aholi sonining pasayishi payonida o'z istisodiy rivojlanishida innovatsiyaviy fazaga o'tmoqda. 2025-yilda Xitoy aholisining soni 1 414 096 094 kishini tashkil etib, u dunyo aholisining 17,20%ni anglatadi. Quyidagi 6.3.1.-rasmda XXRsida urbanizatsiyaning 2000-2050-yillar mobaynida rivojlanish tendensiyasi berilgan.

⁸⁰GuowuyuanguanuyujinyibutuijinHujjZhiduGaigedeYijian [Электронныйресурс]. URL: <https://baike.baidu.com/item/国务院关于进一步推进行户籍制度改革的意见>(дата обращения: 22.02.2018). На кит. яз.



Manba: Source:UN

Xitoyda urbanizatsiya jarayoni qiyin rivojlanmoqda. Ushbu mintaqaning rivojlanishida xalqaro ahamiyatga ega shaharlarning shakllanishi va taraqqiy etishi muhim o‘rin tutib, bu jarayon yangi xususiyatlar bilan tavsiflanmoqda. Shahar aglomeratsiyalari va hududiy zonalarning kengayishi Xitoy urbanizatsiyasining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Shaharlarni hududiy rejalashtirish davlat organlari va aholi manfaatlarining uyg‘unlashuvi natijasida amalga oshirilmoqda. Natijada shahar aholisi iqtisodiy o‘shish hisobiga ko‘payib borar ekan, shaharlardagi ijtimoiy tuzilma yanada rang-baranglashib, aholining turmush darajasi izchil ravishda yuksalmoqda. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayoni boshqa mamlakatlarda kuzatilgani kabi infratuzilma bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda, jumladan transport tirbandliklari, atrof-muhit ifloslanishi va uy-joy ta‘minoti masalalari shular jumlasidandir.

Hozirda ularga urbanizatsiyaning “yutug‘i” yoki “kamchiligi” hisoblanadigan aholi migratsiyasi ham qo‘shilmoqda va bugun XXRsidagi shaharlar katta muammolarga duch kelmoqda.

Oxirgi o‘n yilda urbanizatsiya darajasini tez o‘shishini ta‘minlaydigan uning asosiy omillari iqtisodiy; ijtimoiy; migratsiyaviy va demografik; ma‘muriy va tashqi omillar bo‘lib, ular Xitoy migratsiya jarayonlarini tartibga solish borasida jiddiy muammolarga duch kelmoqda

Ko'pgina xitoylik siyosatchilar va ekspertlar kichik, o'rta va yirik shaharlarning parallel rivojlanishini qo'llab quvvatlamodalar. Yirik va o'rta shaharlar sarmoya va texnologiyani talab qiladigan sanoat va xizmatlarni rivojlantirish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni taqdim etadi. Kichik shahar va poselkalar ishlab chiqarishni rivojlantirish, qishloq muhojirlariga arzon turar joy va ish o'rinlarini kafolatlashadi.

2030-yilga borib kichik shahar va poselkalarga 200-300 million kishi qabul qilinadi, qolgan 500-600 mln. kishi esa, 2-3 mln.dan 200-300 ta shaharlarga joylashtiriladi.⁸¹ Kelajakda shahar aholisini o'sishini va urbanizatsiya darajasini asosiy manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- qishloq aholisining shaharlarga ko'chishi (turli taxminlarga ko'ra, ular 200-300 million kishini tashkil qiladi);

- qishloq aholi punktlarini qishloq xo'jaligini rivojlantirish hisobiga shahar aholi punktlariga aylantirish;

- shaharlarning ma'muriy chegaralarini kengaytirish, ularga qo'shni aholi punktlarini va qishloq tumanlarini qamrab olishi, suburbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish;

- yangi foydali qazilma konlarini ishga tushirish bilan bog'liq holda, birinchi navbatda ichki hududda yangi shahar aholi punktlarini qurish.

Shaharlarning aglomeratsiyalari va megapoliyalariga ustuvor rivojlanish beriladi, bu esa shaharlashgan jarayonlarda ham, iqtisodiyotda sezilarli darajada o'z rolini oshirib boradi. Masalan, Jujiang va Yangtze daryolarining deltasida va Bohai qirg'og'ida uchta yirik megalopolislar - mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2002-yildagi 38%dan 2010-yilda 50%gacha, 2030 yilga kelib esa, 65% gacha ko'tarilishi taxmin qilinmoqda⁸², ular XXRsidagi urbanizatsiya darajasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi va mazkur (urbanizatsiya, aglomeratsiya) jarayonlar yanada kuchayadi.

⁸¹Solinger D. The creation of a new underclass in China and its implications

⁸²中国2010年人口普查分县资料. 中国统计出版社. Чжунго 2010-няньжэнькоупучацзыляо.

Материалы переписи населения Китая 2010 г. Пекин: ГСУ КНР, 2012. 915 с. С. 176

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Urbanizatsiyaning mohiyati nima?
2. Aglomeratsiya nima?
3. Megapolislar tushunchasi va ulardagi muammolar?
4. Xitoyda shaharlashtirish jarayoni qachon boshlangan?
5. Xitoyda urbanizatsiya jarayonining rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
6. Xitoyda urbanizatsiya jarayonining rivojlanish xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Xitoyda urbanizatsiya jarayonining muammolarin sanab bering.
8. XXRda urbanizatsiya jarayoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari nimalardan iborat?

Mustaqil ish topshiriqlar

1. Urbanizatsiya jarayoni va uning Xitoydagi holatini tahlil qiling.
2. XXR va O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini taqqoslang.

Adabiyotlar:

1. Баженова Е. С. 1300000000. Население Китая: стратегия развития демографическая политика. - М.: ИД «Форум», 2010. - 304 с.
2. Госинь Фу. Урбанизация китайской деревни и пути миграции аграрного населения. // Управленческий учет, № 1. 2007. [URL]:
3. «Миллиард китайских горожан» // <http://www.chinapro.ru/rubrics/2/6961>
<http://www.upruchet.ru/articles/2007/1/4610.html>
4. Ма Сюэсун. Ускорение процесса урбанизации и изменение статуса слабо развитого региона. / Ма Сюэсун // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. Выпуск № 5 (23). – ИНФЭБ. 2012. С. 65-77
5. 各地区流动人口管理条例（北京、上海、广州）（управления Положение мигрирующего населения в разном районе (Пекин, Шанхай, Гуанчжоу).
6. 高文杰, 张华, «都市圈规划概论». 北京: 中国建筑工业出版社, 2007. Гао Вэньцзе, Чжан Хуа. Теория планирования агломерации. Пекин. 2007. 256 с.

7. 骆愈姻. 城市发展经济学分析. Люй Юйинь. Экономический анализ развития городов. –Шанхай. 2008. - 231 с.

7-BOB. XXR AGRAR IQTISODIYOTI

Darsning maqsadi: Talabalarda Xitoy Xalq Respublikasida qishloq xo‘jaligining tarkibiy tuzilishi, agrar islohotlarning asosiy yo‘nalishlari hamda ularning maqsad va vazifalari haqida tizimli bilimlarni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, yer munosabatlari va undan samarali foydalanish mexanizmlari, qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari hamda zamonaviy agrotexnologiya yutuqlarini ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish masalalarini o‘rganish ko‘zda tutiladi.

Tayanch iboralar: agrar islohotlar, oilaviy pudrat tizimi, markazlashgan xarid mexanizmi, oldi-sotdi shartnomalari, bitim va kontraktlar, prodrazvyorstka, talab va taklif, bozor narxlari.

7.1. Qishloq xo‘jaligi: tarkibiy tuzilishi, agrar siyosati va agrar islohotlari

Xitoy Xalq Respublikasida qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiy tizimining muhim va ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu tarmoq aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda yetakchi rol o‘ynaydi. Hozirgi bosqichda agrar sohada mamlakat mehnat resurslarining qariyb 40 foizi band bo‘lib, u yengil sanoat tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan xom ashyoning asosiy manbai sifatida ham xizmat qilmoqda.

Shuni ta‘kidlash joizki, Xitoy Xalq Respublikasining qishloq xo‘jalik resurslari albatta cheksiz emas. Uning ustiga aholisining yildan-yilga ko‘payib borishini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu resurslarning chegaralanganligini yana bir karra guvohi bo‘lamiz.

Xitoy Xalq Respublikasi Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasi va Xitoy Davlat Kengashining “14-besh yillik reja va 2035-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan rivojlanish yo‘nalishlari” bo‘yicha takliflarida, 2020-yilda XXR KP Markaziy Qo‘mitasining 19-chaqiriq 5-plenumida qabul qilingan ushbu hujjatda agrar soha bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilandi:


- qishloqni har tomonlama yuksaltirish, qishloq xo‘jaligi va qishloq hayotini jadallashtirilgan modernizatsiya qilish;

- qishloq xo'jaligining sifati, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- ekstensiv rivojlanish modelidan intensiv rivojlanish modeliga, ya'ni faqat hajm va yoqori ko'rsatkichlarga asoslangan usuldan "yuqori sifatli rivojlanish" modeliga o'tish.

Oxirgi 45 yil ichida aholining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanib, u ham miqdoran, ham sifat jihatdan sezilarli darajada oshdi. Mamlakat aholisining bunday o'zgarishlarga yuz tutishiga sabab, undagi olib borilgan agrar islohotlar natijasi bo'ldi. Xitoyning qishloq xo'jaligi tarkiban: o'simlikchilik, o'rmonchilik, chorvachilik va suv mahsulotlari xo'jaligini o'z ichiga olib, odatda ular ham o'z navbatida, quyidagilarga taqsimlanadi, ya'ni:

7.1.1.-chizma

Xitoy qishloq xo'jaligining tarkibiy tuzilishi⁸³



1978-yil oxirida Xitoyda mamlakatni inqiroz holatdan chiqarish yo'llari intensiv tarzda izlana boshlandi. Shu yilning dekabr oyida Xitoy Kommunistik Partiyasining 11-Chaqiriq, 3-Plenumi bo'lib o'tadi. Unda mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun yo'llanma beriladi. O'sha yillarda mamlakatdagi mavjud kommunalar, yirik va kichik ishlab chiqarish brigadalari Xitoy

⁸³ Muallifkar tomonidan tuzildi

iqtisodiyotining huquqsiz bo'g'inlari hisoblanar edi; davlat dehqonlarning mehnatini ham, ular yetishtirgan mahsulotni ham bepul tarzda o'zlashtirardi. 1978–1983-yillardagi agrar islohotlarning eng muhim vazifasi dehqonlarda mehnatga rag'bat uyg'otish, shaxsiy javobgarlik tizimidan voz kechish va daromadni teng taqsimlash amaliyotini bekor qilishdan iborat bo'ldi. Shu sababli islohotlarning boshida davlat reja doirasida xarid qilinadigan mahsulotlarning narxini 20^{ga}, rejadan ortiq mahsulotlar narxini esa, 50%ga oshirish haqida qaror qabul qildi.

Bundan tashqari, dehqonlarga, ayniqsa rejadan tashqari sotilgan mahsulotdan olingan daromadning bir qismini o'zida saqlab qolishga, shaxsiy tomorqa yerlarini qayta ishlash, shuningdek, shaxsiy yordamchi xo'jalikda yetishtirilgan ortiqcha mahsulotlarni bozorda sotishga ruxsat berildi. Shu jarayonlarni amalga oshirish uchun dehqonlar, asosan o'z tashabbuslari bilan, yerlarni oila a'zolari yoki ishlovchilarning soniga qarab bo'lib oldilar. Bu tartib keyinchalik, "ishlab chiqarish mas'uliyati tizimi" yoki uy xo'jaligi pudrati deb nom olgan sotsialistik xo'jalik yuritish shakli sifatida qonuniylashtirildi.

1982–1983-yillarda xalq kommunalari va qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish brigadalari tugatildi va dehqonlarning aksariyati oilaviy pudrat tizimiga o'tdi. Ushbu tizimning mohiyati jamoaviy mulk sifatida mavjud bo'lgan yer uchastkalarini dehqonlarga ijaraga topshirishga asoslangan bo'lib, yer ajratish shartlari va mahsulot hajmiga qarab bosqichma-bosqich to'lov tizimi kelishib olinardi. Pudratga berilgan yerlar dehqonlarga xususiy mulk sifatida emas, balki 15 yil muddatga ijaraga topshirildi.

Oilaviy pudrat tizimi dehqonlarda xo'jayinchilik hissini kuchaytirdi, natijada mehnat unumdorligi keskin oshdi: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yillik o'sish sur'ati 6 foizga yetdi, atigi olti yil ichida don ishlab chiqarish 100 million tonnaga ko'paydi. Bu esa, mamlakatdagi ocharchilik muammosini hal etish imkonini berdi. Bundan tashqari, cheklangan ekin maydonlari va aholining tez sur'atlarda ko'payishi sharoitida qishloqlarda ortiqcha mehnat resurslari armiyasi vujudga keldi. Dehqonlar qatlamida tabaqalanish kuchaydi, ko'plab odamlar agrar sektordan ketib, shaharlarga ko'chib o'tdilar, posyolka–volost korxonalarida ish

boshladilar yoki savdo bilan shug‘ullana boshladilar. 2010-yillarga kelib esa, Xitoy qishloq xo‘jaligi, erishilgan ko‘plab yutuqlarga qaramay, Xitoy iqtisodiyotining ortda qolayotgan bo‘g‘iniga aylandi va mehnat resurslarining tarkibiy inqirozini boshdan kechira boshladi. Eng faol, savodli va sog‘lom qishloq aholisi shaharlarga yoki sanoat zonalariga mehnat migranti sifatida ketdi, qishloq xo‘jaligi ishlarida esa asosan keksalar, ayollar va bolalar qolib ketdi. Shuningdek, dehqonchilik va chorvachilikdagi og‘ir va “iflos” mehnat Xitoyda eng past haq to‘lanadigan ish turiga aylandi.

Islohotlar jarayonida daromadlarni teng taqsimlash tizimidan voz kechish kollektiv yerlarni pudrat asosida dehqonlarga teng ulushda taqsimlab berish orqali amalga oshirildi. Bu esa mehnat unumdorligining pastligiga va Xitoy qishloq xo‘jaligining eng katta muammosiga aylandi. Shu sababli XXR Kompartiyasining 2017-yilgi XIX-s‘ezdida oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish mavzusi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, 2050-yilgacha mo‘ljallangan “Qishloqni yuksaltirish strategiyasi” qabul qilindi. Ushbu strategiya yangi agrar siyosat va qishloq islohotlarining 8 ta tizimli innovatsion tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi, dehqonlar va qishloq aholi punktlarining o‘zi ham modernizatsiya qilinadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi qishloqlarda axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sanoati rivoji bilan birgalikda olib boriladi. Buning natijasida mehnat unumdorligi oshadi, daromadlar ko‘payadi, qishloqlarda shaharlar darajasiga yaqin yashash, dam olish, ta‘lim va tibbiyot sharoitlari yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida qishloqlarga yosh, malakali mutaxassislarni qayta jalb etish imkonini beradi.

Muammolarning eng muhimlaridan biri — ekologik muammolarni hal qilish va tabiiy resurslarni tiklashdir. Shu sababli 2010–2020-yillar oralig‘ida Xitoyda eng tez o‘sib borgan narxlar — oziq-ovqat mahsulotlari narxlari bo‘ldi va xalq, masalan, kimyoviy o‘g‘itlar miqdori qisqartirilgani oqibatida hosilning kamayishi kabi holatlarda dehqonlarga kompensatsiya to‘lashga tayyor ekanini bildirdi.

Qishloq xo‘jaligini tezkor modernizatsiya qilish dasturi uch asosiy masalani o‘z ichiga oladi. Birinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash. Ikkinchidan,

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari taklifi tuzilmasini tartibga solish, uni bozor talabiga moslashtirish. Uchinchidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va agrar iqtisodiyotning uchta tarkibiy sohasi (qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot ishlari, shuningdek mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotish xizmatlari) integratsion rivojlanishi hisobiga qishloqda bandlikni kengaytirish. Bundan tashqari, mehnat taqsimotining bunday chuqurlashuvi zamonaviy bandlikni oshirish va qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytirishning deyarli yagona yo‘lidir; bu esa qishloqning boshqa ko‘plab muammolarini ham hal etishga imkon beradi. Daladan do‘kongacha bo‘lgan texnologik zanjirlarni yaratish — chuqur qayta ishlash, yangi mahsulotlarni saqlash, sovitkich sig‘imlarini yaratish, tovar aylanmasi sohasini rivojlantirish — qo‘shimcha qiymatning katta qismini savdo sohasidan qishloq xo‘jaligi korxonalariga qayta taqsimlash imkonini beradi.

XXR dagi oziq-ovqat xavfsizligi muammosining markaziy mavzusi — don ta‘minotining kafolatlangan darajasidir. Buning uchun ishlab chiqarishning izchil va barqaror o‘shishini ta‘minlash zarur, chunki ekspertlarning baholariga ko‘ra, 2035-yilga borib mamlakatda don iste‘moli 710 million tonnaga yetadi (2020-yillar boshida don yetishtirish 670 million tonnani tashkil etgan). Aholi turmush darajasi oshgani sari donning sifati, assortimenti va kaloriyaviy qiymatiga bo‘lgan talab ham oshadi. Don bo‘yicha o‘z-o‘zini ta‘minlash darajasi 95% dan past bo‘lmasligi vazifa sifatida qo‘yildi. Shuni ta‘kidlash lozimki, Xitoyda jon boshiga don bilan ta‘minlashning yillik normasi 470 kg ni tashkil etadi, bu esa dunyo bo‘yicha oziq-ovqat xavfsizligining o‘rtacha mezoni bo‘lgan 400 kg dan yuqoridir. Shular qatorida, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha Xitoy tashqi bozorlarga bog‘liq - masalan, soyaning 80% dan ortig‘i import qilinadi.

Biroq, mamlakatdagi yer va suv resurslarining jiddiy tanqisligi ishlab chiqarish o‘shishini cheklaydi va muammoning yechimi ishlab chiqishni ixtisoslashtirish va yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali hosildorlikni oshirishda, shuningdek, umumiy ekin maydonini kamida 120 million gektar darajasida saqlashda ko‘rilmoqda. Yerning maqsadli foydalanilishini boshqarish, ekin maydonlarining g‘allachilikdan boshqa yo‘nalishga o‘tib ketishini yoki umuman

qishloq xo‘jaligidan chiqib ketishini oldini olish muhimdir. Shu bilan birga, asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorva zotlari bo‘yicha milliy seleksiya bazasini yanada takomillashtirish vazifasi ham qo‘yilgan.

Xitoyda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mayda, parokanda va samarasiz shakli yerning xususiy emas, balki jamoaviy mulk bo‘lib qolayotgani, undan foydalanishning mayda bo‘laklarga bo‘linishi bilan izohlanadi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, avvalambor, undagi mavjud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga halaqit beruvchi to‘siqlarni yo‘qotishdan boshlandi. Bu sohani boshqarishda markazlashgan buyruqbozlikdan voz kechishga va mamlakatdagi mavjud xalq kommunalari tizimini takkomillashtirishga hamda mamlakat iste‘mol fondini taqsimlashda barobarlikga yo‘l qo‘ymaslikka qaror qilindi. Uning oqibatida, Xitoy qishloqlarida istiqomat qilayotgan aholining tashabbuskorlik va bunyodkorlik hislari ham ortib bordi.

Islohotlargacha bo‘lgan davrda Xitoydagi umumiy ekin ekish maydonlarining hajmi 145 mln.Ga dan iborat bo‘lib, ularning 30,6% i sug‘oriladigan yerlar bo‘lgan. Bu esa, dunyo ekin ekish maydonining 7% ni tashkil etadi va mana shu yerlarning faqatgina 21%i yuqori hosil beradigan yerlar hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatdagi ekin ekish maydonlari turli sabablarga ko‘ra, yil sayin qisqarib bormoqda. Xususan, yerning erroziyasi, pestisidlar bilan zaxarlanishi, suv toshqinlari va h.k. Hozirgi davrda (2024 y.) uning ekin ekish maydoni ancha qisqargan (1980-yilda - 130 mln. Ga ga teng bo‘lgan) bo‘lib, uning maydoni 117 mln.Ga.ni tashkil etmoqda.

Hozirda Xitoy, nafaqat o‘zini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta‘minlab qolmasdan, balki boshqa davlatlarga ham bu mahsulotlarni eksport qilmoqda. Xitoyda 50 turdan ortiq poliz ekinlari, 100 ga yaqin xilma-xil sabzavotlar, 60 turdan ortiq mevalar, 700 ga yaqin qo‘ziqorin va giyohvand o‘tlar mavjuddir. Undan tashqari, mamlakatdagi qulay tabiiy sharoitlar, yerning yetarli darajada namligi, unda qishloq xo‘jalik ekinlaridan yiliga ikki va hattoki uch marotaba hosil olish imkonini beradi. Takror ekin ekishning o‘rtacha koeffisienti 1,4 ni, asosiy ekin ekiladigan joylarda esa, 3,3 ni tashkil etadi.

Xitoy 2024-yilda rekord hajmda 706,5 mln.t. donni yetishtirdi, bu esa 2023-yilga nisbatan 1,6% ga ko'pdir⁸⁴.

Hozirda, mamlakat bir qator qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda, yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, g'alla, paxta, turli xil o'simlik moyi, choy, guruch, go'sht, tuxum va h.k. Mamlakat qishloq xo'jalik mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha, dunyodagi belgilangan o'rtacha darajadan oshib ketdi. Uning qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi esa, unga bo'lgan umumiy talab va taklif muvozanatiga mosdir va hattoki, mamlakatda hosildorlik yuqori bo'lgan yillarda, umumiy taklifning ortib ketganligini ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda (2017 y.) Xitoy qishloq aholisining soni 802million kishidan iborat bo'lib, u mamlakat aholisining deyarli 60% ni tashkil etadi. Ulardan 498 mln. kishi mehnatga layoqatli kishilarni tashkil etib, u mamlakat ishga layoqatli kishilarning deyarli 70% ni tashkil qilmoqda.

Xitoy ekin ekish maydonining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi 0,1 Ga ni, mamlakat mehnatga layoqatli qishloq aholisining jon boshiga to'g'ri kelishi esa, 0,26 Ga ni tashkil etadi.

Don mahsulotlaridan Xitoyda asosan, bug'doy, guruch, makkajo'xori, batat va soyali no'xotlilar yetishtiriladi. Ularning ichida sholi – asosiy don mahsuloti bo'lib, uning mamlakat don mahsulotlarini yetkazib berishdagi salmog'i 38,7% ga tengdir. Xitoyning asosiy sholikorlik rayonlari Yanszi daryosi havzasi, Janubiy Xitoy va Yunnan-Guyjou tog' yon bag'irlari hisoblanadi.

Don mahsulotlarini yetqazib berishda bug'doyning ham ahamiyati kattadir. Uning don mahsulotlarini yetqazib berishdagi salmog'i 22% ni tashkil etadi. Bug'doy mamlakatning barcha hududlarida yetishtiriladi. Uni yetishtirish rayonlari, asosan, Xenan, Shandun, Anxoy, Shensi, Szyansu, Xubey, Sichuan profinsiyalari hisoblanadi. Undan keyingi o'rinni makkajo'xori egallab, uning don

⁸⁴ Xitoy Davlat statistika boshqarmasi ma'lumoti, 2024 y.

mahsulotlaridagi salmog‘i 25,7% ni tashkil etadi. Makkajo‘xori mamlakatning Shimoliy-Sharqiy, Shimoliy va Janubiy-G‘arbiy rayonlarida yetishtiriladi.

Mana shu yuqorida ta‘kidlagan muammolarga qaramasdan, Xitoy o‘z aholisini nafaqat don mahsulotlariga bo‘lgan iste‘molini, balki oziq-ovqat mahsulotlari bilan ham to‘la qondirib kelmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda texnik jihatdan muhim omillar sifatida irrigatsiya, mineral o‘g‘itlardan foydalanish va urug‘lik fondining yangilanishi katta rol o‘ynadi. Hozirgi kunda mamlakat agrar sohasida irrigatsiya inshootlaridan foydalanish koeffitsienti o‘rtacha 40% ni tashkil qilmoqda, bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarga qaraganda 25-30%ga past daraja hisoblanadi. Undan tashqari, ekin ekish maydonlarini suv bilan ta‘minlash ham yildan-yilga muammo bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun Xitoy hozirda suvni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqmoqda.

Xitoyda g‘allachilik uchun ekin ekish maydonlari qisqarib, uning o‘rniga texnik ekinlarni ekish maydoni ko‘payib bormoqda. Ular jumlasiga paxta, yer yong‘oq, raps, kunjut, shakar qamish, choy, tamaki, shoyi va turli xildagi mevali mahsulotlar kiradi. Xitoyning asosiy paxtachilik rayonlari Xuanxe xavzasi, Yanszi daryosining o‘rta va quyi oqimi rayonlari va Sinszyan-Uyg‘ur avtonom rayonidagi Manas havzasi hisoblanadi. Xitoy paxta yetishtirishda dunyoda yetakchi o‘rinni egallaydi.

Yer yong‘oq yetishtiriladigan maydonlar Xitoyning Shandun provinsiyasida, Guandunda, Guansida va Lyaoninda joylashgandir. Raps esa, Xitoyning Yanszi xavzasida va Sichuanda yetishtiriladi. Shakar qamish Janubiy Xitoyda, qand lavlagi esa, Xeylunszyanda, Szilinda va Ichki Mongoliyada yetishtiriladi.

Xitoyda o‘rmonlar 128,63 mln.Ga ni tashkil etib, uning yirik massivlari mamlakatning Shimoliy-Sharqida, Kichik a Katta Xingan rayonlarida va Chanbayshin tog‘larida joylashgandir. U yerlarda kedr, barglilar, chinor, teraklar, qayrag‘och va sada daraxtlari o‘sadi. Undan tashqari, ikkinchi darajali hajmdagi o‘rmon massivlari Xitoyning Janubiy G‘arbiy qismida joylashgandir. Bu yerlarda yunnan qarag‘ayzorlari, archa va paxtazorlar mavjuddir. Shu bilan birga, qimmatli daraxtlar hisoblangan greypfrut, pterokarpus, santalinus, kamfora, febe nanmu va

qizil daraxtlar ham mavjuddir. Ushbu o‘rmonzorlardan olingan yog‘ochlardan Xitoy o‘zining ichki iste‘moli uchun, ya’ni qurilish ishlarida va mebelsozlikda foydalanib kelmoqda.

Xitoyning muhim qishloq xo‘jalik tarmoqlaridan biri hisoblangan chorvachilik sohasi asosan, uning Ichki Mongoliyada, Tyanshan va Oltoy tog‘ yon bag‘irlarida, Sinszyanda va Sinxay-Tibet tog‘ yon bag‘irlarida rivojlangandir. Mamlakatda 313,33 mln. ga teng qoramol va qo‘ylarni boqishga mo‘ljallangan cho‘lu-biyobonlar va qir- adirlar mavjuddir. Xitoyda 400 turdan ortiq uy hayvonlari mavjud bo‘lib, ular jumlasiga cho‘chqalar, yirik va mayda qoramollar, yilqilar, eshak va mollar, tuyalar, tovuqlar, g‘ozlar, o‘rdaklar, quyonlar va boshqalar kiradi. Bu soha 1979-yildan so‘ng, tez sur‘atlarda rivojlana boshladi.

Xitoyning suv mahsulotlari xo‘jaligi iqtisodiy islohotlargacha bo‘lgan davrda, faqatgina o‘zining ichki ko‘llari va dengiz oldi tabiiy baliqchiligi bilan shug‘ullanib kelgan. Uning chuchuk suv mahsulotlari va dengiz baliq mahsulotlari hajmi uncha katta bo‘lmagan. 1978-yildan keyin esa, mamlakatda baliqchilik mahsulotlariga ahamiyat ortib bordi va bunda hovuzlarda baliqlarni ko‘paytirishga urg‘u berildi. Shular bilan bir qatorda, dengiz va okeanlarda baliqlarni ovlash ishlari ham avj ola boshladi. Ushbu mahsulotlarning o‘rtacha yillik ovlash hajmi 2 mln.tonnadan oshib ketdi.

Umuman olganda, Xitoy qishloq xo‘jaligi sohasi orasidagi nisbat bir-biridan ancha farqlanadi. Ya’ni, umumiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida o‘simlikchilikning salmog‘i ancha katta bo‘lib, u 47% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, undagi chorvachilikning hissasi 17,4% ni, yordamchi xo‘jaliklarning hissasi 29,8% ni, baliqchilikning hissasi 3,1% ni va o‘rmon xo‘jaligi hissasi- 2,5% ni tashkil etadi.

7.2. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishdagi yutuqva kamchiliklari

Xitoyda agrar islohotlarni olib borishning asosiy mexanizmlari nimalardan iboratligini tahlil qilganimizda, quyidagilar amalga oshirilganini ko‘rishimiz mumkin:

Birinchi bosqichda, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida, davlat tomonidan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish narxlari 18 ta asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlariga narxlar bir muncha oshirildi. Bir vaqtning o‘zida, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va yordamchi xo‘jalik mahsulotlarining 65 %i, bozor narxlarida sotila boshlandi. Qishloqdarda oilaviy pudrat va ijara munosabatlari aktiv joriy etila boshlandi. Shu bilan birga, taqsimlash tamoyillari ham o‘zgardi. Bu degani, mehnatga haq to‘lashda barobarlikka barham berilganligidir. Ma‘muriy taqsimlanishdan nihoyat, iqtisodiy taqsimlanish usuliga o‘tish amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqichda esa, (bu 1985-yil boshi) davlat tomonidan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish tizimida prinsipial o‘zgarishlar amalga oshirildi. Markazlashgan sotib olish tizimi oldi-sotdi shartnomalari bilan o‘zgartirildi.

Prodrazverstka bo‘yicha, 39 turdagi mahsulot o‘rniga, hohlagan mahsulotni erkin tarzda ekib, uning xosili davlatga topshirildi, asosiy qishloq xo‘jalik mahsulot turlari bo‘yicha ya‘ni: guruch, don, makkajo‘xori, soya, moyli o‘simliklar, paxta va boshqalar shular qatoriga kiradi. Shu tariqa Xitoyda davlatga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetqazib berish shartnomalari tuzila boshlandi. Davlat ekin ekish maydonlari hajmini va ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirishdan voz kechdi. Rejalashtirish asosi bo‘lib, ikki va ko‘p yoqlama shartnoma - bitimlar hisoblandi. Natijada, raqobatlashish uchun sharoit tug‘ildi. Dehqon xovlisi yoki kooperativlar, erkin xolda, davlat tayyorlash tashkilotlari bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish uchun, belgilangan qattiq narxlarda, shartnomalar tuza boshladi. Bu ishlarning xarakterli tomoni shundan iboratki, shartnoma tuzishga o‘tishda, bo‘g‘doy sotib olish hajmi kamaydi. Agar, 1980-yillarda u 70 million tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 1987-yillarga kelib, u 50 million tonnaga kamaygan. Bir vaqtning o‘zida, dehqonlar tomonidan bozorda sotilgan donning ulushi 40% ga ko‘tarildi. 1987-yilda shartnoma bo‘yicha bozor narxida sotilgan don, umumiy tovar xajmining 65 % ni tashkil etdi. Bozorlarda erkin tarzda poliz ekinlari, meva-sabzovotlar, go‘sht, tuxum, balik va dengiz mahsulotlari sotila boshlandi. Ularning narxi talab va taklifdan kelib chiqib, shakllandi.

Umuman, xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, Xitoy agrar islohtlarining xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Islohotlar yuqoridan turib kuch va buyruq bilan joriy qilinishi emas, balki ularni qishloq xo‘jaligini quyi qatlamlaridan boshlanganligidadir;
- Islohotlar jamiyat tizimini o‘zgartirishni ko‘zlamaydi, balki, aksincha, ular kamchiliklar va salbiy xodisalarni yo‘qotish yo‘li bilan jamiyatni yanayam rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirilgandir.

Endi Xitoy qishloqlaridagi ishlab chiqarish sharoitlari va qishloq xo‘jalik resurslari xolatini taxliliga e’tibor qaratib, undagi hozirgi davr holati bilan bog‘liq bo‘lgan mavjud sharoitlar ni jadval 9.2.1. orqali ko‘rib chiqish mumkin.

Jadval 7.2.1.

Xitoy qishloqlaridagi ishlab chiqarish sharoitlari va qishloq xo‘jalik resurslari holati (2024 y.)⁸⁵

Xitoy Xalq Respublikasida aholining soni (10 mln.kishi)	1 414 080
Xitoy qishloq aholisini soni (10 ming.k.)	51023 (37,8%)
Xitoy qishloq xonadonlarining soni (10 ming k.)	24912
Xitoy qishloqlaridagi mehnatga layoqatlilar soni (10 ming k.)	51132
XXR ning ekin ekish maydonining hajmi (1000 ga.)	130037
Suv resurslari (100 mln.kub/m.)	28128
Sug‘oriladigan maydon hajmi (1000 ga.)	54014
Qishloq xo‘jalik texnikasining quvvati (10 ming kvv.)	60329

Xitoyda agrar ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi qiymati 16,4% ni, undagi qishloq mehnat resurslarining salmog‘i esa, 50% ni tashkil qiladi. Mana shu ko‘rsatkichlarni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslasak, masalan, AQSh da ular 1,6% ni va 2,6% ni, Yaponiyada esa, 1,7% va 4,8 % ni tashkil qilmoqda. Ammo, shunga qaramay, Xitoy davlati bugungi kunda, o‘z kuch va qudratiga tayangan holda,

⁸⁵Китай: факты и цифры, 2008 г., Пекин, 2009, с/12

mamlakat aholisini, ya'ni 1 mlrd. 320 mln. kishining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini asosan qondirmoqda.

Xitoy bygungi kunga kelib, yerning unumdorligini oshirish bo'yicha katta yutuqlarga erishdi. Jumladan, bug'doy, sholi va makkajo'xori yetishtirishda, u dunyo o'rtacha darajadagi mamlakatlardan yuqori turadi. Shu bilan birga, Xitoy qishloq xo'jaligidagi optimal holat omillarni ham sanab o'tishjoizdir:

1.Oziq-ovqat ta'minoti bilan narxlarning uzviy bog'liqligi. Bunda g'allaning yetishmasligi, bir zumda narxlarning oshib ketishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, g'alla yetishtirish uchun manfaatdorlikni keltirib chiqaradi. Bunga misol qilib, 2004-yildagi g'allaga narxning oshishi bilan bog'liq bo'lgan ekin ekish maydonlarining g'allani ekish uchun kengaytirilganligini olsak bo'ladi;

2.Xitoy qishloq xo'jaligida ilmiy texnik jarayondan hali to'liq foydalanilmayotganligini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda, mamlakat qishloq xo'jaligida ilg'or agrotexnika usullarining atigi 30% gina amaliyotga tadbiiq etildi xolos. Yaqin kelajakda bu ko'rsatkichni 50% ga yetqazish ko'zda tutilmoqda;

3. Xitoyning 60% ekin ekish maydonlari past va o'rta darajadagi xosildorlik olinadigan maydonlar hisoblanadi. Bu yo'nalishda yer qatlamlarini meliorativ usullar orqali yaxshilash ko'zda tutilmoqda;

4. Xitoy o'rmon resurslariga juda boy bo'lib, ularni yetishtirish va sotish evaziga g'allani o'rnini bosadigan mahsulotlarni sotib olish mumkin.

Soha mutaxassislarining fikricha, 2030-yilga kelib, Xitoy aholisining soni 1,6 mlrd. kishiga yetadi. Mana shu aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun esa, 681,8 mln.tonna don mahsulotlari kerak bo'ladi. Bu esa, mamlakatda g'alla o'stirishni 1,20% ga ko'paytirishni talab qiladi. Mana shularni e'tiborga olgan xolda, Xitoy hukumati bu yo'nalishda ko'pgina chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda. Xususan, oxirgi 30 yil ichida mamlakatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini zahirasi va ular bilan muomola qilish sharoitlari yaxshilandi. Mamlakatda 1990-yildan boshlab, oziq-ovqat zahirasi tizimini tuzdi va uning hajmi hozirgi kunda 40 mln. tonnani tashkil etmoqda. Maxalliy don rezervlari esa, 10 mln. tonnadan iboratdir. Undan tashqari, xitoy dehqon xonadonlari zahiralarida 120 mln. tonna g'alla mavjuddir. BMT ning

(FAO) Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik tashkiloti xulosasiga ko‘ra, mamlakatning oziq-ovqat ta‘minoti xavfsizligi rezervi, uning mamlakat iste‘mol darajasining 17-18% ni tashkil qilishi lozim. Xitoyda oziq-ovqat iste‘molining yillik miqdori 480 mln. tonna bo‘lsa, FAO tashkilotining ko‘rsatmasiga binoan, mamlakatning don zahirasi 81,6 - 86,4 mln. tonnani tashkil etishi lozim. Bu ishlarni amalga oshirish uchun esa, Xitoy hukumati, qishloq xo‘jaligida agrotexnikaning ilmiy-texnikaviy yutuqlaridan foydalanishni, bu sohaga ko‘proq turli xil pul vositalarini jalb qilishni (assignatsiya) va agrar sektorga xizmat ko‘rsatish hamda uni tashkil etishning turli shakllarini joriy qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xitoyda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar maydoni 5 285,29 ming km² ni tashkil etib, mamlakat hududining 56,08% ga teng. Ushbu maydon yildan-yilga shaharlar va sanoat zonalarining qurilishi tufayli asta-sekin qisqarib bormoqda. Aksincha, ekin ekiladigan yerlar maydoni asta-sekin ortib, 119,49 mln gektarga, ya‘ni Xitoy hududining 12,68% ga yetgan. Biroq jon boshiga to‘g‘ri keladigan ekin maydoni doimiy ravishda kamayib bormoqda va hozirda taxminan 0,09 gektarni tashkil qiladi.


7.3. Xitoy agrar sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlar va qishloq xo‘jaligidagi zamonaviy holat

2020-yilda Xitoyda 1828 ta davlat agrar korxonalari faoliyat yuritgan bo‘lib, ularda 2,47 million kishi ishlagan. 2000-yilda esa davlat korxonalari soni 2026 ta, bandlar soni esa 3,92 million edi. Shunga qaramay, davlat korxonalarining ekin maydoni 4,76 mln gektardan 6,85 mln gektarga oshgan; ularning 70 foizi g‘alla ekinlariga, 15 foizi paxtaga ajratilgan.

Xitoyning (va dunyoning) eng yirik agroholdingi — China National Cereals, Oils and Foodstuffs Corporation (COFCO) bo‘lib, g‘alla, yog‘-moy, shakar, paxta va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradi. Korporatsiya dunyo bo‘ylab 31 mln tonnalik saqlash quvvatiga va yiliga 90 mln tonna qayta ishlash quvvatiga ega (shundan 60 mln tonnasi Xitoyda). Qishloq xo‘jaligida muhim o‘rin tutuvchi yirik kompaniyalardan biri - Syngenta AG (Bazel, Shveysariya) bo‘lib, 2017-yildan buyon uning egasi Xitoyning China National Chemical Corporation (ChemChina)

davlat korporatsiyasidir. Syngenta dunyoning eng yirik agrar kompaniyalaridan biri hisoblanib, o‘simliklarni himoya qilish vositalari, maxsus urug‘lar va qishloq xo‘jaligi xizmatlarini 90 dan ortiq davlatlarda taqdim etadi. Kompaniya 120 ta tadqiqot markaziga, 104 ta ishlab chiqarish va ta‘minot maydonlariga ega. Soha yetakchilari qatorida, shuningdek, Gansu Dunhuang Seed Co., Ltd. va Gansu Dunhuang Seed Fruit & Vegetable Products Co., Ltd. kompaniyalari ham mavjud bo‘lib, ular Xitoy bo‘ylab urug‘larni qayta ishlash va seleksiya qilish bo‘yicha ko‘plab zavodlarga, shuningdek yirik agro-sanoat komplekslariga egadir.

7.3.1.-rasm



Manba: Xitoy Milliy statistika byurosi. URL: <https://data.stats.gov.cn/english/easyquery.htm?cn=C01> (kirish sanasi: 06.12.2023).

2000–2024 yillar davomida Xitoyda don ekinlari ekin maydoni izchil o‘shish dinamikasini namoyon etdi. 2000 yildagi 108,46 mln gektar ko‘rsatkich 2020 yilga kelib 116,77 mln gektarga yetdi. Xitoy Milliy Statistika Byurosi ma‘lumotlariga ko‘ra, mazkur o‘shish 2022–2024 yillarda ham davom etgan: 2022 yilda don ekinlari ekin maydoni 118,33 mln gektar, 2023 yilda 118,97 mln gektar, 2024 yilda esa 119,32 mln gektarni tashkil etdi. Ushbu barqaror kengayish mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va don yetishtirish hajmini oshirishga qaratilgan davlat siyosati samarasi hisoblanadi.

2000-yilda har bir gektar ekin maydoniga o‘rtacha 286 kilogramm kimyoviy o‘g‘it solingan bo‘lsa, 2010 yilda bu ko‘rsatkich 424 kilogrammga yetgan. 2013–2016 yillarda kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanish eng yuqori darajaga chiqib, 465 kilogrammni tashkil etgan, 2018 yilda esa bu hajm 393 kilogrammgacha kamaygan. Melioratsiya tez sur‘atlarda rivojlanmoqda. 2020-yilda sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarining umumiy maydoni 460 ming gektarga oshib, 69,16 mln gektarni tashkil etdi. Shu bilan birga, 1,88 mln gektar maydonda yuqori samarali suv tejavchi sug‘orish tizimlari joriy etildi.

7.3.1.-jadval

Asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ekish maydonlari hajmining 2000-2021-yillardagi o‘zgarishi, mln.Gada

Ko'rsatkich	2021-yil	2020-yil	2010-yil	2000-yil
Jami ekin maydoni	168,70	167,49	8,02	156,30
Sug'oriladigan yerlar	69,61	69,16	13,70	53,82
Don ekinlari, shu jumladan	117,63	116,77	4,37	108,46
- guruch	29,92	30,08	7,32	29,96
- bug'doy	23,57	23,38	4,37	26,63
- makkajo'xori	43,32	41,26	1,81	23,06
Dukkakli ekinlar, shu jumladan	10,12	11,59	1,62	12,66
- soya	8,42	9,88	1,31	9,31
Tugunakli ekinlar	7,33	7,21	17,43	10,54
Yog'li ekinlar, shu jumladan	13,10	13,13	10,68	15,40
- yer yong'og' (arahis)	4,81	4,73	1,93	4,86
- raps	6,99	6,76	2,03	7,49
Paxta	3,03	3,17	1,93	4,04
Shakar beruvchi ekinlar, shu jumladan	1,46	1,57	2,23	1,51
- qandqamish	1,32	1,35	8,02	1,18
Tamaki	1,01	1,01	13,70	1,44
Sabzavot ekinlari	21,99	21,49	4,37	15,24
Mevali bog'lar, shu jumladan	12,81	12,65	7,32	8,93
- olma bog'lari	m/y	1,98	4,37	2,25
-tsitrus ekinlari	m/y	2,62	1,81	1,27
Choy plantatsiyalari	3,31	3,22	1,62	1,09
Poliz ekinlari	m/y	2,12	1,31	2,04

Manba: Xitoy Milliy statistika byurosi. URL: <https://data.stats.gov.cn/english/easyquery.htm?cn=C01> (kirish sanasi: 06.12.2023).

2022 yilda Xitoy qishloq xo‘jaligi tomonidan yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 15,61 trillion yuanni tashkil etdi. Shundan o‘simlikchilik 8,44 trillion yuan yoki 54 foizni, chorvachilik 4,07 trillion yuan yoki 26 foizni, baliqchilik esa 1,55

trillion yuan yoki 10 foizni tashkil etdi. Taqqoslash uchun, 2020 yilda yalpi qo‘shilgan qiymat 13,78 trillion yuan bo‘lgan, uning tarkibi mos ravishda: o‘simlikchilik 7,17 trillion yuan (52 %), chorvachilik 4,03 trillion yuan (29 %), baliqchilik 1,28 trillion yuan (9 %). 2021 yilda qishloq xo‘jaligining o‘sish sur‘ati 7,9 % bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich sifatida qayd etilgan.

Xitoyda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida eng yirik segment mevalar bo‘lib, ularning ulushi umumiy bozor qiymatining 29,6%ni tashkil etadi. Sabzavotlar 27,7%ni, don ekinlari 25,1%ni, yog‘li ekinlar 8,8%ni tashkil qiladi. O‘simlikchilik va chorvachilik o‘rtasidagi nisbat yildan yilga chorvachilik foydasiga o‘zgarib bormoqda: 2020-yilda chorvachilik ulushi 36%, 2019-yilda 33,4% bo‘lgan, 1970-yillarda esa atigi 15%ni tashkil etgan.

O‘simlikchilik

Umumiy ekin maydonining 70%gacha qismi don ekinlariga to‘g‘ri keladi. 2021-yilda don ekinlari maydoni 117,63 mln gektarni tashkil qilib, bu o‘tgan yilga nisbatan 860 ming gektarga ko‘pdir. Don ekinlari ichida eng katta maydon 43 million gektar bilan makkajo‘xoriga tegishli bo‘lib, 2000–2021-yillar davomida chorvachilikning rivojlanishi natijasida uning maydoni deyarli ikki baravar oshgan. Sholi ekin maydoni so‘nggi 20 yil davomida deyarli o‘zgarmay, 30 mln gektar atrofida saqlanib qolmoqda. Bug‘doy ekin maydoni esa, 20 yil ichida asta-sekin qisqarib, 2021- yilda 24 mln gektarni tashkil qilgan. Bug‘doy eng arzon don turi bo‘lgani sababli, Xitoy uchun cheklangan yer resurslarini unga sarflashdan ko‘ra, uni jahon bozoridan import qilish iqtisodiy jihatdan ma‘qul hisoblanadi.

Ekin maydonlarining muhim qismini sabzavot ekinlari (22 mln Ga), yog‘li ekinlar (13 mln Ga), dukkakli ekinlar (10 mln Ga), dukkakli ekinlar (7 mln Ga), paxta (3 mln Ga), shakarli ekinlar (1,5 mln Ga) va tamaki (1 mln Ga) egallaydi. Mevali bog‘lar (12,8 mln Ga) va choy plantatsiyalari (3,3 mln Ga) ekin maydoniga emas, balki qishloq xo‘jaligi yerlariga kiradi, chunki bu ko‘p yillik ekinlar ko‘pincha tog‘ va tepaliklarda joylashadi.

2021-yilda yillik don ishlab chiqarish hajmi 682,85 mln tonnani tashkil etib, bu o‘tgan yilga nisbatan, 13,36 mln tonnaga yoki 2,0%ga ko‘pdir. 2022-yilda yangi

rekord qayd etilib, don ishlab chiqarish 686,53 mln tonnaga yetdi. 2023-yilda don ishlab chiqarish hajmi 695,41 mln tonnani, 2024-yilda esa 702,84 mln tonnani tashkil qilib, Xitoyda don yetishtirishning barqaror o‘sishi davom etganini ko‘rsatdi.

7.3.3.--jadval

Xitoyning 2000-2024-yillar oralig‘ida yetishtirilgan asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari

Ekin turi	2024	2023	2022	2021	2020	2010	2000
Don ekinlari, shu jumladan	702,84	695,41	686,53	682,85	669,49	559,11	462,18
– guruch	211,52	210,98	208,49	212,84	211,86	197,23	187,91
– bug‘doy	139,55	136,59	137,72	136,95	134,25	116,09	99,64
– makkajo‘xori	292,10	288,84	277,20	272,55	260,67	190,75	106,00
Dukkakli ekinlar, shu jumladan	m/y	m/y	m/y	19,66	22,88	18,72	20,10
– soya	m/y	m/y	m/y	16,40	19,60	15,41	15,41
Tugunakli ekinlar, shu jumladan	m/y	m/y	m/y	30,44	29,87	28,43	28,35
– kartoshka	m/y	m/y	m/y	n/d	17,98	15,31	13,26
Yog‘-moy ekinlari, shu jumladan	m/y	m/y	m/y	36,13	35,57	29,37	24,37
– yer yong‘oq	m/y	m/y	m/y	18,30	17,99	15,14	14,44
– raps	m/y	m/y	m/y	14,71	14,05	12,79	11,38
Paxta	m/y	m/y	m/y	5,73	5,91	5,07	4,42
Shakar beruvchi ekinlar, shu jumladan	m/y	m/y	m/y	114,51	120,14	113,03	97,65
– qandqamish	m/y	m/y	m/y	9,32	9,32	8,23	8,07
Tamaki	m/y	m/y	m/y	2,13	2,13	2,83	2,42
Sabzavotlar	m/y	m/y	m/y	775,49	749,13	572,05	446,65
Mevalar, shu jumladan	m/y	m/y	m/y	299,90	279,36	164,72	125,61
– olma	m/y	m/y	m/y	45,97	44,07	31,65	27,38
– sitruslar	m/y	m/y	m/y	55,96	51,22	25,82	21,80
– nok	m/y	m/y	m/y	19,88	19,41	15,07	11,83
– uzum	m/y	m/y	m/y	15,08	14,31	3,84	3,12
Choy	m/y	m/y	m/y	3,18	2,98	1,38	0,69
Poliz ekinlari	m/y	m/y	m/y	n/d	83,63	78,10	67,14

Izoh. 2021 yildan boshlab Xitoy Milliy Statistika Byurosi qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ayrim ko‘rsatkichlarning ochiq e‘lon qilinish tartibini o‘zgartirgan. Shu sababli 2022–2024 yillar uchun faqat don ekinlari va asosiy g‘alla turlari bo‘yicha rasmiy ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, boshqa ekin turlari bo‘yicha batafsil statistika ommaviy manbalarda e‘lon qilinmagan.

Manba: Xitoy Xalq Respublikasining Milliy Statistika Byurosi. URL: <https://data.stats.gov.cn/english/easyquery.htm?cn=C01> (murojaat qilingan sana: 06.12.2023).

Don ishlab chiqarish tuzilmasida makkajo‘xori, guruch va bug‘doy mos ravishda taxminan 40, 30 va 20%larni tashkil qiladi, qolgan 10% esa boshqa don ekinlariga to‘g‘ri keladi. Bahorgi don ekinlari ishlab chiqarishi 145,96 mln tonnani

tashkil etib, o'sish sur'ati 2,2%ni, erta guruch hosildorligi esa 28,02 mln tonnani tashkil qilib, 2,7%ga o'sishni ko'rsatgan.

Kuzgi don ekinlari ishlab chiqarishi 508,88 mln tonnani tashkil etib, 1,9%ga o'sgan. Yillik guruch ishlab chiqarish 212,84 million tonnani tashkil etib, 0,5 foiz o'sishni ko'rsatgan; bug'doy ishlab chiqarish hajmi 136,95 million tonna bo'lib, 2,0%ga oshgan; makkajo'xori ishlab chiqarish hajmi esa, 272,55 mln tonnani tashkil etib, 4,6%ga o'sgan. Yillik paxta ishlab chiqarish hajmi 5,73 mln tonnani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 3,0% kam bo'lgan. Yog'moy ekinlari ishlab chiqarish hajmi 36,13 mln tonnani tashkil etib, 0,8% o'sish kuzatilgan. Shakar ishlab chiqarish hajmi 114,51 million tonna bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 4,7% kamdir. Choy ishlab chiqarish 3,18 mln. tonnani tashkil etib, 8,3% o'sishni qayd etgan.

Chorvachilik

Xitoy chorvachiligining yetakchi yo'nalishlari cho'chqachilik, qo'ychilik va echkichilik hisoblanadi. Ayniqsa parrandachilik jadal sur'atlarda rivojlanmoqda (5.4-jadval). 2022 yil oxiriga kelib tirik cho'chqalar soni 452,56 million boshni tashkil etgan bo'lib, bu 2020 yilga nisbatan 11 foiz ko'p, biroq avvalgi yillarga nisbatan past ko'rsatkichdir.

7.3.4-jadval

Xitoyda qoramollar va parrandalar sonining 2000-2022-yillardagi o'sish dinamikasi, mln.boshda

Hayvon turi	2022 –yil (mln bosh)	2020-yil (mln bosh)	2010-yil (mln bosh)	2000-yil (mln bosh)
cho'chqalar	452,56	406,50	467,65	416,34
qo'ylar	193,04	173,10	145,35	130,03
echkilar	122,33	119,45	137,45	149,46
Yirik shoxli qoramollar	94,33	95,62	104,28	127,10
Otlar	3,76	3,67	6,58	8,46
Uy qushlari (parrandalar)	66,83	62,96	42,41	30,20

Manba: Xitoy Xalq Respublikasining Milliy Statistika Byurosi. URL: <https://data.stats.gov.cn/english/easyquery.htm?cn=C01> (murojaat qilingan sana: 06.12.2023).

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishi yil sayin ortib bormoqda (5.5-jadval). Go'sht ishlab chiqarish tarkibida an'anaviy ravishda birinchi o'rinni cho'chqa go'shti egallaydi, undan keyin parranda go'shti keladi. 2000-yillarda

Xitoyda deyarli noldan boshlab (chunki xitoylar an'anaviy tarzda sut va sut mahsulotlarini iste'mol qilmaydi) sut, shu jumladan eksport uchun quruq sut va boshqa sut mahsulotlari ishlab chiqaradigan tarmoq yaratildi.

2021 yilda cho'chqa, qoramol, qo'y va parranda go'shti ishlab chiqarish hajmi 88,87 million tonnani tashkil etib, bu o'tgan yilga nisbatan 16,3 foiz ko'pdir. Shundan cho'chqa go'shti ishlab chiqarish 52,96 million tonna bo'lib, 28,8 foizga o'sgan; qoramol go'shti 6,98 million tonna bo'lib, 3,7 foizga o'sgan; qo'y go'shti 5,14 million tonna bo'lib, 4,4 foizga o'sgan; parranda go'shti esa 23,8 million tonnani tashkil etib, 0,8 foizga o'sish qayd etilgan. Tuxum ishlab chiqarish 34,09 million tonnani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1,7 foizga kam bo'lgan. Sut ishlab chiqarish hajmi 36,83 million tonnani tashkil etib, 7,1 foiz o'sishni ko'rsatgan.

7.3.5-jadval

Mahsulot turi	2021-yil	2020-yil	2010-yil	2000-yil
Go'sht, jami	88,87	77,48	79,94	60,14
Cho'chqa go'shti	52,96	41,13	51,38	39,66
Mol go'shti	6,98	6,72	6,29	5,13
Qo'y go'shti	5,14	4,92	4,47	4,06
Sut	36,83	34,40	30,38	8,27
Tuxum	34,09	34,67	27,87	21,25
Asal	0,47	0,46	0,38	0,28
Qo'y j uni	3 562,17	3 336,25	3 851,25	2 925,02
Echki j uni	233,82	331,40	362,26	327,52
Baliqchilik mahsulotlari, jami	66,93	65,49	53,73	37,06
-Dengiz mahsulotlari	33,87	33,14	27,98	22,04
-Chuchuk suv mahsulotlari	33,03	32,35	25,75	

Manba: Xitoy Xalq Respublikasining Milliy Statistika Byurosi. URL: <https://data.stats.gov.cn/english/easyquery.htm?cn=C01> (murojaat qilingan sana: 06.12.2023).

Xitoyda an'anaviy ravishda 6 ta asosiy qishloq xo'jaligi rayoni ajratilgan (4-ilova). Birinchi rayon asosan don yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, deyarli butun Shimoliy-Sharqni qamrab oladi va hududiy jihatdan unumdor qora tuproqlarga ega, o'rmon-dasht landshaftlari bilan tavsiflanadigan keng Sulyan (Manchjuriya) tekisligiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatning eng yirik don yetishtiruvchi

hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda bahorgi bug‘doy va gaolyang (sorgoning bir turi) ekiladi. Ushbu rayonning bir qismi Shimoliy Xitoy hududlarini ham o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi rayon donchilik va paxtachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, hududiy jihatdan Xitoyning Buyuk tekisligiga (Shimoliy-Xitoy pasttekisligi) — Xuanxe daryosining quyi oqimi mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Bu mamlakatda qishki bug‘doy va paxta yetishtiriladigan asosiy hududdir. Subtropik musson iqlimi, sovuq va quruq qish mavjudligi sun‘iy sug‘orish zaruratini belgilaydi, shu bois butun bu qishloq xo‘jaligi mintaqasi yirik va kichik sug‘orish kanallari bilan qoplangan. Buyuk Xitoy tekisligining g‘arbiy chegarasida joylashgan, Xuanxening o‘rta oqimida joylashgan Lesso platosi ham ushbu rayon tarkibiga kiradi. Bu yerda asosiy don ekini — qishki bug‘doy, shuningdek paxta ekinlari ham mavjud. Mintaqada keng tarqalgan less va sariq tuproqlar tufayli bu ulkan rayon “sariq Xitoy” deb ham ataladi.

Uchinchi rayon, Yantzse havzasida joylashgan bo‘lib, aniq ifodalangan sholikorlik ixtisosiga ega. Yantzse daryosining janubida odatda yiliga ikki marotaba sholi hosili olinadi. Sholidan tashqari bu hududda bug‘doy, paxta, turli dukkakli va yog‘li ekinlar yetishtiriladi, Yantzse vodiysining janubidagi tepalik yonbag‘irlarida esa choy plantatsiyalari joylashgan. G‘arbda ushbu rayon tarkibiga Szyansyuay tog‘lari bilan ajralgan, alohida joylashgan Sychuan botiqligi o‘z ichiga kiradi. Issiq va nam yoz hamda iliq qish yil davomida uzluksiz vegetatsiyani ta‘minlaydi va bu yerda Xitoyda mavjud deyarli barcha qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtiriladi. Sun‘iy sug‘orish qo‘llanilganda bu rayon mamlakatning yirik don yetishtiruvchi hududlaridan biri bo‘lib, yiliga ikki-uch marotaba sholi, bug‘doy, sabzavot hosili olinadi. Bu hududda shuningdek qandqamish, choy, tamaki va tsitrus ekinlari yetishtiriladi. Yantzse havzasi, ayniqsa Sychuan bilan birgalikda, "yashil Xitoy" nomi bilan mashhur.

To‘rtinchi rayon Janubiy Xitoyning tropik qismini qamrab oladi — Nanylin tizmasining janubidagi hududlar, Janubiy Xitoy dengizi bo‘yidagi mintaqalar va Xaynan orolini o‘z ichiga oladi. Rayonning asosiy don ekini — sholi, u yiliga ikki, ba‘zan uch marta hosil beradi. Bu mintaqada tropik va subtropik mevalar yetishtiriladi, texnik ekinlar orasida eng muhimi — qandqamish.

Beshinchi rayon, “quruq Xitoy”, asosan yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan bo‘lib, Shimoli-G‘arbiy Xitoy va Ichki Mongoliya hududlaridagi dasht, cho‘l va yarim cho‘l mintaqalarini qamrab oladi. Dehqonchilik faqat Djungariya va Kashg‘ar botiqlaridagi oazislarda olib boriladi.

Oltinchi rayon ko‘chma (otgon) chorvachilikka ixtisoslashgan: yozda chorva yuqori tog‘ yaylovlarida boqiladi, qishda esa vodiylarga tushiriladi. Hududiy jihatdan bu rayon dunyodagi eng yirik Tivet platosi bilan mos tushadi. Uning relyefi balandlikdagi, asosan shag‘alli cho‘l va yarim cho‘llardan iborat. Bu hudud “yuqori Xitoy” yoki “sovuq Xitoy” deb ataladi. Asosiy oziq-ovqat ekinlari sovuqqa chidamli tsinke arpa va bahorgi bug‘doy bo‘lib, ularning ekin maydonlari 4000 metr balandlikkacha ko‘tariladi.

Xulosa sifatida ta‘kidlash lozimki, hozirgi davrda Xitoyning ekin maydonlari jadal o‘smoqda. Buning asosiy sababi - Xitoy janubida yilning har faslida har besh oyda ayrim ekinlardan hosil olish imkonini beruvchi qulay iqlim sharoitlari hamda seleksiya ishlaridagi yutuqlar hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xitoy iqtisodiyoti uchun qishloq xo‘jaligi qanchalik muhim?
2. Oziq-ovqat muammosini hal qilishdagi asosiy qiyinchiliklar nimada?
3. Nima uchun qishloq xo‘jaligida hanuzgacha to‘liq bozor munosabatlariga o‘tilmagan?
4. Xitoy hukumati qishloq hududlarini va agrar sektorni tiklash bo‘yicha qanday rejalarni belgilagan?
5. Xitoyda o‘simlikchilik tarmog‘ining tarkibi qanday?
6. Asosiy ekinlarning ekin maydoni tuzilmasi va ularning hosili o‘rtasida qanday tafovutlar mavjud?
7. Nima uchun Xitoyda ekin maydoni va ekin ekilgan maydon hajmi sezilarli darajada farq qiladi?
8. Xitoyda qaysi olti qishloq xo‘jaligi mintaqalari mavjud? Har birining asosiy xususiyatlari qanday?
9. Xitoy qishloq xo‘jaligida kolxozlar saqlanib qolganmi?

10. Nima sababdan Xitoyda kimyoviy o'g'itlar qo'llash hajmining o'sishi to'xtagan?

Mustaqil ish vazifalari

1. Xitoyda amalga oshirilgan agrar islohotlarning qaysi jihatlarini O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkinligi to'g'risida analitik ma'ruza tayyorlang.

2. O'zbekiston qishloq xo'jaligida ilm-fanni rivojlantirish orqali hozirgi kunda qanday yutuqlarga erishilayotgani haqida taqdimot tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. Мазлоев В.З., Хайруллина О.И. Аграрный экспорт России и Китая: аспекты взаимной торговли и регулирования // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. — 2021. — № 1. — с. 8–15. — doi: 10.31442/0235–2494–2021–0–1–8–15.

2. Хайруллина О.И. Эволюция инструментов государственной поддержки сельского хозяйства: опыт Китая // Экономика, предпринимательство и право. — 2023. — №7. — с. 2413–2426. — doi: 10.18334/epp.13.7.118329.

3. Liang Q., Xu, Y. Wang X., Jin S. A driver or a placebo? The role of financial support in farmer cooperative development in China // China Agricultural Economic Review. — 2021. — №1. — p. 173–192. — doi: 10.1108/CAER-04–2020–0070.

4. Liang Y., Dang J., Chen S. The effect of export tax rebates on product quality: evidence from China's agricultural product processing industry // China Agricultural Economic Review. — 2022. — №2. — p. 315–330. — doi: 10.1108/CAER-12–2019–0230.

5. Liu X., Du Y., Sun J., Yang R., Yang F. Performance of China's rural supply chain finance: from the perspective of maximization of intermediate output // Industrial Management & Data Systems. — 2021. — № 4. — p. 705–723. — doi: 10.1108/IMDS-07–2020–0386.

6. Moon W. Are there dynamic productivity gains from agricultural trade // China Agricultural Economic Review. — 2022. — № 1. — p. 32–46. — doi: 10.1108/CAER-02–2021–0030.

7. Подъем сельского хозяйства за счет развития науки и образования, (Белая книга Китая, апрель, 2005 г.)

8-BOB: Sanoat tarmoqlarining rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy yo‘nalishlari

Darsning maqsad: Xitoy sanoatining tarkibiy tuzilishi va uning rivojlanish dinamikasi, "To‘rtlik modernizatsiyasi" dasturining mohiyati, Xitoy korxonalaridagi xo‘jalik tizimi islohotlarini amalga oshirilishi, sanoatning yangi strategiyasini ishlab chiqilishi va undagi zamonaviy tarkibiy o‘zgarishlar to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lishi va ularni tahlil qilishdan iborat.

Tayanch iboralar: to‘rtlik modernizatsiyasi, industriallashtirish jarayonini, dinamik rivojlanish, manufaktura, yirik mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish, yengil sanoat, og‘ir sanoat, mashinasozlik, metallurgiya, kemasozlik, kosmonavtika, SI, yashil iqtisodiyot, yoqori texnologiyalar, raqamlashtirish.

8.1.Sanoatning tarkibiy tuzilishi va rivojlanish bosqichlari

XXRsining zamonaviy sanoat yo‘nalishlari o‘z ichiga quyidagi tarmoqlarni qamrab olmoqda: elektronika, elektromobillar, litiy-ion batareyalar, quyosh energiyasi, shuningdek sun‘iy intellekt, kvant texnologiyalari va ilg‘or robototexnika rivojidan iborat. An‘anaviy tarmoqlar, masalan, mashinasozlik va metallurgiya ham rivojlanishda davom etmoqda, biroq, asosiy e‘tibor modernizatsiya va qo‘shimcha qiymatni oshirishga qaratilgan, ya‘ni mehnat talab qiluvchi ishlab chiqarishdan yuqori texnologiyali korxonalarga o‘tishdir.

Agar XXRsi sanoatining rivojlanishiga e‘tiborimizni qaratsak, unda maskur sohani rivojlanishida quyidagi asosiy bosqichlarni atab o‘tish lozim:

1–bosqich:1949–yillargacha bo‘lgan davr – hunarmandchilik elementlari mavjud agrar iqtisodiyot;

2-bosqich:1949-1978-yy.: - Ogir sanoatga asoslangan sovet industriallashtirish modeli;

3-bosqich:1978-2000 yy.: Den Syao Pining iqtisodiy islohotlari va mamlakatda maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi;

4-bosqich: 2000-2025 yy.: Texnologik sakrash va “Xitoyda ishlab chiqarilgan 2025” dasturini amalga oshirishdan iborat bo‘ldi.

Xitoy sanoatining tarixiy rivojlanishiga kelsak, ular quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

1. Islohotlargacha bo‘lgan davr (1978 yilgacha). Qadimgi Xitoy sanoat merosi (ipak, chinni, metallurgiya) asosan quyidagilar bilan bog‘liq:

- Suv g‘ildiragi — dehqonlar, tegirmonchilar, temirchilar uchun qulay ixtiro bo‘lgan, nasoslarni qo‘lda boshqarish zaruratini yo‘qotgan;

- Bronza quyish — ayniqsa marosim idishlari boy bezaklari bilan mashhur bo‘lgan;

- Asbest to‘qimasi ishlab chiqarish;

- Ipak ishlab chiqarish — suv g‘ildiragi asosida ishlaydigan dastgohlar ixtiro qilingan va to‘qimachilik sifati oshgan;

- Chinni — san‘at darajasidagi mahsulot bo‘lib, u o‘sha davrdayoq butun dunyoga eksport qilingan va yengilligi hamda mustahkamligi bilan qadrlangan;

- Metallurgiya — xitoyliklar bronza buyumlarini ishlab chiqargan, keyinchalik Yevropadan ancha avval cho‘yan ishlab chiqarishni o‘zlashtirgan. Ushbu yutuqlar mamlakat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan va jahon savdosi hamda hunarmandchilik rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

2. XIX – XX asr boshlarida mamlakat agrar tus oldi va asosan Rossiya imperiyasiga mahsulot eksporti bilan shug‘ullandi. Ayniqsa, chinni buyumlar katta talabga ega edi. Shu bilan birga, Xitoyda temir yo‘l tarmog‘i sust rivojlangan - o‘sha paytda ularning soni juda oz edi. KVJD (Sharqiy Xitoy temir yo‘li) qurilishi bilan umuman Rossiya shug‘ullangan. O‘sha davr Xitoy iqtisodiy siyosatining o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat edi:

- ko‘mir qazib olishning boshlanishi;

- telegraf va telefon liniyalarining qurilishi;

- armiya mustahkamlanishi;

- sanoat (to‘qimachilik, ipak) va oziq-ovqat (guruch, choy) mahsulotlarining eksporti ortishi;

- xitoy burjuaziyasining shakllanishi.

Mustamlakachilik va harbiy silkinishlar ta'sirida XIX-XX asrning birinchi yarmi Xitoy uchun murakkab tarixiy davr bo'ldi. Mamlakat ketma-ket inqirozlar va urushlarni boshidan kechirdi.

1. Opium urushlari va mustamlakachilik bosimi 1839–1842 hamda 1856–1860 yillar Xitoyda Opyum urushlari davri sifatida mashhur. Xitoy bu davrda Buyuk Britaniya va Fransiya tajovuzi bilan to'qnashdi. Ushbu urushlardagi mag'lubiyatlar Xitoyni teng huquqsiz shartnomalarni qabul qilishga va chet ellik kompaniyalarga mamlakat hududida erkin savdo qilishga majbur qildi. Natijada mamlakat iqtisodiyoti tanazzulga uchradi.

2. Ichki qo'zg'olonlar va Xalqaro ziddiyatlar bilan bir vaqtda mamlakat ichkarisida ham beqarorlik kuzatildi:

- Taypin qo'zg'oloni,
- Ixe-tuan (boksherlar) qo'zg'oloni.

Bu holatlar hunarmandchilik ishlab chiqarishining pasayishiga olib keldi va g'arb mahsulotlarining Xitoy bozorini egallashiga yo'l ochdi.

3. Yaponiya–Xitoy urushi va Ikkinchi jahon urushi 1895-yilgi mag'lubiyatdan so'ng Xitoy Tayvan va boshqa hududlarni yo'qotdi. Oradan 40 yil o'tib, Yaponiya keng ko'lamlı bosqinchilikni boshladi — bu esa mamlakatning butun sanoat infratuzilmasini vayron qildi. Ikkinchi jahon urushi davrida doimiy bombardimonlar va resurs yetishmovchiligi iqtisodiyotga katta zarar yetkazdi.

Barcha ushbu harbiy va mustamlakachilik voqealari Xitoy iqtisodiyotiga jiddiy zarar keltirgan bo'lsa-da, ular islohot va modernizatsiya zarurligini anglashga turtki bo'ldi. 1978-yilgi iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish va Urushdan keyin Xitoy modernizatsiyaga kirishdi:

- yangi sanoat korxonaları barpo etildi,
- flot va armiya rivojlandi,
- temir yo'llar qurildi,
- aholining soni tez oshdi.

Ammo, Xitoy bojxona mustaqilligini yo'qotgan edi, chet el tovarlari boj to'lovisiz kirib kelar edi. Bu esa mahalliy ishlab chiqarishni bir muddat qiyin

ahvolga solgan. Shunga qaramay, Xitoyning jahon iqtisodiy tizimiga kirib borishi boshlangan edi. Chet el investitsiyalari jamiyatning ayrim qadriyatlariga ta'sir qilgan bo'lsa-da, ular kapitalistik rivojlanishning asosini yaratdi.

1978-yil — yangi davr boshi Xitoy uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish boshlangan tarixiy nuqta bo'ldi. Sharqona yo'nalishdagi sotsializm asta-sekin ochiq tizimga aylandi. Dèn Syaopin roli va islohotlarning natijalari Mao Szedun vafotidan so'ng, Xitoy og'ir iqtisodiy inqirozga yuz tutdi. 1978-yilda reformator Dèn Syaopin hokimiyatga kelib, mamlakatni tubdan o'zgartirgan islohotlarni boshladi.

Asosiy yo'nalishlar:

1. Narxlarni erkinlashtirish. Yirik korxonalar o'z mahsulotlariga bozor narxini mustaqil belgilay olgan. Bu ishlab chiqarish hajmini oshirib, iqtisodiy jonlanishga olib kelgan.

2. Sanoatlashtirishni rivojlantirish. Har bir xususiy kompaniya davlat bilan shartnoma tuzishi shart edi. Foydaning bir qismi davlat byudjetiga o'tar, qolgan qismi ish haqi, investitsiya va rivojlanishga yo'naltirilardi.

3. Xalqaro savdoga ruxsat. "Ochiq eshiklar siyosati" joriy qilinib, xorijiy investorlar bilan hamkorlik boshlandi.


4. Kadrlar siyosati. Mutaxassislar tayyorlash, tajriba almashish va xorij bilan ilmiy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Natijada islohotlardan so'ng, mamlakat tubdan o'zgardi:

- Xitoyda kambag'allik keskin kamaydi,
- odamlarning turmush darajasi oshdi,
- mahalliy kompaniyalar xalqaro bozorda faol ishlay boshladi

Xitoy sanoati 2 ta asosiy sanoat tarmoqlarini, yani, og'ir va yengil sanoat tarmoqlarini o'z ichiga olib, Xitoyda og'ir sanoat asosan, quyidagi tarmoqlarni qamrab oladi: elektroenergetika; metallurgiya (qora va rangli); kimyo sanoati; mashinasozlik; aviakosmik; neft-gaz, neft-kimyosi; avtomobilsozlik; kemasozlik va boshqalar (ularninn soni hozirgi kunda 110 tadan iboratdir).

Xitoy yengil sanoati o'z ichiga 44 ta tarmoqni qamrab olgan bo'lib, u o'zuda 200 mingtadan ortiq tovarlarni ishlab chiqaradi.

Xitoy sanoati dunyoda eng rivojlangan va yirik sohalardan biridir. Asosiy tarmoqlar 2 ga bo‘linadi va ularning tarkibi quyidagicha taqsimlangan:



Agar, biz XXR sanoatidagi o‘shish sur‘atlariga e‘tibor qaratsak, unda quyida jadval 9.1.1. orqali uning 1950-yillardan to hozirgi davrdagi 10 yilliklar kesimidagi o‘rtacha o‘shish sur‘atlarini ko‘rib chiqamiz.

Jadval 8.1.1.

XXR sanoatidagi o‘shish sur‘atlari (o‘n yilliklarda, % da)⁸⁶

r/t	davrlar	o‘rtacha o‘shish, % da
1.	1950-1960	8,2%
2.	1960-1970	6,4%
3.	1970-1980	7,9%
4.	1980-1990 -	11,3%
5.	1990-2000 -	13,5%
6.	2000-2010 -	10,8%
7.	2010-2020	6,7%
8.	2020-2025 -	5,2%

Jadval - 8.1.1.dan ko‘rib turganimizdek, Xitoy sanoati oxirgi 75 yilda biror maritaba ham o‘z o‘shishini nafaqat to‘xtatmagan, balki 1980-2010-yillarda hatto 10%dan ko‘proqqa oshirishga muvaffaq bo‘lgan. 2020 va 2021-yillarda, COVID-19

⁸⁶ Байнев В.Ф. Промышленная политика Китая как главный фактор его социальноэкономического развития / В.Ф. Байнев, Ч. Бинь // Экономическая наука сегодня. — 2020. — № 12. — С. 100–114. — URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=44406850> (дата обращения: 05.02.2024).

ta'siriga qaramay, Xitoyni sanoatdagi qo'shilgan qiymati ikki yil ichida o'rtacha o'sish sur'ati 6,1%ga yetadi, bu nafaqat mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini, balki uning iqtisodiy salohiyatining barqarorligini ham ta'minladi.

Xitoy qayta ishlash sanoatining tarmoq tuzilmasida Xitoy iqtisodiyotining asosi bo'lib, mamlakat YalMining taxminan 60 foizini ta'minlaydi.

Xitoy asosiy tarmoqlaridan:

- Elektronika va maishiy texnika – dunyo ishlab chiqarishining 40%ni;
- Avtomobilsozlik – elektromobil ishlab chiqarishda dunyoda birinchi o'rinni;
- To'qimachilik sanoati – jahon kiyim-kechak eksportining 50%ni tashkil etmoqda;
- Kimyo sanoati – o'g'itlar, plastmassa va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda.

Xomashyo sanoati iqtisodiyot uchun resurs bazasini ta'minlaydi:

- Ko'mir sanoati – yiliga 3,8 mlrd tonna;
- Kam uchraydigan metallar qazib olish – jahon ishlab chiqarishining 70%;
- Neft va gaz sektori – importga qaramlik darajasi 80%ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali tarmoqlarda uning zamonaviy sanoati faol rivojlantirayotgan yo'nalishlar:

- Yarimo'tkazgichlar sanoati (SMIC, 5-nm chiplar ishlab chiqarish)
- Robototexnika – jahon bozorining 45% ulushi
- Aero-kosmik soha – "Tiangong" kosmik stansiyasi hisoblandi.

Xitoyning mintaqaviy sanoat ixtisoslashuvi

Markaziy Xitoy (Xenan, Xubey, Xunan viloyatlari). Ularning asosiy yo'nalishlari:

- Mashinasozlik (Uhan – "Xitoy Detroyti")
- Metallurgiya (Anyangdagi kombinatlar)
- Qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish

Sharqiy Xitoy: Yanszi va Inju daryolari deltasi — yuqori texnologiyalar va eksport sanoati markazlari.

G'arbiy Xitoy: Asosan foydali qazilmalarni qazib olish va qayta tiklanuvchi energiya sohasiga ixtisoslashgan.

Xitoy sanoat o'sishining asosiy omillari:

1. Mehnat resurslari – nisbatan arzon ishchi kuchi;
2. Davlat qo'llab-quvvatlovi – subsidiyalar va soliq imtiyozlari;
3. Rivojlangan infratuzilma – 40 000 km tezkor temir yo'llardan iborat bo'ldi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar

Xitoy quyidagi yo'nalishlarda yetakchi o'rinda turadi:

- Sanoat mahsulotlari eksporti – 3,5 trillion AQSh dollari
- Global ta'minot zanjirlarida ishtirok

Muammolar va chaqiriqlar

Xitoy sanoatining asosiy muammolari:

1. Ekologik (CO₂ chiqindilari)
2. Demografik (aholining qarishi)
3. Texnologik cheklovlar (sanksiyalar)

Rivojlanish istiqbollari

Xitoy sanoatining kelajagi quyidagi yo'nalishlar bilan bog'liq: sanoat 4.0; yashil transformatsiya; global raqobat.

Xitoy sanoati jahon iqtisodiyotining lokomotivi bo'lib qolmoqda, u quyidagilarni o'zida uyg'unlashtiradi: ommaviy ishlab chiqarish; yuqori texnologiyalar; davlat tomonidan tartibga solish.

Xitoy iqtisodiyoti nominal YaIM bo'yicha AQShdan keyingi ikkinchi o'rinda, sotib olish qobiliyati pariteti bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi. U yuqori darajada rivojlangan va qudratli bo'lib, katta istiqbollarga ega, chunki xitoy xalqi doimo yangilik sari intiladi. Aynan, Xitoyda ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsion texnologiyalar eng faol sinovdan o'tkaziladi hamda turli sanoat tarmoqlariga joriy etiladi. Sanoat esa, Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiy tizimining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu mamlakat dunyodagi eng yuqori mahsulot ishlab chiqarish samaradorligiga ega.

8.2. Asosiy sanoat tarmoqlarini rivojlanish xususiyatlari

Mashinasozlik – 1865 yilda Tsing hukumati davrida mamlakatda mashinasozlik byurosi mavjud bo'lib, 1949 yilgacha ular faqatgina mayda ta'mirlash ishlari bilan

shugʻullanib kelishgan. XXR tashkil topgandan soʻng, mamlakatda 110 mingdan ortiq korxonalar, stanok parklari qurildi va ishga tushirildi. Bu tarmoq bugun mamlakatni ehtiyojini 4/5 qismini qondirib kelmoqda. Ushbu tarmoq quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarmoqda: togʻ-kon qazib olish uskunalari; metallurgiya uskunalari; neft qazib olish uskunalari; kimyo sanoati uskunalari, metall kesuvchi stanoklar; temir presslovchi stanoklar, energetika uskunalari; traktorlar; fuqaro kemalari; ichki yonilgʻi dvigatellari; qishloq xoʻjalik mashinasozligi; elektromashinasozligi; oʻlchov uskunalari va vositalari va h.k.lardir. Hozirgi kunda Xitoy 130 tadan ortiq turdagi mashina va uskunalarni dunyoning 40 ta davlatiga eksport qilmoqda.

Metallurgiya - Xitoyda bronza asri, yaʼni, u 3 ming yil ilgari, temir ishlab chiqarish esa, 2,5 ming yil ilgari ishlab chiqarila boshlangandir. 1890 yilda Xanyan metallugiya zavodi ishga tushirilib, uning mahsuloti 7 mln. tonnani tashkl etgandir

Sekin-asta Xitoyda mis, volfram, qoʻrgʻoshin, simob va boshqa metallar ishlab chiqarika boshlandi. 1949 yilda Xitoy poʻlat ishlab chiqarish boʻyicha dunyoda 26-oʻrinni (158 ming t.), 1985 yilga kelib esa u, dunyodagi 4-oʻringa chiqib oldi.

Xitoy dengiz oldi shaharlarida :Anshan, Dalyan, Tanshan, Tyanszin, Shanxaydagi metallurgiya kombinatlari qatoriga yana ichki rayonlarda joylashgan Baotou, Tayyuan, Uxan, Chendu, Chunsin va Panchjixua shaharlarida qurilgan metallurgiya kombinatlari kelib qoʻshildi va ularning umumiy quvvati 40 mln. tonnaga yetqazildi.

Qora metallurgiya asosini Xitoydagi yiliga 1 mln. tonna koʻmir ishlab chiqarish quvvatiga ega boʻlgan 14 ta kombinat tashkil etadi. Hozirgi kunda Xitoy, poʻlatning 1000 dan ortiq sortini va prokatning 20 000 dan ortiq turini ishlab chiqarmoqda. Xitoyda metall ishlab chiqaruvchi bir qator zavodlar ham qurilib ishga tushirildi. Bular alyuminiy ishlab chiqaruvchi zavodlar boʻlib, ular Lyaonin, Xeylunshyan, Shandun, Xenan, Sichuan, Guychjou va Gansida joylashgandir. Mis ishlab chiqaruvchi markazlar Dayoda, Tullinda, Bayinda, Dunchunsida va Desinda tashkil etildi.

Qo'rg'oshin ishlab chiqaruvchi yirik markaz esa, Yunnan provinsiyasidagi Geszyu hisoblanadi. Szinchuan va Gansu – nikel ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi shaharlar, Szyansi esa, volfram ishlab chiqarish, Guychjou- simob ishlab chiqaruvchi markazlar ga aylandi.

Elektroenegetika sanoati – gidrolektrostansiyalar (suv), issiqlik va atom elektrostansiyalari orqali energiya ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatda 1940 yildan boshlab, katta quvvatga ega bo'lgan minglab gidro, issiqlik stansiyalari ishga tushirildi. O'zining gidroenergetika resurslari bo'yicha, Xitoy dunyoda 1-o'rinni egallamoqda, uning quvvati 676 mln.kvt.t.ni tashkil etadi. 92% gidroenergetik resurslar Xitoyning Janubiy-G'arbida, Markazida va Shimoliy-Sharqida joylashgandir. Shular bilan bir qatorda, mamlakatda yangi atom energostansiyalari ham qurilib ishga tushirilmoqda.

Xitoyning Yantszi daryosiga va uning oqimlariga mamlakat gidroresurslarining 53,3% i to'hri keladi. Undan keyin Sangpo daryosi, Nutszyan va Lantszyan daryolari turadi. Issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda asosan, ko'mir va neftdan foydalanilmoqda. Issiqlik elektrostansiyalari 1950 yillardan buyon ishlab, ilgari ularning quvvati uncha katta bo'lmagan. 1970 yillarda Pekinda birinchi 200 ming kv.t. quvvatga ega bo'lgan GES ishga tushirildi.

1975 yillarda Shanxay GESi (quvvati 300 ming kv.t.s.), Baoshan va Yanbaoshan GES lari ishga tushirildi. Undan tashqari, mamlakatda uran konlari mavjud bo'lib, ular asosida Guandun proqinsiyasida, Shimoliy Sharq va Sharqiy Xitoy rayonlarida atom elektrostansiyalari ishga tushirildi. Xitoyda energiya yana shamol, geotermal energiya va to'lqinlar kelib ketishi natijasida ham ishlab chiqariladi. Mamlakatda energiyani ishlab chiqarish tizimi mavjud bo'lib, unda asosan, 220 va 110 ming voltlardan foydalaniladi. Shu bilan birga, 330 va 500 voltli elektruzatgichlar ham mavjuddir.

Avtomobilsozlik – 1950-yilda Xitoyning Chanchun shahrida 1- avtomobil zavodi ishga tushirildi. Undan so'ng Nankinda, Pekinda, Tszinanda va Shanxayda avtomobil zavodlari ishga tushdi va 1975 yilda Xubeyda avtomobil dvigatellari zavodi ham ochildi. Hozirda mamlakatdayuk avtomobillari, avtobuslar, djiplar,

samosvallar va treylerlar ishlab chiqarilmoqda. Ular 6ta kategoriyali, 82 ta turdagi va 200 dan ortiq modifikatsiyalangan avtomobillardir.

Kemasozlik. Xitoyda bu sohaga XV asrda asos solingan bo‘lib, ular asosan, Chjen Xe tomonidan 7 marta Janubiy Xitoy dengiziga katta flotni jo‘natish bilan boshlangan. XXR tashkil topgandan so‘ng, mamlakatda kemalarni ta‘mirlovchi va yig‘ish ishlari bilan shug‘ullanuvchi bir necha kemasozlik korxonalari mavjud bo‘lib, ular Shanxay, Tyanszin, Guanchjou va Dalyanda joylashgan edi. Keyinchalik, ushbu korxonalar rivojlantirilib, ularning soni 520 taga yetqazildi. Hozirda bu sanoat Xitoy flotini turli shakldagi harbiy kemalar bilan ta‘minlab, hattoki, eksportga ham mahsulot chiqarmoqda.

Elektronika sanoati – bu sanoatga 1980-yillarda davlat tomonidan ahamiyat kuchaytirildi, 1985- yillarga kelib esa, Xitoyda 2600 ta korxonalar tashkil topdi. Ushbu soha dengiz oldi va ichki rayonlarda ham rivojlandi. Ular asosan, Shanxay, Pekin, Tyanszin, Chzyansu, Guandun, Chjenszyan, Lyaonin, Shandun, Fuchzyan va Xubeyda joylashgandir. Bu sohaning asosiy mahsulotlari:

- radarlar va boshqaruv jihozlari, raketa, samolyotlar, dengiz kemalari va turli qurollar uchun elektron uskunalari;
- navigatsiya va aloqa uskunalari;
- kompyuterlar, raqamli mashinalar, ahborot protsessorlari;
- televizion va radioni uzatish uskunalari, magnitofonlar, videokameralar, fotoapparatlar, radiodatchiklar va h.k.;
- 800 turdagi mahsulotlar;
- 700 turdagi elektron lampalari;
- 600 turdagi yarim o‘tkazuvchan dissektorlar
- 400 turdagi integral sxemalar;
- 500 turdagi o‘lchov jihozlari va h.k.

2024 -yilga kelib, Xitoy dunyoda mavjud bo‘lgan barcha sanoat tarmoqlari va kichik tarmoqlari to‘liq shakllangan yagona davlat hisoblanadi. Ularning aksariyati zamonaviy, ilg‘or darajada rivojlangan bo‘lib, milliy texnologiyalar va uskunalar bilan ta‘minlangan. Sanoat mahsulotlarining jismoniy hajmi va qo‘shilgan qiymati

bo'yicha, shuningdek asosiy mahsulotlar nomenklaturasi bo'yicha Xitoy dunyoda birinchi o'rinda turadi. Xitoyning sanoat ishlab chiqarishi hajmi AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining umumiy ko'rsatkichidan ham yuqoridir. Islohotlar davrida (1978–2021) sanoatning qo'shilgan qiymati 66,7 baravar oshdi. Xitoydagi barcha sanoat obyektlarining 99 foizdan ortig'i so'nggi 30 yil ichida, 89 foizdan ortig'i esa so'nggi 20 yil ichida qurilgan.

Xitoyda sanoat korxonalarini davlat strategiyasi asosida joylashtirilgan bo'lib, ular murakkab kooperatsiya tizimi orqali yagona ishlab chiqarish zanjiriga bog'langan. Davlat asosiy xom ashyo resurslari va konstruksion materiallar narxini tartibga soladi, bu esa barcha mahsulotlar uchun narx shakllanishiga asos bo'ladi. Katta, o'rta va kichik korxonalar o'rtasida ixtisoslashuv aniq ajratilgan, ular o'zaro raqobat qilmaydi, balki bir-birini to'ldiradi.

2020 yil oxirida Xitoydagi sanoat korxonalarini soni 399,38 mingni tashkil etdi, bu 2019 yilga nisbatan 5,7 foizga ko'pdir. Bundan tashqari, yiliga 20 million yuandan kam daromadga ega bo'lgan 5,39 million mikro-sanoat korxonalarini faoliyat yuritgan. 2015 yildan keyin korxonalar soni kamaygan bo'lsa-da, so'nggi yillarda yana ko'paydi. Bunga sabab sanoatning iqtisodiyot poydevori sifatida qayta belgilanishi va yuqori texnologiyali xizmatlar sektorining sanoatga xizmat qiluvchi sohaga aylanishidir.

Gonkong, Makao va Tayvan kapitali ishtirokidagi korxonalar 2020 yilda 19,75 mingni tashkil qildi (2008 yildagi maksimal ko'rsatkich 35,58 ming). Boshqa xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ham kamayib, 2020 yilda 23,2 8 mingni tashkil etdi (2008 yildagi maksimal ko'rsatkich 42,27 ming). Shu bilan birga, to'liq davlat korxonalarini soni oshdi: 2019 yildagi 1522 tadan 2020 yilda 2494 taga. Xususiy korxonalar soni sezilarli darajada ortib, 2019 yildagi 243,64 mingdan 286,43 mingga yetdi. Aralash mulkchilikdagi korxonalar soni esa qisqargan.

Yirik va o'rta sanoat korxonalarini soni kamayishda davom etmoqda: 2020 yilda yirik korxonalar 8,02 ming, o'rta korxonalar 39,03 ming bo'lgan (2015 yilda mos ravishda 9,63 ming va 54,07 ming edi). Kichik korxonalar soni esa ortib, 2020 yilda 356,35 mingni tashkil etdi (2015 yilda 319,45 ming). Mikro-korxonalar soni

kengayib, 2020 yilda 5,39 millionga yetdi; ularning 2 milliondan ortig‘i 2015–2020 yillarda tashkil etilgan. Bu jarayon Xitoy sanoatining ommaviy seriyali ishlab chiqarishdan yuqori texnologiyali, mijoz talabiga moslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tganini ko‘rsatadi.

Mikro-korxonalar faoliyati yuqori tezlikdagi arzon internet va sun‘iy intellekt texnologiyalari tufayli kengaydi. Birinchidan, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tez ishlab chiqarishga joriy etish va mahsulot dizaynini onlayn yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ikkinchidan, ta‘minot zanjiridan vositachilarni chiqarib tashlab, aqlli yetkazib berish tizimlarini yaratish imkoniyati yuzaga keldi. Sun‘iy intellekt butun mamlakat bo‘ylab eng qulay yetkazib beruvchilarni aniqlay oladi. Uchinchidan, korxonalar logistika, konsalting, loyiha ishlari, sifat monitoringi, asbob-uskunalarni boshqarish kabi xizmatlardan masofadan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. To‘rtinchidan, mahsulotning butun hayotiy siklini boshqarishga yordam beruvchi masofaviy texnik xizmat, nosozliklarni erta aniqlash va diagnostika kabi xizmatlar kengaydi. Buning uchun monitoring tizimlari, javob markazlari va nosozliklarni kuzatish tizimlari yaratilgan.

8.3. Xitoy sanoatidagi ustuvor tarmoqlarning rivojlanish xususiyatlari

Ma‘lumki, dunyo miqyosida hozir innovatsion rivojlanish davri deb tan olinayotgan paytda, Xitoy sanoatida ham qator o‘zgarishlar yuz bermoqda. Mamlakatdagi an‘anaviy sanoat tarmoqlari hisoblangan mashinasozlik va metallurgiya sohalari o‘z rivojlanishini sohani modernizatsiyalash va undagi yaratilayotgan qo‘shimcha qiymatni oshirish orqali davom etmoqda. Ya‘ni mehnattalab ishlab chiqarishdan yoqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishga urg‘u qo‘yish orqali rivojlanishni davom ettirmoqda.

Yoqoridagi fikrlarni davom ettiradigan bo‘lsak, 2030-yillarga qadar XXRning sanoat tarmoqlarini ustuvor zamonaviy yo‘nalishlarida uning yoqori texnologik sektorlari sifatida quyidagi tarmoqlarni atab o‘tish joizdir:

- elektronika;
- elektromobillarni ishlab chiqarish;
- litiy-ionli akkumulyatorlarni ishlab chiqarish;

- quyosh energetikasi;
- sun'iy intellektni rivojlantirish;
- kvant texnologiyasi;
- ilg'or robottexnikasi.

Soha ekspertlari tahlillariga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda Xitoyning ishlab chiqarish sanoati to'liq tizimga, to'liq qo'llab-quvvatlovchi vositalar, kuchli mustahkamlik va katta salohiyatga ega bo'lsa ham, uning uzoq muddatli asoslari o'zgarmadi. Hozirda korxonalarda ish va ishlab chiqarishni qayta yo'lga qo'yish ishlari uyushqoqlik bilan olib borilib, korxonalar ishlab chiqarish quvvatiga chiqish uchun bor imkoniyatlarini ishga solishda mamlakat iqtisodiy siyosati va uzluksiz sa'y-harakatlarning rivojlanishi bilan Xitoyning sanoat iqtisodiyoti imkon qadar tezroq normal yo'lga qaytdi.

Ta'kidlash lozimki, Xitoy sanoati milliy iqtisodiyotning asosiy qismi va uning bosh o'sish dvigateli hisoblanadi. Xitoy Kommunistik partiyasining 18-Milliy Kongressidan beri, Xitoyning sanoat tizimi 41ta sanoat toifasi, 207ta sanoat o'rta toifasi va 666ta sanoat sub toifasi bilan yanada mustahkamlandi. Sanoat zanjiri ta'minot zanjirining mustahkamligi va raqobatbardoshligi doimiy ravishda takomillashtirilib, Xitoyning tashqi zarbalarga dosh berish qobiliyatini samarali oshirdi.

Hozirgi davrda 500ta asosiy sanoat mahsulotlari orasida Xitoy ishlab chiqarishning 40%dan ortig'iga ega bo'lib, u bu yo'nalishda dunyoda birinchi o'rinni egalladi. So'nggi o'n yillikdagi sanoat iqtisodiy rivojlanishiga nazar tashlasak, Xitoy asosan quyidagi choralarni amalga oshirdi:

1. Rejalashtirish bo'yicha rahbarlikni kuchaytirishga e'tibor qaratdi. O'rta va uzoq muddatli reja va 5 yillik rejaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, o'rta va uzoq muddatli istiqbollarni o'zida mujassam etgan sanoat iqtisodiyotini rivojlantirishning maqsadli tizimini shakllantirish uchun yillik kutilayotgan vazifalar va ish rejalari o'z vaqtida shakllantirildi. qisqa muddatli rivojlanish va siljishlar ham amalga oshirildi.

2. So'nggi o'n yil ichida tegishli idoralar bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan holda ishladilar va markaziy hamda mahalliy hukumatlar bilan birgalikda investitsiyalar hajmini oshirish, iste'molni rag'batlantirish, transport vositalarining silliq harakatini ta'minlash va atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan sanoat o'sishini barqarorlashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqdilar va sanoat iqtisodiyotining uzluksiz ishlashini samarali ta'minlashga erishilmoqda.

3. Kinetik energiyaning konversiyasini tezlashtirishga harakatlar boshlandi. Mamlakatda texnologik transformatsiyalar va korxonalar jihozlarini yangilashni tezlashtirish, aqlli, yashil va yuqori darajadagi transformatsiyani rag'batlantirish ishlari hamda zamonaviy sanoat tizimini qurishni jarayoni tezlashtirishga va yuqori sifatli rivojlanishga erishishga harakat qilinmoqda.

4. Bozor ishtirokchilarini faollashtirishga e'tibor qaratilib, kichik, o'rta va mikro korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish ishlari davom ettirilmoqda.

Oxirgi yillarda Xitoyning ishlab chiqarish sanoatining keng qamrovli kuchi va xalqaro ta'siri sezilarli darajada oshdi. Ishlab chiqarish sanoatining qo'shilgan qiymati 16,98 trillion yuandan 31,4 trillion yuanga yetdi va uning dunyodagi ulushi taxminan 20%dan qariyb 30%ga oshdi. Xitoyning ishlab chiqarish sanoatining sifat darajasida umumiy sakrashni rag'batlantirish uchun undagi o'zgarishlarni rag'batlantirish, jadallikni oshirish va quyidagi sifatlarni yaxshilash zarur:

- birinchi navbatda, asosiy sanoat quvvatini barqarorlashtirish lozim. Temir yo'l tranziti va energetika uskunalari kabi bir qator asosiy mahsulotlar va materiallar "sanoat bazasini mustahkamlash" va "sanoat bazasini qayta qurish" loyihalarini amalga oshirish orqali, asosan ichki ehtiyojlarni qondirdi. U quvvat akkumulyatorlari va qo'shimcha ishlab chiqarish kabi 22ta milliy ishlab chiqarish innovatsion markazlarini, 2ta milliy va mahalliy ishlab chiqarish innovatsion markazlarini, 200 tadan ortiq viloyat ishlab chiqarish innovatsion markazlarini, 125ta sanoat asosiy davlat xizmatlari platformasini va yangi materiallar uchun 29ta asosiy platformani qurdi;

- ikkinchidan, an'anaviy sanoatni tubdan o'zgartirish va yangilash. XXRsi ortiqcha quvvatni oshirishni faol va barqaror ravishda hal qildi, teng yoki qisqartirilgan quvvatni almashtirishni qat'iy amalga oshirdi, barcha 140 million tonna "po'lat" ni tozaladi va asosan elektrolitik alyuminiy, sement va boshqa sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish quvvatlari oshirildi. Mamlakatda yirik texnologik transformatsiyalar va modernizatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda va korxonalarini yuqori darajadagi, aqlli va yashil transformatsiyalarini tezlashtirish ishlari qo'llab-quvvatlandi. 2012 yildan beri Xitoyning texnologik o'zgarishlarga investitsiyalarining sanoat investitsiyalaridagi ulushi barqaror bo'lib, u 40%dan oshdi va mamlakatga kiritilayotgan sanoat investitsiyalarini oshirish uchun muhim kuchga aylandi.

- uchinchidan, mamlakatda rivojlanayotgan sanoat tarmoqlarini faol rivojlantirish rejasi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda, bu boradagi texnologiyalar va standartlar qo'llab-quvvatlanmoqda hamda asbob-uskunalar ishlab chiqarishning ro'li sezilarli darajada oshirilmoqda. Yangi energiya vositalari, aqlli telefonlar ishlab chiqarish kabi asosiy tarmoqlar dunyodagi eng yuqori o'rinlarni egallamoqda. Maishiy xizmat robotlarini, tibbiy rehabilitatsiya va boshqa sohalardagi keng ko'lamli ilovalarni ishlab chiqarish rivojlandi. Hozirda ortopedik va jarrohlik robotlari 20 000 ta operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajarishga erishdilar.

- to'rtinchidan, sanoat mahsulotlari sifatini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Xitoy mahsulot turlarni ko'paytirish, ularning sifatni yaxshilash va brendlarni yaratish bo'yicha ("uchta mahsulot") maxsus harakatlarini amalga oshirish, o'rta va yuqori darajadagi mahsulotlarni etkazib berish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan intellektual terminallar va aqlli maishiy texnika nafaqat turli xil ichki ehtiyojlarni qondiradi, balki chet elda ham yaxshi sotiladi. Sifatni oshirish bo'yicha maishiy texnika, poyabzal ishlab chiqarish sanoatlari va boshqa sohalar hamda xalqaro standartlar o'rtasidagi muvofiqlik 95 foizdan oshdi. Brend yaratish nuqtai nazaridan, 2021-yilda sanoat va axborot texnologiyalari sohasidagi 24ta brend dunyoning 500ta eng yaxshi brendlari qatoriga kirdi, bu 2012 yilga nisbatan 14 taga ko'p.

Xitoyda kichik, o'rta va mikro korxonalarining hissasi ahamiyatli tarzda tobora ortib bormoqda. Xitoy Kommunistik partiyasining 18-Milliy Kongressida har yili kichik va o'rta korxonalar ishini rag'batlantirish choralarini ko'rib bormoqda. Aytish kerakki, Xitoy kichik va o'rta korxonalarini rivojlantirishga ko'maklashish uchun misli ko'rilmagan sa'y-harakatlarni amalga oshirdi va bu yo'nalishda intensiv siyosat olib bordi. XKPsining 18-Milliy Kongressidan keyin, mamlakatdagi kichik, o'rta va mikro korxonalarining asosiy raqobatbardoshligi sezilarli darajada yaxshilandi va ularning ahamiyati mamlakat milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi tobora ko'proq e'tiborga olindi. Ular asosan, quyidagi uchta xususiyatga ega:

1. Tez o'sish. 2021-yil yakuniga ko'ra, mamlakat bo'yicha korxonalar soni 48,42 millionga yetdi va u 1,7 barobarga o'sdi, ularning 99 foizdan ortig'i kichik va o'rta korxonalaridir. Xususan, sanoat sohasida Xitoyda belgilangan hajmdan yuqori bo'lgan kichik va o'rta sanoat korxonalarini soni 400 000 ga yetdi, operatsion daromad 75 trillion yuandan oshdi va umumiy foyda 4,7 trillion yuanga yetdi, bu esa 23,5 foizga, 38,7 foizga va 2012 yilga nisbatan mos ravishda 37,1 foizga o'sgan⁸⁷.

2. Katta hissalilik. To'rtinchi iqtisodiy aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta korxonalarda ishlaydiganlar soni barcha korxonalarda ishlaydiganlar umumiy sonining 80 foizini tashkil etdi. 2021 yilda Xitoyda xususiy korxonalarda ishlaydigan shaxslarning umumiy soni 400 million kishiga yetdi, bu 2012 yilga nisbatan, 200 milliondan ortiqqa o'sdi. Xususiy korxonalar, asosan kichik, o'rta va mikro korxonalar Xitoyning eng yirik tashqi savdo operatorlari bo'lib, ular iqtisodiyotga 58,2 foizdan ko'proq hissa qo'shadilar.

3. To'la quvvatlilik. So'nggi yillarda Xitoyda kichik va o'rta korxonalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyati, ularning "mutaxassislik va innovatsiyalar" rivojlanish yo'lidan borishi bo'ldi. Ixtisoslashtirish va innovatsiyalarga ixtisoslashgan "kichik" korxonalarining 60 foizdan ortig'i asosiy sanoat sohasiga tegishli bo'lib, ularni 70 foizdan ortig'i 10 yildan ortiq vaqt davomida sanoatga

⁸⁷Industrial Production Operation in December 2021. URL: http://www.stats.gov.cn/english/PressRelease/202201/t20220118_1826495.html (accessed: 03.02.2022).

chuqur jalb qilingan, 80%dan ortig'i strategik rivojlanayotgan korxonalar safiga kirgan. "Ixtisoslashgan va yangi" kichik va o'rta korxonalar yaxshi o'sishga va kuchli innovatsion qobiliyatga ega. Ular zanjirni mustahkamlash, to'ldirish va barqarorlashtirishda katta ro'l o'ynaydi.

Xitoy ishlab chiqarish sanoatini mustahkamlash, optimallashtirish va kengaytirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirdi va ishlab chiqarish sanoatining keng qamrovli kuchi va xalqaro ta'siri sezilarli darajada oshdi. 2012 yildan 2021 yilgacha sanoat qo'shilgan qiymati 20,9 trillion yuandan 37,3 trillion yuanga o'sdi, o'rtacha yillik o'sish 6,3 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarish sanoatining qo'shilgan qiymati 16,98 trillion yuandan 31,4 trillion yuanga o'sdi va uning dunyodagi ulushi taxminan 20%dan qariyb 30%ga oshdi. 500ta asosiy sanoat mahsulotlari orasida Xitoy mahsulotlarining 40%dan ortig'ini ishlab chiqarish dunyoda birinchi o'rinda turadi. To'liq sanoat tizimining afzalliklari 41ta asosiy sanoat toifalari, 207ta o'rta sanoat toifalari va 666 ta sub sanoat toifalari bilan yanada mustahkamlandi.

Oxirgi o'n yil ichida ta'minot tizimining sifatini oshirish va sanoat tuzilmasini yanada optimallashtirish bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Rivojlanayotgan tarmoqlarning yanada intensivlashdi, xizmat ko'rsatuvchi robotlar, aqlli kiyiladigan uskunalar va boshqa mahsulotlar kuchli o'sdi. Yangi energiya vositalarini ishlab chiqarish va sotish ketma-ket etti yil davomida dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Yangi moddiy sanoatning ishlab chiqarish qiymati ikki baravar oshdi, an'anaviy sanoatni o'zgartirish va modernizatsiya qilish tezlashdi, raqamlashtirish va yashil transformatsiya har tomonlama rag'batlantirildi. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va asbob-uskunalar ishlab chiqarishning belgilangan hajmdan yuqori bo'lgan qo'shilgan qiymatdagi ulushi 2012 yildagi 9,4% va 28%dan, 2021-yilda mos holda 15,1% va 32,4%ga oshdi. Mintaqaviy sxema doimiy ravishda optimallashtirildi, asosiy hududlarning yetakchi ro'li yanada oshirildi, elektron axborot va temir yo'l tranziti sohalarida ko'plab ilg'or ishlab chiqarish klasterlari shakllantirildi.

O'tgan davr ichida innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun katta sa'y-harakatlar qilindi va asosiy sohalarda innovatsiyalarni yangi bosqichga olib chiqildi. Ko'p sonli muhim innovatsion yutuqlar Xitoyning ishlab chiqarish sanoatini yangi cho'qqilarga olib keldi, ishlab chiqarish korxonalarining kuchi sezilarli darajada oshdi. Kichik, o'rta va mikro korxonalarining asosiy raqobatbardoshligi sezilarli darajada yaxshilandi

O'tgan o'n yil ichida Xitoy yuqori sifatli korxonalarni etishtirishga e'tibor qaratdi va ishlab chiqarish korxonalarining kuchi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshdi. 73ta sanoat korxonasi dunyoning eng yaxshi 500ta korxonasi ro'yxatiga kirdi va belgilangan hajmdan yuqori bo'lgan sanoat korxonalarining aktivlari miqyosi ikki baravar oshdi. 40000 dan ortiq "ixtisoslashtirilgan, maxsus va yangi" kichik va o'rta korxonalar, 4762 ta "kichik" korxonalar va ishlab chiqarishda 848ta yagona chempion korxonalar tashkil etildi. Belgilangan hajmdan yuqori bo'lgan sanoat korxonalarining ilmiy-tadqiqot investitsiyalarining umumiy intensivligi ikki baravar oshdi, yangi mahsulotni sotishdan tushgan daromadning biznes daromadlaridagi ulushi 11,9%dan 22,4%ga oshdi va 570dan ortiq sanoat korxonalarini 2500 ta eng yaxshi global reytinglar ro'yxatiga kiritilgan.

2021-yil oxiriga kelib, milliy sanoat korxonalaridagi asosiy jarayonlarni raqamli nazorat qilish darajasi va raqamli ilmiy-tadqiqot va dizayn vositalarining ommabopligi mos ravishda 51,3% va 74,7%ga yetdi, bu 2012 yilga nisbatan 30,7 va 25,9% punktga yuqori. yangi texnologiyalar va yangi ilovalarning ta'siri, Xitoyning ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqarish tartibi, korxonalar shakli, biznes modeli va bandlik rejimi islohotni tezlashtirdi, sifatni yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, yashil va xavfsizlik nuqtai nazaridan, ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishiga samarali yordam berdi.

Aqlli ishlab chiqarish muhandisligi jadallik bilan amalga oshirildi. Intellektual ishlab chiqarish uchun 42 ta xalqaro standartlar va 300 dan ortiq milliy standartlar chiqarildi va asosiy umumiyliklar va asosiy texnologiyalar bo'yicha milliy standartlarning qamrovi 97,5%ga yetdi. 700 dan ortiq raqamli ustaxonalar va aqlli zavodlar qurilgan. Aqlli ishlab chiqarish pilot ko'rgazma loyihasining ishlab

chiqarish samaradorligi o'rtacha 48%ga oshirildi, mahsulotni ishlab chiqish davri o'rtacha 38%ga qisqartirildi va nuqsonli mahsulot darajasi o'rtacha 35%ga kamaydi.

Sanoat internet innovatsiyalari va rivojlanishini amalga oshirish bo'yicha mamlakatda uchta asosiy tizimni qurishni tezlashtirildi: tarmoq, platforma va xavfsizlik. Sanoat Internet ilovalari milliy iqtisodiyotning 45ta asosiy toifalarini qamrab oldi, yuqori sifatli sanoat internet-ekstranetlari esa butun mamlakatning 300dan ortiq shaharlarini qamrab oldi. 150dan ortiq yirik sanoat internet-platformalari ishlab chiqarildi va 78 milliondan ortiq sanoat uskunalari ulandi. Sanoatni qo'llab-quvvatlash salohiyatini jadal yaxshilash. 2012 yildan to 2021-yilgacha Xitoyning elektron axborot ishlab chiqarish sanoati ko'lami 10,7 trillion yuandan 14,1 trillion yuanga, dasturiy ta'minot sanoati miqyosi esa 2,5 trillion yuandan 9,5 trillion yuanga oshdi.

Jadval- 8.3.1.

2019-2020-yillarda Xitoy asosiy sanoat tarmoqlarining o'sish sur'atlari

Ishlab chiqarish tarmoqlari	2020 y., % da	2019 y., % da	O'sish, p.p.da
Tekstil sanoati	4,0	5,5	-1,5
Kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish	3,8	9,5	-5,7
Nometal mineral mahsulotlarini ishlab chiqarish	3,7	7,7	-4,0
Qora metallarni ishlab chiqarish	0,3	6,2	-5,9
Umumiy mashinasozlik mahsulotlari	10,5	5,9	+4,6
Avtomobilsozlik	12,2	15,5	-3,3
Kemasozlik va samolyotsozlik, temir yo'l uskunalari hamda boshqa transport uskunalari	10,6	3,2	+7,4
Telekommunikatsiya, komp'yuter va boshqa elektron uskunalari	13,8	10,0	+3,8
Issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash	7,8	4,8	+3,0

Manba: Industrial Production Operation in December 2021. URL: http://www.stats.gov.cn/english/PressRelease/202201/t20220118_1826495.html (accessed: 03.02.2022).


Xitoyda keng ko'limli sanoatlashtirish siyosati olib borilishi natijasida, mamlakatda sanoat va unga xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yahlit sanoat tizimi shakllandi, ilgari mamlakatda bo'lmagan yangi sanoat ishlab chiqarish sohalari vujudga keldi. XXI-asr boshiga kelib, Xitoy quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha, jahonda yetakchi o'rinlarni egaladi, xususan:

I-o‘rinda — po‘lat eritish; ko‘mir qazib chiqarish; sement, kimyoviy o‘g‘it va televizor ishlab chiqarish; g‘alla, paxta, yog‘i olinadigan yog‘li o‘simliklar va mevalar yetishtirish.

II-o‘rinda — Elektroenergiya, sintetik va paxtali gazlamalar ishlab chiqarish; go‘sht va choy bargi yetishtirish.

Rasm 1.

XXR sanoat tarmoqlarining umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi hissasi, %da*




Manba: <https://visasam.ru/emigration/economy/promyshlennost-kitaya.html> asosida tuzildi.

Mamlakatdagi 30% sanoat korxonalari davlatga tegishli bo‘lib, hukumat og‘ir sanoatni, harbiy sanoatni va kosmonavtika uchun ishlanmalarni nazorat qiladi. O‘z o‘rnida ta’kidlash lozimki, 2022-yilga kelib, Xitoyning jahon savdosidagi ulushi ham ortib bordi. Mamlakat eksport hajmi bo‘yicha, 1-o‘ringa, import qilish bo‘yicha - 2-o‘ringa, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ham, 2-o‘ringa chiqdi. 2022-yil ma’lumotiga ko‘ra, Xitoyning JaIM hajmi \$19,28 trln.AQShni tashkil etdi, uning oltin-valyuta zahirasi taxminan, 3.7 trln.dan ortiqroq bo‘ldi. Undan tashqari, mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmini sekinlashuvi yuz berayotganligini bilan, lekin uning hajmimi baribir o‘sayotganligini ko‘ramiz.

Rasm.2.

2017-2021-yillarda Xitoy sanoatidagi QQ dinamikasi, mlrd.doll.*



*Manba: China Statistical Yearbook 2022 [Электронный ресурс]. URL: <http://www.stats.gov.cn/tjsj/nd-sj/2022/indexeh.htm> (дата доступа: 19.01.2023). asosida tayyorlandi

XXR sanoatining keskin o'sishini asosiy sabablari quyidagilardan iborat: aholining mehnatsevarligi; tabiiy resurslarning katta miqdordaligi; ishlab chiqarishning ahamiyatli hajmini mavjudligi ularni katta miqdorda eksport qilishga imkoniyat yaratadi; davlat tomonidan biznes uchun qulay sharoitlarni yaratib berganligi; ishlab chiqarish klasterlarga ajratilganligi; asosiy ishlab chiqarish va uning tuzilmalarini bitta zonaga yig'ilganligi (konsentratsiyasi), ular esa, o'z navbatida, tovarlarning tannarxiga va sifatiga ta'sir qiladi.

2021- yil natijasiga ko'ra, yirik sanoat korxonalarining operatsion faoliyatidan ko'rgan daromadi 0,8%ga o'sdi (110,3 trln.yuan), ularning foydasi esa, 2,3%ga (6,4 trln.yuan) qisqardi. Amalda Xitoy noldan boshlab, jahon bozorida iqtisodiyotning raqobatbardosh yoqori texnologik sektorini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bular esa, eksportga yo'naltirilgan yoqori tezlikdagi temir yo'llar, mikroelektronika, telekommunikatsion uskunalar ba h.k.z.

2021-yilda 2017-yilga nisbatan, XXRsi sanoatidagi yalpi qo'shimcha qiymatni o'sish sur'ati 42,5 %,ni tashkil etgan. Bunda eng asosiy yutuqqa – innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish orqali erishilgan. Xitoy sanoatidagi yaratilgan qo'shimcha qiymatining o'zgarishini tahlil qilamiz va uni quyidagi jadval 3.asosida ko'rib chiqamiz.

Jadval - 8.3.2.

XXR sanoatida yaratilgan qo'shimcha qiymatning o'zgarish dinamikasi⁸⁸

Korxonalar turlari	2021 y. %da	2014 y.%da	O'sish, p.p.

⁸⁸ Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2021 году Пекин, 2022 г.С.25

Sanoatning umumiy qo'shimcha qiymati	6,1	8,3	-2,2
Mulk shakli bo'yicha:			
Davlat korxonalarini va kontrol paket aksiyali davlat korxonalarini	1,4	4,9	-3,5
Jamoa korxonalarini	1,2	1,7	-0,5
Hissadorlik korxonalarini	7,3	9,7	-2,4
Xorijiy kapital ishtirokidagi va Tayvan hamda Gonkong ishtirokidagi korxonalar	3,0	6,3	-3,3

2022-yilda davlat korxonalarini bo'yicha ishlab chiqilgan qator direktiv hujjatlar davlat korxonalarini qo'shma tartibiga o'tish tizimini rivojlantirish va davlat mulkini boshqarish sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular quyidagilarni ko'zda tutdi: direktorlar kengashi tomonidan yuqori bo'g'in boshqaruvchilari ustidan nazorat o'rnatish; qo'shimcha kuzatuvchilar kengashini tuzish (o'z navbatida ular direktorlar kengashi va yuqori bo'g'in boshqaruvchilarini nazorat qiluvchi); korrupsiyaga qarshi kurashadigan davlat korporatsiyalari tarkibida partiya qismini saqlab qolish.

Xitoy sanoatining rivojlanish istiqbollari quyidagilardan iborat:

- Innovatsiyalarni keng joriy etish,
- Yashil iqtisodiyotga o'tish,
- Raqamli texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish.

Zamonaviy Xitoy sanoatining rivojlanishi eksportga yo'naltirilgan siyosat, infratuzilma va yuqori texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali dunyodagi eng yirik ishlab chiqarish tizimini yaratdi. 2030-yilgacha Xitoy innovatsiyalar, yashil iqtisodiyot va yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratib, global raqobat va geosiyosiy noaniqliklarga qaramay, o'z mavqeini mustahkamlashni rejalashtirmoqda.

8.4. Xitoy sanoatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari

Islohotlar boshlanishi – 1978 yilga kelib Xitoyda og'ir sanoatning milliy bazasi allaqachon shakllangan edi. Har bir davlat ham industrializatsiya davrida ikkilamchi sektorning YaIMdagi ulushini 40 foizdan oshira olmaydi, biroq Xitoy bu

ko'rsatkichni 1970 yildayoq bosib o'tgan, 1980 yilda esa o'z tarixidagi eng yuqori daraja – 48,1 foizga erishgan.

1970–1990-yillar davomida Xitoyda ikkilamchi sektorning yuqori ulushi asosan Sharqiy Xitoy (Xaynan bundan mustasno) va Shimoliy-Sharq mintaqalari iqtisodiyotining industrial tuzilmasi hisobiga ta'minlanar edi. Biroq bu hududlarda ham industrializatsiya faqat ayrim rayonlarni qamrab olgan, sanoat markazlari asta-sekin yiriklashib, sanoat bazalariga aylangan va Xitoyning dengizbo'yi bo'ylab tor sanoat zonasini shakllantirgan.

O'sha davrda atigi to'rtta sanoat bazasi mavjud bo'lgan:

1. Lyaonin provinsiyasining janubi, markazi Shenyang bo'lib, og'ir sanoat ustunlik qilgan.

2. Pekin, Tyanszin va Tangshan shaharlari joylashgan hudud og'ir hamda yengil sanoat tarmoqlarining o'zaro uyg'un holda rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shanxay shahri va unga tutash bo'lgan Jiangsu hamda Chjetszyan provinsiyalarining ayrim hududlarida, xususan Ninbo va Xanchjou sanoat markazlarida ham sanoatning yengil va og'ir tarmoqlari parallel ravishda taraqqiy etgan. Guangdong provinsiyasining janubiy qismida esa, markazi Guanchjou shahri bo'lgan hududlarda asosan yengil sanoat ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan.

3. Yirik sanoat bazalaridan tashqari, ya'ni bir nechta sanoat markazlari birlashmasidan iborat hududiy tuzilmalardan alohida holda joylashgan sanoat markazlari ham mavjud bo'lgan. Bunday markazlarga Chunsin va Tsingdao shaharlari misol bo'la oladi. Shu bilan birga, sanoat markazi tushunchasi bir necha sanoat klasterlarining o'zaro bog'langan majmuasi sifatida talqin etiladi.

Sanoat bazalaridan tashqari, ya'ni bir nechta sanoat markazlari birlashgan yirik tuzilmalardan tashqari, alohida joylashgan sanoat markazlari ham mavjud edi. Bunday markazlarga Chuntsin va Tsin'dao kirgan. O'z navbatida, sanoat markazi bir nechta sanoat klasterlarining birlashmasi sifatida qaraladi. Xitoyda hozirgi

kungacha yangi sanoat tarmoqlari yaratilmoqda, sanoat korxonalarining daromadi, qo‘shilgan qiymati, aktivlari va kapitallari ortib bormoqda (8.3-jadval). Biroq 2012 yildan boshlab sanoatda band bo‘lganlar soni nisbatan ham, mutlaq miqyosda ham kamaymoqda. Sanoat rivojlanishi davom etmoqda, ammo bu endi agrar davlatning dastlabki industrializatsiyasi emas, balki sanoatning modernizatsiya jarayonidir.

8.4.1.-jadval

Xitoy sanoatlashirish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	1952	1978	1990	2000	2007	2013	2020	2023	2024
Ikkilamchi sektor ulushi (YaIM), foiz	20,9	47,7	41,0	45,5	46,9	44,2	37,8	m/y	m/y
Ikkilamchi sektor qo‘shilgan qiymati, trln yuan	0,01	0,18	0,77	4,60	12,7	26,2	38,2	49,0	51,8
Sanoat korxonalarini daromadi, trln yuan	0,04	0,42	1,68	8,34	40,0	103,9	108,4	m/y	m/y
Sanoat korxonalarining asosiy fondlari, trln yuan	m/y	m/y	0,90	7,19	19,0	45,7	65,5	m/y	m/y

Manba: Xitoy Milliy statistika byurosi. - URL: <https://data.stats.gov.cn/english/easyquery.htm?cn=C01> (kirish: 06.12.2023)

Yoqilg‘i-energetika majmuasi. Xitoy dunyoning eng qudratli yoqilg‘i-energetika kompleksiga ega. Islohotlar davrida mamlakatning global energiya iste‘molidagi ulushi 6,3 foizdan 26,1 foizga oshdi. 2020 yilda umumiy energiya iste‘moli 145,5 eksadjoulni (taxminan 5 mlrd tonna shartli yoqilg‘i) tashkil etdi. Aholi jon boshiga energiya iste‘moli rivojlangan davlatlar darajasining 63,5 foizini tashkil qiladi, ammo farq tez qisqarib bormoqda.

2020 yilda boshlang‘ich energiya iste‘moli quyidagicha taqsimlangan (6.3-jadval): ko‘mir — 56,5%, neft — 19,6%, gaz — 8,2%, gidroenergiya — 8,1%, atom energiyasi — 2,2%, muqobil manbalar — 5,4%. So‘nggi yillarda gaz, shamol va quyosh energiyasining ulushi ortib bormoqda, ko‘mir va neftning ulushi esa asta-sekin kamaymoqda.

8.4.2.- jadval

Xitoyda birlamchi energiya iste'moli

Ko'rsatkichlar	1980	1990	2000	2010	2019	2020	2021	2022
Birlamchi energiya iste'moli, eksadjoule ($J \times 10^{18}$)	17,5	28,7	42,5	104,3	142,0	145,5	=147	=149
Birlamchi energiyaning jahon iste'molidagi ulushi, %	6,3	8,4	10,8	20,6	24,4	26,1	=26,5	=27
Bir kishi boshiga energiya iste'moli, gigadjoule ($J \times 10^9$)	17,5	24,2	32,9	76,1	99,1	101,1	=102–103	=104
Rivojlangan davlatlar (OECD) darajasiga nisbatan ulushi, %	10,1	13,7	17,1	41,8	57,4	63,5	=64–65	=66

Manba: *Statistical Review of World Energy 2023; Statistical Review of World Energy 2024.*

Energy Institute (EI), London.URL: <https://www.energyinst.org/statistical-review>

(Ma'lumotlar yuklab olingan sana: 07.12.2023 — 2021–2022 yil ko'rsatkichlari qayta hisoblangan ochiq statistikaga asoslanadi.)

Birlamchi energiya iste'molining o'z energiya resurslari hisobidan qoplanadigan qismi kamayishda davom etmoqda (6.4- jadval). Xitoy Bojxona boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda ko'mir importi 320 mln tonnani tashkil qilib, avvalgi yilga nisbatan 6,6% ga oshdi; xom neft importi 510 mln tonna bo'lib, 5,4% ga kamaydi; tabiiy gaz importi 120 mln tonnaga yetib, 19,9% ga o'sdi.

8.4.3.- jadval

Neft, gaz va ko'mir: zahira, ishlab chiqarish va iste'mol (Xitoy)


Ko'rsatkich (birlik)	1980-yil	1990-yil	2000-yil	2010-yil	2020-yil
Neft — tasdiqlangan zahiralalar (mlrd barrel)	13,4	16,0	15,2	23,3	26,0
Neft — ishlab chiqarish (mln barrel/kun)	2,12	2,78	3,26	4,08	3,90
Neft — iste'mol (mln barrel/kun)	1,71	2,30	4,70	9,39	14,23
Neft — neftni qayta ishlash (mln barrel/kun)	1,51	2,15	4,07	8,41	13,86

Neft — ishlab chiqarish/iste'mol nisbati (%)	124	121	69	43	27
Neft — import (mln barrel/kun)	0	0	1,9	5,9	12,9
Gaz — tasdiqlangan zahiralar (trln m ³)	0,7	1,0	1,4	2,7	8,4
Gaz — ishlab chiqarish (mlrd m ³)	14,4	15,4	27,4	96,5	194,0
Gaz — iste'mol (mlrd m ³)	14,4	15,4	24,7	108,9	330,6
Gaz — ishlab chiqarish/iste'mol nisbati (%)	100	100	111	89	59
Gaz — import (mlrd m ³)	0	0	0	16,4	139,1
Ko'mir — ishlab chiqarish (mlrd tonna)	0,62	1,08	1,38	3,43	3,90
Ko'mir — iste'mol (mlrd tonna)	m/y	1,01	1,30	3,35	3,85
Ko'mir — ishlab chiqarish/iste'mol nisbati (%)	m/y	107	106	102	101

Manba: *Statistical Review of World Energy 2021* (BP).
 URL: <https://www.bp.com/en/global/corporate/energy-economics/statistical-review-of-world-energy.html>-
 (ma'lumotga murojaat sanasi: 07.12.2023).

2021 yilda neft qazib olish biroz oshdi -198,88 mln tonnaga yetdi (2020 yilda 194,77 mln t), lekin 2010–2016 yillardagi cho‘qqi darajaga yetmadi, o‘sha davrda Xitoyda har yili 200 mln tdan ortiq neft qazib olinardi. Xom neftni qayta ishlash hajmi 700 mln t dan oshdi, bu 2020 yilga nisbatan 4,3% ga ko‘proq.

Xitoy energiya resurslari: ishlab chiqarish va iste'mol solishtirmasi (1980-2020)



Manba: BP — Statistical Review of World Energy 2021; yangilashlar: Energy Institute (Statistical Review 2023/2024)

Xitoyning neft, gaz va ko'mir bo'yicha zahira, ishlab chiqarish va iste'mol parametrlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va sanoat rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iste'mol tez o'sishi bilan ichki ishlab chiqarishning nisbatan sustlashuvi Xitoyni energetika importiga va global bozor shoklariga sezgir qiladi. Shu sababli hukumat energiya ta'minoti barqarorligini oshirish, mahalliy qazib olishni rivojlantirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni kengaytirish strategiyalarini ilgari surmoqda.

8.4.4.- jadval

Xitoyning yirik neftni qayta ishlash zavodlari (NPZ)

NPZ nomi	Kompaniya-operator	Quvvati, mln t	NPZ nomi	Kompaniya-operator	Quvvati, mln t
Maoming	Sinopec	23,5	Shanghai Jinshan	Sinopec	16,0
Zhenhai Ningbo	Sinopec	23,0	Yangzi Nanjing	Sinopec	14,0
Huizhou	CNOOC	22,0	Qilu Zibo	Sinopec	14,0
Jinling Nanjing	Sinopec	21,0	Fujian Quanzhou	Sinopec	14,0
Dalian	PetroChina	20,7	Tianjin	Sinopec	13,8

Manba: Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi (Gossovet KNR). URL: <http://english.www.gov.cn/archive> (murojaat qilingan sana: 07.12.2023).

Xitoyda elektr energiyasi ishlab chiqarish 2021-yilda 8534,25 mlrd kVt/soatga yetdi, bu 202- yildagi 7779,06 mlrd kVt/soat va 2010-yildagi 4207,16 mlrd kVt/soatga nisbatan, ancha yuqori. 2020-yilda barcha elektr stansiyalarining

umumiy o‘rnatilgan quvvati 2376,92 mln kVtni tashkil etgan. Energetika tizimining tarkibi muntazam ravishda optimallashtirilib, noiskopay energiya ulushi 2021-yilda 45,4 foizga yetgan (2020 yilda 44,8%, 2019 yilda 42,0%). 2021-yil oxiriga kelib, issiqlik energetikasining quvvati 1,30 mlrd kVtni, gidroenergetika 391 mln kVtni, atom energetikasi 53,3 mln kVtni, tarmoqqa ulangan shamol energiyasi 328 mln kVtni, quyosh energiyasi 307 mln kVtni, biomassa energiyasi esa 30 mln kVtni tashkil etgan.

2021 yilda Xitoy bo‘yicha yangi o‘rnatilgan elektr quvvati 176,74 mln kVtni tashkil etdi, bu 2020 yildagi 190,87 mln kVt ko‘rsatkichidan biroz kam, biroq avvalgi yillarga nisbatan yuqori bo‘ldi. Energiya ishlab chiqarishning o‘sishi asosan qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga ta‘minlandi: 2021 yilda qo‘shimcha quvvatlarning 70,8 foizi shamol va quyosh energetikasiga to‘g‘ri keldi (2020 yilda bu ko‘rsatkich 65,7 foiz edi).

8.4.5.- jadval

Xitoyda elektr energiyasi ishlab chiqarish tuzilmasi

Tip elektrostansi yasi	2011-yil		2020-yil		2021-yil		2023-yil	
	mln kVt	foiz	mln kVt	foiz	mln kVt	foiz	mln kVt	Foiz
O‘rnatilgan quvvat, jami	1 062,24	100	2 200,18	100	2 376,92	100	2 920,0	100
TES (Issiqlik elektr stansiyalari)	768,34	72,3	1 245,17	56,6	1 296,78	54,6	1 400,0	47,9
GES (Gidroelektr stansiyalar)	232,98	21,9	370,16	16,8	391,04	16,5	424,0	14,5
AES (Atom elektr stansiyalari)	12,57	1,2	49,88	2,3	53,30	2,2	59,8	2,0
Shamol elektr stansiyalari	46,23	4,4	281,53	12,8	328,48	13,8	404,0	13,8
Quyosh elektr stansiyalari	2,12	0,2	253,43	11,5	306,56	12,9	609,0	20,9

Manba: Muallif tomonidan Xitoy energetikasi bo‘yicha “Katta ma’lumotlar hisobotidan” (2021) olingan va qayta hisoblangan. URL <https://www.yearbookchina.com/navibooklistn3021103101-1.html> Murojaat qilingan sana: 07.12.2023.

Tarmoqqa ulanib ishga tushirilgan yangi shamol quvvati - 46,95 mln kVt, quyosh quvvati esa, 53,13 mln kVt bo'ldi (2020 yilda mos ravishda 71,67 va 48,2 mln kVt). 2020 yilda biomassa elektr energiyasi ishlab chiqarishida qo'shimcha 5,43 mln kVt quvvat yaratilgan.

2023 yilda Xitoyda yangi o'rnatilgan elektr quvvati 204 mln kVtni tashkil etdi. Ulardan 75 mln kVt shamol energiyasi va 78,8 mln kVt quyosh energiyasi bo'lib, qayta tiklanuvchi manbalar jami o'sishning 75 foizidan ortig'ini ta'minladi. Bu Xitoyning uglerod neytralligiga erishish strategiyasida muhim bosqich bo'ldi. 2024-yildagi prognozlariga ko'ra, quyosh energiyasini o'sish sur'atlari yanada tezlashib, u yangi quvvatlarning 40 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi.

XXRsida elektroenergetika sohasida 2011-2024-yillarda ishga tushirilgan barcha quvvatlar tarkibida issiqlik energiya stansiyalari (TES), gidro energiya stansiyalari (GES), atom energiya stansiyalari (AES), Shamol elektrostansiyalari va Quyosh elektrostansiyalari mavjud bo'lib, ular hozirgi davrda mamlakat iqtisodiyotidagi barcha sektorlar va tarmoqlari iste'molchilariga energiya yetkazib berish bilan intensiv shug'ullanmoqda.

8.4.6.-jadval

Xitoy elektroenergetikasida yangi ishga tushirilgan quvvatlar tuzilmasi

Tip elektrostansiyasi	2011-yil		2020-yil		2021-yil		2023-yil		2024-yil	
	mln kVt	foiz	mln kVt	foiz	mln kVt	foiz	mln kVt	Foiz	mln kVt	Foiz
O'rnatilgan quvvat, jami	94,23	100	190,59	100	176,74	100	32,0	15,7	29,0	13,1
TES	62,41	66,2	56,37	29,6	51,61	29,2	11,0	5,4	10,5	4,7
GES	12,83	13,6	13,23	6,9	10,76	6,1	7,2	3,5	8,0	3,6
AES	1,76	1,9	4,91	2,6	6,71	3,8	75,0	36,7	82,0	37,1
Shamol elektrostansiyalari	15,28	16,2	71,67	37,6	46,95	26,6	78,8	38,7	91,5	41,4
Quyosh elektrostansiyalari	1,96	2,1	48,20	25,3	53,13	30,1	32,0	15,7	29,0	13,1

Manba: Muallif tomonidan Xitoy energetikasi bo'yicha "Katta ma'lumotlar hisobotidan" (2021) olingan va qayta hisoblangan. URL: <https://www.yearbookchina.com/navibooklist-n3021103101-1.html> Murojaat qilingan sana: 07.12.2023.

Jadval -8.4.6.dan ko'rinib turganidek, mamlakat iqtisodiyotida eng ko'p energiya ishlab chiqaradigan tarmoq - Shamol elektrostansiyalari ekanligini va uning Xitoy elektroenergetikasidagi ulushi 2024-yilda 41,4% ni tashkil etishida kuzatamiz.

Umumlashtirib, shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kundagi jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, Xitoy hukumatining bu boradagi amalga oshirilayotgan ichki bozordagi talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab – quvvatlash ishlari iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xitoy sanoatining hozirgi holati qanday?
2. Nima uchun Xitoyda bandlar soni kamayganiga qaramay, sanoat ishlab chiqarishi o'sishda davom etmoqda?
3. Xitoyning qayta ishlash sanoati tarmoq tuzilmasi qanday?
4. Xitoy mashinasozlik majmuasining rivojlanishidagi asosiy yutuqlar nimalardan iborat?
5. Xitoyda qaysi rangli metall rudalari qazib olinadi?
6. Xitoyda qanday konstruksion materiallar ishlab chiqariladi? Eng yangi innovatsion materiallar ishlab chiqarishida muammolar mavjudmi?
7. 1978–2020 yillarda Xitoy sanoatining hududiy tuzilmasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
8. 2000-yillarda Xitoyning makroregionlarini kompleks o'zlashtirish bo'yicha qaysi milliy loyihalar amalga oshirildi?
9. Xitoyning yoqilg'i-energetika kompleksida qanday o'zgarishlar yuz bermoqda?
10. Birlamchi energiya iste'moli va yangi energetik quvvatlar tarkibi qanday o'zgarayapti?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Elektromobil ishlab chiqarish bilan bog'liq tarmoqlar rivojlanishini tahlil eting.
2. Xitoy va O'zbekiston qo'shma korxonalarini 2020-2024-yillardagi faoliyati bo'yicha taqdimot tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Байнев В.Ф. Промышленная политика Китая как главный фактор его социально-экономического развития / В.Ф. Байнев, Ч. Бинь // Экономическая наука сегодня. — 2020. — № 12. — С. 100–114. — URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=44406850> (дата обращения: 05.02.2024).
2. Епихина Р.А. Промышленная политика в электроэнергетическом секторе как инструмент реализации стратегии глобального лидерства Китая / Р.А. Епихина // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Политология. — 2021. — Т. 23, № 2. — С. 243–253. — DOI 10.22363/2313-1438-2021-23-2-243-253. — URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=46153800> (дата обращения: 05.02.2024).
3. Головин А.А. Популяризация науки в России и Китае: сравнительный анализ / А.А. Головин, А.К. Перевозчикова, А.А. Кобзев [и др.] // Вестник Евразийской науки. — 2023. — Т. 15. — № 5. — URL: <https://esj.today/PDF/33ECVN523.pdf> (дата обращения: 05.02.2024).
4. Kroeber A.R. China's Economy. What Everyone Needs to Know (1 ed.). / A.R. Kroeber — Oxford University Press, 2016. — 336 с.
5. Фаньян А.А. Промышленная политика Китая / А.А. Фаньян, О.С. Соскова // Экономика устойчивого развития. — 2023. — № 1(53). — С. 121–126. — DOI 10.37124/20799136_2023_1_53_121. — URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=50509962> (дата обращения: 05.02.2024).

9-BOB. XITOIY IQTISODIYOTINING UCHUNCHI (XIZMATLAR) SEKTORI

Darsning maqsadi: Xitoy iqtisodiyotining uchunchi (xizmatlar) sektori tarkibi va ularning rivojlanish xususiyatlari va xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rnini tahlil etishdan iborat.

Tayanch idoralar: xizmatlar, servis, bank tizimi, sug‘urta tizimi, moliya tizimi, pul-kredit tizimi, strategik xizmatlar, texnologik taraqqiyot, biznes-modellar innovatsiyasi, urbanizatsiya, mehnat taqsimoti .

9.1. Xizmatlar sohasi tarkibi rivojlanish xususiyalari.

Transport va logistika majmuasi

Xizmatlar sohasi Xitoyning islohotlardan keyingi iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan sektor hisoblanadi. 1985 yilda xizmatlar sektorining YsIMdagi ulushi 29,4% ga yetdi va mamlakat tarixida birinchi bor agrar sektor ulushidan oshdi. 2012 yilga kelib xizmatlar ulushi 45,5% ni tashkil etdi va ilk bor ikkilamchi sektorni ham ortda qoldirdi, ya’ni uchlamchi sektor Xitoy iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘iga aylandi.

Uchlamchi sektor sifati jihatdan ham o‘zgarib bormoqda: umumxo‘jalik xizmatlaridan (savdo, transport) yuqori texnologik, axborot, moliyaviy, ishlab chiqarish va shaxsiy xizmatlarga o‘tish ro‘y bermoqda. 2015 yilda xizmatlar sohasi YAIMning yarmidan (50,8%) oshdi, 2020 yilda esa 54,5% ga yetdi. Xitoy 2035 yilga borib bu ulushni 70% ga yetkazishni rejalashtirgan edi.

Xitoy demografik dividendni yo‘qotayotgan bo‘lsa-da, inson kapitali dividendini tez sur‘atda oshirmoqda. Shuning uchun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari faqat zamonaviy xizmatlar sohasidagi yuqori malakali bandlik hisobiga amalga oshishi mumkin. Aholi turmush sifatining yaxshilanishi bilan iste’mol hajmining o‘sishi tezlashmoqda, raqamli texnologiyalar, madaniyat, turizm va sog‘liqni saqlashga sarf-xarajatlar ortib bormoqda.

Xitoyda zamonaviy strategik xizmatlar tarmoqlariga yangi avlod axborot va biznes texnologiyalari, yuqori texnologiyali mashinasozlik, yangi materiallar

sanoati, biotexnologiya sanoati, yangi energiya manbalari asosidagi avtomobillar, energiya tejamkorligi va ekologiya sohalariga xizmat ko'rsatish kiradi.

Hozirgi bosqichda xizmatlar sohasi besh asosiy xususiyatga ega: yuqori o'sish sur'atlari, yuqori texnologik daraja, yuqori xavf, inson kapitalining yuqori ulushi va past resurs iste'moli. Uning rivojlanishi ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, yangi xizmat ob'ektlari, vositalari va modellarining paydo bo'lishi bilan kechmoqda.

Texnologik taraqqiyot, biznes-modellar innovatsiyasi, urbanizatsiya, mehnat taqsimoti chuqurlashuvi va davlat sanoat siyosati ta'siri ostida yangi xizmat yo'nalishlari jadal rivojlanmoqda: axborot-kommunikatsiya xizmatlari, dasturiy ta'minot va IT-outsorsing, testlash va elektron sertifikatlash, elektron bank xizmatlari, madaniy onlayn xizmatlar, tibbiy xizmatlar, oilaviy xizmatlar, ko'chmas mulk bozoridagi vositachilik xizmatlari.

2021 yilda Xitoy xizmatlar sektorining qo'shilgan qiymati 60 968,0 mlrd yuanni tashkil etdi. 2015–2021 yillarda xizmatlar tarmoq tarkibi barqaror bo'lib qoldi. YAİM tarkibida quyidagi tarmoqlar yetakchi bo'lib qoldi (YAİMdagı ulushi, %): ulgurji va chakana savdo (9,5–9,8%); moliya sektori (7,7–8,2%); ko'chmas mulk operatsiyalari (6,2–7,2%); davlat boshqaruvi va xavfsizlik (4,6–5,0%); transport-logistika va pochta xizmatlari (4,0–4,4%); ta'lim (3,7–3,9%); axborot va telekommunikatsiya (3,3–3,5%); biznes xizmatlari (3,2–3,4%); sog'liqni saqlash (3,2–3,4%).

Islohotlar yillari davomida Xitoy birinchi darajali infratuzilmaga ega zamonaviy transport tizimini yaratdi, bu iqtisodiy modernizatsiya uchun asos bo'lib xizmat qildi va "dunyo fabrikasi" va uning 1,4 milliard aholisining ehtiyojlarini to'liq qondirdi. Barcha transport turlarining rivojlanishi Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi tomonidan besh yillik rejalarda (rejalashtirish chuqurligi 30 yil) tasdiqlangan yagona davlat konsepsiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Joriy 14-besh yillik rejada (2021-2025) poyezd tezligi soatiga 250 km va undan yuqori bo'lgan yuqori tezlikdagi temir yo'llarning umumiy uzunligi 38 000 km dan 50 000

km gacha oshadi va aholisi 500 000 dan ortiq bo'lgan shaharlarning 95 foizini qamrab oladi.

Xitoyning yuk transporti faoliyati ko'rsatkichlari pandemiya yillarida ham o'sishda davom etdi. 2021 yilda umumiy yuk tashish hajmi 53 mlrd tonnaga yetib, yiliga 12,6% ga oshdi. Yuk aylanmasi esa 22,36 trln tkm bo'lib, 13,7% ga ko'paydi. 1990-yillardan buyon yuk tashish tarkibida avtomobil transporti yetakchilik qilmoqda — umumiy hajmning qariyb uchdan ikki qismi avtomobil transportiga to'g'ri keladi. 2010-yillardan esa suv transporti temiryo'lni ortda qoldirib, ikkinchi o'ringa chiqdi. Quvur transportining ulushi past bo'lib qolmoqda, aviatransport esa yuk tashishda deyarli qo'llanilmaydi.

9.2.1.- jadval

Xitoy yuk transporti faoliyati ko'rsatkichlari


Ko'rsatkichlar	2021	2020	2019	2010	2000	1990	1980
Yuk tashish hajmi, mlrd tonna (= 100%), jumladan:	52,98	47,26	47,14	32,42	13,59	9,71	3,11
— temiryo'l	4,77 (9%)	4,55 (10%)	4,39 (9%)	3,64 (11%)	1,79 (13%)	1,51 (16%)	1,11 (36%)
— avtomobil	39,14 (74%)	36,46 (72%)	34,35 (73%)	24,48 (76%)	10,39 (76%)	7,24 (74%)	1,42 (46%)
— suv	8,24 (15%)	7,62 (16%)	7,47 (16%)	3,79 (12%)	1,22 (9%)	0,80 (8%)	0,47 (15%)
— quvur	0,83 (2%)	0,82 (2%)	0,91 (2%)	0,50 (1%)	0,19 (1%)	0,16 (2%)	0,11 (3%)
Yuk aylanmasi, trln tkm (=100%), jumladan:	22,36	20,19	19,94	14,18	4,43	2,26	1,16
— temiryo'l	3,32 (15%)	3,05 (15%)	3,00 (15%)	2,76 (19%)	1,38 (31%)	1,06 (47%)	0,57 (49%)
— avtomobil	6,91 (31%)	6,21 (30%)	5,96 (30%)	4,44 (31%)	1,04 (24%)	0,84 (36%)	0,33 (31%)

— suv	11,56 (52%)	10,58 (52%)	10,40 (52%)	6,84 (48%)	2,37 (54%)	1,15 (45%)	0,61 (44%)
— quvur	0,54 (2%)	0,52 (3%)	0,53 (3%)	0,22 (0,6%)	0,16 (0,6%)	0,06 (2%)	0,05 (4%)

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi (National Bureau of Statistics of China). — URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (murojaat qilingan sana: 08.12.2023).

Xitoyda 2019–2021 yillar davomida yuk tashish hajmining o‘shishi aks etgan. 2021 yilda yuk tashish 53 mlrd tonnaga yetib, pandemiyaga qaramay 12,6% o‘ydi. Avtomobil transporti yuk tashishda yetakchi bo‘lib qolmoqda, suv transporti ikkinchi o‘rinda, temiryo‘l ulushi esa barqaror kamaymoqda.

9.2.1.- rasm




Manba: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (Murojaat qilingan sana: 08.12.2023)

2019–2021 yillarda yo‘lovchi tashish hajmining o‘zgarishi ko‘rsatilgan. 2021 yil pandemiya davrida ko‘rsatkich keskin pasayib, 8,3 mlrd yo‘lovchiga tushdi - bu 2020-yilga nisbatan, 14,1% kamdir. Yo‘lovchi aylanmasida temiryo‘l va aviatransportning ulushi ortgan bo‘lsa, avtomobil transporti ulushi kamayishda davom etdi.

9.2.2.- rasm

Jadval 7.1. Xitoy yuk transporti faoliyati ko'rsatkichlari



Manba: National Bureau of Statistics of China (NBS)

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi (NBS, China). URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (Murojaat qilingan sana: 08.12.2023)

2022-yilda Xitoyda yo'lovchi tashish hajmi pandemiya cheklolari saqlanganligi sababli mo'tadil oshdi, biroq 2023-yilda barcha transport turlari bo'yicha keskin tiklanish kuzatildi: umumiy yo'lovchi tashish hajmi 18,56 mlrd kishiga yetib, 2021 yilga nisbatan, qariyb ikki baravar ko'paydi.

9.2.2.- jadval

Xitoyning yo'lovchi transporti ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	1980	1990	2000	2010	2019	2020	2021	2022	2023
Umumiy yo'lovchi tashish, mlrd kishi (100%)	3,42	7,73	14,79	32,70	17,60	9,67	8,30	10,16	18,56
– temiryo'l (mlrd) (ulushi %)	0,92	0,96	1,05	1,68	3,66	2,20	2,61	1,68	3,68
– avtomobil (mlrd) (ulushi %)	2,23	6,48	13,47	30,53	13,50	6,89	5,09	7,95	13,60
– suv transporti (mlrd) (ulushi %)	0,11	0,80	1,22	3,79	0,27	0,15	0,16	m/y	m/y
– aviatsiya (mlrd) (ulushi %)	0,01	0,02	0,07	0,27	0,66	0,42	0,44	0,25	0,62
Yo'lovchi aylanmasi, trln kishi-km (100%)	0,23	0,56	1,23	2,79	3,54	1,93	1,98	2,30	3,85
– temiryo'l (trln) (ulush %)	0,14	0,26	0,45	0,88	1,47	0,83	0,96	m/y	m/y

– avtomobil (trln) (ulush %)	0,07	0,34	0,67	1,09	0,94	0,40	0,36	m/y	m/y
– aviatsiya (trln) (ulush %)	0,004	0,02	0,10	0,81	1,17	0,63	0,65	m/y	m/y
– suv (trln)	0,01	0,16	0,22	0,01	0,01	0	0	m/y	m/y

Manba: National Bureau of Statistics of China (NBS), 08.12.2023. <https://data.stats.gov.cn>

Xitoyning ayniqsa avtomobil transporti (13,6 mlrd kishi) va temiryo‘l (3,68 mlrd kishi) o‘shining asosiy manbai bo‘ldi. Aviatsiya sektori ham kuchli tiklandi - yo‘lovchi aylanmasi 3,85 trln kishi-kmga yetib, pandemiyagacha bo‘lgan darajaga yaqinlashdi. Bu Xitoy ichki mobilizatsiyasi, xizmatlar sektorining jonlanishi va iste‘mol bozorining qayta faollashganidan dalolat beradi.

Temir yo‘l transporti. 2021 yil oxirida Xitoyda temir yo‘llarning umumiy uzunligi 150 000 km ni tashkil etdi (dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o‘rinda), shu jumladan 89 000 km ikki yo‘lli (umumiy hajmning 59,5%) va 110 000 km elektrlashtirilgan liniyalar (73,3%). 250-350 km/soat tezlikdagi yuqori tezlikdagi temir yo‘llarning uzunligi 40 000 km ga yetdi (dunyoda birinchi). 2035 yilga kelib, Xitoyning temir yo‘l tarmog‘i 200 000 km ga, shu jumladan 70 000 km dan ortiq yuqori tezlikdagi liniyalarga ega bo‘ladi.

9.2,3- jadval

Xitoy temir yo‘l transporti rivojlanishi

Ko‘rsatkichlar	2023	2022	2021	2020	2019	2010	2000	1990	1980
Umumiy temir yo‘l uzunligi, ming km (=100%)	154,9	158,7	150,0	146,3	139,9	66,2	58,7	53,4	49,9
shu jumladan ikki yo‘lli, ming km (%)	~92 (60%)	~95 (60%)	89,3 (60%)	86,6 (59%)	83,6 (59%)	29,7 (45%)	21,4 (37%)	13,2 (16%)	8,1 (-)
Elektrlashtirilgan, ming km (%)	101,3	119,4	110 (73%)	106 (73%)	100 (72%)	32,7 (49%)	14,9 (25%)	6,9 (13%)	1,7 (3%)
Bandlar soni, mln kishi	1,90	1,92	1,89	1,89	1,92	1,76	1,87	2,09	m/y
Yo‘lovchi tashish o‘rta masofasi, km	380	395	366	375	402	523	431	273	150
Yuk tashish o‘rta masofasi, km	696	670	696	670	688	759	771	705	514

Lokomotivlar soni, dona	21 700	m/y	21 700	n/d	18 440	14 492	13 732	10 278	—
Yo‘lovchi vagonlari, ming dona	78,0	76,0	78,0	76,0	74,8	50,4	36,0	27,3	16,4
Yuk vagonlari, ming dona	966,0	912,7	966,0	912,7	872,7	622,3	439,9	365,0	270,3

Manba: muallif tomonidan Xitoy Xalq Respublikasi Milliy statistika byurosi asosida tuzilgan va hisoblangan. URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (kirish sanasi: 08.12.2023).

Xitoy temir yo‘l tarmog‘i 2022–2023 yillarda ham jadal rivojlanishda davom etdi. 2023 yilga kelib umumiy temir yo‘l uzunligi 158,7 ming km ga yetdi. Elektrlashtirilgan tarmoq 119 ming km dan oshdi—bu dunyodagi eng katta elektrlashtirilgan temir yo‘l tarmog‘i hisoblanadi. Yuqori tezlikdagi poyezdlar tarmog‘i esa 45 ming km ga yaqinlashdi. Temir yo‘l orqali yuk tashish o‘rtacha masofasi ham ortib bormoqda, bu iqtisodiy faollikning yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Xitoy hukumati yuqori tezlikdagi temir yo‘llarning o‘zini oqlashini kompleks yondashuv asosida baholash kerakligini ta’kidlaydi. Bunday liniyalar shaharlarni bog‘laydi, yuk oqimlarini yengillashtiradi, ichki bozor integratsiyasini kuchaytiradi, hududlararo rejalashtirish muammolarini hal qiladi. Shuningdek, ular energiya tejankor hamda ekologik xavfsiz texnologiyalardan foydalanadi va kelajakda mamlakatning raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Sakkizta vertikal yo‘nalishga Pekin–Shanxay, Pekin–Gonkong, Pekin–Xarbin va boshqa yo‘llar kiradi. Sakkizta gorizontal esa Yanszi daryosi bo‘ylab, “Yevropa–Osiyo” koridori, Pekin–Lanchjou, Tsingdao–Inchuan, Shanxay–Kunmin yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.

Avtomobil transporti. 2021-yilda Xitoy avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 5,28 mln kmga yetdi (dunyoda 3-o‘rin). Shundan 4,95 mln kmi qattiq qoplamali yo‘llardir (7.4-jadvalga qarang). Tarmoqning katta qismi 2000-yillarda barpo etilgan bo‘lib, barcha shaharlarni bog‘ladi va yuk tashish masofasini uch barobar oshirdi. Xitoy 169 ming km bilan dunyodagi eng uzun tezkor avtomagistral tarmog‘iga ega.

9.2.4.- jadval


Avtomobil transporti rivojlanishi

Ko'rsatkichlar	2021	2020	2019	2010	2000	1990	1980
Yo'llarning umumiy uzunligi, ming km	5 281	5 198	5 003	4 699	3 105	1 246	528
Shundan tezkor magistrallar, ming km	169	161	149	74	1,6	-	-
Shaxsiy avtomobillar soni, mln dona	347	306	262	63	8	1	yo'q
Yuk tashish hajmi, mlrd t	39,14	34,46	34,57	24,48	10,39	7,4	1,42
Yo'lovchi tashish hajmi, mlrd kishi	5,09	6,89	13,09	29,11	17,94	13,2	5,3
Yangi qurilgan yo'llar, km	73 020	48 400	77 516	76 088	35 000	20 000	12 000
Ko'priklar, dona	1 599	1 952	1 740	1 300	400	200	50
Tonnellar, dona	23 268	21 569	20 360	7 489	2 300	590	120

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi (NBS China). URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (murojaat sanasi: 08.12.2023)

Xitoyning avtomobil transporti 2000–2023 yillar davomida ulkan kengayishni boshdan kechirdi (7.3- rasm). Yo'llarning umumiy uzunligi qariyb 10 baravar oshdi (528 ming km → 5,38 mln km), tezkor magistrallar tarmog'i esa dunyoda eng kattasi bo'lib, 2023 yilga kelib 184 ming kmga yetdi. Shaxsiy avtomobillar soni 40 yilda 400 martadan ko'proqqa ortib, 2023 yilda 436 mln donani tashkil etdi. Pandemiya yillarida (2020–2021) yo'lovchi tashish kamaygan bo'lsa-da, 2023 yilda ancha tiklandi. Yangi tonnellar va ko'priklar qurilishi davom etib, Xitoyning avtomobil infratuzilmasi global miqyosda eng rivojlangan tarmoqlardan biriga aylandi.

Xitoyning 1980-2023-yillarda transport infrastrukturasi dinamikasi



Manba: muallif tomonidan NBS China (2023), Xitoy Transport vazirligi (2023 yilgi hisobot) asosida tuzilgan va hisoblangan. URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (kirish sanasi: 08.12.2023).

Havo transporti. 2021-yil oxiriga kelib, Xitoyda 248 ta fuqarolik aeroporti sertifikatlangan va faoliyat yuritmoqda (2020-yilga nisbatan 8 taga ko'p), sohada bir million kishi ish bilan ta'minlangan. Fuqaro aviatsiyasi floti 7072 ta samolyotga yetdi, jumladan, 4054 ta transport samolyoti va 3018 ta yo'lovchi va umumiy maqsadli samolyotlar (7.5-jadval), jumladan, 1500 dan ortiq Boeing 737 oilaviy samolyoti va 1000 dan ortiq Airbus A320 oilaviy samolyoti. Ulardan 96 tasida yillik yo'lovchilar oqimi 1 milliondan oshdi, shu jumladan 29 tasida 10 milliondan ortiq yo'lovchiga xizmat ko'rsatildi.

Yillik yuk va pochta o'tkazuvchanligi 10 000 tonnadan ortiq bo'lgan 61 ta aeroport mavjud edi (2020-yilga nisbatan ikki baravar ko'p). Ezhou shahrida (Xubey provinsiyasi, markaziy Xitoy), Xitoyning birinchi maxsus yuk aeroporti bo'lgan Huahu aeroporti ikkinchi tekshiruvini yakunladi va 2022-yilda foydalanishga topshirildi. Unda 23 000 kvadrat metrlik yuk terminali, 678 000 kvadrat metrlik saralash markazi va ikkita 3600 metr uzunlikdagi uchish-qo'nish yo'laklari mavjud. 2021-yilda tashilgan yuk va pochta hajmi 17,828 million tonnani tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 10,9% ga va 2019-yilga nisbatan undan ham yuqori. Ichki

yo'nalishlarda 9,794 million tonna (shu jumladan, Gonkong, Makao va Tayvanga 857 000 tonna), xalqaro yo'nalishlarda esa 8,034 million tonna yuk tashildi, bu o'tgan yilga nisbatan 21,7% ga va 2019-yilgi hajmga nisbatan 124,4% ga o'sishga teng.

9.2.4- jadval

1980-2021-yillarda Xitoyda havo transportining rivojlanishi

Ko'rsatkichlar	2021	2020	2019	2010	2000	1990	1980
Muntazam avia-marshrutlar soni, dona	4 864	5 561	5 521	1 880	1 165	437	181
shu jumladan xalqaro	279	985	953	302	133	94	18
Fuqarolik aeroportlari soni, dona	248	240	237	175	139	94	n/d
Band bo'lganlar soni, ming kishi	598,5	602,5	623,5	272,0	117,0	74,0	n/d
O'rtacha yo'lovchi tashish masofasi, km	1 482	1 511	1 774	1 509	1 444	1 388	1 153
O'rtacha yuk tashish masofasi, km	3 801	3 550	3 495	3 177	2 555	2 211	1 580
Samolyotlar soni, dona	7 072	6 795	6 525	2 655	1 996	503	n/d
shu jumladan yuk tashuvchi	3 054	3 903	3 818	1 977	1 301	286	n/d
yo'lovchi va umumiy maqsadlar	3 018	2 892	2 707	678	695	217	n/d

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi, <https://data.stats.gov.cn> (murojaat sanasi: 08.12.2023).

Umuman, ta'kidlash lozimki, 2019-2021-yillarda fuqarolik transporti aeroportlarida yo'lovchilar oqimi 907,48 million kishini tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 5,9% ga ko'p, ammo 2019-yil pandemiyadan oldingi yo'lovchilar oqimining atigi 67,1% ni tashkil etdi. Ichki yo'nalishlar 904,43 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatdi, bu o'tgan yilga nisbatan 7,6% ga ko'p va 2019-yilda yo'lovchilar sonining 74,6% gacha tiklandi (shu jumladan, Gonkong, Makao va Tayvanga yo'nalishlarda 1,68 million yo'lovchi, bu 2020-yilga nisbatan, 38,4% ga kam).

Mavzuni muatahkamlash uchun savollar:

- 1 Xitoy transport tarmog'ining shakllanish va rivojlanish bosqichlariqanday?
- 2.Xitoy transport tizimini tarkibiga nimalar kiradi?
- 3.Mamlakatning xizmatlar sohasidagi zamonaviy muammolari nimalardan iborat?

- 4.Xitoyda qaysi transport asosiy hisoblanadi?
- 5.XXRsida metro qachon tashkil etilgan?
- 6.Xitoyning avtomobil yo‘llari va transportining zamonaviy rivojlanishi nimalarda aks etadi?
- 7.Xitoy dengiz transporti marshrutlari va unda yuk tashish qanday yo‘lga qo‘yilgan?
- 8.Havo transporti va unning xalqaro marshrutlari qaysilar?

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.XXR sining transport majmuasining rivojlanish dinamikasini obzorini tayyorlang.
- 2.Xitoy logistik markazlari bo‘yicha tahliliy taqdimot ishlab chiqing.

Adabiyotlar:

- 1.Xitoy iqtisodiyoti, B. Sadibekova, O‘quv qo‘llanma, T., 2018, -298 b.
- 2.Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024. С.307.
- 3.Новые горизонты экономики КНР в 14-й пятилетке (2021—2025 гг.) / Рос. акад. наук, Инт Китая и совр. Азии; сост. П.Б. Каменнов, А.Д. Александрова; отв. ред. А.В. Островский. — М. : ИКСА РАН, 2022. — 320 с.
- 4.Yuldashev A.S., Xitoy mintaqalarining iqtisodiy rivojlanishi. – T., 2019. 130 b.

Internet resurslar

1. Xitoy davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti <http://www.stats.gov.cn>
2. Henan provinsiyasi statistika qo‘mitas rasmiy sayti <http://www.ha.stats.gov.cn>
- 3.http://en.chinagate.cn/features/Western_Development/201001/04/content_19175519.
- 4.http://lw.xinhuanet.com/htm/content_5039.htm

10-BOB. PUL-KREDIT TIZIMI XUSUSIYATLARI

Darsning maqsadi: Xitoyning pul-kredit tizimi, undagi pul taklifi, valyuta tizimi va inflyatsiya jarayonlarini tahlillar yordamida o‘rganib chiqishdan iborat.

Tayanch iboralar: Pul-krqsit tizimi, pul taklifi, valyuta tizimi, inflyatsiya, renminbi, moliya tashkilotlari, depozitlar, qoldiq, pul massasi, pul agregatlari.

10.1. Pul taklifi, valyuta tizimi va inflyatsiya

Xitoyning milliy pul birligi yuan (元) bo‘lib, 10 tsyao (角) yoki **100 fen)**ga bo‘linadi. Og‘zaki nutqda “yuan” o‘rniga kuay (块), “tsyao” o‘rniga mao (毛) so‘zlari ishlatiladi. Rasmiy nomi — Renminbi (人民币). Muomalada 1–5 fen, 1–5 tsyao tanga va 1–100 yuanlik kupyuralar bor. Yuan xalqaro tizimda CNY, kodi 156, belgisi ¥. Gonkong va Makaoda esa o‘z valyutalari - Gonkong dollari va pataka ishlatiladi.

Xitoy davlatining moliyaviy siyosati iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Asosiy vositalar sifatida rejalashtirilgan byudjet taqchilligi, pul massasi (M2)ning tez ko‘payishi, investitsiya uchun davlat obligatsiyalari chiqarishni sanash mumkin.

2000–2010-yillarda bu choralar YIMning qo‘shimcha 1,5–2% o‘shishiga yordam bergan. Xitoyning moliya tizimi kredit emissiyasi orqali iqtisodiyotga katta miqdorda pul kiritadi. Pul massasining o‘shishi YIMdan taxminan ikki baravar yuqori bo‘lib, iqtisodiyotning monetizatsiyasi 200% YIMdan oshgan (8.1-jadval). Bunga qaramay, inflyatsiya yuqori bo‘lmagan, chunki pul asosan real sektorni oldindan moliyalashga yo‘naltirilgan.

1980–1993 yillarda Xitoyda ikki yo‘nalishli valyuta kursi tizimi amal qilgan bo‘lib, bir necha devalvatsiyalardan so‘ng rasmiy kurs 1 dollar uchun 1,50 yuandan 4,78 yuangacha pasaydi. 1994–2005 yillarda yuan AQSH dollariga deyarli qat‘iy bog‘langan holda 8,28 yuan darajasida ushlab turildi, bu Xitoy eksporti uchun sezilarli ustunlik yaratdi. 2005 yildan boshlab xalqaro bosim ta‘sirida yuan asta-sekin mustahkamlanib, 2014 yilga kelib 6,14 yuanga yetdi. Keyinchalik Xitoy yuan kursini dollarga emas, balki valyutalar savatiga bog‘lash tizimiga o‘tdi: dastlab 13

valyuta, 2022 yilga kelib esa 24 valyuta. 2015–2023 yillarda esa AQSHning tarif siyosati fonida Xitoy eksport raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash uchun yuanni biroz pasaytirdi: 2022 yilda 6,73 yuan, 2023 yil kuzida 7,3 yuan, 2024 yilda esa o‘rtacha 7,12 yuan darajasida shakllandi. VTOga a‘zolikdan so‘ng Xitoy dunyodagi eng yirik valyuta zaxiralarini to‘pladi: 2011 yildan beri ular 3 trln dollardan yuqori bo‘lib, 2013–2014 yillarda 3,9 trln dollarga yetgan, 2023 yilda 3,17 trln, 2024 yilda esa 3,25 trln dollarga baholandi; zaxiralarning qariyb 95 foizi xorijiy valyutalarda, 3–4 foizi esa oltinda saqlanadi.

10.1.1.-jadval

Xitoy pul tizimining rivojlanish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2024	2023	2022	2020	2010	2000	1990	1980
Xitoy moliya tashkilotlaridagi depozitlar qoldig‘i, trln yuan	m/y	m/y	312,2	257,5	80,6	13,3	1,95	0,27
Depozitlarning YaIMga nisbati, %	m/y	~325 trln	258	254	196	133	103	59
Pul massasi (M2), trln yuan	313,53	313,53	266,4	218,7	72,6	13,5	1,53	m/y
M2 yillik o‘sishi, %	7,3 %	7,3 %	11,8	10,1	19,7	12,3	m/y	m/y
Pul massasi (M1), trln yuan	m/y	m/y	67,2	62,6	26,7	5,3	0,70	m/y
Pul massasi (M0 — naqd), trln yuan	m/y	m/y	10,5	8,4	4,5	1,5	0,26	0,03
Monetizatsiya koeffitsienti, %	~230	~230	220	216	176	135	81	m/y
Xorijiy valyuta zaxiralari, trln dollar	3,25	3,25	3,13	3,22	2,85	0,17	0,01	0,00
O‘rtacha yillik valyuta kursi, yuan / 1 dollar	~7,12	7,12	6,73	6,90	6,77	8,28	4,78	1,50

Manba: muallif tomonidan Xitoy hukumati statistik byulleteni, Xitoy Milliy statistika byurosi hisobotlari asosida tuzilgan va hisoblangan. URL:<https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01&zb=A060J&sj=2021> (kirish: 08.12.2023), english.www.gov.cn (2024 yakuniy hisobot).

Inflyatsiya Xitoy iqtisodiyoti uchun islohotlarning dastlabki yillarida jiddiy muammo bo‘lgan. Masalan, inflyatsiya darajasi 1985 yilda 8,8 %, 1988 yilda 18,8 %, 1994 yilda esa 24,1 % gacha ko‘tarilgan (8.2-jadval). 1990-yillarning oxiri va 2000-yillar boshida Xitoy iqtisodiyoti iqtisodiy o‘shishning haddan ziyod sur‘atlari va taklifning tez kengayishi tufayli deflyatsion jarayonlar bilan ham duch kelgan. Xitoylik iqtisodchilar barqaror iqtisodiy o‘shish uchun inflyatsiya zarur, lekin u nazorat ostida, yiliga 2–3 % atrofida bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar. Inflyatsiyaning juda past bo‘lishi ham ishlab chiqaruvchilarning rag‘batini va iste’molchilarning iqtisodiy xulq-atvorini sustlashtirishi mumkin.

10.1.2.-jadval

Xitoyda yillik inflyatsiya (deflyatsiya) ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (prognoz)
Iste’mol narxlari indeksi (CPI), %	103,3	101,4	102,1	102,9	102,5	100,9	102,0	100,2	100,3	101,0-101,2
Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi (PPI-output), %	105,5	98,4	103,5	99,3	98,0	106,1	100,1	97,0	98,2	100–101
Sotib olish narxlari indeksi (PPI-input), %	106,2	97,4	104,5	99,4	99,5	106,9	106,1	97,2	98,6	100–100,5

Manba: muallif tomonidan IMF World Economic Outlook (2024–2025 prognozlari), Xitoy Milliy statistika byurosi hisobotlari asosida tuzilgan va hisoblangan. URL:<https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01&zb=A060J&sj=2021> (kirish: 08.12.2023), english.www.gov.cn (2024 yakuniy hisobot).

10.2. Xitoyning bank tizimi

1984 yildan boshlab Xitoy ikki bosqichli bank tizimiga o‘tdi: Xitoy Xalq banki markaziy bank sifatida Davlat kengashiga bo‘ysunadi, tijorat banklari esa aksiyadorlik tizimi asosida ishlaydi. Kredit Xitoy eksportining raqobatbardoshligiga to‘rt darajada ta’sir qiladi. Birinchi va ikkinchi darajalar — tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash: Xitoy banklari xorijiy xaridorlarga uzoq muddatli arzon kreditlar beradi, eksportchilarga esa garovsiz kredit ajratib, xaridorlarga to‘lovni kechiktirish imkonini yaratadi. Uchinchi daraja — davlat banklarining oraliq mahsulot ishlab

chiqaruvchilarni kreditlashi, bu esa iqtisodiyotda keng tarqalgan “korxonalararo qarzlarni”ni yuzaga keltiradi. Xitoy sanoati faoliyatining katta qismi qarz hisobidan moliyalashtirilgani sababli, past rentabellikda ham kapital rentabelligi yuqori bo‘ladi va bu Xitoy mahsulotlarining arzon narxini izohlaydi. To‘rtinchi daraja — ishlab chiqarish va infratuzilma qurilishini moliyalashtirishdir; bu sohada kreditlar ko‘pincha qaytarilmaydi yoki qayta moliyalashtiriladi. Shu yo‘l bilan Xitoy sanoat tarmoqlari va infratuzilmasining katta qismi barpo etilgan. Kreditlar hajmi YaIMning 200 % dan oshgan bo‘lsa-da, qarzlarning katta qismi davlat sektori ichida shakllanadi va real natija sifatida iqtisodiyotda ulkan aktivlar qoladi.

10.2.1.-jadval

Xitoyning eng yirik banklari, TOP 1000 World Banks by Tier 1 -2021, \$mrd.

Bank nomi	Shahar	Jahondagi o‘rni	Aktivlar (mlrd \$)	1-darajali kapital (mlrd \$)	Soliqdan oldingi foyda (mlrd \$)	Bozor kapitallashuvi (mlrd \$)
Industrial and Commercial Bank of China	Pekin	1 / 1	5106,4	439,9	60,0	249,5
China Construction Bank Corporation	Pekin	2 / 4	4308,2	361,6	51,5	210,4
Agricultural Bank of China	Pekin	3 / 9	4166,2	336,7	40,6	140,1
Bank of China	Pekin	4 / 14	3737,0	305,1	37,6	116,7
Bank of Communications	Shanxay	11 / 57	1638,2	132,3	13,2	47,9
China Merchants Bank	Shenchjen	14 / 22	1280,5	18,8	106,3	192,8
Postal Savings Bank of China	Pekin	15 / 28	1738,6	10,4	102,7	112,4
Shanghai Pudong Development Bank	Shanxay	18 / 68	1217,5	10,2	92,4	47,4
Industrial Bank	Fuchjou	19 / 50	1208,9	11,7	94,1	66,5

Manba: Reyting - TOP 1000 Jahon banklari darajasi bo'yicha 1-2023// Banker ma'lumotlar bazasi. URL: <https://www.thebankerdatabase.com/index.cfm/search/ranking> (kirish: 08.12.2023).

Xitoyning “katta oltilik” deb ataluvchi aksiyadorlik shaklidagi yirik davlat banklari tarkibiga dunyoning eng yirik to‘rt banki kiradi. Ularning bosh ofislari Pekinda joylashgan: Industrial and Commercial Bank of China, China Construction Bank Corporation, Agricultural Bank of China va Bank of China. Ularga qo‘shimcha ravishda, bosh ofisi Shanxayda joylashgan Bank of Communications ham ushbu guruhga kiradi; 2019 yildan boshlab guruh tarkibiga Pekinda joylashgan Postal Savings Bank of China ham qo‘shilgan.

Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish modeli asosan davlatga tegishli bank tizimiga tayanadi. 1980-yillardan boshlab aynan banklar davlat va xususiy korxonalarini moliyalashtirishda yetakchi rolni bajarib keladi.

Kreditlar bo‘yicha qarorlar ko‘pincha rentabellik va klassik bank mezonlariga emas, balki davlatning iqtisodiy siyosati, investitsion ustuvorliklari hamda tarmoqlar o‘rtasida kapitalni qayta taqsimlash ehtiyojiga asoslanadi. Shu sababli ayrim hollarda hatto zarar bilan ishlovchi korxonalar ham davlat banklari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Kreditning eksportdagi ustunligi to‘rt darajada namoyon bo‘ladi:

- birinchisi - Xitoy mahsulotlarini sotib oluvchi xorijiy kompaniyalarni 15–20 yilgacha past foizli kreditlar bilan moliyalashtirish;

- ikkinchisi - Xitoy eksportchilariga beriladigan garovsiz kreditlar bo‘lib, ular xaridorlarga to‘lovni kechiktirish imkonini yaratadi. Kreditning uchinchi va to‘rtinchi darajalari kamroq ko‘rinadigan, ammo iqtisodiyot uchun juda muhim jarayonlardir.

- uchinchisi - davlat banklarining oraliq mahsulot ishlab chiqaruvchilarni kreditlashidir, natijada korxonalar o‘rtasida “uchburchak qarzlar” shakllanadi.

Xitoy sanoatida aktivlarning 50–70 % gacha qismini kreditlar tashkil etgani tufayli, korxonalar kapital rentabelligi ancha yuqori bo‘ladi, bu esa Xitoy tovarlarining arzon narxida asosiy omillardan biridir. To‘rtinchi daraja - infratuzilma va ishlab chiqarish obyektlarini uzoq muddatli kreditlar orqali moliyalashtirish bo‘lib, ko‘pincha bunday kreditlar qaytarilmaydi yoki qayta moliyalashtiriladi.

10.3. Fond bozori

Xitoyning fond bozori asosan aksiyalar va obligatsiyalar bozoridan iborat bo'lib, ichki obligatsiyalarning katta qismi Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan chiqariladi. Muomaladagi aksiyalarning faqat uchdan biri erkin savdoda, qolganlari esa bozor orqali sotilmaydigan C-turdagi davlat nazoratidagi aksiyalardir.

Erkin savdodagi aksiyalarning asosiy qismi davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgach paydo bo'lgan bo'lib, ularda nazorat paketi baribir davlat qo'lida qoladi. Shu tariqa fond bozorida ham, bozor tashqarisida ham aksiyalarning katta qismi davlat nazoratida.

Xitoyda aksiyalar A, B, H, N va L turlariga bo'linadi. A-turdagi aksiyalar faqat Xitoy ichida yuan bilan savdo qilinadi, asosan jismoniy shaxslarga tegishli bo'lib, 2002-yildan boshlab chet elliklarga ham maxsus kvotalar orqali ruxsat berilgan. B-turdagi aksiyalar ichki bozorda xorijiy valyuta evaziga chet elliklar tomonidan erkin sotib olinadi;

2001-yildan boshlab ular valyuta hisobvaraqlariga ega xitoyliklarga ham ochilgan. H, N va L turdagi aksiyalar Xitoy kompaniyalarining ikki martalik listingga ega ekanini bildiradi va ular mos ravishda Gonkong, Nyu-York va London birjalarida savdo qilinadi.

10.3.1.-jadval

Xitoy qimmatli qog'ozlar bozori ko'rsatkichlari (trln yuan)

Ko'rsatkich	2024	2023	2022	2021	2020	2019	2015	2010	2000
Xitoy kompaniyalari tomonidan chiqarilgan aksiyalar soni (jami)	4900	4750	4650	4615	4154	3777	2827	2063	1088
— B turdagi aksiyalar soni	88	89	90	90	93	97	101	109	114
— H turdagi aksiyalar soni	260	258	255	253	291	298	246	187	54
Xitoy kompaniyalarining bozor kapitallashuvi, trln yuan	86	82	79	75,2	64,3	48,3	41,8	19,3	1,6

Yillik aksiyalar savdosi hajmi, trln yuan	=295	=285	=270	258,0	206,8	174,27	255,1	54,6	7,6
Shanghai Composite Index, punkt	=3150	=3000	3089	3639	3473	3050	3539	2808	2074
Shenzhen Component Index, punkt	=9600	=9745	11015	2530	2292	3250	2402	1380	466
Yillik obligatsiyalar savdosi hajmi, trln yuan	=400	=390	=360	337,7	296,4	254,96	229,5	29,5	1,6
Yillik fyucherslar savdosi hajmi, trln yuan	=610	=590	=580	580,7	437,2	596,4	259,1	25,9	0,4

Manba: Xitoy Milliy statistika byurosi URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01&zb=A060J&sj=2021> (kirish: 08.12.2023) va Shanghai Stock Exchange (SSE) Yillik va oylik hisobotlar, bozor ko'rsatkichlari (2021–2024) URL: <https://www.sse.com.cn/market/> (kirish: 05.12.2025) asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

2020–2021 yillarda Xitoyning aksiyalar bozori sezilarli o'sishni qayd etdi, avval esa (2016–2019) chuqur pasayish kuzatilgan. Fond bozori va derivativlar bozori (fyucherslar savdosi) birgalikda Xitoyning qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etadi. Eng yirik birjalar — Shanxay va Shenchen fond birjalari.



Manba: NBS (National Bureau of Statistics) va Shanghai/Shenzhen birjalari hisobotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (kirish: 05.12.2025).

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2000–2025 yillar davomida Xitoy fond bozori hajmi keskin kengaygan (8.1-rasm), bozor kapitallashuvi trln yuanlar bilan o'lchanadigan darajaga yetgan, savdo hajmlari esa global fond bozorlaridagi eng

yirik ko'rsatkichlardan biriga aylangan. Shanghai va Shenzhen fond birjalari mamlakatning asosiy investitsion platformalari bo'lib, ular orqali aksiyalar, obligatsiyalar va fyucherslar bo'yicha yillik trillionlab yuanlik bitimlar amalga oshiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xitoy Xalq bankining (Markaziy bankning) o'ziga xos jihati nimada? Uning asosiy vazifalari qanday?
2. Xitoy iqtisodiyotining monetizatsiya darajasi qanday?
3. 2022 yilda smartfon orqali to'lovlar juda keng tarqalgan bo'lishiga qaramay, nega Xitoyda muomaladagi naqd pul (M0) hajmi keskin oshdi?
4. Onshor yuan (CNY) va offshor yuan (CNH) o'rtasidagi farq nimada?
5. Davlat uchun raqamli yuanga o'tishning qanday afzalliklari bor?
6. Raqamli yuan joriy etilishi biznes yoki aholiga yangi imkoniyatlar beradimi?
7. Xitoyning bank tizimi qanday ierarxik tuzilmaga ega?
8. Xitoyning yirik "davlat" banklari 100% davlatga tegishlimi?
9. Kredit bilan ishlash Xitoy kompaniyalari uchun qanday asosiy afzalliklarni beradi?
10. Nega Xitoy iqtisodiyotida ayrim kapital xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilmaydi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Xitoy aksiya bozoridagi Shanxay Kompozit indeksini 2020-2024-yillardagi dinamikasini tahlil qiling.
2. Xitoy milliy valyutasini revalvatsiya qilinish sabablarini aniqlang.

Adabiyotlar:

1. Xitoy iqtisodiyoti, B. Sadibekova, O'quv qo'llanma, T., 2018, -298 b.
2. Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024. С.307.
3. Новые горизонты экономики КНР в 14-й пятилетке (2021—2025 гг.) / Рос. акад. наук, Инт Китая и совр. Азии; сост. П.Б. Каменнов, А.Д. Александрова; отв. ред. А.В. Островский. — М. : ИКСА РАН, 2022. — 320 с.
4. Yuldashev A.S., Xitoy mintaqalarining iqtisodiy rivojlanishi. – T., 2019. 130 b.

11-BOB: DAVLAT MOLIYASI

Darsning maqsadi: Xitoyning davlat moliya tizimidagi uning byudjet daromadlari va xarajatlarini, konsolidatsiyalangan, markaziy va mahalliy byudjetlar,

Tayanch iboralar: moliya tizimi, byudjet daromadlari va xarajatlarini, konsolidatsiyalangan byudjet, markaziy va mahalliy byudjetlar

11.1. Konsolidatsiyalangan, markaziy va mahalliy byudjetlar

Xitoy davlat moliyasi tizimi konsolidatsiyalangan byudjetdan iborat bo‘lib, u markaziy (davlat) byudjeti hamda ATElarning (ma‘muriy-hududiy birliklarning) mahalliy byudjetlaridan tarkib topadi. Islohotlar davrida Xitoyning konsolidatsiyalangan byudjeti odatda YAIMning 1–2 foiziga teng bo‘lgan defitsit bilan ishlagan. Biroq 2019–2022 yillarda byudjet defitsiti 4–6 foiz YAIMgacha oshdi.

11.1.1.-jadval

Xitoy konsolidatsiyalangan byudjet ko‘rsatkichlari, 2010–2024 (trln yuan)

Ko‘rsatkich	2010	2015	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Byudjet saldosi (– defitsit)	–0,22	–2,36	–4,85	–6,28	–4,31	–5,69	–6,11	–6,15
Saldoning YAIMga nisbati (%)	0,53	3,43	4,92	6,19	3,75	4,82	5,1	4,8–5,0
Byudjet daromadlari	8,31	15,23	19,41	21,75	20,25	20,37	21,15	22,30
Byudjet xarajatlari	8,99	17,59	23,89	24,57	24,57	26,06	27,26	28,40

Manba: TradingEconomics — China Government Budget & Fiscal Indicators(2023–2024 yillardagi defitsit, xarajatlar va YAIMga nisbati bo‘yicha). URL: <https://tradingeconomics.com/china/government-budget> (kirish: 05.12.2025).

Shu bilan birga, konsolidatsiyalangan byudjet xarajatlarning o‘shish sur‘ati Xitoy YAIMining o‘shish sur‘atidan past bo‘lganligi tufayli, byudjet xarajatlarning YAIMdagi ulushi muntazam ravishda kamayib bormoqda: 2010 yildagi 24%dan 2021–2022 yillarda 21,5%gacha. 2022–2024 yillarning ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, davlat daromadlari o‘shishni davom ettirmoqda, biroq xarajatlarning yanada tez sur‘atda ko‘payishi natijasida byudjet defitsiti 6 trln yuandan yuqorida shakllangan. 2024 yilda defitsit 4,8–5,0% YAIM atrofida belgilangan bo‘lib, bu

davlatning iqtisodiy o‘rnatishni qo‘llab-quvvatlash siyosatini davom ettirayotganidan dalolat beradi.

2010-yillarda soliq islohotlari natijasida Xitoyda mahalliy byudjetlar daromadlari markaziy byudjet daromadlaridan oshib ketdi. 2020-yillarning boshlariga kelib, ularning ulushi konsolidatsiyalangan daromadlarning 53–55 %iga yetdi. Xarajatlar bo‘yicha esa mahalliy byudjetlarning ulushi allaqachon yuqori bo‘lib, 82 %dan 86 %gacha oshgan.

11.1.2-jadval

Xitoy markaziy va mahalliy byudjetlarining daromad va harajatlari (trln yuan)

Ko‘rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Markaziy byudjet daromadlari (trln yuan)	8,93	8,28	9,15	9,49	9,95	10,30
Mahalliy byudjet daromadlari (trln yuan)	10,11	10,01	11,11	10,88	11,30	11,80
Markaziy byudjet xarajatlari (trln yuan)	3,17	3,21	3,51	3,56	3,70	3,85
Mahalliy byudjet xarajatlari (trln yuan)	20,72	21,06	22,57	22,50	23,85	24,50

Manba: MOF — Ministry of Finance of China Byudjet ijrosi hisobotlari (2023–2024): URL: <http://www.mof.gov.cn/> (kirish: 05.12.2025).

2010–2022-yillar davomida Xitoy konsolidatsiyalangan byudjetidagi sog‘liqni saqlash xarajatlari tez sur‘atlarda oshib, 5,3 %dan 8,6 %gacha yetdi. Davlat boshqaruvi xarajatlarining ulushi an’anaviy ravishda yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, oxirgi yillarda 10 %dan 8 %gacha kamaydi. Xitoyning konsolidatsiyalangan byudjetida 2010–2024 yillar davomida ta’lim, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash xarajatlari ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolganini ko‘rsatadi.

11.1.3-jadval

Xitoy konsolidatsiyalangan byudjetining harajatlar tarkibi

(xarajatlar ulushi, %; 2010–2024)

Xarajat turi	2010	2020	2021	2022	2023	2024*
Ta’lim	14,0	14,8	15,3	15,2	15,4	15,5
Ijtimoiy himoya va bandlik	10,1	13,3	13,8	14,0	14,3	14,5
Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, suv resurslari	9,0	9,8	9,0	8,6	8,7	8,7

Tibbiyot va sog‘liqni saqlash	5,3	7,8	7,8	8,6	8,9	9,0
Davlat boshqaruvi	10,3	8,1	8,0	8,1	7,9	7,8
Shahar kommunal xo‘jaligi	6,7	8,1	8,0	7,8	7,6	7,5
Jamoat xavfsizligi	6,1	5,7	5,7	m/y	5,8	5,8
Milliy mudofaa	5,9	5,6	5,6	5,7	5,7	5,7
Transport	10,0	5,0	4,8	4,9	4,7	4,6
Fan va texnologiya	4,7	3,7	3,9	3,8	4,0	4,0
Atrof-muhitni muhofaza qilish	2,7	2,6	2,6	2,7	2,8	2,8
Madaniyat, sport va OAV	1,7	1,4	1,4	m/y	1,5	1,5
Boshqa xarajatlar	17,4	14,1	14,5	m/y	14,8	14,7

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi (NBS). URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (kirish: 05.12.2025).

Urbanizatsiya va demografik o‘zgarishlar natijasida, mamlakatda kommunal xo‘jalik va sog‘liqni saqlash sohalariga ajratiladigan mablag‘lar yildan-yilga oshmoqda. Xitoyning sotsialistik modeli bo‘yicha umumiy davlat xarajatlari rivojlangan kapitalistik davlatlarga nisbatan sezilarli darajada past ekani muhim jihatdir.

11.1.4.-jadval

Xitoy konsolidatsiyalangan byudjetining ayrim xarajat moddalari

(YAIMga nisbatan, %)

Xarajat turi	2010	2020	2021	2022	2023	2024*
Byudjet xarajatlari — jami	24,21	24,24	21,48	21,53	21,60	21,70
Ta’lim	3,53	3,59	3,29	3,26	3,28	3,30
Ijtimoiy himoya va bandlik	2,98	3,21	2,96	3,02	3,10	3,15
Tibbiyot va sog‘liqni saqlash	1,69	1,90	1,68	1,86	1,90	1,95
Jamoat xavfsizligi	1,41	1,37	1,12	n/d	1,15	1,15
Milliy mudofaa	1,23	1,27	1,00	1,22	1,24	1,25
Ilm-fan va texnologiya	0,96	0,89	0,85	0,83	0,85	0,87

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi (NBS) – Konsolidatsiyalangan byudjet xarajatlari ma’lumotlari (2010–2024)
URL (to‘g‘ridan-to‘g‘ri 9-bo‘lim statistikasi): <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (kirish: 05.12.2025).

Shu sababli, Xitoyning ta'lim, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash hamda ilm-fan va texnologiyalar uchun ajratadigan byudjet xarajatlari, ular YAIMga nisbatan hisoblanganda, rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha past bo'lib qoladi. Masalan, 2022 yilda ta'lim xarajatlari YAIMning 3,26 %ini, ijtimoiy ta'minot xarajatlari 3,02 %ini, sog'liqni saqlash xarajatlari 1,86 %ini, ilm-fan va texnologiyalar xarajatlari esa 0,83 %ini tashkil etdi.

11.2. Soliq tizimi

Xitoyning soliq tizimi doimiy ravishda takomillashtirilib, soliq turlarining sonini qisqartirish, soliq yukini kamaytirish hamda davlat va xususiy korxonalar, milliy va xorijiy kapital uchun teng sharoit yaratishga qaratilgan. Tizimning asosiy tamoyili - yuqori daromadlarni ko'proq soliqqa tortish orqali progressivlikni ta'minlashdir. Mamlakatning kuchli davlat moliya tizimi konsolidatsiyalangan byudjetdagi 6 trln yuandan ortiq defitsitni ham emissiya orqali qoplash imkonini beradi, shuning uchun soliqlar ko'proq iqtisodiy tarmoqlarni tartibga solish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Xitoyda mahalliy hududlar ko'plab soliq imtiyozlariga ega: 1–5 yilga soliqdan ozod qilish, investitsiyalarning 5–80%igacha subsidiyalar, ijara xarajatlarining 50%igacha qoplab berish va boshqa rag'batlar mavjud. Zamonaviy soliq tizimining asosi 1994 yilda yaratilgan. Yagona soliq kodeksi mavjud emas, qonunlar alohida soliqlar bo'yicha qabul qilinadi. 2022 yilga kelib, Xitoyda 18 turdagi soliq amal qilgan bo'lib, ular uch guruhga bo'lingan:

- 1). tovar va xizmatlarga soliqlar;
- 2). daromad soliqlari;
- 3) mol-mulk va harakatlar soliqlari.

11.2.1.-jadval

2025 yil holatiga ko'ra Xitoydagi soliqlar turlari

Soliq turi	Mazmuni (stavkalar)
Tovarlar va xizmatlarga soliqlar	
1. QQS	Asosiy stavka 13%; imtiyozli stavkalar — 9% va 6%
2. Aktsiz solig'i	15 ta tovar guruhi uchun individual stavkalar

3.Avtomobil sotib olish solig'i	Stavka 10%
4.Bojxona bojlari	Individual stavkalar
Daromad soliqlari	
5.Korxonalar daromad solig'i	Rezident korxonalar uchun 25%, norezidentlar uchun 20–25%
6.Jismoniy shaxslar daromad solig'i	-Yig'ma daromadlar bo'yicha: 3% dan 45% gacha progressiv shkalada. - Biznes daromadlari: 5% dan 35% gacha progressiv. - Foiz, dividend, bonus, lotereya va boshqalar: 20%. -Asosiy soliq chegirmasi: oyiga 5000 yuan + ko'plab maxsus chegirmalar.
Mol-mulk soliqlari	
7.Yer qiymati o'sishidan olinadigan soliq	Progressiv stavka: 20%, 30%, 40%, 50%
8. Shahar uy-joy mulki solig'i	Egalar uchun: qiymatdan 1,2%; Ijarachilar uchun: ijara haqi 12%
9.Yer foydalanish solig'i (shahar)	Shahar toifasiga qarab: 1,5–30; 1,2–24; 0,9–18; 0,6–12 yuan/m ² yiliga
10.Qishloq xo'jaligi yeridan foydalanish solig'i	Har bir hudud bo'yicha individual stavkalar
11.Ko'chmas mulk oldi-sotdi solig'i	Maydoni < 90 m ² yoki > 90 m ² : Yuridik shaxslar — 3–5%; Jismoniy shaxslar — 1–2%
12.Tabiiy resurslar solig'i	Ko'plab individual stavkalar
13.Transport vositalari solig'i	Individual stavkalar
Soliq turi	Mazmuni (stavkalar)
14. Gerb yig'imi (davlat bojlari)	Hujjat turiga qarab ko'plab stavkalar
15. Shahar infratuzilmasi solig'i	Yirik shaharlarda — 7%, kichik shaharlarda — 5%, qishloqlarda — 1% (QQS va aktsiz summasidan)
16.Tamaki solig'i	20%
17. Kema kelib tushish yig'imi	Xorijdan kirib kelgan kemalar uchun
18.Atrof-muhitni muhofaza qilish solig'i	Har bir korxonaga chiqindi hajmiga qarab individual stavka

Manba: Xitoy Davlat Soliq Boshqarmasi (State Taxation Administration of PRC). URL: <http://www.chinatax.gov.cn/eng/c101270/c101272/c5157954/content.html> (kirish: 05.12.2025).

QQS hali ham soliq tushumlarining asosiy manbai bo‘lib qolmoqda; 2023 yilda uning ulushi taxminan 38–39%, 2024 yilda esa iqtisodiy tiklanish hisobiga biroz oshgan. Biznes solig‘i bekor qilingach, korxonalar foyda solig‘i ulushi 2023 yilda 26%, 2024 yilda 26–27% atrofida shakllandi. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i ulushi 2023–2024 yillarda ham barqaror 9–10% darajada qolmoqda. Mahalliy soliq tushumlari nisbati esa yuqori bo‘lib, umumiy tushumlarning 53–54% qismini tashkil qilmoqda, bu esa hududiy byudjetlarning davlat transferlariga qaramligini saqlab qolmoqda.

9.6-jadval

Xitoyning asosiy soliqlarining soliq tushumlaridagi ulushi (%), 2000–2024 yillar

Soliq turi	2000	2005	2010	2015	2020	2022	2023	2024
Soliq tushumlari, mld \$	1258,2	2877,9	7321,1	12492,2	15431,2	16661,4	17 480	18 020
Markaziy soliqlar ulushi	m/y	55,8	55,3	49,8	51,6	m/y	52,1	52,3
Mahalliy soliqlar ulushi	m/y	44,2	44,7	50,2	48,4	m/y	47,9	47,7
QQS (HДC)	36,2	37,5	28,7	24,9	36,8	29,2	28,5	28,0
Biznes solig‘i	14,9	14,8	15,2	15,5	m/y	m/y	m/y	m/y
Iste‘mol solig‘i	6,8	5,7	8,3	8,4	7,8	10,0	10,4	10,6
Korxonalar foyda solig‘i	7,9	18,6	17,5	15,5	23,6	26,2	27,0	27,3
Jismoniy shaxs daromad solig‘i	5,2	7,3	6,6	6,7	9,7	9,0	9,4	9,6
Ko‘chmas mulk bo‘yicha ro‘yxatga olish solig‘i	1,0	2,6	3,4	3,5	4,0	m/y	4,2	4,3
Yer QQS (HДC на землю)	m/y	m/y	1,7	3,1	4,2	m/y	4,5	4,6
Boji / Custom duties	6,0	3,8	3,5	2,1	1,1	1,7	1,5	1,4

Manba: State Taxation Administration of PRC : URL: <https://www.chinatax.gov.cn> va 2023–2024 yil yangilangan soliq hisoboti: URL: <https://www.chinatax.gov.cn/eng> (kirish: 05.12.2025).

11.3. DAVLAT QARZI

Xitoyning davlat qarzi ichki va tashqi majburiyatlardan iborat bo‘lib, ular rezidentlar yoki norezidentlar oldidagi qarzga ko‘ra emas, balki qaysi valyutada yaratilganiga ko‘ra - milliy yoki xorijiy valyutadagi qarzlarga ajratiladi. Davlat, korporatsiyalar va uy xo‘jaliklarining umumiy ichki va tashqi qarzlari milliy qarz deb yuritiladi; aynan shu ko‘rsatkich haqida gap ketganda, 300 % - YaIM atrofidagi raqam tilga olinadi.

Xitoyda “davlat qarzi” tushunchasi odatda markaziy hukumat qarzini bildiradi. Mazkur ko‘rsatkich so‘nggi yillarda tez sur‘atlarda oshib, yiliga 2–4 trillion yuanga ko‘payib borib, 2022-yilda 25,87 trillion yuanga yetdi. Bu yalpi ichki mahsulotning 21,4 %ini tashkil etdi, bu esa Yevrozonadagi 92 % yoki AQShdagi 130 % bilan solishtirganda juda pastdir. Tashqi majburiyatlar ichida norezidentlar oldidagi qarz alohida o‘rin tutadi. 2022-yil oxirida Xitoyning norezidentlar oldidagi umumiy tashqi qarzi 2,45 trillion dollarni, YAIMning 13,7 %ini tashkil etdi. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 2,57 trillion dollarga, 2024-yilda esa 2,66 trillion dollarga yetdi (YAIMGa nisbatan mos ravishda 13,5 % va 13,2 %).

11.3.1.-jadval

Xitoyning norezidentlar oldidagi qarzi, mlrd dollar.

Ko‘rsatkich	2010	2015	2019	2020	2022	2023	2024
Norezidentlar oldidagi umumiy qarz, mlrd doll.	548,9	1383,0	2070,8	2400,8	2452,8	2575	2660
YaIMGa nisbatan, %	9,0	12,5	14,5	16,3	13,7	13,5	13,2
Davlatning norezidentlar oldidagi qarzi, mlrd doll.	67,6	111,4	279,0	379,6	436,3	450	462
Umumiy tashqi qarzdagi ulushi, %	12,3	8,1	13,1	15,8	17,8	17,5	17,4

Manba: State Administration of Foreign Exchange (SAFE) <https://www.safe.gov.cn/en/2018/0329/1412.html>
(Murojaat qilingan sanalar: 09.12.2023 va 15.01.2025)

Qarzning katta qismi Xitoyning bank va korporativ sektorlari zimmasiga to‘g‘ri keladi. Davlatning norezidentlar oldidagi tashqi qarzi esa juda kam ulushni

— 2022-yilda 436,3 mlrd dollar (17,8 %)ni tashkil etdi. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 450 mlrd dollar, 2024-yilda 462 mlrd dollar atrofida qayd etildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xitoyda konsolidatsiyalangan, markaziy va mahalliy byudjetlarning farqi nimada?
2. XXR davlat budjeti xarajatlari qanday tuzilishga ega?
3. KNR markaziy va mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarida qanday nomutanosibliklar mavjud?
4. Nima uchun Xitoyda byudjet taqchilligi mavjud? Byudjet taqchilligi qanday qoplanadi?
5. Xitoy soliq tizimini isloh qilishda qanday tendentsiyalar kuzatilmoqda?
6. Xitoyda 2027-yil oxirigacha kichik biznes va tadbirkorlarga qanday imtiyozlar va nimalar munosabati bilan beriladi?
7. XXR byudjeti soliq tushumlarining asosini qanday soliq turlari tashkil etadi?
8. Xitoyning tashqi davlat qarzi va norezidentlarga davlat qarzi qanday taqqoslanadi? Nega bu turli miqdorlar?
9. Xitoyning yashirin davlat qarzi nima? U nimani o'z ichiga oladi?
10. Nima uchun davlat qarzining o'sishi Xitoyning makroiqtisodiy barqarorligiga tahdid solmaydi?

Adabiyotlar:

1. Xitoy iqtisodiyoti, B. Sadibekova, O‘quv qo‘llanma, T., 2018, -298 b.
2. Д.Б.Калашников Экономика Китая, Учебное пособие, Кнорус-Москва -2024. С.307.
3. Новые горизонты экономики КНР в 14-й пятилетке (2021—2025 гг.) / Рос. акад. наук, Инт Китая и совр. Азии; сост. П.Б. Каменнов, А.Д. Александрова; отв. ред. А.В. Островский. — М. : ИКСА РАН, 2022. — 320 с.
4. Yuldashev A.S., Xitoy mintaqalarining iqtisodiy rivojlanishi. – T., 2019. 130 b.

Internet resurslar

1. Xitoy davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti <http://www.stats.gov.cn>
2. Henan provinsiyasi statistika qo‘mitasi rasmiy sayti <http://www.ha.stats.gov.cn>
3. http://en.chinagate.cn/features/Western_Development/201001/04/content_19175519.

12- BOB: XXR IJTIMOIIY SOHASINIING RIVOJLANISHI:

MUAMMO VA YUTUQLARI.

Darsning maqsadi: XXR ijtimoiy sohasiniing rivojlanishi xususiyatlarini tahlillar yordamida uning muammo va yutuqlarini aniqlashdan iborat.

Tayanch iboralar: ‘lim tizimi, sug‘urta, sog‘liqni saqlash, nafaqa tizimi, “dunyo fabrikasi” , raqamli postindustrial iqtisodiyot, oliy ta‘lim muassasalari, maktabgacha ta‘lim

12.1. Ta‘lim tizimi

Xitoy ta‘lim tizimi dunyodagi eng yirik tizimlardan biri bo‘lib, 300 milliondan ortiq o‘quvchi va 30 millionga yaqin o‘qituvchini o‘z ichiga oladi. Xitoy madaniyatida bilim kuchdan ustun qo‘yiladi, shuning uchun o‘qituvchilar jamiyatda katta hurmatga ega.

Mamlakatda majburiy va bepul ta‘lim 3 yoshdan boshlanadi hamda umumiy hisobda 12 yil davom etadi. Uch yillik maktabgacha ta‘lim (bog‘cha) — boshlang‘ich maktabga qabul qilinish uchun majburiy bosqich hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab (6 yil) tugagach, barcha o‘quvchilar imtihonsiz o‘z hududidagi to‘liq bo‘lmagan o‘rta maktabga o‘tkaziladi. To‘liq o‘rta maktabni bitirganlar ham xohishiga ko‘ra 2 yillik professional kollejda o‘qishga o‘tishi mumkin.

Tibbiyot yo‘nalishlari odatda 2 yil ko‘proq davom etadi. 2010-yillarda Xitoyda doktorantlar soni 1990-yillardagi talaba sonidan oshib ketdi: 10 yilda 600 mingdan ortiq doktorant va 6,5 million magistr tayyorlandi.

Xitoyda baholash 100 ballik tizim asosida olib boriladi, o‘tish bali - 60. Pandemiyagacha har yili xorijda ta‘lim olayotgan xitoylik talabalar soni o‘sib borar edi; 2019-yilda ularning soni 703,5 ming nafarga yetgan. Xitoy ta‘lim tizimidagi o‘quvchilar sonining uzoq muddatli o‘sishini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda ayniqsa oliy ta‘limda keskin o‘sish kuzatildi: 2024 yilga kelib talabalarning umumiy soni 43 milliondan oshdi.

2021 yil oxiriga kelib, Xitoyda faoliyat yuritayotgan oliy o‘quv yurtlari soni 2756 tani tashkil etdi, tabiiyki, ularda ta‘lim olayotgan talabalar soni ham ortib bordi.

12.1.1.-jadval

Xitoydagi ta'lim muassasalarida o'qiyotganlar soni, mln kishi

Ko'rsatkich	2024	2023.	2021	2020	2010	2000	1990
Aspirantlar soni	3,80	3,57	3,33	3,14	1,54	0,30	0,09
Oliy ta'lim talabalari	43,00	41,10	34,96	32,38	22,32	5,56	2,06
To'liq o'rta maktab o'quvchilari	27,80	27,30	26,05	24,97	27,12	21,01	12,71
To'liqsiz o'rta maktablar	51,20	50,90	50,18	49,19	52,43	61,18	38,69
Kasb-hunar kollejlari da o'quvchilar	12,90	13,00	13,12	16,60	22,39	28,55	7,64
Boshlang'ich maktab o'quvchilari	108,00	107,60	107,20	107,25	99,11	130,10	122,41
Maktabgacha ta'lim muassasalari	49,20	48,60	48,05	47,18	29,77	24,22	12,72

Manba: Ministry of Education of the PRC (2024-yil fevraldagi rasmiy ma'lumotlar) — <https://www.moe.gov.cn> (kirish: 05.12.2025).

2023–2024 - yillarda bu ko'rsatkich 2800 ta dan oshdi, bu esa oliy ta'lim tizimining barqaror kengayib borayotganidan dalolat beradi.

12.1.2.-jadval

Xitoy ta'lim tizimi muassasalari soni, dona

Ta'lim muassasasi turi	2024	2023	2021	2020	2010	2000	1990	1980
Oliy o'quv yurtlari	2810	2790	2756	2740	2388	1041	1053	633
To'liq o'rta maktablar	14 700	14 620	14 585	14 235	14 058	14 546	15 678	31 300
To'liqsiz o'rta maktablar	52 900	52 750	52 871	52 805	54 823	62 704	71 953	97 557
Kasb-hunar kollejlari	7 100	7 050	7 294	9 896	13 862	19 227	16 383	7 459
Boshlang'ich maktablar	153 900	154 000	154 279	157 979	257 015	353 541	626 072	917 316
Maktabgacha ta'lim muassasalari	298 000	296 500	294 832	291 715	150 420	136 245	112 732	170 419

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi, <https://data.stats.gov.cn> (murojaat sanasi: 05.12.2025).

Aspirantura dasturlari soni ham ortishda davom etib, 2024 yilga kelib 850 dan ortiq ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarda faoliyat yuritmoqda.

Xitoy “dunyo fabrikasi” bosqichidan o‘tib bo‘lgani sababli, professional kollejlari va kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi o‘quvchilar va o‘qituvchilar soni sekin pasaymoqda. Biroq raqamli postindustrial iqtisodiyot uchun yuqori malakali kadrlar talab etilayotgani sababli, oliy ta’lim muassasalari va maktabgacha ta’lim tizimida o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar soni sezilarli darajada oshdi.

12.1.3-jadval

Xitoy ta’lim muassasalaridagi to‘liq stavkali o‘qituvchilar soni, ming nafar

Ta’lim muassasasi	2024	2023	2021	2020	2010	2000	1990	1980
Oliy o‘quv yurtlari	1 920	1 900	1 870	1 830	1 340	660	440	250
To‘liq o‘rta maktablar	2 050	2 040	2 030	1 930	1 520	760	570	210
To‘liqsiz o‘rta maktablar	4 000	3 980	3 970	3 860	3 530	2 960	2 470	2 450
Kasb-hunar kollejlari	720	710	700	680	590	480	330	130
Boshlang‘ich maktablar	6 700	6 660	6 600	6 430	5 620	5 850	5 500	550
Maktabgacha ta’lim muassasalari	3 300	3 250	3 190	2 910	1 460	860	420	60

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi, <https://data.stats.gov.cn> (murojaat sanasi: 05.12.2025).

Zamonaviy iqtisodiyotning xizmatlar sektori avvalambor sanoatni qo‘llab-quvvatlaydi, shu bois talabalarining uchdan bir qismi va aspirantlarning yarmiga yaqini muhandislik yo‘nalishlarida o‘qimoqda. Xitoyda to‘liq stavkali o‘qituvchilar soni ta’lim muassasalari to‘liq stavkalaridan 1,5–2 baravar ko‘pdir. 2024 yilda oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qituvchilar soni 1,9 milliondan oshdi, bu raqam raqamli iqtisodiyot va yuqori texnologiyalar bo‘yicha malakali kadrlarga bo‘lgan talab ortib borayotganidan dalolat beradi.

12.2. Sog‘liqni saqlash tizimi

2021-yil oxiriga kelib, Xitoyda sog‘liqni saqlash tizimida ishlovchilar soni 14 millionga yaqinlashdi. Shundan 11,24 millioni -bevosita tibbiy xodimlar bo‘lib, ular orasida 3,59 million shifokor, 0,7 million feldsher va 5 milliondan ortiq hamshira bor edi. 2023–2024 yillarga kelib tibbiy xodimlar soni barqaror o‘shishda davom etdi:

2024-yilda umumiy tibbiy xodimlar soni 14,8 milliondan oshdi, shifokorlar 4 millionga yetdi, hamshiralalar esa 5,6 millionni tashkil qildi. Bu o'sish Xitoyning so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishga qaratgan investitsiyalarining sezilarli natijasidir.

12.2.1.-jadval

Xitoy sog'liqni saqlash tizimining rivojlanish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2024	2023	2021	2020	2010	2000	1990	1980
Tibbiy muassasalar soni (ming dona):	1 080	1 060	1 031	1 023	937	1 034	1 013	181
— kasalxonalar	38,5	38,1	37,0	35,4	20,9	16,3	14,4	9,9
— poliklinikalar	310	308	307	299	192	241	192	102
Tibbiyot xodimlari (ming nafar):	14 800	14 350	13 983	13 475	8 208	6 910	6 138	7 356
Tibbiy personal, jumladan:	11 900	11 550	11 242	10 678	5 876	4 491	3 898	2 798
— litsenziyaga ega shifokorlar	4 000	3 850	3 590	3 402	1 973	1 303	1 103	710
— litsenziyaga ega feldsherlar	720	710	697	684	440	473	460	443
— diplomli hamshiralalar	5 600	5 400	5 018	4 709	2 048	1 267	975	466
Dorixonachilar	550	540	521	497	354	414	406	308
Shifokor va feldsherlar soni 100 ming aholiga	315	310	304	290	178	170	160	120
Kasalxona o'rinlari soni (ming dona)	7 750	7 600	7 412	7 131	3 872	2 167	1 869	1 196
100 ming aholiga to'g'ri keladigan kasalxona o'rinlari	535	530	525	511	329	238	232	202
O'rinlar bandlik koeffitsienti (%)	75,5	75,0	74,6	72,3	79,0	60,8	80,9	n/d
Qabul qilingan bemorlar soni (mln kishi)	8 900	8 700	8 472	7 741	5 838	m/y	m/y	m/y
Gospitalizatsiya soni (mln)	260	250	240	230,1	141,7	m/y	m/y	m/y

Manba: Xitoy Milliy Statistika Byurosi, <https://data.stats.gov.cn> (murojaat sanasi: 05.12.2025).

Xitoyda o'rtacha kutilayotgan umr davomiyligi so'nggi o'n yilliklarda keskin oshdi: agar, 1964-yilda bu ko'rsatkich atigi 47,59 yosh bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib, 71,40 yoshni, 2019-yilda esa, 76,91 yoshni tashkil etdi. So'nggi yillarda bu ko'rsatkich yanada yaxshilandi: 2023 yilda 78,6 yosh, 2024-yilda esa 79,1 yoshga

yetdi. Aksariyat davlatlardagi kabi Xitoyda ham ayollar erkaklarga qaraganda ancha uzoq yashaydi.

12.2.2.-jadval

Xitoyda o‘rtacha umr davomiyligi va 1 yoshgacha chaqaloqlar o‘limi

Ko‘rsatkich	1964	1982	1990	2000	2010	2020	2023	2024
O‘rtacha umr davomiyligi, umumiy (yil)	47,59	67,63	68,55	71,40	74,83	77,93	78,6	79,1
— erkaklar	46,12	66,18	66,84	69,63	72,38	75,37	76,0	76,4
— ayollar	49,19	69,13	70,47	73,33	77,37	80,96	81,4	82,0
Chaqaloqlar o‘limi (1 yoshgacha), %	83,1*	44,5	42,1	30,1	13,6	6,8	5,5	5,2
— o‘g‘il bolalar	86,9	46,9	44,3	31,9	14,5	7,2	6,0	5,7
— qiz bolalar	79,2	42,0	39,7	26,1	12,6	6,3	5,0	4,8

Manba: Tug‘ilganda kutilayotgan umr ko‘rish, jami (yillar) Xitoy // Jahon banki. URL: <https://data.worldbank.org/indicator/SP.DYN.LE00.IN?view=chart&locations-CN> (kirish sanasi: 08.12.2023); Tug‘ilganda kutilayotgan umr ko‘rish, erkak (yil) Xitoy // Jahon banki. URL: <https://data.worldbank.org/indicator/SP.DYN.LE00.MA.IN?view=chart&locations-CN> (kirish sanasi: 08.12.2023); Tug‘ilganda o‘rtacha umr ko‘rish, ayollar (yillar) - Xitoy // Jahon banki. URL: <https://data.worldbank.org/indicator/SP.DYN.LE00.FE.IN?view=chart&locations-CN> (kirish sanasi: 08.12.2023)/ National Health Commission of China – Health Statistical Yearbook 2023–2024 (murojaat sanasi: 05.12.2025).

2000–2024 yillar oralig‘ida Xitoy sog‘liqni saqlash sohasida jahon miqyosida e‘tirof etilgan yutuqlarga erishdi. Masalan, bir yoshgacha bo‘lgan chaqaloqlar o‘limi 1969 yildagi 83,1% dan 2000 yilda 30,1% ga, 2020 yilda 6,8% ga, 2023 yilda 5,5% ga, 2024 yilda esa 5,2% gacha kamaydi. Bu ko‘rsatkich bugun rivojlangan davlatlar darajasiga yaqin.

Davlat byudjeti barcha darajalarda sog‘liqni saqlash xarajatlarining asosiy manbai bo‘lib qolmoqda. 2020 yilda davlat xarajatlarining ulushi 30,4%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 31,5%, 2024 yilda esa 32% ga oshdi. Aholining shaxsiy xarajatlari esa kamayishda davom etmoqda: 2020 yilda 27,7%, 2023 yilda 26,5%, 2024 yilda 25,5%, bu esa sog‘liqni saqlash tizimining aholiga moliyaviy bosimini pasaytirayotganini ko‘rsatadi.

Xitoyda sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2024 y.	2023 y.	2020 y.	2010 y.	2000 y.	1990 y.	1980 y.
Sog‘liqni saqlash xarajatlari, % YaIM	7,45	7,30	7,18	4,87	4,63	3,95	3,12
Sog‘liqni saqlash xarajatlari, mlrd yuan	8 150	7 800	7 217,5	1 998	458,7	74,74	14,32
Xarajatlar tarkibi (%):							
— davlat xarajatlari	32,0	31,5	30,4	28,7	15,0	15,0	36,4
— ijtimoiy xarajatlar	42,5	42,0	41,9	36,5	25,3	36,3	28,3
— aholining shaxsiy xarajatlari	25,5	26,5	27,7	34,8	59,7	48,7	35,3
Bir kishiga to‘g‘ri keladigan sog‘liqni saqlash xarajatlari, yuan	5 600	5 400	5 112	1491	362	65,4	14,5

Manba: Xitoy Xalq Respublikasi Milliy Statistika Byurosi asosida mualliflar tomonidan hisoblab chiqilgan.
URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (murojaat sanasi: 05.12.2025).

Xitoy sog‘liqni saqlash tizimidagi asosiy muammolar — shahar va qishloq o‘rtasidagi xizmat sifati tafovuti, hamda kam daromadlilar uchun zamonaviy tibbiyotning qimmatligi. Shu sababli 2009 yildan boshlab kichik narxlarda tibbiy xizmatlarni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ular: tibbiy sug‘urta dasturlarini takomillashtirish, dori-darmon ta‘minoti tizimini rivojlantirish, birlamchi tibbiy yordamni kengaytirish, shahar–qishloq aholisi uchun teng imkoniyatlar yaratish va davlat klinikalarini modernizatsiya qilish.

Xitoyda surunkali kasalliklar va aholi qarishi tez o‘smoqda. 2021 yilda keksa aholiga xizmat ko‘rsatadigan 358 ming muassasa faoliyat yuritgan (8,16 mln o‘rin). 11,94 mln nogiron shaxs nafaqa olgan, 15 mln og‘ir nogironlarga parvarish puli to‘langan. Ko‘ngillilik faoliyati ham kengayib, 2021 yilda 190 mln ko‘ngilli ro‘yxatdan o‘tgan, xayriya mablag‘lari 119,3 mlrd yuanga yetgan.

12.3. Ijtimoiy sug'urta tizimi

Xitoy iqtisodiy o'sishi ijtimoiy sug'urta tizimini tez rivojlantirdi. 1990-yillargacha ijtimoiy kafolatlar asosan davlat xizmatchilari va yirik korxonalar ishchilariga tegishli edi. Rivojlanish jarayonida ijtimoiy tafovutlar kuchaydi: Jini indeksi 1990 yildagi 32,2 dan 2010 yilda 43,7 gacha oshgan. 2020 yilda Xitoy milliarderlari soni bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqqan.

Davlat tizimni boshqaradi, ammo asosiy moliyalashtirish ish beruvchilar va xodimlar hisobidan amalga oshiriladi. Aholi qarishi kuchayib borayotgani uchun Milliy ijtimoiy ta'minot jamg'armasi tashkil etilgan. 2020 yilda pensiya badallari 5,07 trln yuanni tashkil qildi, pensiya to'lovlari esa 5,76 trln yuanga yetdi. Xitoyda ijtimoiy ta'minot besh turdagi sug'urta va uy-joy jamg'armasidan (五險一金 — “Usyan Yitsin”) iborat.

12.3.1.-jadval

Xitoyda ijtimoiy sug'urta tizimi 2025 yil boshiga ko'ra, %

Sug'urta turi	Xodim to'lovi (%)	Ish beruvchi to'lovi (%)
Pensiya sug'urtasi — 养老保险	8	12–20
Tibbiy sug'urta — 医疗保险	2	5–10
Ishsizlik sug'urtasi — 失业保险	0,2–1	0,3–1
Ish jarohatlari (ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar) sug'urtasi — 工伤保险	To'lamaydi	0,1–0,8
Homiladorlik va tug'ruq bo'yicha sug'urta — 生育保险	To'lamaydi	0,4–0,8 (ba'zi hududlarda erkaklar uchun ham amal qiladi)
Uy-joy jamg'armasi — 公积金	Hududga qarab farq qiladi	To'lamaydi

Manba: Xitoy Inson resurslari va ijtimoiy ta'minot vazirligi URL: <http://www.mohrss.gov.cn/> (murojaat qilingan sana: 05.12.2025)

Ma'lumotlarning barchasi yagona ijtimoiy sug'urta kartalarida (社保卡) jamlanadi, ular UnionPay bank kartasi funksiyasiga ega. Xorijlik xodimlar sug'urtaga majburiy ulanishi shart, ammo uy-joy jamg'armasiga faqat Xitoy fuqarolari badal to'laydi. Badallar mintaqaga qarab farq qiladi va yil davomida o'zgarishi mumkin. Xitoyda davlat tibbiy sug'urtasi uch asosiy dasturdan iborat:

1. Shaharlik ishchilarning bazaviy tibbiy sug'urtasi (UEBMI),
2. Shahar aholisi – talabalar va pensionerlarning sug'urtasi (URBMI),
3. Qishloq aholisining kooperativ tibbiy sug'urtasi (NCMS).

2012 yildan boshlab, og‘ir kasalliklarni qoplovchi **critical illness insurance** joriy qilindi, bu dastlab 20 asosiy kasallikni qoplardi, hozir esa hayot uchun xavfli kasalliklarning ko‘p qismini moliyaviy jihatdan qamrab oladi.

Sug‘urta tizimi xarajatlarning hammasini qoplamaydi: aholiga odatda 30–80% xarajatni o‘z hisobidan to‘lashga to‘g‘ri keladi. Xarajatlar miqdori bir shaharning o‘zida ham shifoxonalar bo‘yicha farqlanadi. Sug‘urta tizimi ish beruvchilar uchun xarajatlarni sezilarli oshirdi — 2010-yillarga kelib ishchi o‘rni qiymati taxminan 1,5 baravar ko‘paydi.

Aholi oylik maoshidan 2%, ish beruvchilar esa 5–10% miqdorida tibbiy sug‘urta badallarini to‘laydi. 1980–2000 yillarda tibbiy xarajatlarning og‘ir yukini asosan aholi ko‘targan (59% gacha). 2000–2020 yillarda esa ijtimoiy sug‘urta tizimi kengayishi natijasida bu ko‘rsatkich 27,7% ga tushdi, jamiyat xarajatlari esa 42% ga ko‘tarildi.

XXRsi nafaqa tizimida ham yangi o‘zgarishlar bo‘lib, aholining shaxsiy pensiya jamg‘armalariga qiziqishini kuchaytirish uchun soliq imtiyozlari joriy etilgan. Fuqarolar yiliga 12 000 yuangacha mablag‘ni shaxsiy nafaqa hisob varaqlariga o‘tkazishi mumkin.

2025 yil oxiriga kerib, Xitoyning xususiy nafaqa bozori 1,7 trln dollarga yetishi bashorat qilinmoqda. Xorijiy kompaniyalar ham ushbu sektoriga jalb qilinmoqda (BlackRock CCB, Goldman Sachs & ICBC, Amundi & Bank of China).

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xitoy ta’lim tizimining asosiy o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
2. Xitoy sog‘liqni saqlash tizimining shahar va qishloq o‘rtasidagi farqi qanday muammolarni keltirib chiqaradi?
3. Xitoyda tibbiy sug‘urtaning uch asosiy dasturi qanday vazifalarni bajaradi?
4. Xitoyda ijtimoiy sug‘urta tizimi ish beruvchilar xarajatlariga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
5. Xitoyning davlat va xususiy nafaqa tizimi o‘rasidagi farqlar nimada?
6. 2000–2020 - yillarda tibbiy xarajatlarning aholi zimmasidagi ulushi qanday o‘zgardi va bunga nima sabab bo‘ldi?

7. XXRda dunyoda 300talikka kiruvchi universitetlar soni nechta va ular qaysilar?

8. XXRsi nafaqa tizimidagi yangi o'zgarishlar nimalardan iborat?

Mustaqil ish vazifalari:

1. Xitoy sug'urta bozorining zamonaviy holati bo'yicha taqdimot tayyorlang.

2. XXR si oliy ta'limdagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari bo'yicha svod tahlil ishlab chiqing.

Adabiyotlar:

2. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik.* — Toshkent: Baktria Press, 2015. — ___ b.

3. World Bank. *World Development Report 2019.* — Washington, DC: World Bank, 2019. — 398 p.

4. World Economic Forum. *The Global Competitiveness Report 2018–2020.* — Geneva: WEF, 2020.

5. The Global Competitiveness Report 2018-2020.

6. Страны и регионы мира. Экономический справочник, 3-е издание, Под ред. д.э.н. А.С.Булатова, -М.: Проспект, 2009.-С.704.

7. Аналитический доклад о стратегии Китая «идти во вне». Под ред. Хао Дунфу. «Чжунгун чжуньян даньсяо чубаньшэ», Бэйцзин, 2004 (на китайском языке).

13-BOB: XITOIY IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING TASHQI OMILLARI

Darsning maqsadi: Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishining tashqi omillari hisoblangan migratsiya, tashqi savdo va investitsiya jarayonlarini chuqur o‘rganish va tahlil etish hixoblanadi.

Tayanch iboralar: migratsiya, tashqi savdo, eksport, import, ASEAN, AQSh, ES, Yaponiya, global geoiqtisodiy manfaatlar, Xitoy - Markaziy Osiyo.

13.1. Xitoy migratsiya jarayonlarida

Xitoy XX asr oxiri – XXI asr boshlarida jahon migratsiya jarayonlarining eng yirik ishtirokchilaridan biriga aylandi. 1978 yildan keyingi islohotlar davrida Xitoydan tashqi emigratsiya oqimi keskin kuchaydi va “yangi diaspora” shakllandi. Rasmiy baholarga ko‘ra, 2010 yilga kelib xorijda yashayotgan xitoyliklar soni 45 mln kishidan oshgan bo‘lsa, boshqa manbalarda bu ko‘rsatkich 60 mln nafardan ortiq deb baholanadi. Xitoy emigrantlarining taxminan 80 foizi Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida istiqomat qiladi, qolgan qismi AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Avstraliyaga to‘g‘ri keladi. AQShda xitoylik immigrantlar soni 1980 yildagi 299 ming kishidan 2016 yilda 2,1 mln nafargacha oshgan.

Avvalgi emigratsiya to‘lqinlaridan farqli ravishda, zamonaviy xitoy emigrantlari yuqori malakali, ta‘limli va tadbirkorlik tajribasiga ega bo‘lib, ular qabul qiluvchi davlatlar iqtisodiyotida muhim rol o‘ynamoqda. Xitoy diasporasi ko‘plab mamlakatlarda xususiy kapitalning katta qismini nazorat qiladi va investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etadi. Emigratsiyaning muhim maqsadlaridan biri ilg‘or ta‘lim olish va yuqori texnologiyali sohalarda tajriba to‘plashdir. Shu bilan birga, xorijda tahsil olgan xitoyliklarning bir qismi vataniga qaytib, milliy innovatsion rivojlanishga hissa qo‘shmoqda.

Xitoy iqtisodiyotidagi tarkibiy tub o‘zgarishlar dunyodagi eng katta migratsiya oqimini yuzaga keltirdi. Xitoy hukumatining migratsiya oqimini tartibga solish strategiyasi migratsiya sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, migratsiya qonunchiligi normalari, shuningdek migratsiya jarayonlarini tashkil etuvchi sub’ektlarning va jismoniy shaxslarni mamlakat ichkarisida hamda uning ayrim xududlarida

harakatlanishlari, ko'chib borishi, joylashishi, o'rnashishi va integratsiyalashuvini rag'batlantirishni ta'minlash va nazorat etish omillarini davlat tomonidan boshqaruv mexanizmiga asoslangan.

Xitoy milliy migratsiya siyosatining asosiy yutug'i - uning bosqichma-bosqichligi, strategik yo'naltirilganligidir. Mamlakatning milliy migratsiya siyosatining barcha to'rt bosqichining rivojlanishi; qishloqdan shaharga mehnat migratsiyani to'la cheklashdan migratsiya menedjmentining milliy standartlarining tizimini joriy etilganligidir.

Xitoy iqtisodiy yangilanishni amalga oshira boshlagan davrda, ichki milliy migratsiyani tartibga solish, birinchi navbatda "qishloq joylardan - shaharga" yo'nalishida amalga oshirildi. Avval (1979–1983yy.) hukumat qishloq joylardan shaharga mehnat migratsiyasi ta'qiqlashga harakat qilgan edi. Keyinchalik esa, (1984 - 1988yy.) hukumat xitoy dehqonlariga shaharga ko'chib o'tishga, o'z - o'zini oziq ovqat bilan (qishloqda qolgan qarindoshlari hisobiga) ta'minlash shartda ruhsat bera boshladi. Bunday qattiq cheklovlar bo'lishiga qaramasdan, ichki migratsiya shunchalik yuqori ediki, 1995-yilga kelib xitoy shaharlari ishsizlik, jinoyatchilikning o'sishi va aholining ko'pligi muammolariga duch kelishdi. Bu 1995 - 2002-yillarda mamlakatda davlat migratsiya siyosatining qattiqlashuviga sabab bo'ldi.⁸⁹

Lyu Gofuning aytishicha, istalgan mamlakatning migratsiya siyosati mamlakatga foydali insonlarni jalb etishga, shu vaqtning o'zida mamlakat rivojlanishiga foydali bo'lmaganlarning kiritmaslikka yo'naltirilgan.

Shu sabali Xitoyga mukammal migratsiya siyosati va qonunlar, Xitoy hududiga faol qonuniy kirishlar va noqonuniy kirishlarni qattiq to'sqinlik qilish zarur.

Migratsiya masalasi aholisi jadallik bilan ko'payayotgan XXR, xitoy millati vakillari, shuningdek xan xorijdagi diasporasi uchun yanada dolzarblik kasb etdi.⁹⁰

⁸⁹ Huang Ping, Frank N. Pieke. China Migration Country study. Migration development pro-poor policy choices in Asia. Dhaka. 2003. P. 3

⁹⁰ Козыкина Н.В. Движущие силы Китайской международной миграции // Вестник читинского государственного университета. 2011. №1. С.69

Xitoy milliy statistika agentligining ma'lumotiga ko'ra 2011 yilga kelib ichki migrantlar soni 271 million kishini tashkil etgan.⁹¹ Emigrantlar soni Xorijiy diasporani hisobga olgan holda -30 million kishini tashkil etgan⁹². Migratsiya jarayonlarining intensivligi jihatidan esa XXRga raqobatchi yo'q.

Migratsiya jarayonlari Xitoy Xalq Respublikasida demografik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim harakatlantiruvchi omillaridan biri bo'lib xizmat qildi. Shu sababli aholi mobilligini tartibga solish tizimini tarixiy-retrospektiv nuqtai nazardan tahlil qilish nafaqat Xitoy uchun dolzarb ahamiyatga ega, balki boshqa rivojlangan davlatlarda yangi migratsiya siyosati konsepsiyalarini ishlab chiqish, ularni joriy etish shart-sharoitlarini baholash hamda eng samarali yondashuvlarni tanlash uchun ham muhim hisoblanadi.

Zamonaviy demografik va iqtisodiy sharoitlarda XXRsi milliy migratsiya siyosatining maqbul: mehnat taklifi sonining o'sishini cheklash strategiyasidan uning sifat progressi faktorlarini izlash yo'nalishlarga o'zgartirishga ehtiyoji vujudga keldi. Mamlakat statistikasi shuni ko'rsatadiki, endi Xitoyni, mamlakatda mavjud ishchi kuchlarini uning qarishini inobatga olgan holda, o'rta va uzoq muddatli kelajakda samarali foydalanish muammosi dolzarbligi sababli cheklanmagan mehnat zahirasiga (ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida) ega mamlakat deb atab bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda migratsiya siyosatining xorijga biznes va mehnat migratsiyasi ning rivojlanishi muhim strategik yo'nalish hisoblanadi va uni to'rt asosiy turga bo'lish mumkin:

1. Biznes migratsiya (investorlar va badavlat biznesmenlarning migratsiyasi) mahsus dastur asosida yoki doimiy yashash uchun.

2. Xitoy korxonalarini yoki filiallarini xorijda ochish va tegishli xodimlar shtatini xitoylik ishchilar hisobiga shakllantirish. Bunday yo'nalish xitoy korxonalarini tashqi iqtisodiy zabt etish umumdavlat strategiyasini namoyon qiladi.

⁹¹ China's Total Population and Structural Changes in 2011 [Электронный ресурс].

⁹² Анохина Е.С. «Новая» китайская миграция и политика КНР по ее регулированию в 1978 - 2008 гг. Автореферат. дис. ... канд. истор. наук. – Томск, 2010

3. Ishchi kuchi eksporti uch turdagi shartnomalarni tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi:

- Xitoylik davlat va xususiy korxonalar va xorijiy vakolatxonalar, korxonalar va tashkilotlar tomonidan, asosan tender asosida injenerlik, pudrat va qurilish ishlari Kontrakti («dui waicheng baogongcheng»). Ishchi kuchini xorijga olib chiqish faoliyatning tegishli turi bilan shug'ullanish uchun lisenziyasi mavjud bo'lgan qurilish va injenerlik - pudrat kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Ishchi kuchi sohasidagi hamkorlik shartnomalari («dui wailao wuhezuo»);

- tor sohaga ixtisoslashgan ishchi kuchlari (o'rmonchilik, qishloq xo'jaligi). Ishchi kuchlarini shartnoma asosida xorijga olib chiqish agentliklar yordamida amalga oshiriladi;

- konsalting va injiniring xizmatlari injenerlik - pudrat kompaniyalar orqali o'tadi.

4. Xitoylik mutaxassis va xizmatchilarni xorijda yakka tartibda ishga joylashuvi malakali mutahassislarni ishga joylashtirish yoki almashish xorijiy mamlakatlar bilan xamkorlik agentligi orqali amalga oshiriladi. Qoida tariqasida yakka tartibda ishga joylashtirishda malakali ishchilarni chiqishi amalga oshiriladi. Mamlakatdan chiqishni liberallashtirilishi sharofati bilan, yakka tartibda ishga joylashish maqsadida xorijga chiqish imkoniyati vujudga keldi.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, XXI asr boshida xorijda ishlayotgan xitoylik fuqarolarning soni 80000 kishidan ortgan, lekin, oxirgi yillarda malakali mutahassislarning migratsiyasi pasayishi, iqtisodning rivojlanishi munosabati bilan malakali mutahassislarga ichki ehtiyojning ortishi bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan.

Xorijiy tadqiqotchilarning fikricha, ishsizlik va inflyatsiyaning o'sishi, shuningdek ichki ishchi kuchiga bosimning kamaytirish uchun xitoy xukumati xorijda biznes yuritishni rag'batlantirishga majbur bo'ldi. Liberallashtirish biznes migratsiyasini o'sishini boshlab berdi. Kapital qo'yilmalarning aktivligining cho'qqisi 1980 - 90- yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri keldi. Ammo, ochiqlik islohoti boshlangandan keyin mamlakat ichkarisida kapital taqchilligi vujudga

kelgani ko'ring. Biroq, XXR hukumati mavjud vaziyatni muqobillashtirish va muammolarni yechish uchun qator me'yoriy chora tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Xitoyning ilmiy tekshirish va globallashtirish Markazi (Center for China and Globalization, CCG) Xitoy tilida "Jahon migratsiyasi to'g'risida Ma'ruza"ni e'lon qildi. Ma'ruzada keltirilishicha, Xitoy migratsiya uchun maqbul joy hisoblana boshlangan, ushbu asrning birinchi o'n yilligi davomida Xitoyga migratsiya qiluvchilar soni 35% oshgan.

Migratsiya masalalari bo'yicha Jahon tashkilotining "2018 yilda Jahon migratsiyasi to'g'risida Hisoboti"da, avvallari nazardan qolib ketgan tendensiya aniqlangan: daromad yuqori bo'lgan mamlakatlardan daromad past bo'lgan mamlakatlarga migrantlar soni doimo ortib bormoqda (bu yangi "Shimoldan janubga migratsiya" nomini oldi), bu tendensiya yanada aniqroq bo'lib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, BMBY loyihasi doirasidagi mamlakatlarda migratsion jarayonlar shiddatli kechmoqda. Janub-Janub yo'nalishidagi migratsiya oqimi endilikda o'rta daromadli mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishni yangi bosqichga chiqishiga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy o'sish va rivojlanishga qaratilgan islohotlar esa oqibatda jamiyatda farovonlik, insonlar hayot darajasida yuksalishga sabab bo'lmoqda.

13.2. Xitoyning xalqaro kapital harakati: chet el investitsiyalari va Xitoydan xorijga investitsiyalar

So'nggi o'n yilliklarda Xitoy Xalq Respublikasi jahon xo'jaligi tizimida xalqaro kapital harakatining eng muhim ishtirokchilaridan biriga aylandi. Xitoy bir tomondan yirik miqdorda chet el kapitalini jalb qiluvchi davlat bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'z kapitalini xorijiy mamlakatlarga faol eksport qilayotgan global investor sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu ikki yo'nalish Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi o'rni va ta'sirini tubdan o'zgartirdi.

Xitoyga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari (PPI)

2000–2022 yillar davomida Xitoyga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining (PPI) hajmi keskin oshdi. 2000–2020 yillarda jamg'arilgan PPI hajmi 10 barobarga, 2000–2022 yillarda esa qariyb 20 barobarga ko'paydi. Natijada

Xitoyning jahon PPI oqimidagi ulushi 14,6 foizga yetdi, jamg'arilgan investitsiyalar hajmi esa 2022 yil oxiriga kelib 3,8 trillion AQSh dollaridan oshdi. Bu ko'rsatkich Xitoyni dunyodagi eng yirik investitsiya qabul qiluvchi davlatlardan biriga aylantirdi.

Pandemiya sharoitiga qaramay, 2021 yilda Xitoyga kiritilgan chet el investitsiyalari deyarli ikki baravar oshdi. Bu holat Xitoyning iqtisodiy barqarorligi, keng iste'mol bozori va rivojlangan sanoat infratuzilmasi bilan izohlanadi. Xitoy hozirda jahon sanoat ishlab chiqarishida qo'shilgan qiymatning 30 foizdan ortig'ini shakllantiradi va qisqa muddatda boshqa mamlakatlar tomonidan to'liq almashtirilishi qiyin bo'lgan ishlab chiqarish zanjirlariga ega.

Shu bilan birga, 2022 yil ikkinchi yarmidan boshlab Xitoyga PPI oqimi sezilarli darajada qisqardi. AQSh va boshqa rivojlangan davlatlar tomonidan yuqori texnologiyali sohalarga investitsiyalarni cheklovchi sanksiyalar joriy etilishi, strategik ishlab chiqarishlarni reshoring qilish siyosati PPI oqimining 2023 yilning ikkinchi choragiga kelib deyarli nolga tushishiga olib keldi. Ushbu vaziyatga javoban, 2023 yil avgust oyida XXR Davlat kengashi chet el investorlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi soliq imtiyozlari va institutsional choralarni o'z ichiga olgan keng qamrovli rag'batlantiruvchi paketni e'lon qildi.

Investitsiya siyosati va tarmoqlar bo'yicha yo'nalishlar

Xitoyda chet el investitsiyalarini tartibga solish bosqichma-bosqich liberallashtirilgan tizimga asoslanadi. Investitsiya sohalari rag'batlantiriladigan, ruxsat etilgan, cheklangan va taqiqlangan turlarga ajratilgan. 1990-yillarda chet el kapitali asosan mehnat talab qiluvchi eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarga jalb qilingan bo'lsa, XXRning JSTga a'zo bo'lishidan keyin investitsiyalar infratuzilma, ko'chmas mashinasozlik, mulk, kimyo sanoati, elektronika, energetika va ilmiy-tadqiqot sohaslariga yo'naltirildi.

So'nggi davrlarda PPI tarkibida xizmatlar sektori, ko'chmas mulk faoliyati, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (NIOKR), shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohaslarining ulushi sezilarli darajada kengaydi.

Aksincha, qayta ishlash sanoatining jamg'arilgan investitsiyalardagi ulushi 2005 yildagi 61 foizdan 2021 yilga kelib 20 foizgacha kamaydi. 2021 yilda Xitoyga kirgan PPI ning qariyb 80 foizi xizmatlar va innovatsion tarmoqlarga to'g'ri keldi.

Xitoy hukumati chet el kapitali faqat milliy kompaniyalar yetarli darajada raqobatbardosh bo'lgan sohalargagina keng kirishiga ruxsat beradi. Bu yondashuv milliy sanoatni himoya qilish va texnologik mustaqillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, chet el investitsiyalari Xitoyda faqat foyda manbai emas, balki iqtisodiy modernizatsiyaning muhim instrumentiga aylangan.

Xitoyning xorijga investitsiyalari (kapital eksporti)

Xitoy nafaqat kapital qabul qiluvchi, balki yirik kapital eksport qiluvchi davlat sifatida ham shakllandi. Xitoy kompaniyalari Osiyo, Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasida infratuzilma, energetika, logistika, sanoat va moliya sohalarida faol investitsiya siyosatini olib bormoqda. Ayniqsa, "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar Xitoyning xalqaro kapital harakatidagi rolini keskin kuchaytirdi.

Xitoydan xorijga investitsiyalar strategik xarakterga ega bo'lib, xomashyo manbalariga chiqish, transport yo'laklarini nazorat qilish, yangi bozorlarni egallash va milliy kompaniyalarni globallashtirish jarayoniga olib chiqishni ko'zlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon Xitoy iqtisodiyoti uchun ham muayyan xatarlarni keltirib chiqaradi: tashqi qarz yuki, siyosiy beqarorlik va qabul qiluvchi mamlakatlarda qarshiliklar kuchayishi ehtimoli mavjud.

13.3. Xitoy tovar va xizmatlarining global aylanishi: tashqi savdo siyosati, tarmoq va geografik tuzilma

Xitoy tashqi savdosi so'nggi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotining eng muhim omillaridan biriga aylandi. 2021 yilda Xitoyning umumiy tashqi savdo aylanmasi 6 trln dollardan oshdi, bunda eksport 3,36 trln dollarni, import esa 2,69 trln dollarni tashkil etdi. Eksport tarkibida mashina va transport vositalari, elektronika, yuqori texnologiyali mahsulotlar ustunlik qiladi. 2020–2021 yillarda qayta ishlangan sanoat mahsulotlari Xitoy eksportining 95 foizdan ortig'ini tashkil etdi, bu mamlakatning "jahon fabrikasi" sifatidagi rolini mustahkamladi.

13.3.1.-jadval

Xitoyning tovarlar va xizmatlar eksporti va importi, mlrd AQSh dollari

Ko'rsatkich	2023 y.	2022 y.	2021 y.	2020 y.	2010 y.	2000 y.	1990 y.
Tovarlar va xizmatlar eksporti va importi, jami	6 940	6 960	6 646	5 095	3 089	477	88
shundan: eksport	3 560	3 595	3 554	2 732	1 656	253	49
import	3 380	3 365	3 092	2 363	1 433	224	39
Faqat tovarlar savdosi, jami	6 180	6 300	5 869	4 479	2 718	406	78
shundan: tovarlar eksporti	3 420	3 600	3 216	2 497	1 478	218	41
tovarlar importi	2 760	2 700	2 653	1 982	1 240	188	34

: State Administration of Foreign Exchange (SAFE), Balance of Payments Statistics URL: <https://www.safe.gov.cn/en/> (Murojaat qilingan sana: 15.12.2025)

Geografik jihatdan Xitoy tashqi savdosi tobora diversifikatsiyalanib bormoqda. Agar ilgari asosiy savdo hamkorlari AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda ASEAN mamlakatlari yetakchi o'ringa chiqdi. 2021 yilda ASEAN bilan savdo ulushi 14,5 foizga yetdi va Yevropa Ittifoqini ortda qoldirdi. Xizmatlar savdosi ham jadal rivojlanib, transport, telekommunikatsiya, moliyaviy va raqamli xizmatlar Xitoyning global xizmatlar bozoridagi mavqeini kuchaytirdi.

Xitoy tashqi savdosining hajmi va eksport tarkibidagi tarkibiy o'zgarishlar

Har bir davlatning tashqi savdo siyosati hukumat tomonidan olib boriladigan umumiy iqtisodiy strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tor ma'noda esa, u eksport va import jarayonlarini, tovar oqimlarining hajmi, tarkibi hamda ularning geografik yo'nalishlarini tartibga solishga qaratilgan moliyaviy va soliq mexanizmlari majmuasini o'z ichiga oladi. Tashqi savdo siyosati mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ichki omillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, uning asosiy vazifasi milliy iqtisodiyotda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash va milliy boylikni oshirish uchun qulay tashqi iqtisodiy muhitni shakllantirishdan iboratdir.

“Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishning yangi omillariga o'tishida, mamlakat tashqi savdosida sifat ko'rsatkichlarining oshishiga olib boruvchi o'zgarishlar kuzatilmoqda”.

XXR tijorat vazirligining tashqi savdo boshqarmasini boshlig'ining o'rinbosari Tzyan Veyning fikricha, importning nminimal darajada oshishi qator faktorlaga bog'liq bo'lgan:

- "Birinchiidan, bir necha oylar davomida Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlarining sekinlashuvi kuzatilmoqda;
- Ikkinchiidan, xitoy sanoatida importni qoplovchi ishlab chiqarish rivojlanayotgani kuzatilmoqda;
- Uchinchiidan, mamlakatda mehnat talab ishlab chiqarishni sekinlashuvi ro'y bermoqda, ular esa, mamlakatda importni oshishiga an'anaviy yordam berar edi;
- To'rtinchiidan, tabiiy resursklarga narxlarning pasayishi, ayniqsa, neftga, ko'rsatkichlarni qisqarishiga qo'shimcha sabab bo'ldi", - deb Tzyan Vey ta'rif berdi. Iqtisodiyotining o'sish sur'atlari 7,7%gacha sekinlashdi, 2014-yilda esa, 7,3%ni tashkil qildi⁹³.

XXR tovarlar eksporti hajmi bo'yicha, dunyoda 1-o'rinni egallaydi, xorijga tovar yetqazib berishda davlat valyuta daromadlarining 80%iga yaqinini ta'minlaydi. Mamlakat eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 mln.k.ga yaqin aholi band bo'lib, jahon xorij bozorlariga 50 ming turdagi sanoat va qishloq xo'jalik yalpi mahsulotlarining deyarli 20%i eksport qilinadi. Xitoy iqtisodiyotining tovarlar eksportiga bog'liqlik darajasi 2017 yilda 18,5%ni tashkil etdi (2016 yilda – 19,4%).

13.3.2.-jadval

Xitoyning tovar va xizmatlar eksporti va importi, mlrd AQSh dollari

Ko'rsatkich	2023	2022	2021	2020	2019	2010	2000	1990
Xizmatlar eksporti va importi, jami	933	880	776	616	750	371	71	12
Eksport	402	394	338	235	244	178	35	8
Import	531	486	438	381	506	193	36	4
Ishlab chiqarish xizmatlari eksporti	18	16	14	13	16	25	5	2
Ta'mirlash va texnik xizmatlar eksporti	10	9	8	8	10	0	0	0

⁹³ World Economic Statistics

Ko'rsatkich	2023	2022	2021	2020	2019	2010	2000	1990
Transport xizmatlari eksporti	162	149	127	57	46	34	4	2
Turistik xizmatlar eksporti	28	18	11	14	36	46	16	2
Qurilish xizmatlari eksporti	18	17	15	13	14	15	0,6	0,1
Sug'urta xizmatlari eksporti	6	6	5	5	5	1,7	0,1	0,2
Moliyaviy xizmatlar eksporti	7	6	5	4	4	1,3	0,1	0
Intellektual mulk huquqlari eksporti	16	14	12	8	6	0,8	0,1	0
Telekommunikatsiya xizmatlari eksporti	68	59	51	39	35	11	1,7	0,2
Boshqa biznes xizmatlari eksporti	109	98	87	70	69	43	7	0,9

Manba: muallif tomonidan Xitoy Davlat Valyuta Boshqarmasi (SAFE), Xitoy Milliy Statistika Byurosi va Jahon banki ma'lumotlari asosida tuzilgan. SAFE: <https://www.safe.gov.cn> NBS China: <https://data.stats.gov.cn> World Bank: <https://data.worldbank.org> Murojaat sanasi: 12.12.2024

Xitoyning tashqi savdosi so'nggi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotida misli ko'rilmagan darajada o'sdi. 1990 yilda Xitoyning eksport va importining umumiy hajmi atigi 88 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich 3,1 trln dollarga, 2021 yilda esa 6,6 trln dollarga yetdi. 2021 yilda eksport hajmi 3,55 trln dollarni, import esa 3,09 trln dollarni tashkil etdi.

Eksport tarkibida eng katta ulush mashinalar, uskunalar va transport vositalariga to'g'ri kelib, ularning ulushi 2021 yilda 48,1 % ni tashkil etdi (1980 yilda atigi 4,7 %). Aksincha, mineral yoqilg'i eksporti ulushi 1980 yildagi 23,9 % dan 2021 yilda 1,3 % gacha qisqardi. Bu Xitoyning xom ashyo va yoqilg'i eksportchisidan yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchisiga aylanganini ko'rsatadi. Quyida Xitoy tashqi savdosidagi uning tovarlar eksportining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanish dinamikasini 13.3.3.-jadval orqali ko'rib chiqamiz.

13.3.3.-jadval

Xitoy tovarlari eksportining tarmoqlar bo'yicha tarkibi, %

Ko'rsatkich	2023	2022	2021	2020	2010	2000	1990	1980
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar (SITC 0)	1,9	2,0	2,1	2,5	2,6	4,9	10,6	16,6
Ichimliklar va tamaki (SITC 1)	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,3	0,5	0,4
Yo'qilg'idan tashqari xom ashyo (SITC 2)	0,5	0,6	0,6	0,6	0,7	1,8	5,6	9,4
Mineral yoqilg'i (SITC 3)	1,1	1,2	1,3	1,2	1,7	3,2	8,4	23,9
Yog'lar va moylar (SITC 4)	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0	0,0	0,3	0,3
Kimyo mahsulotlari (SITC 5)	8,6	8,2	7,8	6,5	5,6	4,8	6,0	6,1
Materiallar bo'yicha tasniflangan buyumlar (SITC 6)	15,2	15,7	16,1	16,8	15,8	17,1	20,3	22,2
Mashina, uskunalar va transport vositalari (SITC 7)	50,3	49,6	48,1	48,6	49,4	33,3	9,5	4,7
Turli tayyor sanoat mahsulotlari (SITC 8)	21,5	22,0	22,6	22,6	24,0	5,1	20,5	15,6
Boshqa sanoat mahsulotlari (SITC 9)	0,8	0,9	1,2	1,1	0,1	0,0	18,7	1,2

Manba: Xitoy Milliy statistika byurosi (National Bureau of Statistics of China)
 URL: <https://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01> (murojaat sanasi: 15.12.2025).

Import tarkibi va tashqi savdoning geografik yo'nalishlari

Xitoy importi asosan sanoat rivoji uchun zarur bo'lgan resurslar va texnologiyalarga yo'naltirilgan. 2021 yilda import tarkibida mashinalar va uskunalar 37,4 % ni, xomashyo va mineral yoqilg'i esa jami 30,9 % ni (xomashyo – 15,9 %, mineral yoqilg'i – 15,0 %) tashkil etdi.

Endi Xitoy tashqi savdosidagi import mahsulotlari nomenklaturasi asosan, xom ashodan iborat bo'lib, shu pozitsiyaning tovarlar importidagi dinamikasini quyidari 13.3.4.-jadvalasosida tahlil qilamiz.

13.3.4.-jadval

Xitoy tovarlari importining tarmoqlar bo'yicha tarkibi, %

Ko'rsatkich	2025 prognoz	2024	2023	2022	2021	2020	2010	2000	1990	1980
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar (SITC 0)	5,1	5,0	4,9	4,8	4,6	4,7	1,6	2,1	6,2	14,5

Ko'rsatkich	2025 prog noz	2024	2023	2022	2021	2020	2010	2000	1990	1980
Ichimliklar va tamaki (SITC 1)	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,2	0,2	0,3	0,2
Yoqilg'idan tashqari xomashyo (SITC 2)	15,0	15,2	15,5	15,7	15,9	14,6	15,2	8,9	7,7	17,8
Mineral yoqilg'i (SITC 3)	13,5	14,0	14,6	15,2	15,0	13,1	13,5	9,3	2,4	1,0
Yog'lar va moylar (SITC 4)	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,5	0,6	0,4	1,9	1,2
Kimyo mahsulotlari (SITC 5)	10,8	10,5	10,2	10,0	9,8	10,3	10,7	13,3	12,6	14,5
Materiallarga asoslangan buyumlar (SITC 6)	7,3	7,5	7,6	7,7	7,8	8,2	9,4	18,7	16,8	20,8
Mashina, uskuna va transport vositalari (SITC 7)	39,0	38,5	38,0	37,8	37,4	40,1	39,3	40,9	31,9	25,5
Tayyor sanoat mahsulotlari (SITC 8)	7,0	6,8	6,6	6,4	6,3	7,1	8,2	5,7	4,0	2,7
Boshqa sanoat mahsulotlari (SITC 9)	1,4	1,6	1,7	1,8	2,2	1,1	1,3	0,7	17,0	1,6
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Manba : muallif tomonidan National Bureau of Statistics of China hisobotlari — URL: <https://data.stats.gov.cn> va General Administration of Customs of China hisobotlari bilab tuzildi. URL: <http://english.customs.gov.cn> (murojaat sanasi: 15.12.2025).

Geografik jihatdan Xitoy tashqi savdosi sezilarli darajada diversifikatsiyalandi va quyida Xitoyning tashqi savdodagi yirik hamkorlari bilan eksport va import bo'yicha aloqalar dinamikasini navbatdagi 13.3.5.-jadval orqali ko'rib chiqamiz.

13.3.5.-jadval

Xitoyning eng yirik savdo hamkorlari, mlrd AQSh dollari

(Xitoy eksporti / importidagi ulushi)

Mamlakat / hudud	2025 prognoz		2024		2023		2022		2020		2010	
	eksp ort	imp ort	eksp ort	imp ort	eksp ort	imp ort	eksp ort	imp ort	ekspo rt	impor t	eksp ort	imp ort
AQSh	510	160	495	155	470	150	455	145	451,7	135,3	283,3	102,1
Gonkong	260	190	255	185	245	180	235	175	272,6	174,7	218,3	176,7
Yaponiya	170	200	165	195	160	190	150	180	142,6	173,1	121,0	138,3
Vyetnam	160	230	150	220	140	215	130	205	113,8	200,5	23,1	115,7
Koreya Respublikasi	155	150	150	145	145	140	135	130	112,5	117,7	68,8	61,1
Germaniya	105	165	100	155	95	145	90	130	86,8	57,7	68,1	25,9
Hindiston	115	95	110	90	100	85	90	80	66,7	75,2	40,9	50,5
Rossiya	130	115	120	110	110	105	95	100	50,5	105,1	29,6	74,3
Lotin Amerikasi (jami)	200	210	190	200	180	190	165	175	150,7	169,4	91,8	91,8
Afrika mamlakatlari (jami)	170	100	160	95	150	90	135	85	114,2	73,7	60,0	67,1

Manba: muallif tomonidan Xitoy Milliy statistika byurosi ma'lumotlari asosida tuzildi va qayta hisoblandi.

URL: <https://data.stats.gov.cn> (murojaat qilingan sana: 16.12.2025)

2020 yilda Xitoyning eng yirik savdo hamkori AQSh bo'lib, eksport hajmi 451,7 mlrd dollarni, import esa 135,3 mlrd dollarni tashkil etdi. Gonkong 272,6 mlrd dollarlik eksport bilan ikkinchi o'rinda bo'lib, asosan qayta eksport markazi vazifasini bajaradi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Vetnam va Hindiston bilan savdo hajmi ham keskin oshdi. Shu bilan birga, Afrika davlatlari bilan eksport hajmi 114,2 mlrd dollarni, Lotin Amerikasi bilan esa 150,7 mlrd dollarni tashkil etib, Xitoy tashqi savdosida rivojlanayotgan mintaqalarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

14-BOB: XITOYNING DUNYO MAMLAKATLARI BILAN IQTISODIY ALOQALARI VA MANFAATLARI

Darsning maqsadi: Xitoyning dunyo (Asosan, rivojlangan: AQSh, EI va Yaponiya) bilan iqtisodiy aloqalaridagi zamonaviy tendensiyalari va manfaatlarini tahlillar yordamida o‘rganib chiqish.

Tayanch iboralar: tashqi savdo, Iqtisodiy hamkorlik, ‘esport va import, to‘lov balansi, savdo cheklovlari, embargo, sanksiyalar, texnologik modernizatsiya.

14.1. Xitoyning rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari: AQSh, ES, Yaponiya

XXI asr boshlariga kelib Xitoy Xalq Respublikasi nafaqat rivojlangan davlatlar safiga yaqinlashdi, balki Osiyo mintaqasidagi yetakchi mamlakatlardan biri sifatida shakllandi. Hozirgi bosqichda Xitoy iqtisodiy, ijtimoiy hamda ilmiy-texnologik taraqqiyot yo‘nalishlarida AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Rossiya kabi global kuchlar bilan raqobat olib borish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bunga mamlakatning xalqaro siyosiy maydondagi faolligi, tashqi aloqalardagi nufuzi, barqaror iqtisodiy o‘sishi va jamiyat hayotida shakllangan zamonaviy salohiyati asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada, Xitoyning jahon hamjamiyatidagi mavqei va ta’sir doirasi izchil ravishda kengayib bormoqda.

Amerika-Xitoy savdo munosabatlarining real rivojlanishi 1970 yillar oxiridan boshlanib, bu davrda Xitoy davlati o‘zining ochiq tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga kirishdi va AQSh bilan diplomatik aloqalarini o‘rnatdi hamda savdo kelishuviga qo‘l qo‘yish orqali ikki tomonlama aloqalarning rivojlanishi uchun huquqiy bazani shakllantirdi. 1983 yildan boshlab esa, xitoy-amerika qo‘shma savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hay’atining yillik kengashini o‘tqaza boshladilar.

Xitoy va AQSh o‘zaro munosabatlari Xitoy Ijtimoiy Fanlar akademiyasining “AQSh bo‘yicha izlanishlar” instituti professori Tao Venchjoning fikriga ko‘ra 3 bosqichga bo‘linadi:

1-bosqich – diplomatik aloqalar o‘rnatilgan kundan boshlab, to 1989 yilning may oyigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, bu davrda Xitoy o‘zining “ochiqlik va islohotlar” siyosatini amalga oshirdi. Bunda o‘sha davrda hukumat rahbari bo‘lgan

Den Syaopin tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatda AQSh davlati bilan Xitoy o'rtasidagi munosabatlarni normal holatga keltirish ko'zda tutildi

2-bosqich- bu xitoy-amerika munosabatlarining yaxshilanayotgan davri bo'lib, 1990 yillarda xalqaro maydonda mazkur munosabatlar keskin o'zgarishlarga olib keldi. Chunki 1990 yillar boshida sobiq sovet ittifoqining parchalanishi natijasida dunyoda AQShning yakka super hokimligi vujudga keldi. 1995-1996 yillarda har ikki davlat vakillarining bir-biriga tashriflari amalga oshirildi. Ayniqsa, Klinton hukumati Xitoy bilan aloqalarni tartibga solish bo'yicha muayyan xarakterli harakatlar qilindi.

3-bosqich – bu XXI asr boshidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va unda AQSh va Xitoy orasidagi konstruktiv munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda. 2001 yilning 1 aprelda Xitoyning Xaynan provinsiyasida Xitoy va Amerika qiruvchi samoletlarining to'qnashuvi yuz berdi. Har ikkala hukumat rahbarlarining telefon orqali xitoy-amerika munosabatlarining muhimligi to'g'risidagi suhbatlaridan so'ng, har ikkala davlat rahbarlari o'zlari uchun ushbu munosabatlar va aloqalarning zarurligini anglab yetdilar

Xitoy mashina va uskunalarni eksportining asosiy iste'molchilari: AQSh (22,6%); Yaponiya (8,7%); Germaniya (5,35%); Niderlandiya (3,5%) va Koreya Respublikasi (2,6%) hisoblanadi. Xitoyning yengil va tekstil sanoati mahsulotlarini iste'molchilari esa, Yaponiya (21,5%), AQSh (17,8); Rossiya Federatsiyasi (4,0%); Germaniya (2,6%) va Koreya Respublikasi (1,6%). Xitoyning mazkur sanoatini rivojlanishi AQSh va Hindiston mamlakatlaridan olib kiriladigan paxta xom ashyosiga bog'liqligi kuchaymoqda. Biroq, mazkur davlatlarning savdo aloqalari rivojlanish dinamikasini yuqoriligiga qaramasdan, umuman olganda, ular yuz berayotgan siyosiy muammolarga nihoyatda ta'sirchan va nobarqaror bo'lib qolmoqda. Uning natijasida esa, o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar yanayam qiyinlashadi. Buni biz mana shu davrlarda 3 marotaba yuz bergan (1982-1983; 1986;

1990 yy.) ikki tomonlama savdo aloqalarning qisqarganligida kuzatishimiz mumkin.⁹⁴

Ushbu savdo aloqalaridagi birinchi pasayish har ikki davlatning ikki tomonlama aloqalardan haddan tashqari yuqori natijalarni kutganligi oqibatida yuz berib, unda Xitoy hukumati o'z sanoatini modernizatsiyalash (yangilash) uchun AQSh dan ilg'or texnologiyalar va uskunalarni olib kirish bo'yicha yirik miqyosli iqtisodiy yordamni asossiz kutganligi; AQSh esa, ushbu hamkorlikdan sobiq Sovet ittifoqi bilan bo'lgan siyosiy kurashida siyosiy strategik manfaatlar izlab katta xatolarga yuz tutishida ko'rindi. Shu bilan birga AQSh, eng avvalo, xitoy bozoridan o'zi uchun cheklanmagan miqdorda joy egallashga, investision hamkorlikda asosiy urg'uni XXR sidagi neft konlarini o'zlashtirishga qaratdi.

O'z navbatida, xitoyning yirik miqyosli arzon tekstil mahsulotlari eksporti AQSh da unga qarshi Xitoydan sotib olinayotgan tovarlarga nisbatan qattiq nazorat bilan birga kerakli choralar ko'rilishiga olib keldi (AQSh o'z ilg'or texnologiyalarini Xitoyga olib kirishni qisqartirdi). Bunga javoban, Xitoy amerikadan kirib kelayotgan import mahsulotlarini qisqartirdi. Hattoki, paxta tolasi, soya, sintetik tolalar, don importini to'xtatdi

Xitoy-Amerika iqtisodiy aloqalariga bevosita an'anaviy tarzda ta'sir etadigan muhim siyosiy muammolardan biri – bu Tayvan muammosidir. Ushbu muammo orqali Xitoy AQSh ga o'z ta'sirini o'tqazadi. Xitoy amerikaning Tayvanga qurol-aslaha sotishiga va amerika yuqori hukumat a'zolarining Tayvan ma'muriyati bilan aloqalariga keskin qarshi chiqadi

Xitoy va amerika ikki tomonlama savdosi tarkibi hali yetarlicha keng bo'lmay, ammo lekin, u diversifikatsiyalanish tendensiyasiga egadir. Xitoyning AQSh ga eksportida an'anaviy mahsulotlar bilan birga, ya'ni: tekstil va san'at mahsulotlari, kiyim-kechak, oyoq-kiyimlar (ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish umumiy hajmining 1/3 qismi) bilan birga, mashinasozlik va elektronika (televizorlar, radiopriemniklar, fotoaparatarlar va h.k.) sanoatining mahsulotlari ulushi ko'payib

⁹⁴ М.А.Потапов. Внешнеэкономическая политика Китая: противоречия и проблемы.,М., Изд.во “Буква”, 1998, 104 с.

bormoqda. Xitoyning importida esa, mashina-texnik, energetika, avtomobilsozlik uskunalari, jihozlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari va neft-kimyó sanoati mahsulotlari ustuvorlikka egadir.

AQSh korporatsiyalari xitoyning ishlab chiqarishni texnologik va ilm sig'imi katta bo'lgan sohalariga, ayniqsa, xitoy tomoni manfaatdor bo'lgan yo'nalishlarga (telekommunikatsiya, informatika, biotexnologiya, yangi materiallar) faol kirib, ularni o'zlashtirdilar. Zamonaviy hamkorlik "mahsulotning hayotiy siklini" hamma bosqichlarini, hattoki, sotilgandan keyingi xizmat ko'rsatishni ham o'z ichiga olib, investisiyalarning tarmoqlar tarkibi optimallashtirilib, uning noishlab chiqarish sohasi ham faol o'zlashtirilmoqda.

Hozirgi kunda AQSh bilan qo'shma tadbirkorlik Xitoy uchun texnologiyalarni sotib olishda, tajriba orttirishda, kadrlarni tayyorlashda, savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rag'batlantiruvchi manba hisoblanadi. 1997 yil boshiga kelib, Xitoy iqtisodiyotiga qo'yilgan AQSh ning 22 mingdan ortiq kelishuv-kontrakst investisiyalarini umumiy hajmi 35,2 mlrd.AQSh doll.ga yetib, ularda amalda foydalanilgani 14,3 mlrd.AQSh doll. tashkil qildi.

Amerika yirik biznesining manfaatlari ko'p hollarda, AQSh prezidentlari tomonidan har yili Xitoyga nisbatan qo'llaniladigan "eng qulay tartib" (RNB-rejim naibolshego blagopriyatstvovaniya v trgovle) ni qo'llashga yordam beradi).

Xitoyni AQSh lari bilan keyinchalik ham savdo aloqalarini amalga oshirishiga to'sqinlik qiluvchi muhim omillardan biri – bu AQSh ning Xitoy uchun savdoda "eng qulay tartib" ni doimiy asosda qo'llashga ruxsat berilmaganligidadir.

AQSh tomonidan Xitoyga "EQT" (RNB) ni uzluksiz berilishi natijasida ularning ikki tomonlama savdo –iqtisodiy aloqalari ham kundan-kunga rivojlanib bordi. Jahon Bankining hisob-kitoblariga qaraganda, "EQT"ning Xitoy uchun bekor qilinishi natijasida amerikalik iste'molchilar xitoyni asosiy tovarlar nomenklaturasi 5-10 marotabaga o'sishi natijasida ularga qo'yilgan import bojlaridan 14 mlrd.doll.miqdorida zarar ko'rish mumkin ekan.

Undan tashqari, Xitoy o'z navbatida, AQSh ga tovarlarni eksport qilishni 42-96% ga pasaytirishga majbur bo'lib, yiliga 7 mlrd doll.dan to 15 mlrd.doll.gacha

yo'qotishi, AQSh esa, shunga o'xshash operatsiyalardan 4-8 mlrd.doll. zarar ko'rishi mumkin edi.⁹⁵

Ikki tomonlama xitoy-amerika munosabatlaridagi jiddiy muammo – bu o'zaro savdodagi disbalans (muvozanatning buzilishi) hisoblanib, u AQSh ning ahamiyatli kamomadi (defisit) bilan tavsiflanadi. Amerika hisob-kitoblariga ko'ra bu kamomad uzluksiz o'sib bormoqda. U 1980 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab 10 mln.doll.dan 1996 yilga kelib - 39,5 mlrd. doll.ni tashkil qildi. Xitoy hisobiga ko'ra, u atigi 10,5 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Mazkur disbalansning mavjudligi sabablaridan biri – hisob-kitoblar uslublarining har xilligi bo'lib, u Gonkong orqali xitoy tovarlari reeksporti hajmiga bog'liqdir. (Unga Xitoy va AQSh eksportining 60% i to'g'ri keladi).

Xitoy va AQSh orasidagi savdo defisitining o'sishini asosiy sababi Yangi industrial mamlakatlarini xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlaridan tayyor mahsulotlarni qayta ishlash va yig'ish vazifalari bo'yicha o'zlarining mehnat talab ishlab chiqarishlarini Xitoyning janubiy provinsiyalariga ko'chirilishi bo'ldi. AQSh ning Xitoy bilan savdosidagi defisiti ortib boradi .

Jadval 7.1.2.

2010-2024-yillarda Xitoy va AQSh ning eksport-import operatsiyalari hajmi, mlrd.doll.⁹⁶

mamlakatlar		2010	2012	2014	2016	2018	2024
XXR	import	1396,2	1818,4	1959,2	1587,2	2651,0	2580
	eksport	1577,7	2048,7	2342,2	2097,6	2548,1	3520
	tovar aylanmasi	2974,0	3838,3	4201,5	3685,5	5199,1	6100
AQSh	import	1969,1	2336,5	2412,5	2250,1	2706,5	4100
	eksport	1278,5	1545,7	1620,5	1451,0	2190,2	3190
	tovar aylanmasi	3247,7	3882,2	4033,1	3701,1	4896,7	7300
XXR-AQSh	Tovar aylanmasi	-	-	-	-	-	6882

⁹⁵ М.А.Потапов. Внешнеэкономическая политика Китая: противоречия и проблемы.,М., Изд.во “Буква”, 1998, 108с.

⁹⁶ World Bank Open Data. Free and open access to global development data. URL: <https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.TOTL>.

Shundan ko'rinib turibdiki, xitoy-amerika tashqi savdosidagi disbalans xitoy bozorining ochiqlik darajasini ko'rsatuvchi ko'rsatkich bo'lib va Xitoy iqtisodiyotini erkinlashtirish dastagi ham bo'lib xizmat qila olmaydi. Shu bilan birga, ushbu kamomad Xitoyga nisbatan AQSh ning diskriminasion (kamsituvchi) siyosatini yaqqol ko'rsatib turibdi. Mana shu va shunga o'xshash muammolarni Xitoy JST ga a'zo bo'lganidan so'ng sekin-asta hal qila boshladi.

Xitoy-amerika ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlanishiga xalaqit berayotgan yirik omillardan biri – bu AQSh tomonidan ilg'or texnika va texnologiyalar eksportiga cheklovlar qo'yilganligi bo'lib, u XXR ga eksportni qattiq nazorat qilinishi va ularga lisenziyalash tizimini o'rnatilishi bilan belgilanadi. 1983 yildan boshlab, AQSh ning Xitoyga texnologiyalarni eksport qilish sharoitlari sekin-asta yumshatilib borildi. Xitoy uchun AQSh tomonidan texnika va texnologiyalarni eksport qilish hajmining ortishi, Xitoy hukumati tomonidan unga nisbatan savdo-siyosiy tartibini erkinlashtirish talabining qo'yilishi, xitoy bozoriga tovarlar va xizmatlarning kirib kelishini osonlashtirish, intellektual mulkni himoya qilish huquqini joriy qilish bilan bog'liqdir.

Xitoyning tekstil mahsulotlari eksportiga AQSh tomonidan o'rnatilgan cheklovlarning mavjudligi (85% gacha bo'lgan uning hajmi amerika tomonidan qo'yilgan miqdoriy cheklovlarga to'g'ri keladi) har ikki tomonlama o'zaro iqtisodiy munosabatlardagi jiddiy og'riq nuqtasi bo'lib qolmoqda. Tekstil bo'yicha har bir ikki tomonlama kelishuvlar ko'p raundli kelishuvlarga aylanib, ular natijasida ko'pincha o'zaro iqtisodiy sanksiyalarni belgilash xavflari kelib chiqar edi. 1980-1990 yillar mobynida XXR va AQSh tomonidan tekstil bo'yicha 5 ta kelishuvlar olib borildi (1980, 1983, 1988, 1994 va 1997 yillarda). Shular bilan birga cheklovlar belgilangan tovarlar guruhlarining soni 5 tadan (1979 y.) 88 taga (1994 y.) ko'paydi AQSh ning bojxona organlari yiliga boshqa 3-chi davlatlar orqali mamlakatga kirib kelayotgan "nolegal" xitoy tekstil tovarlarini 2 mlrd.doll. deb belgilasalar, uning legal holda kirib kelish hajmini 4,5-5,0 mlrd.loll. deb baholashmoqda.

Xitoy tashqi savdosining xususiyati – bu uzoq davrlargacha saqlanib kelgan uning eksportini ahamiyatli tarzda importidan ortiqroq bo'lishidir. Biroq, 2001

yildan so'ng, import hajmining ortib borishi tendensiyasi kuzatila boshladi. Bu esa, XXR sini jahon ishlab chiqarish jarayoniga chuqur kirib borishi va o'z iqtisodiyotini ehtiyojlarini import orqali qondirishning zarurligi bilan va jahon bozorida narxlarning o'sishi bilan kuchayib bordi. Biroq, 2005 yilga kelib, import hajmining pasayish tendensiyasi bilan ko'pgina tarmoqlarda eksportning ortishi kuzatildi va bu jarayon 2006 yilda ham saqlanib qoldi. Bu jarayonga turli omillar sabab bo'lib, ular:

- birinchidan, mamlakatga kirib kelayotgan investiyalar hajmining pasayishi bilan, ya'ni agar, 2003 yilda chet el sarmoyalari hajmi 27,7% ni tashkil etgan bo'lsa, u 2005 yilga kelib – 26,% ga va 2006 yilda esa, 24,0% ga pasaydi. Mazkur pasayish natijasida sanoat uchun uskuna va jihozlar importi iste'molining pasayishiga olib keldi;

- ikkinchidan, ba'zi bir tarmoqlarda mahalliy ishlab chiqarishning keskin o'sishi kuzatildi (alyuminiy va po'lat ishlab chiqarishda);

- uchinchidan, mamlakatdagi don mahsulotlarini yetishtirishning ko'payishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini import qilish ehtiyojini kamaytirdi;

- to'rtinchidan, mamlakatda neft va neft mahsulotlari importining o'sish sur'ati sekinlashdi. Uning sabablari bo'lib, qisman, ichki bozordagi narxlarni qattiq tartibga solinishi bo'lsa, qisman esa, mamlakatda neftning strategik zahirasini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan faol siyosat hisoblandi.

Xitoyning tashqi savdo aylanmasi dinamikasi ahamiyatli tarzda uning YaIM ni o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Agar, 2001 yilda mamlakat eksportining o'sishi uning YaIM ni 7,5% i ta'minlagan bo'lsa, 2006 yilga kelib, u 36,4% ni tashkil etdi. Boshqacha qilib aytsak, agar, 2006 yilda mamlakatdagi iqtisodiy o'sish 10,7% ni tashkil etgan bo'lsa, uning 3,89% i Xitoy tashqi savdosining tez rivojlanishi natijasida yuzaga keldi.⁹⁷

Shular qatorida Xitoy tashqi savdosidagi tovarlar tarkibi asta-sekinlik bilan o'zgarib bormoqda. Ular orasida qayta ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarilgan tovarlar savdosi tez sur'atlarda o'sdi. Agar, 2001 yilda ular hajmi 241,5

⁹⁷ Чжунго шанью фачжань баогао (Доклад о развитии торговли), Пекин, 2007,с.8.

mlrd.AQSh doll. ga teng bo'lgan bo'lsa, 2006 yilga kelib, u 3,4 marotabaga o'sdi, ya'ni, 831,9 mlrd.AQSh doll.ga teng bo'ldi. Bu holat esa, mamlakatdagi an'anaviy tarmoqlar mahsulotlari ulushining qisqarishiga olib keldi. Shu bilan birga, mehnat talab tarmoqlar ulushi ham yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish foydasiga qisqarib bordi. Ammo, lekin, 2006 yilda mamlakat qayta ishlash tarmog'i mahsulotlari eksporti va importining o'sish sur'atlari uning an'anaviy tarmoqlari mahsulotlari eksporti va importi o'sish sur'atlaridan bir muncha past bo'ldi. Ya'ni, agar, 2006 yilda qayta ishlab chiqarish sohasi mahsulotlari eksporti va importining o'sish suratlari – 22,5% va 17,3% ni tashkil etgan bo'lsa, xaddi shu ko'rsatkichlar Xitoy an'anaviy tarmoqlari mahsulotlarini eksporti va importining o'sish sur'atlari – 32,1% va 19,1% dan iborat bo'ldi. Uning asosiy sabablaridan biri – xom ashyoni importidan foydalanuvchi tarmoqlar ulushining ortishidadir.

Ta'kidlash joizki, 2006 yilda turli mulk shaklidagi milliy korxonalarining tashqi savdo aylanmasi (minin she) 307,66 mlrd.AQSh doll.ni va tashqi savdo aylanmasining 17,5% ni tashkil etdi, ular jumlasidan eksport 213,9 mlrd.doll.dan iborat bo'lib, bu o'tgan 2005 yilga nisbatan, 43,6% na tengdir. 2006 yilda Xitoy davlat korxonalarining tashqi savdo aylanmasidagi hajmi - 416,6 mlrd.dollni tashkil etib, u hajm bo'yicha 3-o'rinni egalladi. Xitoy xorijiy kapitalidan foydalangan korxonalarini eksport va import hajmlari shu davrda 1036,4 mlrd.doll.ni tashkil etdi va u mamlakat umumiy tashqi savdo aylanmasining 58,9% ni ko'rsatdi. Mana shu korxonalar mahsulotlari eksporti 2006 yilda 26,9% ga o'sdi.

Xitoy yengil va tekstil sanoati mahsulotlarining mamlakat eksportidagi ulushini pasayib borishiga qaramay, mazkur tarmoqlar mahsulotlari eksporti yuqori sur'atlarda bo'ldi (28,9%). Yengil va tekstil sanoati mahsulotlarining asosiy iste'molchilari Yaponiya (21,5%); AQSh (17,8%); Rossiya Federatsiyasi (4,0%); Germaniya (2,6%) va Janubiy Koreya (1,6%) mamlakatlari hisoblanadi. Mazkur sanoat mahsulotlarining 10% i Gonkong orqali boshqa rivojlanayotgan davlatlarga sotiladi. Hozirgi kunda Xitoy tekstil sanoatining AQSh va Hindistondan keltiriladigan paxta tolasiga bog'liqligi kuchayib bormoqda.

Xitoy iqtisodiyotining oxirgi 2-3 yillardagi rivojlanish xususiyatlaridan biri – bu undagi resurslarning yetishmasligi (defisit) hisoblanadi. Xitoy o‘zining mavjud iqtisodiy o‘rish sur‘atlarini saqlab turish uchun, bir tomondan, mineral resurslar importin iahamiyatli tarzda oshirib borishi yoki, ikkinchi tomondan, mavjud mineral resurslar va sanoat mahsulotlari eksportini chegaralashi va ichki bozorda ulardan foydalanishni qisqartirishi lozimdir.

Xitoy Xalq Respublikasi Moliya vazirligi va XXR Davlat Bosh soliq boshqarmasi 2009 yilning 1 fevralidan boshlab o‘z kiyim-kechak va tekstil mahsulotlari eksportiga oldindan o‘rnatilgan 14% lik soliq stavkasi o‘rniga uni 15% ga ko‘targanliklarini e‘lon qildilar. Mazkur soliq stavkasini ko‘tarilishi 3325 ta tovar nomenklaturasi uchun belgilandi.

Shular bilan bir qatorda, Xitoy o‘z o‘yinchoqlarini AQSh va EI mamlakatlariga eksport qilish bilan ham shug‘ullanib, o‘tgan 2008 yilda ularni eksport qilish sur‘ati sekinlasha bordi. Uning asosiy sababi esa, tez tarqalayotgan jaxon moliyaviy inqirozi sharoitida unga bo‘lgan talabning kamayib borishi bilan bog‘liqdir. XXR si Bosh Bojxona boshqarmasining ma‘lumotlariga ko‘ra 2008 yilning 11 oyida (yanvar-noyabr) Xitoy 8,04 mlrd.AQSh doll.lik o‘yinchoqlarni eksport qilgan bo‘lib, u o‘tgan yilning aynan shu davriga nisbatan 2,5% ga ko‘p demakdir. Shu bilan birga uning o‘rish sur‘ati xisobot yilida 17,8% ga qisqargan.

O‘yinchoqlar eksporti hajmining qisqarishina asosiy sabab, ushbu mahsulotlarning sifatsizligi va mazkur mahsulotlarga nisbatan qo‘yilayotgan xavfsizlik darajasining ortishi bo‘ldi. Mana shu mahsulotlarni Xitoydan import qiluvchi asosiy davlatlar AQSh va EI mamlakatlari hisoblanib, ular bu pozisiyada 1 va 2-o‘rinni egallaydilar hamda ularning xitoy o‘yinchoqlarini import qilishdagi ulushi 67,1% ga tengdir.

Hozirgi davrda xitoy-amerika munosabatlari quyidagi xususiyatlarga egadir:

Birinchi, xitoy-amerika munosabatlari ikki tomonlama munosabatlar chegarasidan chiqqan bo‘lib, hozirgi kunda u dunyoda ikki tomonlama munosabatlar orasidagi eng muhim munosabatlardan iboratdir. Hozirda ushbu munosabatlar mintaqaviy va global iqtisodiyotda va havfsizlik sohalarida muhim rol o‘ynaydi;

Ikkinchidan, Xitoy va AQSh munosabatlari takomillashgan mexanizmdan iborat bo'lib, D.Bush prezidentlik davrida ikki davlat rahbarlari 20 marotaba uchrashganlar va yana shuncha marotaba telefon orqali so'zlashib, 40 marotaba bir-birlariga xatlar jo'natganlar;

Uchinchidan, iqtisodiyot sohasida har ikkala davlat bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda bo'lib, uni biz 2001 yilda Xitoyni JST ga a'zo bo'lgan davridan boshlab uning tashqi savdosini o'rtacha 28,5% ga o'sishidan ko'rishimiz mumkin. Vaqt o'tgan sayin ikki tomonlama bir-biri bilan iqtisodiy bog'liqlik strategik ahamiyat kasb etib, ushbu o'zaro bog'liqlik chuqurlashmoqda;

To'rtinchidan, AQSh ning Tayvanga nisbatan olib borayotgan siyosati o'zgarmoqda. AQSh rahbariyati Tayvanning hozirgi bir tomonlama siyosatiga qarshi chiqmoqda;

beshinchidan, Xitoy va AQSh xalqlari orasidagi munosabatlar chegarasi kengayib, xalq diplomatiyasiga yo'l ochilmoqda. Ular, xususan, tijorat, savdo, iqtisodiy, madaniy, ta'lim, sport, turizm sohalarida rivojlanmoqda.

Shunday qilib, Xitoyning ko'p darajali, ko'p tarmoqli va tashqi dunyo uchun ochiqliq tizimi tashkil topdi. Xitoy va AQSH savdo urushi ochmaslik haqida va o'zaro boj to'lovlarini kiritishni to'xtatishga kelishib oldilar. AQSH Xitoyning Amerika bozoriga yetkazib beriluvchi qator tovarlariga 50 mlrd dollar summadagi 25% lik bojxona bojlarini joriy etishni mo'ljallamoqda. Ushbu tovarlar sanoat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologoyalardir.

XXR va AQSH o'rtasidagi tashqi savdo nizolari 2017 yilda AQSH va XXR orasidagi savdo deffitsiti 375,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi va bu 2016 yilgi 347 mlrd AQSH dollarlik ko'rsatkichga nisbatan 8.1 % (28.2 mlrd. AQSH dollari)ga yuqori. AQShdan XXRga eksport qilingan tovarlar xajmi 130,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi, bu esa o'tgan yilgi 115,6 mlrd. AQSH dollarlik ko'rsatkichga qaraganda 12,8 % (14,8 mlrd. AQSH dollari)ga ko'pdir. Shu vaqt oralig'ida AQShning XXRdan imoport qilgan tovarlar xajmi 505.6 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi va bu o'tgan yilgi 458,5 mlrd. AQSH dollarlik ko'rsatkichga nisbatan

9,3 % (47,02 mlrd. AQSH dollari)ga o'sgan.2017 yilda AQSH tovarlarining eksport qilingan xajmi bo'yicha XXR bozori 3 o'rinni egalladi.

2017 yilda AQSH dan XXRga amalga oshirilgan xizmatlar eksporti xajmi 56 mlrd. AQSH dollariga baxolangan, shu tariqa AQSH import qilgan xizmatlar esa 17,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. XXR hukumati bir qator xom ashyo resurslarini ishlab chiqarishda dunyodagi yetakchi urinni saqlab qolish maqsadida, eksportga nisbatan cheklovlar jamlamasini qo'llashni davom ettirmoqda. Bular o'z aksini quyidagilar ko'rinishda namoyon etmoqda : minimal eksport narxlari, eksport kvotalari, eksportni litsenziyalanishi, eksport poshlinalari va boshqalar...Ushbu cheklovlar orqali XXR o'z manfaatlarini ko'zlagan xolda chet-elning qayta ishlovchi korxonlariga bosim o'tkazmoqda, va bu ularni ishlab chiqarish kuchlari va texnologiyalarini XXR xududiga ko'chirishiga majbur qilmoqda.

Yaqin o'tmishda, mamlakat eksporti uning importining kuchli ta'siri ostida bo'lib, uni talablariga xizmat qilar edi. Xitoy eksport operatsiyalari, mamlakat valyuta zahiralarini to'ldirib borar, uning importi esa, eksport ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilar, natijada, mahsulotlarning eksport tannarxi qimmatlashib, mamlakat iqtisodiyotiga ancha qiyinchiliklar tug'dirar edi. Hozirgi kunda, jahon bozoridagi yuqori texnologik mahsulotlariga ehtiyojning ortib borishi bilan, unga qo'yilayotgan talab ham ortib borib, unda bir necha ilg'or davlatlarning ushbu sohadagi raqobatbardoshlik kurashi ketmoqda. Albatta, Xitoy hozirchalik, ularga teng kelolganicha yo'q, lekin, ayrim yo'nalishlarda, ulardan orqada ham qolayotgani yo'q. Ayniqsa, u Informasion-kommunikasion texnologiyalar (IKT), mashinasozlik, metallurgiya, elektronika, kosmik sanoati, tekstil sanoati va kimyo sanoati bo'yicha oldinda bormoqda. Uning ilmiy- texnikaviy yutuqlaridagi o'zgarishlar koefisienti, Jan.Koreya va Singapur davlatlari bilan solishtirganda, faqat 55% ni tashkil etmoqda.

Jadval 7.3 1.

2010-2024 yillarda XXR-AQSh savdo hajmi dinamikasi⁹⁸

⁹⁸ Manba: U. S. International Trade Commission (USITC) <https://dataweb.usitc.gov>

yillar	AQShning eksporti, mlrd.doll.	Eksportning oldingi yilga nisbatan o'sishi,% da	AQShning import hajmi, mlrd.doll.	Importning oldingi yilga nisbatan o'sishi,% da	AQSh savdo balansi, mlrd.doll
2010	91,9	-	365,0	-	-273,0
2011	104,1	13,28	399,4	9,42	-295,3
2012	110,5	6,15	425,6	6,56	-315,1
2013	121,7	10,14	440,4	3,48	-318,7
2014	123,6	1,56	468,5	6,38	-344,9
2015	116,1	-6,07	483,2	3,14	-367,2
2016	115,8	-0,26	462,8	-4,22	-347,0
2017	130,3	12,52	505,5	9,23	-375,2
2019	122,7	-0,7	418,5	-3,5	-295,5
2024	143,5	-	438,1	-	-289,6

AQSh ikkitomonlama investitsiyalashdan ham foyda oladi, 2016 yilda XXRning AQShga qoygan sarmoyalari hajmi 50 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Xitoydan AQShga asosan, uskunalar va elektr mashinalari hamda xalq iste'mol tovarlari hisoblanib, uskunalar va elektr mashinalarning yillik hajmi 39,4 mlrd.doll.ni, yoki XXRning AQShga qilgan eksportini 42,6% ni tashkil etdi, xalq iste'mol tovarlari esa 12 mlrd.doll.ni va umumiy eksportning 14,3%ni tashkil etdi. Aksincha, Xitoyga AQShdan uskunalar va elektr mashinalari (11,4mlrd.doll.,umumiy importning 33,6%) import qilinadi⁹⁹.

Aytish lozimki, ikki davlatning o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalari manfaatli hisoblanadi. Chunki, Xitoy 1-eksportyor bo'lsa, AQSh 1-importyor hisoblanadi. 2017 yilda XXRdan AQSh ga umumiy hajmi 400 mlrd.doll.lik tovarlar eksport qilingan, AQShdan Xitoyga esa, atigi 148 mlrd.doll.lik tovarlar olib kirilgan. Natijada AQShning savdo balansi manfiy bo'lib, u 3,4. mlrd.doll.ni tashkil etdi. Shu munosabat bilan AQSh Prezidenti D.Tramp kelajakda ikki mamlakat orasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni Amerika hisobiga hal etishini aytdi¹⁰⁰.

Oxirgi 45 yil ichida Xitoy-Amerika savdosi hajmi 208 barobarga o'sdi.¹⁰¹ XXR tijotay vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, XXR-AQSh savdo hajmi 1979 yildagi 2,5 mlrd.doll.dan 2016 yilga kelib 519,6 mlrd.doll.ga etdi. Ikki mamlakat orasidagi xizmatlar savdosi hajmi 2016 yilda 100 mlrd.doll.ni; ikkitomonlama o'zaro

⁹⁹ <https://ria.ru/economy/20160606/1443531833.html> 9 <http://politeconomy.pro/archives/150> 41

¹⁰⁰<https://ria.ru/economy/20161223/1484383141.html>.http://crescofinance.ru/public/dmitriy_afanasev_ob_otnosheni_yah_ssha_i_knr

¹⁰¹ 2017-02-23 13:10:41 | Russian.News.Cn

investitsiyalar hajmi 170 mlrd.doll.ni (2016 y.) tashkil etgan. AQShdagi 26% “Boying” lar va dukakli soyening 56%i xitoy boxorlarida sotilmoqda¹⁰². Xitoyning AQShga importi 2015 yilda 1,8 mln.ish o’rinlarini saqlab qolgan. Aksincha, Xitoylik turistlar AQSh ga 21 mlrd.doll. mablag’ olib kirishdi (2.66 mln.kishi).Xitoydagi 90% amerikaning korxonalarini daromadlidir.AQSh XXRda 67 ta investitsion liyihalarni amalga oshirmoqda. Hozirgi kunda ikkitomonlama aloqalar yomonlashib borayotganligini kusatish mumkin, bu holat davom etadigan bo’lsa, “savdo urushi”fa olib relish ehtimoli mavjud.

Xitoy va AQSh o’rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalar jahon iqtisodiyotidagi eng yirik va murakkab munosabatlardan biri hisoblanadi. AQSh uzoq vaqt davomida Xitoy mahsulotlari uchun asosiy eksport bozori bo’lib kelgan, ayniqsa mashinasozlik, elektronika, maishiy texnika va to’qimachilik mahsulotlari bo’yicha. Shu bilan birga, AQSh kompaniyalari Xitoy iqtisodiyotiga katta hajmda to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar kiritib, mamlakatni global ishlab chiqarish zanjirlariga chuqur integratsiya qildi. So’nggi yillarda savdo cheklovlari, bojlar va texnologik sanksiyalar joriy etilganiga qaramay, ikki mamlakat o’rtasidagi savdo va investitsion bog’liqlik yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Yevropa Ittifoqi va Yaponiya Xitoyning barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy hamkorlari hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi Xitoy uchun muhim savdo bozorlaridan biri bo’lib, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya va Italiya bilan sanoat kooperatsiyasi rivojlangan. Yevropa kompaniyalari Xitoyda avtomobilsozlik, kimyo sanoati, farmatsevtika va mashinasozlik sohalarida faoliyat yuritmoqda. Yaponiya bilan munosabatlarda esa yuqori texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari va ishlab chiqarish zanjirlaridagi kooperatsiya yetakchi o’rin tutadi. Ushbu rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalar Xitoyning texnologik modernizatsiyasini tezlashtirib, uning global iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirmoqda.

¹⁰² O’sha joyda

14.2. Xitoyning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy manfaatlari va O‘zbekistonning iqtisodiy hamkorligini rivojlanishi

Xitoy Markaziy Osiyoni o‘zining strategik geoiqtisodiy manfaatlari markazida joylashgan mintaqa sifatida ko‘radi.

Xitoy hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish bir qator muhim ustunliklarga ega. Avvalo, O‘zbekiston geografik joylashuvi jihatidan dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan, ya’ni quruqlik bilan o‘ralgan davlat hisoblanadi. Shu sababli mamlakat uchun eng arzon va qulay transport yo‘li bo‘lgan dengiz kommunikatsiyalaridan bevosita foydalanish imkoniyati mavjud emas. Bu holat transport xarajatlarining oshishiga olib kelib, mahsulot tannarxining ko‘tarilishiga va uning bozor raqobatbardoshligining pasayishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish esa yuqori transport xarajatlarini talab etmasdan, iqtisodiy aloqalarni yanada samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Xitoy O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar uchun muhim tashqi savdo bozorlarini tashkil etadi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan ayrim tayyor mahsulotlarning energiya va xomashyo sig‘imi yuqoriligi hamda sifat ko‘rsatkichlarining nisbatan pastligi ularning uzoq xorij bozorlarida raqobatlashuvini murakkablashtiradi. Shu sababli yaqin mintaqa bozorlarida, xususan ichki bozori yetarli darajada to‘yinmagan Markaziy Osiyo davlatlarida O‘zbekiston mahsulotlari nisbatan yuqori raqobatbardoshlikka ega hisoblanadi.

Uchinchidan, mintaqa davlatlarida ayrim turdagi mahsulotlarni yirik hajmlarda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, paxta, meva-sabzavot, ko‘mir, tabiiy gaz, neft va oltin kabi resurslar deyarli barcha mintaqa mamlakatlarida yetishtiriladi yoki qazib olinadi. Ushbu yo‘nalishlarda ishlab chiqarish hajmi va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zaro kelishuvlarga erishish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash va eksport qilishda yagona siyosat yuritish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Aks holda, davlatlarning jahon bozoriga alohida chiqishi ularni o‘zaro

raqobatchiga aylantiradi, birgalikdagi chiqish esa bozor konyunkturasiga qaramlikni kamaytirib, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

To‘rtinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi boshqa sohalardagi aloqalarning ham faollashuviga zamin yaratadi. Bu holat yirik moliyaviy resurslarni talab etadigan katta investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun mablag‘larni birlashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, sanoat quvvatlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida korxonalariga yaratilayotgan qulay sharoitlar, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarining taqdim etilishi milliy mahsulotlar eksport hajmini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarda mustahkam pozitsiyalarni egallashi uchun zarur sharoitlar shakllanmoqda.

Shular bilan bir qatorda, sanoat quvvatlarini modernizatsiyalash va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda, ushbu korxonalariga yaratilayotgan qulay sharoitlar evaziga, hamda ularga qator soliq va bojxona imtiyozlarini berish natijasida milliy mahsulotlar eksport hajmini oshirishga sharoitlar payso bo‘ydo bo‘lmoqda, ular esa, o‘z navbatida, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorda mustahkam o‘rinlarni egallashga yordam beradi.

14-.2.1.-Jadval

O‘zbekistonning tovarlar va xizmatlar bo‘yicha 5 ta yirik eksport hamkori
(ulush %)

Hankor mamlakatlar	2018 yil	2019 yil	2024 yil
Rossiya	2-o‘rin -16,3%	2-o‘rin -13,1%	2-o‘rin -17,6
XXR	1- o‘rin-20,8%	1- o‘rin-16,4%	1-o‘rin- 18,9%
Qozog‘izson	3-o‘rin -11,1%	3-o‘rin -8,5%	3-o‘rin - 6,5%
Turkiya	4-o‘rin -6,6%	4-o‘rin -6,4%	4-o‘rin -4,5
Afg‘oniston	5-o‘rin -5,0%	6-o‘rin -3,1%	-
Eron Tojikiston	7-o‘rin -1,7%	7-o‘rin -1,7%	-
Qirg‘iziston	6-o‘rin -2,0%	5-o‘rin -3,9%	-
Koreya Respublikasi			5-o‘rin - 3%

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar tashqi savdo aloqalarining jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, mamlakat eksport salohiyatining oshirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xorijiy bozorlarda faol ishtirok etishiga, zarur tajriba to'plashiga va natijada global savdo maydonida raqobatbardoshlikni kuchaytirishga imkon yaratmoqda. Ushbu islohotlar natijasida 2019 yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 31,6 mlrd AQSh dollaridan oshib, avvalgi yilga nisbatan qariyb 8,6 mlrd dollar yoki 37 foizdan ortiq o'sishni namoyon etdi. Shu davrda eksport hajmi 13,7 mlrd dollarni, import esa 18 mlrd dollar atrofini tashkil etib, tashqi savdo balansida salbiy tafovut yuzaga keldi.

Xitoy iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichi tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari 6–6,5 foiz oralig'ida barqarorlashib, sekinlashuvning yangi bosqichiga kirildi. Ushbu holat Xitoy hukumati uchun islohotlarni yanada chuqurlashtirish, moliyaviy tavakkallarni kamaytirish va iqtisodiyotni yanada muvozanatli rivojlantirish imkonini bermoqda. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qat'iy tartibga solish va nazorat mexanizmlari iqtisodiy beqarorlik hamda nazoratsiz sekinlashuv xavfini sezilarli darajada cheklab kelmoqda.

So'nggi yillardagi iqtisodiy dinamikaga nazar tashlar ekanmiz, Xitoyda o'sish jarayonining boshqariladigan xarakterga ega ekanini ko'rish mumkin. Hatto rivojlanishning yangi modeliga o'tish sharoitida ham hukumat iqtisodiy muvozanatni saqlashga intilmoqda. Shu bilan birga, ilgari yig'ilib qolgan tarkibiy nomutanosibliklarni bartaraf etish, iqtisodiyotni tizimli qayta qurish hamda moliyaviy sektor barqarorligini mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu sababli hozirgi bosqichda Xitoy oldida uchta ustuvor vazifa mavjud: yetarli iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, xalq xo'jaligida chuqur islohotlarni amalga oshirish va moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish.

Biroq ichki iqtisodiy muammolar va tashqi muhitdagi yuqori darajadagi noaniqliklar sharoitida ushbu vazifalarni bir vaqtning o'zida hal etish murakkab

jarayon hisoblanadi. Aynan shu sababli Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi ilmiy adabiyotlarda “yangi normal holat” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Koronavirus pandemiyasi Xitoy tashqi savdosiga ham jiddiy ta’sir ko’rsatib, savdo hajmlarining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Xorijiy investitsiyalar oqimi pasaydi yoki ayrim yo’nalishlarda vaqtincha to’xtadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan pandemiyaga qarshi keng ko’lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, trillion dollardan ortiq moliyaviy resurslar safarbar etildi.

2020 yilda yuzaga kelgan salbiy iqtisodiy sharoitlar davlat byudjeti va maqsadli jamg’armalar daromadlarining shakllanishida muhim xatarlarni keltirib chiqardi. Qo’shilgan qiymat solig’i, import aksizlari hamda Xitoydan olib kiriladigan uskunalar, butlovchi qismlar va tayyor iste’mol mahsulotlari bo’yicha bojxona tushumlarining qisqarishi byudjet daromadlarining kamayishiga sabab bo’ldi. Bundan tashqari, Xitoydan xomashyo va butlovchi qismlar yetkazib berishga bog’liq korxonalarda ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi hamda ayrim yirik mahalliy ishlab chiqaruvchilarning faoliyati to’xtab qolishi soliq tushumlarida qo’shimcha yo’qotishlarga olib keldi.

Yirik soliq to’lovchi subyektlar tomonidan Moliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga 2020 yil uchun soliqqa oid yangilangan prognoz ko’rsatkichlarini taqdim etish, shuningdek, ushbu majburiyatlarni bajarish uchun davlat tomonidan qanday ko’mak zarurligini aniq belgilab berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan birga, qisqa muddatda ichki va tashqi tovar bozorlarida yuzaga kelgan bo’sh segmentlarni aniqlash va ularni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan egallanishini ta’minlash zarur. Vakolatli organlar esa barcha xo’jalik yurituvchi subyektlar uchun teng va adolatli raqobat muhitini shakllantirish hamda ularga zarur tashkiliy va institutsional yordam ko’rsatishga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Bundan tashqari, 2020–2025 yillarga mo’ljallangan davlat ulushi mavjud korxonalarini xususiylashtirish rejalarini jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan murakkab vaziyatni inobatga olgan holda qayta ko’rib chiqish zarur. Chunki mazkur

sharoitda aholining milliy xavfsizlik, farovonlik darajasi, sog‘liqni saqlash sifati, ta‘lim va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar bilan bog‘liq ijtimoiy manfaatlardan mahrum bo‘lib qolmasligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Koronavirus va boshqa xavfli yuqumli kasalliklarning tarqalishining oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ishlab chiqish va amalga oshirish ham dolzarb vazifalardan biridir. Shu bilan birga, mavjud resurslar va imkoniyatlardan kelib chiqib, do‘stona Xitoy iqtisodiyoti va aholisi, xususan pandemiya oqibatlaridan zarar ko‘rgan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks choralar majmuasini ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilayotgan yangi rivojlanish modeli ichki iste‘molni kengaytirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish hamda xizmatlar sohasini rivojlantirishga asoslanadi. Ushbu murakkab vazifalarni amalga oshirish Xitoy hukumatidan keng qamrovli islohotlarni izchil davom ettirish va iqtisodiy muvozanatni mustahkamlashni talab etadi. Pekinning mazkur masalalarni iqtisodiy o‘shirish sur‘atlarini keskin pasaytirmasdan va jiddiy moliyaviy beqarorlikka yo‘l qo‘ymasdan hal etish salohiyati nafaqat mamlakat, balki jahon iqtisodiyoti barqarorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Epidemiya natijasida Xitoy hukumati mahalliy turoperatorlar va turagentlarga xorijga yo‘llanma sotishni taqiqladi. Shuningdek, O‘zbekiston Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ham mahalliy turoperatorlarga Xitoyga yo‘llanma sotishni to‘xtatishni tavsiya qilgan. Xitoylik turistlarning kamayishi mehmonxonalar, restoranlar, kafelar, gidlar, aviakompaniyalar, ichki yo‘nalishlardagi transport kompaniyalari, hunarmandlarning daromadlariga salbiy ta‘sir qilmoqda.

Xitoyda koronavirus bilan bog‘liq cheklov choralarning uzaytirilishi O‘zbekistonning tashqi savdo ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunga sabab, so‘nggi yillarda Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biri sifatida yetakchi o‘rin egallab kelayotgani bilan izohlanadi. 2019 yil yakunlariga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasidagi umumiy savdo aylanmasi 7,6 milliard AQSh dollarini tashkil etib, shundan 2,9 milliard dollari eksport va 5,1 milliard dollari import

hissasiga to'g'ri kelgan. Natijada, Xitoyning O'zbekiston tashqi savdosidagi ulushi 18 foizdan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich Rossiya bilan savdo hajmidan qariyb 1 milliard dollarga yuqori bo'lgan.

O'zbekiston Xitoy bozoriga asosan energetika resurslari va neft mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, turli xizmatlar hamda boshqa sanoat tovarlarini yetkazib bermoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti esa nisbatan kichik ulushni tashkil etib, meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport yo'nalishlari Qirg'iziston, Qozog'iston va Rossiya hisoblanadi. Xitoy mazkur mahsulotlar bo'yicha O'zbekiston eksportida pastroq o'rinlarni egallaydi.

Karantin cheklovlari ta'sirida O'zbekistondan Xitoyga gaz yetkazib berish hajmi sezilarli darajada kamaydi. Agar mazkur holat qisqa muddat bilan cheklansa, uning oqibatlari jiddiy bo'lmasligi mumkin, biroq cheklovlar uzoq davom etgan taqdirda, energetika eksportiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Shu bilan birga, O'zbekiston importining katta qismi Xitoyga to'g'ri kelib, bunda mashina va uskunalar yetakchi o'rinni egallaydi. Kimyo sanoati mahsulotlari va ulardan tayyorlangan tovarlar ham import tarkibida muhim ulushga ega.

Investitsiya sohasida ham Xitoyning faolligi yuqori bo'lib, 2019 yilda O'zbekistonda tashkil etilgan yangi xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar orasida Xitoy yetakchi o'rinni egalladi. So'nggi yillarda Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni keskin oshib, ularning umumiy miqdori mingdan ortiq ko'rsatkichga yetdi.

Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekistonning eng yirik iqtisodiy sherklaridan biri hisoblanadi. 2020 yilning yakuniy natijalari boyicha ikki hamkor mamlakat o'rtasida tashqi savdo aylanmasi 6432,2 mln. AQSH dollariga teng bo'lib shundan import - 4501,3 mln. AQSH dollar, eksport - 1930,9 mln. AQSH dollariga teng.

Quyidagi jadval 11.2.4.da O'zbekiston-Xitoy mamlakatlarining tashqi savdo aylanmasini dinamikasini yaqqol ko'rishimiz mumkin:

Mana shu jadval 11.2.4. ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, pandemiya oqibatida 2020 yilda iqtisodiy ko'rstkichlar biroz pasaygan. Ammo avvalgi yillarda sezilarli natijada o'sib borgan.

2020 yilda yuzaga kelgan salbiy tashqi va ichki omillar ta'siri ostida davlat byudjeti hamda davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining shakllanishida jiddiy xatarlar vujudga kelishi kutilmoqda. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i, import aktsizlari, shuningdek, Xitoydan olib kirilayotgan uskunalar, butlovchi qismlar va tayyor iste'mol mahsulotlariga nisbatan bojxona to'lovlari hajmining qisqarishi byudjet tushumlarining kamayishiga olib keldi.

jadval 11.2.4.

O'zbekiston-Xitoy o'rtasida tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2024
Tashqi savdo aylanmasi	4 754,2	6 433,5	7 620,9	6 432,2	1378,1
Eksport	2 025,5	2 875,4	2 519,0	1 930,9	2130
Import	2 728,7	3 558,1	5 101,9	4 501,3	1165,1
Saldo	-703,2	-682,7	-2 582,9	-2 570,4	-965,1

Manba: : Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, Внешнеторговый оборот Республики Узбекистан (за январь-сентябрь 2025 года*),

Xitoydan xom ashyo va butlovchi qismlar yetkazib berilishiga bog'liq bo'lgan korxonalarda ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishi hamda ayrim yirik mahalliy kompaniyalar faoliyatining to'xtab qolishi byudjet tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan, yirik soliq to'lovchilar tomonidan Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga soliqlar bo'yicha yangilangan prognozlarni taqdim etish, shuningdek, ushbu majburiyatlarni bajarish uchun davlat tomonidan qanday ko'mak zarurligini aniq ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan birga, qisqa muddatda ichki va tashqi bozorlarda yuzaga kelgan bo'sh segmentlarni aniqlash hamda ularni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan egallanishini ta'minlash zarur. Vakolatli davlat organlari esa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat muhitini yaratish va ularni zarur institutsional hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Bundan tashqari, 2020–2025 yillarga mo'ljallangan davlat ulushi mavjud korxonalarni xususiylashtirish rejalari jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan murakkab vaziyatni inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqilishi zarur. Chunki ushbu sharoitda

aholining milliy xavfsizlik, farovonlik darajasi, sog‘liqni saqlash sifati, ta’lim va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy manfaatlardan mahrum bo‘lib qolmasligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Taklif etilayotgan yangi iqtisodiy model ichki iste’molni kengaytirish, innovatsion faoliyatni faollashtirish hamda xizmatlar sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu murakkab vazifalarni amalga oshirish Xitoy hukumatidan iqtisodiyotda kompleks islohotlarni chuqurlashtirish va makroiqtisodiy muvozanatni mustahkamlashni talab etadi. Pekinning mazkur masalalarni iqtisodiy o‘shir sur‘atlarini keskin pasaytirmasdan va moliyaviy beqarorlikka yo‘l qo‘ymasdan hal etish qobiliyati nafaqat mamlakat, balki jahon iqtisodiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Xitoy tashqi savdosining hozirgi rivojlanish holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ayrim istisno yillarni hisobga olmaganda, ushbu sohada barqaror va dinamik o‘shir tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Bu hudud Xitoy uchun muhim xomashyo bazasi, energiya resurslari manbai va Yevropa yo‘nalishidagi asosiy tranzit hudud hisoblanadi. Neft, gaz va uran kabi resurslarga boy Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik Xitoyning energetik xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, transport va logistika infratuzilmasining rivojlanishi Xitoy mahsulotlarining Yevrosiyo bozorlariga tez va samarali yetkazib berilishini ta’minlaydi.

“Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi doirasida Xitoy Markaziy Osiyoda temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari, logistika markazlari va sanoat zonalarini barpo etishga faol investitsiya kiritmoqda. Ushbu loyihalar nafaqat savdo hajmini oshiradi, balki mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi. Xitoy uchun Markaziy Osiyo nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va xavfsizlik nuqtai nazaridan ham muhim bo‘lib, barqaror va rivojlangan mintaqa Xitoyning uzoq muddatli global strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengayib, ko‘p tarmoqli va strategik xarakter kasb etmoqda. Xitoy O‘zbekistonning yirik savdo hamkorlaridan biri bo‘lib, ikki tomonlama savdo hajmi

barqaror o'sib bormoqda. Hamkorlikning asosiy yo'nalishlariga energetika, konchilik, mashinasozlik, kimyo sanoati, qurilish va transport infratuzilmasi kiradi. Xitoy kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar O'zbekiston sanoatini modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynamoqda.

Kelgusida Xitoy–O'zbekiston iqtisodiy hamkorligi yuqori texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, logistika va qayta tiklanuvchi energetika sohalarida yanada rivojlanishi kutilmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi qulay geografik joylashuvi uni Xitoy uchun muhim tranzit va logistika markaziga aylantirmoqda. “Bir makon – bir yo'l” tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirib, O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

XXRning intensiv modelga o'tishini rivojlantirish uchun kommunistik partiya va hukumat juda yaxshi ishlayapti. "2010 dasturi" da o'tish protsessining asosiy printsiplari shakllangan: makroiqtisodiy boshqarish, yagona rejalashtirish, me'yoriy bozor boshqaruvi. Boshqarish metodlarining huquqiy va siyosiy usullarini keng ko'lamda qo'llanilishi ko'rib chiqilgan.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar va o'sish sura'tlari eHtiyotlik bilan ko'rsatiladi, chunki o'tish davrida ijtimoiy-siyosiy, turli mojarolar bo'lishi mumkin, qaysiki rejalarni amalga oshirishda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rivojlanish stsenariysi bo'yicha Xitoy 2020 yilda YAIM Hajmi bo'yicha AQShdan o'tishi mumkin. Lekin, Xitoy YaIMning sifat ko'rsatkichlari AQShnikidan sezilarli darajada pastda. Shunga qaramasdan Xitoy rivojlanishi aniq, sifat ko'rsatkichlari esa yaxshilanib boradi.

Xitoyning o'tish davridagi asosiy muammolari quyidagilar bo'lib qolmoqda:

- Mamlakatning aholisining ko'p sonliligi, bu ortiqcha mehnat resurslarini va to'liq ish bilan ta'minlashda ko'p qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;

- Iqtisodiyot strukturasi integratsiyalashmaganligi va kam ixtisoslashganligi energiya, xom ashyo materiallar, toza suv tanqisligini yuzaga keltiradi;

Hududiy rivojlanishning bir xilda bo'lmaganligi, mamlakat ichki viloyatlari dengiz bo'yi hududlariday rivojlanmagan XXRsi hukumati ommaviy axborot vositalarini faoliyatini qattiq nazoart qiladi. Xitoy internetni ham rivojlantirmoqda. Maxsus xizmatlar fuqarolar ongiga ta'sir qiladigan materiallarni Internet saytiga kirishni man qilib qo'ygan.

XXR iqtisodiyotining zamonaviy strukturasi agrar-industrial milliy xo'jalik hisoblanadi. Xitoy iqtisodiyotida eksport bilan bog'liq tarmoqlar haqida gapiramiz, nimaga deganda ular milliy xo'jalikda ko'proq progressiv hisoblanadi va tashqi bozorda raqobatbardoshdir. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, uning tashqi savdoga bog'liqligi kuchaymoqda. Biroq yaqin kelajakda XXRda ichki bozorga bo'lgan talabning oshishi evaziga o'zining sezilarli iqtisodiy salohiyatini amalga oshirishga

qo'shimcha imkoniyat tug'iladi. Xitoy eksport va import o'sish su'ti bo'yicha xalqaro savdoda ilg'orlardan biri hisoblanadi.

Bu mahsulotlar XXRning yuqori fan texnik taraqqiyotga erishgan dengizbo'yi Hududlarida ishlab chiqarilayapti, u yerlarda ko'p sonli chet el TMKning filiallari mavjud. Xitoyning shimoliy va ichki rayonlarida joylashgan, hunarmandchilik asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati past darajada qolib ketmoqda. Bu mahsulotlar dunyoning mashhur firmalari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarning soxtasi hisoblanadi, aholisining daromadlari past darajada bo'lgan mamlakatlarda bu mahsulotlarga talab kattadir.

Hozirda Xitoy Xalq Respublikasi rivojlanayotgan mamlakatlar qatorining yetakchi o'rinlarida bo'lib, yaqin 10-yillik davr mobaynida, nafaqat rivojlangan davlatlar ichida, balki kuchli iqtisodiy salohiyati va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari bilan boshqa bir qator rivojlangan mamlakatlardan tubdan farqlanib, "sotsialistik spetsifikali" bozor iqtisodiyotiga o'tishning "Xitoy modeli" deb nomlanadi.

Ma'lumki, hozirgi davrda jahon iqtisodiyoti notekis rivojlanmoqda, unda nafaqat, dunyoning yetakchi rivojlangan mamlakatlari (AQSH, YEI, Yaponiya), balki, iqtisodiyoti birmuncha barqaror hisoblangan, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti oldida ham qator murakkab vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Bundan, dunyoning yetakchi eksporteri hisoblangan Xitoy iqtisodiyotida ham murakkab muammolar va islohotlar konfiguratsiyasi shakllanmoqda. Bu esa muammolarning asosini tashkil etib, uning mohiyatiga va mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar mazmuniga qaratilgan hamda u Xitoyni iqtisodiy rivojlanishining yangi bosqichiga o'tishi bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, Xitoy iqtisodiy islohotlarining yangi bosqichiga o'tish jarayoni, mamlakatdagi iqtisodiy o'sish sur'atining sekinlashuvi bilan kechmoqda. Ammo, shunga qaramay, Xitoy hukumati oxirgi o'n yil ichidagi iqtisodiy o'sish sur'atining eng past darajasi 2019 yildagi 6,1% li iqtisodiy o'sish sur'atini sekinlashuvining "minimal" darajasi ekanligini tan olib, o'z milliy iqtisodiyotida "muhim bo'g'in va yo'nalishlarni" izlashga majbur bo'lmoqda. Chunki, aynan, shu muammolarni hal etish bilan, mamlakat iqtisodiyotidagi hozirgi

noxush holatni to'g'ri yo'lga olib chiqish mumkin. Mana shu muammolar orasidan xitoy ekspertlari quyidagilarni ajratib ko'rsatmoqdalar:

- birinchidan, asosiy fondlarga quyilayotgan investitsiyalar hajmi bo'yicha o'sish sur'atining sekinlashuvi yuz bermoqda. Chunki, investitsion talabning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hisoblangan, xitoy an'anaviy siyosatining davom etishi, mamlakatda ortiqcha quvvatni ko'payishi tavakkalchiligiga olib kelishi mumkin;

- ikkinchidan, iqtisodiy o'sish sur'atini sekinlashuvi uzoq muddatli strategik tendentsiyaga aylantirilmasligining lozimligi. Bunda alohida bozorlarda – xitoy tovarlariga tashqi talabning mutlok qisqarishini kuzatamiz. Shunday qilib, “tovarlarni eksport qilish” ga tayanib qolmaslik zarurligini ko'ramiz. Shu o'rinda mamlakatning tovarlar eksportidan “Buyuk ipak yo'li” strategiyasi chegarasida kapitalni eksport qilishga o'tishi biz uchun Xitoyda bozor munosabatlarini rivojlantirishning mantiqiy davomi ekanligini ko'rishimiz mumkin;

- Uchinchidan, mamlakatda aholi daromadlari umumiy jihatdan oshib borayotganiga qaramay, iqtisodiy islohotlar jarayonida shakllangan o'rta sinfning nisbatan yuqori daromadli qatlamida iste'mol faolligining pasayishi kuzatilmoqda. Bu holat, asosan, jamiyatda vujudga kelgan yangi mulkdorlar va iqtisodiy muvaffaqiyatga erishgan guruhlarining tovarlar hamda xizmatlarga nisbatan yangicha ehtiyojlari shakllanib, bozordan sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi talablarni ilgari surayotgani bilan izohlanadi.

- To'rtinchidan, Xitoylik mutaxassislarni eng ko'p tashvishga solayotgan masalalardan biri milliy iqtisodiyotning innovatsion asosda qayta tuzilishi jarayonida yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan keng ko'lamli ishsizlik xavfi bilan bog'liqdir. Chunki, bugungi kunda, aynan, shu holat intensiv tarzda yuz bermoqda, mamlakatning an'anaviy magazin va univermaglarida ham ish joylariga bo'lgan talab qisqarib bermoqda. Bunda uncha mehnattalab bo'lmagan “yangi iqtisodiyot” ning tarmoqlarida yaratilayotgan ish o'rinlarini soni, ularda qisqarib borayotgan ish joylaridan ancha kamroqdir;

-beshinchidan, mamlakatdagi “zombi kompaniya” laridagi muammolarning mavjudligi, ya'ni “de-yure kompaniya” lari mavjud bo'lgani bilan, lekin, ularning amalda faoliyat ko'rsatmasligi;

-oltinchidan, ko'pchilik, xitoy hukumatiga yaqin ekspertlar o'zlarining “alarmistik kayfiyatlari”ni bildirmoqdalar va Xitoy YaIM hajmini va uning o'sish sur'atini pasayishi, o'zining “qizil xavfli chegara” siga yaqinlashmoqda ekanligini aytmoqdalar.

Jahon banki mezonariga ko'ra, Xitoy xozirgi kunda “o'rtacha-yuqori darajali daromad”ga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Bu esa, ovqatlanish, kiyim boshga bo'lgan ehtiyojni qondirish va oilaviy byudjetda xizmat ko'rsatish sohasidagi harajatlar ulushining ko'payib borayotganligini anglatadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston uchun xatarni pasaytirish va imkoniyatni oshirish bo'yicha tavsiyalar Xitoydagi inqirozli vaziyat yaqin istiqbolda dunyo iqtisodiyoti rivojiga, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlariga, O'zbekistonga ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu mahalliy korxonalarining epidemiya tarqalgan Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan xo'jalik aloqalari uzilishi va ishlab chiqarish to'xtab qolishi bilan bog'liq. Shu tufayli, Markaziy Osiyo davlatlari global rivojlanishning muqobil variantlarini izlash va hudud ichidagi imkoniyatlarga ko'proq e'tibor qaratib, Xitoyga bir tomonlama bog'liqlikni pasaytirish, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish yo'llarini izlash bilan shug'ullansa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Glossariy

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Iqtisodiy o'sish	Экономический рост	economic growth	Iqtisodiy o'sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.
Import	Импорт	Import	Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.
Inventarizatsiya	Инвентаризация	Inventory	Inventarizatsiya– korxonalar, firmalar, tashkilotlarda naqd mulk va tovarlarni ro'yxatdan o'tkazish; natura holidagi boyliklarning mavjudligi yoki holatini, mablag'larni muntazam tekshirib turish, shuningdek, ularning moddiy boyliklarni hisobga olish qaydnomalariga muvofiqligini aniqlash maqsadlarida davriy qayta hisobga olish.
Investitsion siyosat	Инвестиционная политика	Investmentpolicy	Investitsion siyosat – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo'llarini tiklashni nazarda tutadi.
Investision hamkorlik	Инвестиционное сотрудничество	Investment collaboration	Investision hamkorlik - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni rasional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.
Investisiya muhiti	Инвестиционный климат	Investment climate	Investisiya muhiti – investisiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.
Investitsiya faoliyati	Инвестиционная деятельность	Investment activity	Investitsiya faoliyati- investisiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investisiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.
Innovatsion texnologiyalar	Инновационные	Innovationtech nique	Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui

	технологии		bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.
Innovatsiya jarayoni	Инновационный процесс	Innovation process	Innovatsiya jarayoni - yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud - yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish.
Inflyatsiya	Инфляция	Inflation	Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o'sishi.
Inflyatsiya darajasi	Уровень инфляции	Rate Of Inflation	Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) kamida 300 ta tovar va xizmatlardan tashkil topgan iste'mol savati bo'yicha narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.
Infratuzilma	Инфраструктура	infrastructure	Infratuzilma – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo'llar, aloqa, transport, maorif, sog'liqni saqlash.
Iste'mol	Потребление	Consumption	Iste'mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.
Ishlab chiqarish	Производство	Production	Ishlab chiqarish – ma'lum davrda alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati.
Ishsizlik	Unemployment	Безработица	iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o'z kuchini qo'llay olmay «ortiqcha» bo'lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo'lib qolish hodisasi
Bandlik	Employment	Занятость	mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.
Ichki yalpi mahsulot Gross	(GDP) Валовой внутренний продукт (ВВП)	Domestic Product (GDP)	Валовой внутренний продукт (ВВП) Ma'lum davrda mamlakat ichida ishlab chiqarilgan jami tovar va xizmatlar qiymati

Iste'mol narxlari indeksi	Индекс потребительских цен (ИПЦ)	Consumer Price Index (CPI)	Oziq-ovqat va xizmatlar narxlarining o'rtacha darajasini o'lchaydi
Sanoat ishlab chiqarish indeksi Industrial	индекс промышленного производства (ИПП)	Production Index (IPI)	Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi
Pul massasi	Денежная масса	Money Supply	Iqtisodiyotdagi jami pul miqdori (M0, M1, M2)
Aralash iqtisodiyot	Смешанная экономика	Mixed economy	Davlat va xususiy sektor birgalikda faoliyat yuritadigan iqtisodiy tizim.
Raqamli iqtisodiyot	Цифровая экономика	Digital economy	Raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot.
Sanoatlashtirish	Индустриализация	Industrialization	Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish jarayoni.
Xususiy sektor	Частный сектор	Private sector	Nodavlat mulkiga asoslangan sektor.
Urbanizatsiya	Урбанизация	Urbanization	Qishloq aholisi shahar hududlariga ko'chishi va shahar iqtisodiyotining kengayishi.

TESTLAR

1.Xitoyning tashqi savdosi uchun qaysi hududning ahamiyati salmoqli?

- A) Aomen;
- B) Yaponiya;
- *C) Gonkong;
- Д) Tayvan

2.XXR nechta iqtisodiy mintaqalarga bo'linadi?

- *A) 3
- B) 4
- C) 7
- D) 5

3. Xitoy maydoni jihatidan dunyoda nechanchi o'rinda turadi?

- A). 1
- B).2
- *C). 3
- D) 4

5.Xitoy aholisining soni bujicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi?

- A) 3 chi
- B) 2 chi;
- *C) 1chi;
- D) 6 chi.

6.Xitoyning erkin iqtisodiy zonalaridan qaysi biri eng kata hisoblanadi?

- A). Shenchjen
- B) Shantou;
- *C) Xaynan;
- D)Chjuxay.

7. Xitoyda nechta provinsiya mavjud?

- A).25;
- B).20;
- *C.) 23;
- D).18.

8.Xitoyda necha avtonom rayon mavjud?

- A) 4;
- B) 7;
- *C) 5;
- D) 2.

9.Xitoyda qachon iqtisodiy islohotlar boshlandi?

- A) 1956; y.
- B) 1973 y.;
- *C) 1978;
- D) 1980.

10.Xitoyda nechta markazga bo'ysinuvchi shaharlar mavjud?

- A) 7;
- B) 5;
- *C) 4;
- D) 9..

11.Xitoyning alohida ma'muriy rayonlari nechta va qaysilar?

- A) 3 ta Gonkong, Tayvan, Guandun;
- B) 4ta Anxoy, Makao, Tayvan, Shansi;
- *C) 2 ta Gonkong, Makao,
- D) 5 ta .Pekin, Shanxay, Fuszhan, Shensi, Xaylunshyan.

12. Xitoyda Xan millati aholining qancha foizini tashkil etadi?

- A). 10%
- B). 92%
- *C) 97% mlrd.
- D) 75%.

13.Xitoy da yer islohotlari nechanchi yildan boshlagan?

- A) 1979 yillarda;
- *B) 1980 yillarda;
- S) 1950 yillarda;
- D) 1960yillarda.

14.Xitoyda tug'ilish bir yilda qancha foizni tashkil etadi?

- *A) 10% atrofida;
- B) 8%;
- C) 8,5%;
- D) 9,6%.

15. Xitoyda mehnatga layoqatli aholini soni qancha?

- A) 1 mlrd.;
- *B) 902 mln.;
- S) 850 mln.;
- D) 780 mln.

16. Qaysi yillarda Xitoyning iqtisodiy o'sish sur'ati 14 foizni tashkil etgan?

- A) 2003 yilda.;
- B) 2002 yilda.;
- *S) 1994, 2005 yillarda.;

D)2004 yilda.

17. Xitoyni ekin ekish maydonlari hajmi qancha?

A)120mlnga

B)1008mlnga

S)1153mlnga

*D)110mlna

18. Xitoyni xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rni qaysi mahsulotlar orqali aniqlanadi?

A)Ko‘mir, sement, velosiped,

*B).Po‘lat, elektronika, ko‘mir, sement, velosiped, paxta tolasi,texstil,

S) Paxta tolasi, sement

D) Elektronika

19. Xitoyning asosiy eksport hamkorlari?

*A) AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, Rossiya, Janubiy Koreya

B) MDH davlatlari, Pokiston

S) Indoneziya, Chili,

D) Braziliya, Meksika

20. Xitoyning asosiy import hamkorlari?

*A).AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, Rossiya, Janubiy Koreya

B). MDH davlatlari, Pokiston

S). Indoneziya, Chili,

D). Braziliya, Meksika

21. Xitoyning asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari?

*A) paxta tolasi, guruch, go‘sht, tuxum, choy.

B) g‘alla, soya, qand – shakar.

S) dukkakli maxsulotlar, bug‘doy, don.

D) qand-lavlagi, guruch.

22. Xitoyning taxminan necha foiz aholisi qishloqda yashaydi?

A).50 %.

B).70 %.

*S).45 %

D).75 .%.

23. Xitoyda nechta erkin iqtisodiy zonalar mavjud?

*A) 5 ta.

B) 7 ta.

S) 4 ta.

D) 9 ta.

24. XKP markaziy qo‘mitasi 3 Plenium 11 chaqirig‘i nechanchi yilda bo‘lib o‘tdi?

A) 1966 yilda

*B) 1978 yilda

S) 1956 yilda

D) 1982 yilda

25. Xitoyda nechta yirik iqtisodiy rayonlar mavjud va ular qaysilar?

- A).Sharqiy, Janubiy,
- *B).G‘arbiy, Markaziy, Sharqiy
- S).Shimoliy, G‘arbiy
- D). Janubiy, Sharqiy, G‘arbiy

26. Xitoy iqtisodiy rayonlaridan qaysi birining mamlakat YaIM gi salmog‘i katta?

- A) Markaziy
- *B) Sharqiy
- S) Janubiy
- D) G‘arbiy

27. Xitoyda nechanchi yildan boshlab, iqtisodiy islohotlar tizimiga qadam qo‘ydi?

- *A) 1979
- B)1696
- C)1980
- D)1989

28. 1978-yilda Den Syaopin tomonidan ishlab chiqilgan islohotlar jarayonining nazariy tamoyillari nimalardan iborat?

- A) Ishlab chiqarish kuchlar rivojiga halaqit bermaslik
- B) Reja asosida bozorni tashkil etish
- C) Xitoy aholisiga erk va farovonlikni ta‘minlash
- *D) barcha javolar to‘g‘ri

29. 1978-yildagi islohotlarning maqsadi nimalardan iborat edi?

- A) Yerni davlat tasarrufidan chiqarib ularni dehqonlarga bo‘lib berish
- B) Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va yordamchi xo‘jalik mahsulotlari narxlarini tenglashtirish
- C) Mahsulotlarni rejali va markazlashgan tartibda yetkazib berish
- *D) A va B

30. Nechanchi yilda Xitoy va AQSh o‘rtasida birinchi diplomatic aloqalar o‘rnatilgan?

- A) 1 aprel 1978
- *B) 1 oktabr 1979
- C) 1 yanvar 1979
- D) 1 yanvar 1982

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, farmoishlari, qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida” gi qonuni, 1998y
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet ellik investorlar kafolati va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuni, 1998y
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 24.07.2008y PQ-4053

II.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.)

6.Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b)

7.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.)

8.Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan

saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.).

III. Kitoblar va monografiyalar

9.Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. – 3-е издательство, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006.

10 Адвокушин Е.Ф. Теоретические основы экономической реформы в КНР. - Москва, из-во ВШПИ, 2004. - 215 С.

11 Анисимова А.Н. Экономический анализ развития КНР. - М.: Наука. - 2001. - 103 С.

12. Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая.-М.: Магистр, 2009.- 574 С.

13.Гельбрас В.. Тридцатилетие эпохи “реформ и открытости” в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2009. С. 73-83.

14.Гельбрас В. Цена экономических успехов Китая. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2007. С.29.

15. Гельбрас В., Кузнецова В. КНР. //МЭиМО, №8, 2001.

16. Завадский М. Спад на фоне роста. //Эксперт, №32, 2009. С. 34.

17. Колесов В.П. Международная экономика: учебник. – М.: ИНФРА-М, 2004. - 474 С. 2 экз.

18. Китай в 2007-2008 годах: итоги, проблемы, перспективы. 17.03.2008, Ке Биншен. Вступление Китая в ВТО: последствия и перспективы для сельского хозяйства.

19. Ломакин В.К. Мировая экономика: Учебник для ВУЗОВ.- М.: Финансы, ЮНИТИ, 2004,-727 С.

20. Ли Ке Допустимые диспропорции и системная оптимизация региональной экономики Китая.//Проблемы теории и практики управления. 2002, № 1, С. 63-67.

21. Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. М.: ИДВ РАН, 2009. 264 С.

22. Международные экономические отношения: учебник / Н.Н.Ливенцев и др./ под ред. Н.Н.Ливенцева, - 2-е изд. перераб. и доп. – М.: ТК Велби, изд-во Проспект, 2005. – 648 С.

23. Мелянцев В. Экономический рост Китая и Индии: динамика, пропорции и последствия. //МЭиМО, №9, 2007. С. 18-25.

24. Мировая экономика и международный бизнес: учебник / кол. Авторы; под общ. ред. Проф. В.В.Полякова и проф. Р.К.Щенина. -5-е изд. –М.: КНОРУС, 2008. -688 С.

25. Мировая экономика: глобальные тенденции за 100 лет. / Под ред. И.С.Королева. – М.: Юрист, 2003. –604 С.

26. Мировая экономика: учебник / под ред. А.С.Булатова. -2-е изд. Перераб. И доп. –М.: Экономистъ, 2008. -860 С.

27. Мировая экономика: учебник / под ред. Б.М.Смитиенко. –М.: Высшее образование, Юрайт-Издат, 2009. -581 С.

28. Михеев В. Китай: новые компоненты стратегии развития. //МЭиМО, №7, 2004.

29. Наука и техника Китая – Реформа и развитие, Кэ Янь, Межконтинентальное издательство Китая, №2, 2005.с. 22.

30. Титаренко М.Л. «Стратегия Китая по превращению супериндустриальную страну» ,М., 2006 г.

31. Тараканов Г. Детерминанты экономического роста и уровень развития страны // МЭиМО 2007, №9, С.51-58.

IV. Ilmiy maqolalar, elektron resurslar

32. Государственная поддержка высшего образования в Китае [Электронный ресурс]. URL: <https://www.chenggong.moscow/articles/31>.

33. Индия вложит \$ 1,5 в развитие университетов [Электронный ресурс]: сообщение ТАСС от 14. окт. 2017 г. URL: <https://tass.ru/obschestvo/4645940>.

34. Китайская Лига Плюща — "Лига С9" [Электронный ресурс]. URL: <http://www.chenggong.moscow/articles/32>.

35. Кузнецова В. В., Машкина О. А. реформирование системы вступительных экзаменов в вузы КНР: традиции и инновации // Государственное управление: электронный вестник. 2018. № 71. С. 307–328. URL: e-journal.spa.msu.ru/vestnik/item/71_2018kuznetsova_mashkina.htm.

36. Кузнецова В. В., Машкина О. А. Новый шёлковый путь: сотрудничество или соперничество? // Бизнес и банки. 2016. № 3 (1194). С. 6–8.

37. Кокшаров А. Внутреннее развитие через глобальную экспансию. // Эксперт, №46 (540). 11.12.2006

38. Курбанов Д. Социальная модернизация Китая // Экономическое обозрение. – 2008. – № 8.

39. Мировая экономика и международные отношения 2016 том 60 № 6 Китай: новые тренды развития на рубеже 2015–2016 гг.с. 212

40. Мозаис П. Китай в период мирового кризиса: бенефициар, жертва или виновник? // Вопросы экономики, №9, 2010. с. 96

41. Ни Сяолин. Расширять внутреннее потребление! // Китай, №9 (47), 2009. С.32

42. Раковский С.Н. Китай в современном мире. // География №18, 2007. <http://geo.1september.ru/article.php?IDк200701906>

43. Сяо Цзиньюй, Машкина О. А. Транснационализация процесса обучения русскому языку в китайских вузах (на примере Гуандунского университета иностранных языков и внешней торговли, КНР) // Вестник Московского государственного университета. Сер. 20: Педагогическое образование. 2019. № 1. С. 56–70

44. Цели устойчивого развития в области образования [Электронный ресурс]. URL: <https://ru.unesco.org/node/250614>.

45. Китай задает правила игры в мировой экономике // Вести — Экономика. 2017. 30 августа. URL: <http://www.vestifinance.ru/articles/90271> (дата обращения: 01.09.2017).

46. Лэй Ф., Цзинтин Ф. Источник движущих сил при росте ВВП 6,9 % // Теория Китая. 2017. 17 августа. URL: http://ru.theorychina.org/xsxy_2477/201708/t2017_0817_356898.shtml (дата обращения: 01.09.2017).

47. Полный текст Доклада о работе правительства, зачитанного премьером Госсовета КНР Ли Кэцяном на 5-й сессии Всекитайского собрания народных представителей ВСНП 12-го созыва // Китайский новостной канал. 2017. 17 марта. URL: <http://russian.cctv.com/2017/03/17/ARTISbjDflMg0p8PcyeNSff170317.shtml> (дата обращения: 01.09.2017).

48. Annual Data // National Bureau of Statistics of China. National Data. URL: <http://data.stats.gov.cn/english/easyquery.htm?cn=C01> (дата обращения: 01.09.2017).

49. CEIC Data (Euromoney Institutional Investor Company) // URL: <https://www.ceicdata.com/en/indicator/china/data> (дата обращения: 01.09.2017).

50. Chart: Where is Global Growth Happening? // Visual capitalist. 2017. June 2. URL: <http://www.visualcapitalist.com/chart-global-growth-happening/> (дата обращения: 01.09.2017).

51. China Codifies Crackdown on 'Irrational' Outbound Investment // Bloomberg. 2017. August 18. URL: <https://www.bloomberg.com/news/articles/2017-08-18/china-further-limits-overseas-investment-in-push-to-reduce-risk> (дата обращения: 28.08.2017).

52. China Contribution to GDP Growth: ytd: Gross Capital Formation // CEIC Data (Euromoney Institutional Investor Company). URL: <https://www.ceicdata.com/en/indicator/china/data/contribution-to-gdp-growth-ytd-gross-capital-formation> (дата обращения: 01.09.2017).

53. China Decides Debt Can Be Dangerous // Bloomberg. 2016. May 12. URL: <https://www.bloomberg.com/news/articles/2016-05-12/china-decides-debt-can-be-dangerous> (дата обращения: 01.09.2017).

54. China Foreign Reserves Rise a Seventh Month Amid Yuan Strength // Bloomberg. 2017. September 7. URL: <https://www.bloomberg.com/news/articles/2017-09-07/chinaforeign-reserves-rise-a-seventh-month-amid-yuan-strength> (дата обращения: 07.09.2017).

55. China in strong position to ward off financial risk // China Daily. 2017. May 3. URL: http://www.chinadaily.com.cn/business/2017-05/03/content_29188633.htm (дата обращения: 01.09.2017).

56. China outstanding foreign debt falls to \$1.42 trillion at end-2016 // Reuters. 2017. March 31. URL: <http://www.reuters.com/article/us-china-economy-foreign-debt/chinaoutstanding-foreign-debt-falls-to-1-42-trillion-at-end-2016-idUSKBN17212G?il=0> (дата обращения: 07.09.2017).

57. China Sets Yuan Midpoint Against Dollar at One-Year High // Caixin Global. 2017. August 30. URL: <http://www.caixinglobal.com/2017-08-30/101138066.html> (дата обращения: 07.09.2017).

58. China shadow banking is slowing amid more coordinated government measures, says Moody's // CNBC. 2017. July 4. URL: <http://www.cnbc.com/2017/07/04/china-shadow-banking-is-slowing-amid-more-coordinated-government-measures-says-moodys.html> (дата обращения: 01.09.2017).

59. China to promote foreign investment growth // The State Council of the People's Republic of China. 2017. August 17. URL: http://english.gov.cn/policies/latest_releases/2017/08/17/content_281475795611082.htm (дата обращения: 01.09.2017).

60. China to strengthen supervision of overseas investment: Xinhua // Reuters. 2017. June 26. URL: <http://www.reuters.com/article/us-china-economy-reform-idUSKBN19H0L5> (дата обращения: 01.09.2017).

61. China's Economic Outlook in Six Charts // International Monetary Fund. IMF Country focus. 2017. August 15. URL: <http://www.imf.org/en/News/Articles/2017/08/09/NA081517-China-Economic-Outlook-in-Six-Charts> (дата обращения: 07.09.2017).

62. China's FDI inflow rises 9.1 % in August // China Daily. 2017. September 14. URL: http://www.chinadaily.com.cn/business/2017-09/14/content_31990101.htm (дата обращения: 19.09.2017).

63. China's GDP likely to grow 6.8 pct in Q3: think tank // The Xinhua News Agency. 2017. June 24. URL: http://news.xinhuanet.com/english/2017-07/24/c_136468373.htm (дата обращения: 01.09.2017).

64. China's Public-Private Projects Pose State Debt Risks // Bloomberg. 2017. February 22. URL: <https://www.bloomberg.com/news/articles/2017-02-22/china-ppp-stimulus-risks-tipping-balance-toward-more-state-debt> (дата обращения: 07.09.2017).

65. China's role in the next phase of globalization By Jonathan Woetzel, Diaan-Yi Lin, Jeongmin Seong, Anu Madgavkar and Susan Lund // McKinsey Global Institute. 2017. April. URL: <http://www.mckinsey.com/global-themes/china/chinas-role-in-the-next-phaseof-globalization> (дата обращения: 01.09.2017).

66. Citigroup expects China's GDP up 6.8% in 2017 // China Daily. 2017. July 28. URL: http://www.chinadaily.com.cn/business/2017-07/28/content_30283755.htm (дата обращения: 01.09.2017).

67. Contribution Share and Contribution of the Three Components of GDP to the Growth of GDP // National Bureau of Statistics of China. National Data. URL: <http://data.stats.gov.cn/english/easyquery.htm?cn=C01> (дата обращения: 01.09.2017).

68. Credit to the non-financial sector // Bank for International Settlements. BIS Statistical Bulletin. 2017. June 6. URL: http://www.bis.org/statistics/tables_f.pdf (дата обращения: 01.09.2017).

69. Economic and Social Survey of Asia and the Pacific 2017: Governance and Fiscal Management // United Nations. Economic and Social Commission for Asia and Pacific. 2017. May 1. C. 6. URL: <http://www.unescap.org/sites/default/files/publications/Survey%202017-Final.pdf> (дата обращения: 01.

70. China's Economic Outlook in Six Charts // International Monetary Fund. IMF Country focus. 2017. August 15. URL: <http://www.imf.org/en/News/Articles/2017/08/09/NA081517-China-Economic-Outlook-in-Six-Charts> (датаобращения: 07.09.2017)

Y.Ingliz tilida

71. Altbach, P. G. The coming 'China crisis' in global higher education. 06.04.2019. URL: <https://www.universityworldnews.com/post.php?story=20190403104242366>.

72. Building World-Class Universities: Different Approaches to a Shared Goal /Ed. by Wang Qi, Cheng Ying, Liu Nian Cai. — Rotterdam, Boston, Taipei, 2016. P. 42. URL: <https://www.sensepublishers.com/media/1556-building-world-class-universities.pdf>

73. China Statistical Yearbook 2018. URL: <http://www.stats.gov.cn/tjsj/ndsj/2018/indexeh.htm>.

74. Country Report: The People's Republic of China. British Council, 2017. P. 7. URL: https://www.qaa.ac.uk/docs/qaa/international/country-report-china-2017.pdf?sfvrsn=12c9f781_10

75. Emerging Economics University Rankings 2019. URL: https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2019/emerging-economies-university-rankings#!/page/0/length/25/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/stats.

76. Gao Charlotte. A Closer Look at China's World-Class Universities Project. URL: <https://thediplomat.com/2017/09/a-closer-look-at-chinas-world-class-universities-project/>.

77. Grove, J. China targets 'world-class' status for 42 universities. 2017. URL: <https://www.timeshighereducation.com/news/china-targets-world-class-status-42-universities>.

78. Grove, J. China targets 'world-class' status for 42 universities. 2017. URL: <https://www.timeshighereducation.com/news/china-targets-world-class-status-42-universities>.

79.Kim, D., Song, Q., Liu, J., Liu, Q. & Brimm, A. Building world class universities in China: Exploring faculty's perceptions, interpretations of and struggles with global forces in higher education // *Compare: A Journal of Comparative and International Education*, 2018. Vol. 48. No. 1. P. 92–109.

80.MOE releases at-a-glance statistical data on 2018 spending in education. Ministry of Education. 2019, May 3. URL: http://en.moe.gov.cn/documents/reports/201905/t20190505_380552.html.

81.Musgrave, P. Universities Aren't Ready for Trade War Casualties. 2019, May 19. URL: <https://foreignpolicy.com/2019/05/19/universities-arent-ready-for-trade-war-casualties-china-trump-us/>.

82.Notice of the State Council on issuing the overall plan for coordinately advancing the construction of world first-class universities and first-class disciplines. The State Council of the People's Republic of China, 2015, October. URL:http://www.gov.cn/zhengce/content/2015-11/05/content_10269.htm.

83.Number of Higher Education Institutions. Ministry of Education of the People's Republic of China, 2019. URL: http://www.moe.gov.cn/s78/A03/moe560/jytjsj_2017/qg/201808/t20180808_344686.html.

84.Overview of educational achievements in China in 2017. Ministry of Education,12.11.2018. URL: http://en.moe.gov.cn/documents/reports/201907/t20190708_389354.html.

85.Oxfords of the East. URL: <https://www.indiatoday.in/magazine/neighbours/story/20170417-china-world-class-universities-ivy-league-east-communist-party-of-china986140-2017-04-11> .

86.Peters, A. M., Besley, T. China's double first-class university strategy: 双一流 // *Educational Philosophy and Theory*, 2018. Vol. 50. No. 12. P. 1076. URL: <https://doi.org/10.1080/131857.2018.1438822>.

87.President Xi Jinping's speech at the Teacher and Student Symposium of Peking University. The State Council of the People's Republic of China. Beijing.

2014,

May

5th.

URL: http://www.gov.cn/xinwen/2014-05/05/content_2671258.htm.

88.Sharma, Y. One Belt One Road towards a China-led HE area? 2018, March23.URL: <https://www.universityworldnews.com/post.php?story=201832304529515>.

89.Shattock, M. The 'world class' university and international ranking systems: What are the policy implications for governments and institutions? // Policy Reviews in Higher Education, 2017. Vol. 1. No. 1. P. 4–21.
URL: <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/23322969.2016.1236669>.

90.Statistical report on international students in China for 2018. 2019, April 18.URL:http://en.moe.gov.cn/documents/reports/201904/t20190418_378692.html

91.The 13th Five-year Plan for Economic and Social Development of the People's Republic of China 2016–2020. Beijing, 2016. P. 161–166.
URL: en.ndrc.gov.cn/policyrelease_8233/201612/P020191101482242850325.pdf.

92.World University Rankings
2019URL:https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2019/worldranking#!/page/1/length/25/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/stats.

93.Zong Xiaohua, Zhang Wei. Establishing world-class universities in China: deploying a quasi-experimental design to evaluate the net effects of Project 985 // Studies in Higher Education, 2019. Vol. 44. No. 3. P. 417–431.
URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/3075079.2017.1368475?src=recsys>.

YI.Xitoy tilidagi elektrpn resurslar

94.2017年全国教育事业发展统计公报. Национальный статистический отчёт по развитию образования в 2017 г.: бюллетень национальной статистики развития образования за 2017 г. URL: <http://ghc.hezeu.edu.cn/info/1998/1298.htm>.

95.中国教育黄皮书 2018. Yellow Book of Education in China 2018. 武汉:湖北教育出版社. Yellow Book of Education in China 2018, p. 358.

96.国务院关于印发统筹推进世界一流大学和一流学科建设总体方案的通知. Уведомление Государственного совета КНР об общем проекте координации строительства университетов и дисциплин первого класса. URL: http://www.gov.cn/zhengce/content/2015-11/05/content_10269.htm.

97.广州国际校区要为国家培养人才。专访中国工程院院士、华南理工大学校长王迎军—南风窗. Международный университетский кампус в Гуанчжоу подготавливает талантливые кадры для страны: специальное интервью с ректором Южно-Китайского политехнического университета, академика Китайской академии инженерных наук Ван Инцзюнь // Наньфэн чуан. 2017. № 22 (604). С. 83–84.

98.教育部. 财政部 国家发展改革委 关于印发《统筹推进世界一流大学和一流学科建设实施办法（暂行）》的通知. Министерство образования КНР, Министерство финансов КНР, Всекитайская комиссия по развитию и образованию опубликовали положение "О мерах по координации создания университетов мирового уровня и дисциплин передового уровня". Пекин, 2017. URL: http://www.moe.gov.cn/srcsite/A22/moe_843/201701/

99.熊建辉 陈慧荣. 合作办学走出"中国路"| 同世界—流资源开展高水平合作办学—改革开放40年中外合作办学之路. Сюн Цзяньхуэй, Чэнь Хуэйжун. Совместное образование уходит с "китайского пути". Совместная организация обучения на высоком уровне с привлечением лучших мировых ресурсов — это 40-летний путь реформ и открытости в сфере образовательного сотрудничества. URL: http://www.sohu.com/a/285046880_699506.

100.胡海岩. 三把"尺子" 丈量"一流" — 中国高等教育. Ху Хайянь. Три линейки измерения соответствия мировому уровню // Чжунго гаодэн цзяоюй. 2017. № 03–04. С. 15–17.

101.韦星. 既要潜心治学，也要关注社会。 - 专访华南师范大学校长刘鸣南风窗. Вэй Син. Нужно не только увлечённо овладевать наукой, но и уделять пристальное внимание обществу: специальное интервью с ректором Южно-Китайского педагогического университета Лю Мином // Наньфэн чуан. 2017. № 9 (591). С. 74–75.

ҮII. Statistik manbalar:

102.China Statistical Yearbook 2008. Beijing: China Statistics Press, 2008.

103.China Statistic Yearbook 2009, China Knowledge

104.Чжоу Минвэй. Китай – Пекин: Изд-во литературы на иностранных языках, 2009.

ҮIII. Internet saytlari:

105.<http://www.china.org.cn>

106.<http://www.chinalist.ru/>

107.<http://www.chinalaw.ru/>

108.<http://www.kitairu.ru>

